O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI:

NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYaLAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA’LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Buxoro – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i hamda Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 20-maydagi “Ilmiy-amaliy anjuman o’tkazish to’g’risida” gi 340-U sonli buyrug’i ижросини таъминлаш маqсадида 2024 yil 24 may kuni Buxoro davlat universitetida “ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA’LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI” mavzusida Ilmiy-amaliy anjuman o’tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko’tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg’or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim sifatini oshirish, pedagogik ta’lim sohasida ilg’or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

Ushbu ilmiy to‘plam keng ilmiy jamoatchilik, Pedagogika masalalari bilan qiziquvchilar, pedagoglar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo‘ljallangan

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor, G.T. Boymurodova, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Sh.Sh.Olimov, N.N.Musayeva, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to’plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasi dotsenti B.T.Jo’rayev.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

1.	O.X.Xamidov	–	Universitet rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	T.H.Rasulov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
3.	B.R.Adizov	–	BuxDU huzuridagi PKQT MO mintaqaviy markaz direktori, p.f.d., professor, a’zo;
4	Sh.Sh.Olimov	–	Pedagogika kafedrasi mudiri , p.f.d., professor, a’zo;
5.	M.A.Jumaeva	–	Pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib;
6.	F.N.Nurulloev	-	Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a’zo;

Ilmiy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

1.	T.H.Rasulov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
2.	Sh.Sh.Olimov	–	Pedagogika kafedrasi mudiri, p.f.d.,professor, rais muovini;
3.	O‘.U.Rashidov	–	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo;
4.	F.N.Nurulloev	–	Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a’zo;
5.	A.Sh.Inoyatov	-	Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekani, a’zo
6.	N.N.Musaeva	–	Pedagogika kafedrasi professori, p.f.d., a’zo
7	N.E.Azimova	–	Pedagogika kafedrasi professori, p.f.n., a’zo
8	B.T.Juraev	–	Pedagogika kafedrasi dotsenti, a’zo;
9.	O.R.Ortiqov	-	Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo;
10	M.N. Amonov	-	Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekan muovini, a’zo

ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ОЛИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

О.Х. Хамидов
Бухоро давлат университети ректори

Ўзбекистонда таълим соҳаси мамлакат ижтимоий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, ҳозиргача таълим соҳасида сифат жиҳатидан янги муносабатлар вужудга келган бўлиб, улар мамлакат Конституцияси, амалдаги қонунлар ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ўз ифодасини топган. Мамлакатимизда таълим сифатини тубдан ўзгартириш, замонавий педагогик ва ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланган ҳолда ўқитишнинг илғор методларини жорий етиш орқали шахснинг субъект сифатида намоён бўлишига кенг имкониятлар яратилмоқда. Айни вақтда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо етмоқда.

Глобаллашув сари бораётган ҳозирги дунёда давлатнинг халқаро рақобат жараёни шартларига тез мослашуви унинг муваффақиятли ва барқарор ривожланишининг асосий омили ҳисобланади. Бунда юксак тараққий етган давлатларнинг асосий устунлиги - таълим тизимининг ҳолати билан аниқланадиган, шахсни ривожлантириш имкониятлари мавжудлиги билан боғлиқ. Давлатнинг бугунги ва истиқболдаги барқарор иқтисодий ўсишини таъминловчи омиллар ҳам айнан таълим соҳаси ривожланишига бевосита боғлиқдир**.**

Ахборот жамияти деярли ҳар қандай ахборот манбаларидан доимий равишда эркин фойдаланиш имконияти, қонунлар ва қоидаларга қатъий риоя қилган ҳолда бир вақтнинг ўзида олинган маълумотларни алмашиш жараёни билан тавсифланади. Ҳозирги вақтда ахборот тизимларининг интеграциялашуви ва уларнинг инсон ҳаётининг барча жабҳаларида оммалашишини кузатишимиз мумкин. Замонавий таълим инсонни ахборот ресурсларидан фойдаланишга ўргатиш, тегишли компетенсияларни ва янги ахборот маконида яшаш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган.

Ахборот технологиялари педагогик жараёнларнинг муҳим таркибий қисмига айланиб, таълим ва умуман фан соҳаси инфратузилмасини ривожлантиришга хизмат қилмоқда. Бугунги кунда таълимни ахборотлаштириш унинг ривожланишининг асосий йўналиши, таълимни еса инсон тараққиётининг енг муҳим жиҳати сифатида белгилаш мумкин. Замонавий таълим моделларидан бири бу медиа-ўрганиш деб аталадиган, онлайн ресурслардан фойдаланган ҳолда шахсий ривожланиш жараёнидир.

Инсонни рақамли муҳитга босқичма-босқич мослаштириш, шу орқали замон талабларига жавоб берадиган таълим тизимини яратиш, шахснинг етник, миллий, халқаро ва сивилизация миқёсида муваффақиятли ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш орқали салбий таъсирларни камайтириш муҳим аҳамиятга ега. Инсон ўз-ўзини такомиллаштириш ва ўз-ўзини тарбиялаш учун ахборот жамиятининг янги функцияларидан фойдаланиш имкониятига ега бўлиши керак.

Ахборот жамиятида олий таълим педагогикасини ривожлантириш муаммоларини таҳлил қилиш, хорижий тажрибани ўрганиш, рақамли педагогика соҳасидаги замонавий ишланмаларнинг самарадорлиги ва мақсадга мувофиқлигини аниқлаш муҳим ҳисобланади. Зеро, ҳозирда олий таълим педагогикаси методологиясида жиддий ўзгаришлар рўй бераётгани, масофавий таълим қўлланила бошланганлиги, бугунги кунда биз олий таълимнинг ўзгаришини кўришимиз мумкин. Ушбу турдаги ўзгаришлар шароитида илмий-техникавий ва ижтимоий тараққиёт даврида ўқув жараёнларининг мураккаблашиши

туфайли педагогик фаолиятнинг айрим турларининг фарқланишини кўпинча кузатиш мумкин.

Замонавий жамиятнинг ажралмас қисми – ахборот технологиялари, шубҳасиз, олий таълимдаги педагогик жараёнга катта таъсир кўрсатади, педагогик жараёнда мослаштирилган усуллар кўлами ва ранг-баранглигини кенгайтиради, таълим соҳасида янги имкониятлар яратади. Университетлардаги рақамли педагогика ахборот технологиялари ва интернетдан таълим жараёнида кенг фойдаланишга асосланади, шу билан бирга, рақамли трансформация барча таълим жараёнларида имкон қадар мослашувчан ва самарали амалга оширилиши, замонавий технологиялар, рақамли таълим ва ахборот технологияларини жорий етиш зарурлигини тушуниш муҳимдир. Гаджетларга бўлган иштиёқ одамларнинг маданиятининг паст даражасига олиб келади, аммо янги мураккаб технологияларни ишлаб чиқиш ва кейинчалик қўллаш юқори малакали профессионал ишчиларни талаб қилади.

Замонавий жамият аллақачон янги рақамли муҳитда яшамоқда, ҳаёт ҳар сонияда ўзгариб бормоқда. Кўпгина касблар йўқолиб бормоқда, шунинг учун ҳатто касб танлаш босқичида ҳам қийинчиликлар пайдо бўлади. Илм-фан ва технология соҳасидаги кейинги кашфиётлари янги касблар пайдо бўлмоқда. Шубҳасиз, олий таълимда ўқитиладиган кўплаб ўқув фанлари мазмунан ескириб бормоқда, шунинг учун олий таълим мазмунини модернизациялаш ва ўқитиш усулларини фаол равишда ишлаб чиқиш жуда муҳимдир.

Олий таълимда таълимни ривожлантириш стратегияси ахлоқий ва маънавий қадриятларга йўналтирилган, ўз истеъдоди ва кўникмаларини шакллантирадиган муҳитда жойлашган шахсни ривожлантириш педагогикасига асосланиши керак. Модернизациялаш жараёнида анъанавий умуминсоний ва шахсий қадриятларни йўқотмаслик, умуман педагогиканинг самарали ривожланишини таъминлаш муҳим аҳамиятга ега.

Рақамли таълим муҳитида рақамли из (digital footprint) – бу педагогнинг касбий фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланиш жараёнида қолдирадиган маълумотлар тўпламидир. Бу педагогнинг рақамли компетентлик даражасини акс эттиради ва ундан рақамли муҳитда унинг фаолитини баҳолаш учун фойдаланиш имконияти мавжуд. Рақамли изни шакллантириш олий таълим профессор-ўқитувчиларнинг таълим жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш зарурати ва имкониятларини англашдан бошланади. Шунингдек, профессор-ўқитувчилар рақамли таълим ресурларидан фойдаланиш, ижтимоий тармоқлар билан ишлаш, электрон портфолиодан фойдаланиш каби рақамли таълим муҳити учун зарур бўлган кўникмаларни ўзлаштириши лозим.

Ахборот жамиятида педагогика ривожланишининг бир қисми сифатида замонавий шароитда таълимнинг асосий вазифаси талабаларга ўз ривожланиши учун ахборотлаштиришнинг афзалликларидан максимал даражада фойдаланиш имконини берадиган моделларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобланади.

1-ШЎЪБА: СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ЙЎЛИДА РАҚОБАТБАРДОШ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ПИТЧИНГ» В УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

А.С.Гаязов,
зав. кафедрой педагогики УУНиТ, доктор педагогических наук, профессор, член-корреспондент РАО
А.А.Гаязов,
аспирант кафедры педагогики УУНиТ

Аннотация. В статье рассматриваются способы поиска и привлечения инвесторов в научные исследования в области образования через питчинг – специально организованную устную или визуальную презентацию проекта с целью поиска для всех интересующихся и прежде всего представителей производства и бизнеса в процесс внедрения результатов научно-исследовательской деятельности. Рассмотрены сущность процесса, его этапы, способы организации.

Ключевые слова. Развитие педагогического образования, управление образованием, питч, питчинг как презентация результатов научных исследований, этапы и организация питчинга, внедрение результатов исследований.

В условиях, когда многое из ближайшей истории высшего образования пересматривается, в обществе актуализирован режим плодотворного поиска новых и эффективных траекторий развития педагогического образования и педагогической науки. Примечательно то, что такой поиск одинаково востребован как в федеральном сегменте развития педагогической практики и науки, так и в региональном сегменте. Региональный сегмент или сектор педагогической науки формируется и развивается с учетом интересов и потребностей регионов, которые, в силу своей глубокой специфичности и особой «приземленности», не вполне и не всегда адекватно отражаются в общих исследованиях. Характерно один аспект: обозначенные изменения коснулись не только традиционных, базовых фундаментальных наук, но и наук социально-гуманитарного направления, в том числе и педагогики [1].

Активный поиск выдвинул ряд эффективных способов управления педагогической наукой, но при этом одной из сложных проблем остается соединение результатов фундаментальных и прикладных исследований с нуждами практики, и это не могло остаться вне поля зрения эффективно работающих исследователей. В этих условиях практика и поиск выдвинули на передний план интересный способ «питчинг» в управлении развитием педагогической науки в высшей школе, и данный вектор исследований привел к интересным практическим результатам.

Под питчингом понимается специально организованная устная или визуальная презентация проекта для поиска и нахождения инвесторов, готовых финансировать этот проект. Данный метод особо эффективным и универсальным оказался в привлечении представителей производства и бизнеса в процесс внедрения результатов научно-исследовательской деятельности. Как показала широкая практика, в период разрушения имевшихся когда-то и устоявшихся отношений в парах «наука – производство; педагогическая наука – педагогическая практика» именно данный проект оказался более выгодным и отвечающим требованиям нового времени.

В образовательной сфере питчинг должен обеспечивать качественный отбор инноваций, обеспечить сведение их к комплексам готовых решений (пакетов), реализуемых

в виде внедренческих проектов, как в виде новых субъектов, так и в виде модернизации уже существующих. Так питчинг формирует, координирует и организовывает тесное взаимодействие трех основных для стратегического развития образования аспектов – научного, предлагающего ко внедрению свои разработки, инвестиционного, выступающего источником средств для реализации проектов, и предпринимательского, который принимает на себя обязательства по реализации этих проектов. В итоге питчинг становится явлением, обеспечивающим контроль за качеством реализации проектов и разрешение возможных противоречий и конфликтов между сторонами. Что касается роли государства, то государственное участие сводится к роли гаранта незыблемости общей системы отношений, высшего арбитра между участниками и определителя стратегических целей.

Логика соединения в едином ключе указанных выше аспектов развития инноваций в сфере образования и педагогической науки в высшей школе ориентируется на те или иные современные формы, в рамках которого научное сообщество предлагает, инвесторы обеспечивают, а предприниматели (в роли которых довольно часто выступают различные фонды, преимущественно, эндаумент-фонды) реализуют комплекс технологических, организационных, логистических решений на основании жесткого договора. Такой договор обеспечивает: а) запуск и выведение на рабочие режимы новых субъектов деятельности в образовании; б) возврат вложенных средств инвесторов в виде людей образованных; в) отчисления авторам разработанных решений за продуктивные идеи; г) формирование фонда средств, из которого финансируется отработка новых технологий и деятельность предлагаемой организационной формы. Практика показывает, что не все составляющие данного единства реализуются одинаково, но каждая из них одинаково важна; а при отсутствии хотя бы одной составляющей возможна остановка реализации проекта.

Наш опыт указал еще на одну важнейшую особенность исследуемого процесса. В связи с тем, что предполагаемые меры имеют целью решение не только экономических задач, следует предположить оформление участников в виде некоторых общественных организаций, которые представляли бы соответствующие интересы и контролировали деятельность своих участников. В этом смысле вполне возможно использовать уже апробированные и показавшие свою эффективность практики инициативного или партисипаторного бюджетирования. Республика Башкортостан является лидером в масштабах страны в силу применения научного подхода в его организации, и которое нашло свое практическое применение и в области образования в виде исследований финансовой грамотности обучающихся.

В экспериментах с питчингом был сделан немаловажный вывод о том, что в отборе предлагаемых к внедрению и интеграции программных пакетов и результатов такая форма задает весьма жесткие критерии оценки проектов, помещая их в контекст решаемых экспериментальной площадкой задач, отобранного пула экспертов, наработанного комплекса предыдущих решений (при том не всегда важно. Были ли эти решения результативными или наоборот). Главное в другом, – эти действия позволяют сравнительно легко формализовать и алгоритмизировать презентации, не только сводя к возможному минимуму субъективные влияния, но и образуя аргументированный комплекс ориентиров научно-практической деятельности. И, поскольку от предложения и его интеграции в общий комплекс зависит эффективность работы, статус участников, такая форма работы была, есть и остается привлекательной. В организации данной работы можно обратиться к довольно широко распространенным практикам отбора различного вида проектов для венчурного финансирования и стартапов.

Уже доказано практикой, что современную науку двигают PR-технологии, реклама, лоббирование и другие коммуникационные активности. Поэтому важным направлением питчинга в науке являются коммуникационные технологии, направленные, с одной стороны, на решение постоянно присутствующей в педагогической науке проблемы позиционирования, и на качественный анализ объема публикаций, представление полной и

объективной оценки результативности и потенциала научной деятельности и рейтинга, – с дугой.

При организации питчинга учитывается и то, что научная деятельность в сфере педагогики в своем большинстве имеет некоммерческий характер, что значительно размывает функции научного субъекта как коммерческого контрагента. Потенциальный потребитель имеет весьма поверхностные представления о результатах научной деятельности в педагогике и соответственно научно-образовательного учреждения как партнера по бизнесу. Поэтому бренд научно-образовательного учреждения и научного результата неизбежно оказывается продуктом определенной коммуникации, вырабатываемой стейкхолдерами, группой людей или отдельными людьми, которых проект как-то интересует, затрагивает, или тех, кого проект не затрагивает, но они сами могут его «затронуть» или как-то на него повлиять, используя имеющиеся у них механизмы.

Основными стейкхолдерами научно-педагогических учреждений в основном выступают группы и организации, работающие с учреждениями науки, высшего образования в одной или нескольких смежных областях. Поэтому они, в основном, представители органов государственной власти, бизнеса, учреждений образования, науки, культуры, общественные организации, профессиональные союзы, и весьма редко – физические лица. Общественно-профессиональные коммуникации включают, прежде всего направления взаимодействия с важнейшими стейкхолдерами научного учреждения, которое способно внести вклад «капитализации» в развитие научных организаций. Исследователи отмечают и то, что зона активного взаимодействия выстраивается и в контексте миссии научного учреждения, и в контексте ценностей, разделяемых участниками коммуникации. Кстати, поэтому западными исследователями указывается, что совместная общественно полезная деятельность является эффективным способом создавать «вечных друзей бренда», а обсуждение способов совершенствования продукции превращает критиков в сторонников» [3, с. 239]. Это можно объяснить так: любое событие общественно-профессиональных коммуникаций всегда работает на имидж, если научное учреждение позиционируется как полноправный участник процесса. Тогда научное учреждение получает возможность выстраивать стратегии репутационного менеджмента, не требующего специальных финансовых вложений и действующего с высокой точностью при достаточной его активности в разных сферах.

Когда реализутся принципы общественно-профессиональных коммуникаций в репутационном контексте, все события, проходящие при участии организаций науки, должны ясно и однозначно позиционироваться под брендом научного учреждения. Следует учесть, что сегодня широко распространено явление под названием «ньюсджекинг» (newsjacking) – это перехват инициативы в изложении новости, в результате которого будет обесценено участие в мероприятии других партнеров. Анализ ситуации показывает, что наиболее часто можно встретить ньюсджекинг при взаимодействии с организациями, чей бренд слабее [2, с. 163].

Сегодня сложно представить функционирование высших учебных заведений вне конкурентной борьбы за абитуриента, за гранты, за первоочередное финансирование важных научных направлений. Традиционные форматы, которые реализуются научным учреждением (конференции, форумы, общественные и координационные советы, семинары и др.) необходимо рассматривать как базовый ресурс капитализации его бренда. В то же время, если этот ресурс рассматривать как явление в большой степени конвенционное, или как результат коммуникативной активности, то в позиционировании интересов научного учреждения необходимо учитывать ценности и интересы партнеров.

Как пример скажем следующее. Наличие крупных научных организаций и университетов в Республике Башкортостан, мощного промышленного потенциала требует объединения усилий в данной области, интеграции научных исследований, создания научных коллобораций.

Организация работы по питчингу в области управления развитием педагогической науки в высшей школе показала, что успешность процесса зависит от наличия определенной этапности.

Первый этап традиционный, это этап изучения запросов и потребностей рынка образования. основными задачами научных организаций и профильных кафедр педагогики на данном этапе является поиск и нахождение объектов сотрудничества с целью внедрения научных результатов. Результатом деятельности на первом этапе питчинга становится составление развернутой карты запросов и потребностей потенциальных заказчиков, согласно которой далее начинается активная переговорная деятельность.

В содержание второго этапа питчинга включается непосредственное знакомство и защита предлагаемых научно-образовательными организациями проектов на совещаниях. Опытом установлено, что публичная защита проектов с финансово-экономическим обоснованием содержания внедренческой деятельности, отличий и преимуществ результатов научно-образовательного продукта, конкурентоспособности по сравнению с аналогиями позволяет сблизить позиции и интересы разных сторон, и становится своего рода площадкой для принятия решений.

Третий этап связан с организацией работы с профильным республиканским органом исполнительной власти (министерством). Формат такой работы должен быть предварен составлением подробного плана Приоритетных научных исследований, которые должен быть доведен и защищен перед представителями министерств и других структур с учетом рекомендаций (заказов) со стороны властных структур.

Предварительные итоги нашего исследования по данной проблеме указывают на эффективность способа «питчинг» в управлении развитием педагогической науки в высшей школе. Но данный процесс требует усиления рядом выводов.

С одной стороны, сделаны первые шаги по преодолению институционального и коммуникативного разрыва внутри субъектами образовательной деятельности и научно-образовательными учреждениями. За этим следует резкое наращивание внутринаучных коммуникаций профильных кафедр и их сотрудников, снятие и устранение барьеров между ними. Логично предположить в качестве основы для этого создание информационной и организационной инфраструктуры, обеспечивающей общение научно-педагогических кадров региона – от комплекса обязательных тематических конференций до единой информационной системы региональноо сегмента педагогической науки, где были бы представлены направления научной работы по педагогическим наукам, результаты, публикации и т.д. с возможностью обсуждения, критики и взаимного использования.

С другой стороны, сделаны шаги по наращиванию связей между научными и образовательными центрами, что создает условия как для расширения базы научных учреждений за счет привлечения к исследованиям ресурсов образовательных центров (обучающихся и профессорско-преподавательского состава), так и для интеграции кадров и обучающихся образовательных организаций в научные разработки. Организационной формой для этого может стать сеть научно-образовательных центров и лабораторий.

В итоге произошло расширение возможностей образования проектных групп и временных трудовых коллективов (создание или формирование коллабораций различного типа), складывающихся на основе отмеченных выше изменений, которые будут заниматься новыми научными исследованиями, а также представлением, обеспечением и экспертным сопровождением внедрения их результатов в образовательную практику.

Литература

1. Гаязов А.С. Межкультурные ценности, философия и технологии этнопедагогики. – Уфа: Башк. энцикл., 2019, – 188 с.

2. Преображенская К.В., Хашковский А.В. Научные конвенции как результат коммуникационного процесса: современные факторы позиционирования науки и университета // Вестник ЛГУ им. А.С.Пушкина. – 2015. №4. – С. 159-183.

3. Ульяновский А.В., Преображенская К.В. Бренд вуза в контексте брендов веры, доверия, ценностей // Вестн. Ленингр. гос. ун-та им. А.С.Пушкина. – 2014. – Т. 2. Философия. – № 3. С. 36-41.

PEDAGOGNING KASBIY PROFESSIONALLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

B.R.Adizov,
p.f.d., professor, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori

Dunyo miqyosida ijtimoiy integratsiya, globallashuv va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi barcha turdagi ta’lim muassasalari jumladan, oliy ta’limda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy professionalligini oshirish masalalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada jiddiyroq e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Pedagogning kasbiy professionalizmi uning qobiliyati mezonlari hamda kasbiy fazilatlari (chuqur bilimga egaligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi)ga bog‘liq, ya’ni ta’lim jarayonini rivojlantirish, o‘zgaruvchan sharoitlarda ta’lim muassasasiga moslashuvi, innovatsion faoliyat, nihoyat ta’lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta’sir etuvchi omillardan biridir. Talabalar qobiliyatlarining qay darajada namoyon bo’lishi va imkoniyatlarining qanday ochilishiga talabalar va o‘qituvchi-pedagog o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shakllari, umuman olganda pedagogning kasbiy professionalizmiga bog‘liq.

Har qanday faoliyatda professionalizm (professional – biror kasb bilan doimiy shug‘ullanadigan odam, professionalizm – o‘z kasbini mohirlik bilan bajarish) – standart kasbiy muammolarni yechishni bilishdir.

Pedagogning shaxsining pedagogik qobiliyati va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “professionalizm” tushunchasi “shaxsning kasb mahorati**”** sifatida o‘rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs dinamizmi ya’ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta’sir o‘tkazish va mantiqiy ishontira olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi.

Pedagogning professionallik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog‘liq.

Birinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish, ikkinchidan, pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-madaniy me’yorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi.

Pedagogning pedagogik professionalizmi, binobarin, pedagog faoliyatining samaradorligi, ma’lum ko‘rsatkichlarga, masalan, pedagogning nimaga va qanday qilib o‘rgatishini qanchalik tushunishi, ham bilishi, uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o‘qitish texnologiyasini qay darajada o‘zlashtirib olgani, kasbiy pedagogik mahorati, ta’lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni qanchalik hal eta olish pedagogik qobiliyati bilan belgilanadi.

Pedagogning kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi, o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va tinglovchilar bilan o’zaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to‘rtta o‘zaro bogliq jihatlardir. Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, pedagog professionalizmi-bu shaxs va faoliyat sub’yektining murakkab, ko‘p qirrali integral

xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a)pedagog professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b)pedagog faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (me’yoriy professionalizm). v)pedagog sub’yekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik professionalizmning asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni belgilash mumkin.

Pedagogning kasbiy professionalligini rivojlantirishda o‘z ustida ishlash va o‘zini-o‘zi rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘zini-o‘zi rivojlantirish vazifalari o‘zini-o‘zi tahlil qilish va o‘zini-o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Demak, o‘zini-o‘zi rivojlantirish-insonning o‘zini shaxs sifatida to‘la namoyon etishda yo‘naltirilgan ongli faoliyat. O‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyatning maqsadlarini aniq anglashi va uning mavjudligini, ideallar va shaxsiy yo‘nalganlikni nazarda tutadi.

Aynan insoniyatning go‘zal fazilatlarini o‘zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy professionalligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorga pedagogning kasbiy professionalligi o‘zi ustida ishlash orqali o‘sib borishi mumkin.

O‘z ustida ishlash bu mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi tushuniladi. Pedagogning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda ko‘rinadi: kasbiy BKMni takomillashtirib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy èndoshish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish va hokazo.

Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichi uzviy, tizimli shaklda olib boriladi, jumladan, birinchi bosqichda o‘z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, ikkinchi bosqichda esa, yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qaror qabul qiladi, uchinchi bosqichda qabul qilingan qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlaydi, to‘rtinchi bosqichda xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intiladi va so‘nggi beshinchi bosqichda qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib boradi.

Pedagogning quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o‘z ustida ishlashini ifodalab beradi: aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish; pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish; izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish; ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish; faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish; kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish; salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash va hokazo.

Pedagogning kasbiy-pedagogik professionalikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham muhim bo‘lib, bu pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etiladigan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi sanaladi. Pedagogning kasbiy-pedagogik professionallik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham zarur va buning natijasida u o‘zini o‘zi tahlil qiladi hamda kasbiy professionaligini xolisona baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mohiyatiga ko‘ra o‘zini o‘zi baholash sub’yekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’yektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi, jumladan:o‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish); shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash); o‘zini-o‘zi nazoratqilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi) va b.

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘z-o‘zini rivojlantirish pedagogning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi orqali amalga oshiriladi. Ko‘plab tadqiqotchilar o‘z-o‘zini rivojlantirishning eng

samarali usullaridan biri sifatida maxsus dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etishda deb biladi, bu dasturlar pedagogning individual rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi samarali natijalarni namoyon qiladi. Pedagogning kasbiy-pedagogik professionalligini rivojlantirish maqsadiga yo‘naltirilgan bu kabi individual rivojlanish dasturlari pedagogning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy profesionalizmni takomillashtirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan kasbiy profesionalizmni shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanishi maqsadga muvofiq. Har qanday pedagog o‘zi uchun shaxsiy amaliy xarakterga ega bo‘lgan individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur. Uning individual rivojlanish dasturi individual ravishda o‘zida kasbiy-pedagogik professionalizmni takomillashtirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilsagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Фармони.
2.Ejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyax riskov sovremennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
3.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
4.http://bimm.uz – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

OLIY TA”LIM TIZIMIDA YANGI TA”LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sh.Sh.Olimov,
BuxDU pedagogika kafedrasi mudiri, p.f.d., professor

Uzluksiz ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning rivojlanib borishi, ta`limning yangicha metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, masofadan ta’lim olish platformalarini joriy etish, ta’lim muassasalarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlantirilishi hamda ta’lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish tizimni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda ta`lim tizimida XI asr ko‘nikmalaridan “4 K” modelini qo‘llash amaliyotini ta’lim jarayoniga olib kirish, uning nazariy asoslari va uslubiy vositalarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, talabada kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, kooperativ (hamkorlik) ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ehtiyojga aylandi.

Zamonaviy ta'limda “longlife learning” ya’ni hayot davomida o‘qish yo‘nalishining maydonga kelishi har bir mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi ma'lum. Ta'lim jarayonida zarur bilim va ko‘nikmalar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, faoliyatning muhim turlariga nisbatan tajribalar to‘plami shakllanadi. Bunday ta'lim ma'lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘rilaydi va shakllantiradi.

Oliy ta’lim muassasasida pedagogika yo’nalishidagi fanlar bo’lajak o’qituvchilarda zamonaviy ta`lim muammolari va ularni hal qilish variantlarini loyihalash nuqtai nazarini kengaytiradi, ularda yangi ta’lim texnologiyalari tushunchasi, Oliy ta’lim muassasasida yangi ta’lim texnologiyalarini qo`llash, xorijiy davlatlarning ilg`or pedagogik tajribalari haqidagi bilimlarni egallshga xizmat qiladi.

Ta’lim texnologiyasi o‘rganishni osonlashtirish uchun kompyuter texnikasi, dasturiy ta’minot, zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotidan birgalikda foydalanishdir. **Edtech** tushunchasi ko‘pincha ta’lim texnologiyasini yaratuvchi kompaniyalar sanoatini nazarda tutadi. Amaliy ta’lim tajribasidan tashqari, ta’lim texnologiyasi aloqa, ta’lim, psixologiya, sotsiologiya, tibbiy bilimlar, sun’iy intellekt, informatika kabi turli fanlar asosidagi nazariy bilimlarga asoslanadi. U o‘rganish nazariyasi, kompyuterga asoslangan ta’lim, onlayn ta’lim (longlife learning) va mobil texnologiyalar qo‘llaniladigan **m-learning** va kabi bir qancha sohalarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim kommunikatsiyalari va texnologiyalari assotsiatsiyasi **ta’lim texnologiyasi**ni tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o‘rganishni osonlashtirish hamda samaradorlikni oshirishni o‘rganish amaliyoti deb ta’riflagan. U ta’lim texnologiyasini o‘rganish uchun jarayonlar va resurslarni loyihalash, ishlab chiqish, ulardan foydalanish, boshqarish va baholash nazariyasi hamda amaliyoti sifatida ko‘rsatdi. Shunday qilib, ta’lim texnologiyasi barcha haqiqiy va ishonchli amaliy ta’lim fanlariga, masalan, asbob-uskunalar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan jarayonlar va natijalarga tegishli bo‘lib, ma’lum bir kontekstda nazariy, algoritmik yoki evristik jarayonlarga murojaat qiladi va albatta, bunda jismoniy aralashuvni nazarda tutadi.

Yangi ta’lim texnologiyasi - ta’lim samarasini oshirishda texnologiyani ijobiy tarzda integratsiyalash jarayoni bo‘lib, u yanada xilma-xil o‘quv muhitida ta‘lim oluvchilarning undan foydalanishni, shuningdek, umumiy topshiriqlarini o‘rganish usulini ta’minlaydi.

Ta’lim texnologi — bu ta’lim texnologiyasi sohasida o‘qitilgan shaxs. Ta’lim texnologlari o‘rganishni yaxshilash uchun jarayon va vositalarni tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashga harakat qilinadi. Zamonaviy yangi ta’lim texnologiyalari bugungi kunda zamonaviy jamiyatning muhim qismidir. Yangi ta’lim texnologiyasi: elektron ta’lim texnologiyasi, ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash (AKT), edtech ta’lim texnologiyasi, multimediali ta’lim, kompyuter asosida olinadigan ta’lim (CBI), kompyuter asosida boshqariladigan o‘qitish, internetga asoslangan ta’lim (IBT), moslashuvchan ta’lim, veb trening (WBT), onlayn ta’lim, raqamli hamkorlik ta’limi, taqsimlangan ta’lim, kompyuter vositachiligidagi aloqa, kiber-ta’lim va multimodal ta’lim, virtual ta’lim, shaxsiy ta’lim muhitlari, tarmoqqa ulangan ta’lim, virtual o‘quv muhitlari (VLE) (ular o‘quv platformalari deb ham ataladi), **m-learning** - hamma joyda o‘rganish va raqamli ta’lim kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘plab atamalarning har birining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ta‘lim oluvchilarga osonroq, tezroq, aniqroq yoki arzonroq usullarda o‘rganishga yordam berish zamonaviy ta‘lim sohasining doimiy muammosidir. Yozuv doskalar kamida ming yil davomida ishlatilgan. Ta‘limiy ma‘lumotlar turli mandalar, kitoblar va risolalarda to‘plangan.

Yangi ta‘lim texnologiyalarida kompyuterga asoslangan treninglar darslik, qo‘llanma yoki fanni o‘zlashtirishga asoslangan ko‘rsatmalardan an’anaviy o‘rganish metodologiyasidan tashqari o‘rganishni rag‘batlantiradi. Kompyuterga asoslangan treninglar bosma o‘quv materiallariga yaxshi muqobil bo‘lishi mumkin, chunki o‘rganishni yaxshilash uchun boy media, jumladan, video yoki animatsiyalarni kiritish mumkin. Biroq kompyuterlar orqali o‘rganish ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Odatda, samarali kompyuterga asoslangan treninglar juda katta resurslarni talab qiladi. Bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun dasturiy ta’minot ko‘pincha fan bo‘yicha mutaxassis yoki o‘qituvchi hamda dasturchilar tarkibidan iborta bo‘lganidagina samaraliroq bo‘ladi.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biridir. Yangi ta’lim texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, o‘quv-tarbiya samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan oliy ta’limda tarbiyachi-fasilitatorning mahorati, mashg‘ulotlar jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarni mohirona tadbiq eta olishi, talabalarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning yangi - yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Bu pedagogic ijodiyot deb ham ataladi.

Oliy ta’lim muassasasining zamonaviy pedagogi - o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi bilimlarni hosil qilish va takomillashtirishning kasbiy, maxsus ustasidir. Pedagogik izlanish o‘qitishda doimo ma'lum yo‘nalishdagi subyektga nisbatan aniq qaratilgan bo‘ladi. Oliy ta’lim sohasi mutaxassisining pedagogik izlanishlari natijasida muammolarning namoyon bo‘lish shakllari, kundalik, o‘quv-tarbiyaviy, integratsion mashg‘ulotlar, faoliyat markazlarida muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik ta'sir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda ko‘rinadi.

Yangi ta'lim tizimini rivojlantirish deganda o‘z mazmuniga o‘tmishning qimmatbaho ma'naviy qadriyatlarini kiritish orqali retrospektiv usullari elementlarini qo‘llagan va unutilayozgan metodlatni qayta tiklashdan maqsad o‘tmish oldida egilish emas, balki unga tayanib, rivojlanishning yangi prospektiv pog‘onasiga chiqish demakdir.

Yangi ta’lim texnologiyaning o‘z tarkibi va mazmuni bo‘yicha takomillashuvi, uning oliy ta’limda olib boriladigan o‘quv faoliyati sifatidagi samaradorligining ortishi uzluksiz davom etadi. Bunday dinamik jarayon oliy ta'lim tizimida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan garmonik tarzda kechadi. Shu sababdan yangi ta’lim texnologiyalarining umumiy tavsifi va tarkibiy mazmuni uning ijtimoiy hodisa ekanligida namoyon bo‘lib, ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog‘liq maqsad va vazifalar, motiv va ehtiyojlar, talab va manfaatlar, qiziqish va xohishlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Yangi ta’lim texnologiyalarining manbalari ijtimoiy-ma'naviy o‘zgarishlar, yangi pedagogik-psixologik jarayonlar va boshqa yo‘nalishning integrativ va differensial rivojlanishi, dunyo pedagogikasi va milliy (mahalliy) pedagogikaning boy va ilg‘or tajribasi, xalq pedagogikasining tarixiy va zamonaviy shartlaridan kelib chiqadi. Shunday ekan, yangi ta’lim texnologiyalari muttasil ravishda pedagogikaning **asosiy («oltin») qoida**sini bajarishga, ya'ni **ta'lim va tarbiyaning birligi**ni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Bunda izchillik, maqsadlilik, umumiylik, hamkorlik kabi tamoyillar bilan bir qatorda ta’lim texnologiyalarining ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik. pedagogik, psixologik, fiziologik, gigiyenik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy va amaliy asoslari birdek ahamiyatga ega. Pedagog va bolaning maqsadli ta’limiy hamkorligiga daxldor tamoyillarning amal qilishi esa o‘quv jarayonining sifat va samaradorligini ta'minlashning qudratli omili bo‘lib hisoblanadi. Yangi ta’limiy jarayonda pedagogik texnologiyaning barcha tamoyillari o‘zaro aloqadorlikda va bir-birini taqozo etgan holda amal qiladi. Yangi ta’lim texnologiyalarining pedagog tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida bolaga ta'sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni desak bo‘ladi. Maktabgacha ta’limda yangi ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo‘lib hisoblanadi.

Oliy ta’lim jrayoniga yangi ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, yangi tajriba, novator pedagoglar tajribasi, innovatsion ta'lim metodlari, tarbiyalashning yangi usullari kabi tushunchalarni qamrab olishi bilan birgalikda ta'lim jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishning yo‘li, o‘ziga xos instrumenti bo‘lib hisoblanadi. Demak, yangi ta’lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning umumiy va maxsus rivojlanishidagi muammolarni hal etish vazifalarni ham samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishishning yangicha yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

Bu hujjatlarga ko‘ra, maktabgacha ta’limda yangi ta’lim texnologiyalar 3-7 yoshdagi bolalar rivojlanishi uchun mas’ul shaxslar va pedagoglarning o‘zaro hamkorligini yangi formatda, ya’ni "bolaning ovozini eshitish", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o‘quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko‘paytirishga asoslangan holda ta’limiy va rivojlanish faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi lozim. Bunda har bir bola individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlash, kun davomida o‘quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, kun davomida ta’lim olshni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikdagi faoliyatga asoslanishini ta’minlashi lozim.

Oliy ta‘limda yangi ta‘lim texnologiyalarining ahamiyati ushbu tizimning o‘z maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasasi zamonaviy talablar asosida talabaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda talabalar rivojlanishiga qo‘yilagan davlat talablari asosida hamda o‘quv dasturiga muvofiq bolaning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni maqsadli rag‘batlantirishizaruriyatini yuzaga keltirdi. Bunda talabalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish yangi ta‘lim texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bunda Davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko‘rsatishi va ta’lim-tarbiya jarayonini bolaning rivojlanish xususiyatlariga muvofiq tarzda tashkil qilishi zarur hisoblanadi.

Yangi ta‘lim texnologiyalarini amalga oshiruvchi har bir pedagog fasilitator (qulay, yengil va osonlashtiruvchi) sifatida bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘z bilimi, ko‘nikma va resurslaridan foydalanadi. Oliy ta‘limda pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, talabaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatlarini ochishga hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg‘ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Yangi ta‘lim texnologiyalarini amalga oshiruvchi pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilinganligini his qilishi kerak. Shuningdek, talabaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Zarurat bo‘lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissini paydo qilishi lozim. Oliy ta‘lim jarayonida Yangi ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash amaliyotida bolaning o‘yin o‘ynash huquqi alohida tan olinadi. Bunda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari inobatga olinadi. Chunki o‘yin orqali ta’lim olish talabalarning o‘zlashtirishi va rivojlanishining muhim yondashuvlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy ta‘limda o‘yin jarayonlarida yuzaga keladigan holatlar talabani o‘zi va atrofidagi dunyoni o‘rganishga undashda tabiiy vosita sifatida tan olinadi.

Yangi ta‘lim texnologiyalarida bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantirish oliy ta‘limning bosh vazifasi sifatida e‘tirof etiladi. Talabaning tengdoshlari va katta yoshlilar bilan o‘zaro munosabati, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ularda dunyoni bilishga yordam beradi, uning tajriba va imkoniyatlari tizimini takomillashtirib boradi. Yangi ta‘lim texnologiyalarini maktabgacha ta‘lim jarayoniga tatbiq etishning yana bir afzalligi shundaki, ushbu ta‘lim jarayoni boshqa talabalar bilan hamkorlikda ta’lim olish imkoniyatini ham yaratadi va talabalarga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi, eng muhim jihati, ta’lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi.

Ma‘lumki, yangi ta‘limiy faoliyat har xil muhit va jarayonda bo‘lishi mumkin. Bunda talabalar guruhining tashabbusi bilan to‘laligicha erkinlik, pedagogning minimal aralashuvi asosida yoki to‘liq pedagog tomonidan tashkil etilgan hamda uning ko‘rsatmalari yordamida amalga oshiriladi.

Oliy ta‘lim tashkilotlarida Yangi ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashning erkin muhitga asoslanishi ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan holatda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak. Bunda ta’lim va tarbiya jarayoni bilish ehtiyoj va motivatsiyalarini ta'minlashi, rivojlantiruvchi muhit esa bolaning tayanch (ijtimoiy, kommunikativ, shaxsiy, bilish) kompetensiyalarni shakllanishi imkoniyatlariga hissa qo‘shishi kerak. Yangi ta‘lim texnologiyalari uchun qulay sharoit yaratish, ya'ni talabalarni yetarli vaqt, joy, qo‘llab-quvvatlovchi resurslar, jihozlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Mehribonlik, muloqatga kirishuvchan, emotsional turg'unligi, bag'rikengligi, adolatli, vijdonli,samimiy, xalollik, ma'naviyatni anglash, o'z-o'zini nazorat eta olish, imon-e'tiqodli, irodali	Bilimdonlik, ijodkorlik, mahoratli, kompententli intellektual salohiyatli, raqobotbordosh, IAKT egallagan, faol, fan yangiliklaridan xabardor, DTS talablarini to'la bajarishini ta'minlash	Ilmiy izlanish, yangi ishlanmalar yaratish, ilmiy-tadqiqot olib borish, tajriba-sinovlar o'tkazish, ilmiy maqola, ilmiy rahbarlikni olib borish	Yangilikklarni yaratish, topish, bankini yaratish, tatbiq etish, tarqatish, yangiliklar ustida ish olib borish, yangi texnologiya-larni joriy etish, reproduktiv, evristik, kreativ , reflektsiya asosida ish yuritish
Yuksak madaniyatli shaxs, sub'ekt, ijodkor			

1) kasbiga xos bilimi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida maqsad va vazifalarni to'g'ri ko'rsata olishi;
- pedagogik fanlardan uslubiyotni mukammal bilishi;
- talabalarga tarbiyaviy ta'sir etishning samarali yo'llarini bilishi;
- ota-onalar va jamoa bilan hamkorlikda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi;

3) o'z kasbiga xos xislatlari:

- bo'lajak o'qituvchining kuzatuvchanlik xislatlari;
- o'z diqqat-e'tiborini jamlay olishi;

- pedagogik kreativlik (qobiliyat)ning rivojlanganligi;
- o'zi va kasbiga tanqidiy munosabati;
- pedagogik takt va metodika;
- nutq qobiliyatining mavjudligi.

4**) shaxsiy pedagogik uddaburonligi:**

- ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur materiallarni qo'llashi;
- talabalarning ijodiy qobiliyati va faoliyatini boshqarishi;
- dars mashg'ulotlari jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakasini istiqbolli ravishda rejalashtirishi;
- ijodiy topshiriqlarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtir;
- o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni rejalashtira olishi;
- o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi;

5) tashkilotchilik malakalari:

- turli vaziyatlarda jamoani boshqara olishi;
- talabalarni faollashtira olishi;
- amaliy topshiriqlarni bajarishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

6) kommunikativ malakalari:

- talabalarni o'ziga qarata olishi;
- jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;
- Professiogramma o'qituvchilar faoliyatida kreativ yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.
- O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan turli xildagi ijtimoiy talablar, pedagogik individualligi, talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi uning pedagogik faoliyatga qay darajada tayyorligidan dalolat beradi.
- O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo'llaridan – o'quv jarayonini insonpar-varlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etishni innovatsion holat deb qaraladi.
- O'quv jarayonining innovatsion holatlariga:
- hamkorlik;
- talabaga g'amxo'rlik;
- e'zozlash;
- kechirimli bo'lish;
- o'zini – o'zi rivojlantirishga muhit yaratish;
- psixologik sog'lom muhit yaratish;
- ijodiy muhit;
- do'stona munosabatda ish yuritish;
- talaba extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini ishga solish misl bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishi quyidagilardan iborat:

1. Ta'limga ijodiy yondashuv.
2. Ijodiy faollik.
4. Yangicha tafakkur asosida yangicha fikrlash.
5. Muloqat madaniyati.
6. Faollikning reproduktiv, evristik, kreativ darajalari.
7. Texnologik jarayonda yangicha loyiha, kontseptual tizimli yondashuv asosida yangi ixtirolar.
8. Jarayonni yangicha boshqaruv asosida tayyorgarlik, rejalashtirish, amaliyotga joriy etish.

Ishbilarmonlik o'yinlari bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy-ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim-fan-ishlab chiqarishning integratsiyasini kuchaytirish jarayonida interfaol o'yinlardan bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish, talabalarga turli muammoli vaziyatlar imitatsiyasini ko'rish emas, balki ilmiy-ijodiy faoliyat bilan bevosita o'zlari qatnashishlari uchun imkoniyat yaratadi.Ishbilarmonlik o'yinlarining bir necha

turlari mavjud: Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyat ob'ektlarida tashkil qilingan ilmiy-texnik jarayondagi

funktsiyalarning dasturiy-rolli taqsimlanishi asosidagi ishbilarmonlik va evristik o'yinlar.Innovatsion faoliyat evristik uslublarni egallab olish kreativlikning rivojlanishiga katta turtki beradi, ammo har doim ham ijodiy masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga kafolat bermaydi. Kreativlikni rivojlantirish uchun demokratik munosabatli cheklanmagan muhitdan olishlari kerak, o'kituvchi kreativligi rivojlanishi mikromuhit ta'siri ostida, jumladan,iste'dodli talabalarning metodik usullarni qaytarmaganliklari uchun tanqid qiladilar, shuning uchun kreativlik rivojlanishi uchun muhitning ma'lum darajadagi qarshiligi va iste'dodlarni rag'batlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

4. Jumaniyozova N.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari..p.f.n., diss. – T., 2007. – 176 b.

5. Ziyomuhammedov B. Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.– T.: Abu Ali ibn Sino, 2001. – 80 b.

6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.– 102 b.

7. Jumayeva.M.A.Bo`lajak o`qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.

OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARNI TADBIRKORLIKKA YO'NALTIRIB O'QITISHDA KASBIY -PEDAGOGIK MAHORATI

Gasanova Rushana,
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Bu maqola, oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitishda kasbiy-pedagogik mahorati mavzusida yo'l-yo'riqnomalar va tajribalar analizini o'z ichiga oladi. Maqolada, o'qituvchilar o'quvchilarni tadbirkorlikka qaratish, ularning innovatsion g'oyalarini oshirish va ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish uchun qanday usullarni amalga oshirish haqida fikr yuritiladi.

Annotation: This article covers the analysis of guidelines and experiments on the topic of vocational-pedagogical skills of teachers in the higher education system in teaching students towards entrepreneurship. The article reflects on the ways in which teachers implement to focus students on entrepreneurship, enhance their innovative ideas, and encourage their creative activities.

Oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilar o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitishning muhim jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'qituvchilar kasbiy-pedagogik mahoratlarini kuchaytirish orqali o'quvchilarni sifatli tayyorlash, rivojlantirish va o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'quvchilar uchun yaratilgan o'quv-ma'ruzalar orqali ma'lumot olish va tahlil qilish, ishlab chiqish va ijro etish, jamiyat bilan integratsiyalashish, tadbirkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Buning natijasida o'quvchilar istiqbolga tayyorlash va ularni muvofaqqiyatli aholi bo'lib qolishiga yordam beradi. Oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitishda kasbiy-pedagogik mahorati ahamiyatli mavzu. Bu mavzu o'qituvchilarning professional rivojlanishiga va o'quvchilarni o'rganish jarayonini sifatli

olib borishga ko'maklashadi. O'qituvchilar o'quvchilarga ilmiy bilimlarni noto'g'ri tarzda o'rgatmasdan, ularning tadbirkorlik va ish bilishini oshirish orqali ularni mustahkam his qilishiga yordam beradi. Bu esa, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun motivatsionli va samarali qiladi.

Kasbiy-pedagogik mahorat, o'qituvchilarning talabalarini tadbirkor va yaratqichlikka yo'naltirib o'qitishning eng samarali usullarini o'rganish, ularning o'zlarini rivojlantirish va ma'lumotlarni o'rganish jarayonini jiddiy vaqt va energiya bilan samarali boshqarishini talab qiladi. Bu bilimlar o'qituvchilarni ta'lim jarayonini individual o'quvchilar talabalari va o'zlashtirilgan dasturlariga qaratilgan ta'lim jarayonlariga moslashtirishda yordam beradi. Bu esa, o'qituvchilar uchun talabalarning o'zlashtirilishi va faoliyatlarini o'rganishda qo'llaniladigan qulayliklar yaratadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo‘yicha navbatdagi ishlarning natijadorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo‘naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Kasbiy-pedagogik mahoratning bir qismini o'rganib, o'qituvchilarning o'quvchilarni tadbirkor va samarali o'qitishda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun boshlang'ich qadamni bosib o'tganimiz. Keyinroq, bu bilim va ko'nikmalar ustida amaliy ish olib borishga ham tayyor bo'lib, o'qituvchilarning o'zlashtirish va o'rganish jarayonini muvaffaqiyatli boshqarishga yordam berishimiz mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning faoliyatlarini mustahkamlashtirish, ta'limning yaratqichligini oshirish va ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun yaratqich, samarali va ish bilan bog'liq ta'lim-uslublarini mustahkamlashtirish uchun tajribalarini oshirishlari kerak bo'ladi. Bu jarayon davomida, o'qituvchilar o'quvchilarning tadbirkorlik, iste'dodlarini va o'zlashtirilishlarini ko'paytirish uchun turli ilmiy va amaliy vositalar va dasturlar qo'llashadi.

Shu bilan birga, hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda fasilitatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fasilitatsion texnologiyaning mohiyati hamkorlikni vujudga keltirib muayyan muammoni kichik guruhlarda xal etishda fasilator (lider) va kichik guruh talabalarini faolligini oshirishdir. Fasilitatsion texnologiyada bahs, munozara, fikrlar almashinuvi, umumiy ychimga kelish va qaror qabul qilish (fasilitatsiya jarayoni) yuz beradi. Jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashi rivojlanadi. Muammoli vaziyatlarni samarali hal etish maqsadida kichik guruh faoliyatining vitagen, refleksiv ko'rinishi bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur jarayonda o'z hayotiy tajribalari, g'oyalari, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalardan foydalanib aniq qaror qabul qilishga erishadi.

Bolalarni tejamkorlik va tadbirkorlikka o'rgatish murakkab jarayondir. Bunday uquvga, albatta osonlikcha erishilmaydi. CHunki tejamkorlik shunchaki yirtmaslik, buklamaslik, tashlab yubormaslik, sindirmaslik odati emas. Bu avvalo, axloqiy fazilat, ma'naviy madaniyat ko'rsatkichidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda iqtisodiytarbiya berishda quyidagi ma'lumotlarni vitagen ta'lim bilan maqbul ravishda masalan, non, suv, elektr kabilarni asrash, tejamkorlikka o'rgatish yo'llarini bola tilida, sodda va aniq qilib bayon qilishni o'rganishlari lozim.O'quvchilar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishga va vitagen ta'limiga doir masalalarni quyidagicha turkumlashimiz mumkin:

a)tejamkorlikka doir masalalar;
b)baho, miqdor va pulga doir masalalar;
c)oila daromadiga doir masalalar;
d)kasb-hunarga doir masalalar;
e)ijara hisobigadoir masalalar.

Iqtisodiy tushunchalar majmuasini shakllantirish texnologiya mazmunini takomillashtirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo„ladi. Bo„lajak o„qituvchi iqtisodiy tushunchalar mohiyatini qanchalik to„liq va atroflicha tushunib etgan paytdagina iqtisodiy sohadagi faoliyatini rejali va samarali olib bora oladi.

Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun kasbiy-pedagogik mahoratning ahamiyati juda yuqori. Bu, o'qituvchining tadbirkorlik va qat'iyati bilan o'quvchilarga bilim olib borishiga, ularni mustahkamlashiga va motivatsiyasini oshirishiga yordam beradi. Kasbiy-pedagogik mahorat, o'qituvchining o'quvchilarni individual xususiyatlari va zaruratlari boyicha tayyorlashiga, ta'lim jarayonini qiziqtirish va maqbul qilishga erishishiga qaramay, ta'limning sifatini oshirishiga ham ko'rsatadi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlarini rivojlantirish va yangi bilimlarga ega bo'lishadi. Bu esa, ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi va taraqqiyotni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Mirziyoyev."Yangi O’zbekiston strategiyasi".2021 yil

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

3. Ergasheva M. "Bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilarida rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishning pedagogik shart sharoitlari haqida ma’lumot" Ta’lim fidoiylari,13 son. 1-jild.Yanvar.

4. Karimov I.A.’ Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir’ Xalq so'zi. – 2011. 8 dekabr`.

THE RIGHT TO EDUCATION AS A MEANS OF DEVELOPING A LIFELONG EDUCATION SYSTEM: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Sharapov Shukhrat Shokirovich
Independent researcher of the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The right to education is fundamental in fostering a lifelong learning system. This paper explores how guaranteed educational access acts as a catalyst for continuous personal and societal growth. It emphasizes policy frameworks and innovative practices that support sustainable educational models adaptable to evolving global needs.

Key words: Education, right to education, lifelong learning, educational system.

Аннотация: Право на образование имеет основополагающее значение для развития системы обучения на протяжении всей жизни. В данной статье исследуется, как гарантированный доступ к образованию действует как катализатор непрерывного личного и общественного роста. В нем делается упор на политические рамки и инновационные практики, которые поддерживают устойчивые модели образования, адаптируемые к меняющимся глобальным потребностям.

Ключевые слова: Образование, право на образование, непрерывное обучение, система образования.

Annotatsiya: Ta’lim olish huquqi umrbod ta’limni rivojlantirishning asosidir. Ushbu maqolada ta’limning kafolatlangan ochiqligi shaxsiy va jamiyatning doimiy o‘sishi uchun katalizator bo‘lib xizmat qilishini o‘rganadi. U o‘zgaruvchan global ehtiyojlarga moslashuvchi barqaror ta’lim modellarini qo‘llab-quvvatlovchi siyosat asoslari va innovatsion amaliyotlarga urg‘u beradi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, ta’lim olish huquqi, umrbod ta’lim, ta’lim tizimi.

The right to education is universally acknowledged as a fundamental human right, integral to the development of an individual and society. Its recognition is pivotal in driving the advancement of lifelong learning systems that cater to an ever-evolving world. This article explores how the right to education serves as a crucial tool for establishing and nurturing lifelong education systems, thereby fostering individual growth and societal progress.

The Universal Declaration of Human Rights (1948) under Article 26, asserts that everyone has the right to education (UN, 1948). This foundational assertion has catalyzed global efforts to implement educational frameworks that ensure this right is both accessible and equitable. The emphasis on education as a human right underscores its role not merely in early development stages but as a lifelong endeavor.

The UNESCO-led Education for All (EFA) movement, initiated in Jomtien in 1990 and reiterated in Dakar in 2000, further emphasizes the importance of education at all stages of life (UNESCO, 2000). The Dakar Framework for Action explicitly advocates for lifelong learning, stating that learning opportunities should be available and accessible throughout people's lives.

Lifelong learning encompasses all learning activities undertaken throughout life, with the aim of improving knowledge, skills, and competences within a personal, civic, social, or employment-related perspective (Field, 2006). This definition highlights the breadth of lifelong learning, encompassing formal, non-formal, and informal education.

The Role of Right to Education in Lifelong Learning

A. Ensuring Accessibility

One of the primary roles of the right to education in the context of lifelong learning is ensuring that learning opportunities are accessible to all individuals, regardless of age, gender, socioeconomic status, or background. This is critical in preventing educational disparities and promoting inclusive education.

B. Policy and Legislative Frameworks

Effective policy and legislative frameworks are essential to support lifelong learning systems. Countries like Finland and South Korea have integrated lifelong learning into their educational policies, which has significantly contributed to their educational success and societal development (OECD, 2019).

C. Technological Integration

In the digital age, technology plays a crucial role in facilitating lifelong learning. E-learning platforms and digital resources can provide flexible, diverse learning opportunities that cater to the needs of learners at different life stages (Selwyn, 2010).

Case Studies: Successful Lifelong Learning Systems

A. Finland

Finland's education system is often cited as a model of successful lifelong learning. The Finnish system is built on the principles of equality and accessibility, offering continuous learning paths that are flexible and diverse (Sahlberg, 2011).

B. Singapore

Singapore's SkillsFuture initiative is another example of a successful lifelong learning system. Launched in 2016, it aims to provide Singaporeans with the opportunities to develop their fullest potential throughout life, regardless of their starting points (SkillsFuture SG, 2020).

Challenges in Implementing Lifelong Learning Systems

Despite the successes, there are significant challenges in implementing lifelong learning systems. These include:

Funding: Sustaining funding for lifelong learning systems can be challenging, particularly in low-income countries.

Quality Assurance: Ensuring the quality of education across diverse and flexible learning platforms.

Cultural Barriers: Overcoming cultural barriers that may undervalue informal and non-formal learning.

The exploration of the right to education as a cornerstone for developing a lifelong education system reveals its profound impact on both individuals and societies. This right, enshrined in numerous international declarations and national policies, serves not merely as a legal obligation but as a transformative tool that empowers individuals, fosters economic development, and promotes social cohesion.

Throughout this paper, we have demonstrated that access to continuous education is crucial for adapting to the rapidly changing demands of the global job market and for personal growth. Lifelong learning systems that embrace flexible pathways, integrate technology, and prioritize inclusivity can effectively meet these evolving needs. By ensuring that individuals of all ages have opportunities to learn new skills and expand their knowledge, societies can cultivate a more adaptable and innovative workforce.

Moreover, the implementation of lifelong education systems as a fulfillment of the right to education can significantly reduce social inequalities. It provides a mechanism for all members of society, regardless of background, to achieve their full potential. Education, therefore, is not just a foundation for individual success, but a pivotal element in achieving broader societal goals such as reducing poverty, enhancing social mobility, and fostering democratic engagement.

To effectively utilize education as a tool for lifelong learning, policymakers must commit to investing in educational infrastructure, teacher training, and curriculum development that supports continuous learning. Partnerships between educational institutions, private sectors, and communities are also vital to create an integrated approach that aligns educational outcomes with labor market demands.

In conclusion, recognizing and reinforcing the right to education as a facilitative tool for lifelong learning is essential. It is not just an investment in individual futures, but in the sustainable development of societies globally. As we look forward, it is imperative that stakeholders at all levels work collaboratively to dismantle barriers to education and build systems that endure and adapt, ensuring that learning continues throughout life's journey.

References

Field, J. (2006). Lifelong Learning and the New Educational Order. Trentham Books.

OECD. (2019). Education at a Glance. OECD Publishing.

Sahlberg, P. (2011). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.

Selwyn, N. (2010). Looking Beyond Learning: Notes Towards the Critical Study of Educational Technology. Journal of Computer Assisted Learning.

SkillsFuture SG. (2020). About SkillsFuture. Retrieved from SkillsFuture website.

UNESCO. (2000). The Dakar Framework for Action, Education for All: Meeting Our Collective Commitments. UNESCO.

UN. (1948). Universal Declaration of Human Rights. United Nations.

This overview provides a comprehensive examination of the integration of the right to education with lifelong learning initiatives, highlighting both successes and ongoing challenges, and underscores the transformative potential of education throughout life.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Shaydullayeva Kamola Shapulatovna

Termiz davlat pedagogika instituti, kshaydullayeva@gmail.com

Abstract. This article talks about the need for the formation of pedagogical thinking in future teachers studying in higher education institutions, its methods and methods. The advantage of pedagogical methods in the formation of pedagogical thinking is emphasized.

Key words: pedagogical thinking, creative thinking, future specialist, pedagogical situation, professional problem, experimental modeling.

Zamonaviy psixologiya fanida pedagogik tafakkur deganda shaxsning kasbiy muammolarni hal qilish jarayonidagi, hamda, kasbiy faoliyatidagi tafakkuri tushuniladi; amaliy kasbiy muammolarni hal qilishda intellektual qobiliyatlar bilan belgilanadigan malakali fikrlash; pedagogik tafakkurning yuqori darajasi, ijodiy tabiati bilan ajralib turadigan tafakkurning rivojlanishi, u kasbiy ijodiy muammolarni hal qilish uchun turli xil evristik uslublar bilan

ishlaydigan, xususan, kasbiy, tizimli, amaliy yo‘naltirilgan, operativ va ijodiy fikrlash bilan tavsiflanadi. Adabiyotlarni tahlil qilish “pedagogik tafakkur” tushunchasini talqin qilish va uning tuzilishining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashda aniqlikni ko‘rsatadi.

Pedagogik tafakkurni rivojlantirish insonni tarbiyalash jarayonining muhim tarkibiy qismi va kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining zaruriy shartidir. Pedagogik tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘rinni universitetda tayyorlash bosqichi egallaydi, uning doirasida bo‘lajak mutaxassisning tafakkurini shakllantirish uchun asoslar yaratiladi. Pedagogik ta’lim muassasasida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ish olib borish zarurligi masalasi rus tadqiqotchilari L.Djelilova, T.Kuzennaya, E.Osipova, N.Stepanova va boshqalarning tadqiqotlarida hal etilgan. Ushbu tadqiqotchilar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirishni mantiqiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish bilan; psixologik-pedagogik nazariyalarni, kategoriyalarni, tamoyillarni va qonuniyatlarni aniq pedagogik vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini egallash bilan; pedagogik sezgi rivojlanishi bilan; dialektik tafakkur asoslarini shakllantirish bilan; ilmiy fikrlash usullari va tartiblarini o‘zlashtirish bilan; kasbiy mulohaza yuritish qobiliyatini, talabalar bilan muloqot qilishda dialog o‘tkazish qobiliyatini shakllantirish bilan; ixtisoslik sohasida mazmunli ilmiy tafakkurning shakllanishi bilan bog‘laydilar. Bunda pedagogik tafakkur uslublari o‘z-o‘zidan shakllanmasligi, balki ular universitetda o‘qish davomida maxsus amaliyotga tatbiq etilishi muhimligi ta’kidlangan.

Shunday qilib, “pedagogik tafakkur” tushunchasi fanda umumiy qabul qilingan aniq va bir ma’noli ta’rifga ega emas. Pedagogik tafakkur - fikrlashning o‘ziga xos xususiyati, fikrlashning mukammallik darajasi, ish obyektiga muvofiq kasbiy faoliyat xarakteri bilan belgilanadigan mutaxassis tafakkurining xususiyatlari; muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy muammolarni hal qilish jarayoni sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratishda ta’lim muhitining cheklangan imkoniyatlarini ta’kidlaydilar. Pedagogik tafakkurning namoyon bo‘lishi faqat ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga qaratilgan amaliy fikrlashda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quv va ishlab chiqarish vazifalari qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Ta’lim vazifalarining mazmunli xususiyatlari soddaligi, real faoliyatdan ajratilishi, ularning o‘quvchining manfaatlaridan tashqarida joylashganligi va har qanday natijaning o‘zini o‘zi qadrlashiga ta’sir qila olmaslikdir. Haqiqiy sharoitda muammoni hal qilish allaqachon insonning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, kasbiy muvaffaqiyati, ish haqi, mehnat subyekti faoliyatiga xos bo‘lgan kasbiy mukammallikni his qilish va anglashini keltirib chiqaradi.

Y.Kornilov tafakkurni eksperimental modellashtirishda e’tibor berilmaydigan uchta muhim holatni qayd etadi: ijodiy muammolarni hal qilishda fikrlashni o‘rganish, oldingi tajribaning yetishmasligi, o‘z bilimi va amaliy tajribasi bilan mavzuni e’tiborsiz qoldirish; ularsiz mutaxassis mavjud emas; an’anaviy tadqiqotda subyekt faqat uning muhim xususiyatlaridan “tozalangan” haqiqiy obyektning bir qismi bilan shug‘ullanadi; kasbiy fikrlashning eng muhim tarkibiy qismi sifatida “katta tizim” bilan subyekt va murakkab obyekt o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning fikrlash jarayonini o‘rganishga imkon bermasligi; real hayot va faoliyat bilan bog‘liqligini hisobga olmasdan fikrlashni o‘rganish kabi. Shubhasiz, pedagogik faoliyatdagi haqiqiy muammoli vaziyatlarni ifodalovchi o‘quv va kasbiy vazifalar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular pedagogik tafakkurning muayyan tarkibiy qismlarini takrorlashlari kerak.

Biroq, muammoni ko‘rib chiqishning yana bir samarali usuli bor. Shunday qilib, N.Kuzmin ta’kidlashicha, bo‘lajak mutaxassisning haqiqiy kasbiy vazifalarini oldindan aytib berish va uni hal qilishga o‘rgatish qiyin, ammo universitetda o‘qish jarayonida uni tegishli fan asoslari bilan qurollantirish mumkin, yetarlicha yuqori darajadagi pedagogik muhim fazilatlarni shakllantirishga erishsa bo‘ladi.

Bularning barchasi o‘qitishdagi nazariya va amaliyotning birligi bilan, shuningdek, o‘qituvchining o‘zining kasbiy faoliyatida mumkin bo‘ladi. Mutaxassisni tayyorlash jarayonida uning roli nafaqat kasbiy ilmiy bilimlarni ta’lim bilimiga aylantirish, kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, faol, muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim usullaridan foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchida yuqori samarali boshqaruv faoliyatini shakllantirish, shu bilan birga, o‘qituvchi yuqori malakali mutaxassisning namunasi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вогоявленская Д. Психология творческих способностей: Учебное пособие для студентов вузов. Москва: Издательский центр «Академия», 2002. – С. 320.

2. Кузьмин Н.Н. Единство теории и практики как общий принцип профессиональной подготовки будущего учителя / Н.Н. Кузьмин // Профессионально-педагогические умения и пути их формирования. – Воронеж: ВГПИ, 1985. – С. 7-20.

3. Olimov Sh., Ma'murova D. Directions for improving teaching methods. Journal of Positive School Psychology 2022, Vol.6, № 4. – P. 9671–9678.

4. Shaydullayeva K. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirish zarurati. Ijodkor o'qituvchi jurnali. 5-iyun , 2023 yil, 30 - son. 228-bet.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI

M.A.Jumayeva,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlarini ketma-ketlik asosida olib borilishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Abstract: In this article, there are opinions about the creation and improvement of information technologies for preparing future teachers for innovative activities.

Hozirgi sharoitda milliy ta'lim tizimlari rivojlanishi quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi: bir tomondan, ta'lim inson faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib qoldi,ikkinchi tomondan esa jamiyat hayotida ta'lim rolining oshishi iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Hozirda o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashga talab kun sayin oshib bormoqda, shu sababli mamlakatimiz taraqqiyoti ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivoji hozirda bardavomlik kasb etmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasida pedagoglarni tayyorlashga zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan talablar qo'yib borilishi tabiiy. Bular bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy raqobatbardosh qilib, ya'ni innovatsion rivojlangan qilib tayyorlash davr talabi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday talablarni bajarish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kreativ yondashuvni rivojlantirish.

Ta'lim jarayoni ko'p bosqichli dinamik jarayon sifatida qaralib, ta'lim metodlari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgani hisobga olinadi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga har qachongidan ham ko'proq e'tibor berish doimiy faoliyatga aylanadi. Innovatsion metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ko'rib chiqilayotgan ta'lim yo'nalishidagi o'quv rejasining fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda tayanch fanlar bilan integratsiyasi e'tiborga olinsa, mazkur soha bo'yicha istiqbolli pedagogik samara qo'lga kiritiladi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish va ularni yangi talablar asosida yanada takomillashtirib borishga erishish.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlari quyidagi ketma-ketlik asosida olib boriladi:

- o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshirishda komp`yuterlardan texnik-didaktik vosita sifatida foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarni komp`yuterdan foydalanishining samarali shakllari bilan tanishtirish;
- bo'lajak o'qituvchilarda komp`yuterda ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning optimal yo'llarini topishga erishish;

- bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari va ularga mos holda ishlab chiqilgan muloqotli ishchi dasturlardan foydalanish ko'nikmalari bilan qurollantirish.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga oid tadqiqot ishlarini doimiy olib borish.

Bunda ta'limda axborotli ta'lim muhiti, shuningdek, innovatsion ta'lim muhitlari negizidagi innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga istiqbolli yo'nalish deb qarash lozim bo'ladi. Ushbu jarayon an'anaviy ta'lim jarayoni bilan intellektuallashtirilgan ta'lim jarayonlari o'rtasidagi intellektuallashtirilgan interfeysni o'rnatish orqali amalga oshiriladi va bunda dasturlashtirilgan ta'-minot nihoyatda zarurligini e'tiborga olib ish yuritishga to'g'ri keladi.

4. Innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun o'qituvchining kasbiy intellektual salohiyati hamda muntazam yuksalishini doim e'tiborga olib faoliyat yuritish.

Bunda o'qituvchining o'z sohasiga oid fanlar asoslarini bilishi va ular bo'yicha egallagan bilimlaridan o'zi ta'lim beradigan fanni bayon qilishda samarali foydalanishi kerak, o'zi ta'lim beradigan fanlarga mos va xos innovatsion metod va texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi, muntazam ravishda jamiyatimiz va davlatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha o'quv-metodik, o'quv-dasturiy, o'quv-didaktik,axborotli metodik ta'minotlar kabilar bilan qurollangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning o'quv-metodik axborotli ta'minotini mukammal yaratish. Bunda asosiy e'tibor qayd etilgan ta'minotning zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan mos ravishda yuksalib, takomillashib borishiga qaratiladi va ularni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin bo'ladi:

- bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalarni to'liq egallash jarayonida axborot madaniyati shakllanishini o'quv jarayoniga tatbiq etish;

- elektron o'quv adabiyotlari: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, fan bo'yicha elektron portfel` va elektron qomusiy lug'at kabilarni tayyorlash;

- interfaol metodlar va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga “didaktik portfel`”tayyorlash;

- internetdan foydalanib ta'lim jarayoniga tegishli fanlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va shu kabilar.

6. Kasbiy bilimlarni zamon talabi asosida muntazam takomillashtirib borishga erishish.

Bunda:- egallanishi lozim bo'lgan mutaxassislik bo'yicha bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish va ularni yanada boyitish vostalaridan samarali foydalanishga erishish;

- pedagogik va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish, ulardan amaliy-kasbiy faoliyatda og'ishmay foydalanish va shu kabilar.

7. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvga erishish.

Kreativ yondashuv quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo'li kafolatlanadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammolari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;

- bo'lajak o'qituvchilarni o'z mutaxassisliklariga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta'minot yaratish;

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion tayyorlash bo'yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish kabilar.

8. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularning ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatli bo'lishining muntazamligini ta'minlash.

Ushbu tarkibiy qismga qo'yilgan talablarni bajarish quyidagi jihatlarga e'tibor berish orqali amalga oshirilishi mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy yetuklik tuyg'usini shakllantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ta'lim dasturidagi fanlar bo'yicha va ularga tegishli ma'lumotlardan muntazam ravishda foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarni o'qituvchi kasbining mas'uliyati, ya'ni jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bo'yicha turli mavzularda ma'naviy tadbirlarni tashkil etishning mukammal istiqbolli rejasini ishlab chiqish va ularni olib borishning innovatsion uslublarini yaratishga doimo e'tiborli bo'lish va hokazo.

O'qituvchining innovatsion faoliyati bu – tayyorlik darajasini, talabalar o'rtasida innovatsion madaniyatni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ xususiyatdir. Professional sohada istalgan natija va tegishli darajaga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga har qachongidan ko'ra e'tiborni kuchaytirish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni innovatsion faoliyatni rivojlantirish, kasbiy faoliyatni yanada takomillashtirish, uni kasbiy mahorat darajasiga ko'tarishdan boshlanadi. Bunday jarayon o'qitishning mazmuni va usullarini uzluksiz izlashga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish, innovatsion onglilik va zamonaviy o'qituvchining faoliyat modelini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pedagogik faoliyat samaradorligining ikki vektorini uning innovatsion xarakteri nuqtai nazaridan ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- o'qituvchi o'z faoliyatida allaqachon yaratilgan texnika va texnologiyalarni kasbiy faoliyatning real sharoitlariga moslashuvi bilan amalga oshiradi;

- o'qituvchi kasbiy faoliyatning ob'ektiv ravishda o'qitishning yangi metod, vosita va texnologiyalarini yarata oladi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogikada dolzarb va istiqbolli ijtimoiy muammo ekanligi ko'rinib turibdi. Innovatsion ta'limga yo'naltirilgan texnologiyalar keng qamrovli, murakkab, ijodiy, pedagogik faoliyat ekanligini muntazam diqqat markazda bo'lishi lozim. Chunki ular yordamida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin hamda ular asosida raqobatbardosh innovatsion faoliyati rivojlangan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash kafolatlanadi.

Oliy ta'lim tizimida o'zgarishlar, yagona ta'lim makoniga O'zbekistonning kirishi natijasida, innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan o'qituvchiga talab kun sayin oshmoqda. O'qituvchini kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida milliy ustuvorliklarni ko'rib chiqish zarurligini belgilovchi omillar orasida uch guruhni ajratish mumkin.

Ta'limni modernizatsiyalash sabablaridan yana bir guruhi oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlar bo'lib, u yangi ijtimoiy-texnologik inqilob tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlar kontekstida yuz beradi. Zamonaviy ta'lim bir qator qiyinchiliklarga duch keladi,ulardan biri milliy ta'lim tizimlari innovatsion xarakterga ega bo'lishi va ularning o'quvchilari innovatsion turmush tarziga tayyor bo'lishlari kerak. Bunday sharoitda o'qituvchilarning madaniyat, jamiyat va ta'limdagi progressiv innovatsion o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuksak ijodiy salohiyatli ustozgina jadal rivojlanayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli va samarali hayotga qodir insonni tarbiyalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston. NMIU, 2019. – 400 b.

4. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.

5. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.

6. Jumayeva.M.A.Pedagogika fanini o‘qitishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillari. Buxoro - 2021. B. 60-62

7. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.

8. Jumayeva.M.A.Bo`lajak o`qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.

TA’LIM OLISH HUQUQI O‘ZBEKISTONDA UMRBOD TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Sharapov Shuxrat Shokirovich
O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazning mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim olish huquqini umrbod ta’lim tizimini yaratishda markaziy o‘rinni egallaydi va ta’limga bo‘lgan qonuniy huquqlar doimiy shaxsiy va kasbiy rivojlanishni qanday qo‘llab-quvvatlashini o‘rganadi. Bu jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashadigan va individual imkoniyatlarni oshiradigan ta’lim asoslarini yaratishda siyosatning rolini ta’kidlaydi.

Аннотация: В данной статье право на образование рассматривается как ключевое значение для создания системы непрерывного образования, а также рассматривается, как законные права на образование способствуют непрерывному личному и профессиональному развитию. Это подчеркивает роль политики в создании образовательных рамок, которые адаптируются к меняющимся потребностям общества и расширяют индивидуальные возможности.

Abstract: O‘zbekistonda ta’lim olish huquqi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki umrbod ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning muhim vositasi sifatida ham ko‘riladi. Ta’limga bunday yondashuv bilimga asoslangan global iqtisodiyotda mamlakat inson kapitalining uzluksiz o‘sishini ta’minlash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada O‘zbekistonda umrbod ta’lim tizimini rivojlantirishda ta’lim olish huquqining roli ko‘rib chiqiladi, asosiy e’tibor siyosat asoslari, amalga oshirish strategiyalari va duch kelayotgan muammolarga qaratiladi.

O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan buyon ta’lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Hukumat samarali umrbod ta’lim tizimi milliy taraqqiyot uchun muhim ekanligini tan oldi va hayotning barcha bosqichlarida ta’lim olish imkoniyati va sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarni boshladi (YUNESKO, 2019).

O‘zbekiston uzluksiz ta’lim madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha milliy majburiyatni aks ettiruvchi, uzluksiz ta’limni takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini ishlab chiqishda faol harakat qilmoqda. Ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat 1997-yilda qabul qilingan va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, unda davlatning barcha fuqarolarga butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash majburiyati bayon etilgan1.

Muhim islohotlar, xususan, 1997 yilda boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali bu asosni yanada mustahkamladi. Ushbu dastur erta bolalikdan oliy ta’limgacha va undan keyingi davrda uzluksiz malaka oshirish va bilimlarni egallashni qo‘llab-quvvatlovchi yaxlit ta’lim tizimini yaratishda muhim rol o‘ynadi2. Bu kattalar ta’limi va kasbiy malaka oshirish uchun muhim bo‘lgan turli norasmiy va kasbiy ta’lim imkoniyatlarini osonlashtiradi.

Bu boradagi sa’y-harakatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilishda Prezidentimizning 2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu farmonda

asosiy e’tibor ta’lim mazmunini yangilash, moslashuvchan ta’lim yo‘llarini rag‘batlantirish va global iqtisodiy talablarga mos ravishda o‘qituvchilar malakasini oshirishga qaratilgan3.

Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’lim sohasida texnologiyalarning transformatsion salohiyatini e’tirof etgan holda, raqamli savodxonlikni oshirish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni boshladi. Bu sa’y-harakatlar raqamli asrda umrbod ta’limni qulay va dolzarb qilish uchun kengroq strategiyaning bir qismidir4.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning qonunchilik bazasi mustahkam umrbod ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun rivojlanmoqda. Ushbu qonunlar va tashabbuslar orqali mamlakat ta’lim moslashuvchan, qulay va umrbod ta’lim ehtiyojlariga mos keladigan kelajakka zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida har bir fuqaro bilim olish huquqi belgilab qo‘yilgan. Davlat bepul boshlang‘ich ta’limni kafolatlaydi, har bir kishiga o‘rta va oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi (O‘zbekiston Konstitutsiyasi, 1992 y.). Ushbu qonunchilik ta’minoti uzluksiz jarayon sifatida uzluksiz ta’limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda umrbod ta’limni joriy etish

A. Siyosiy tashabbuslar

Milliy ta’lim strategiyasiga uzluksiz ta’limni integratsiyalash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi kabi tashabbuslar umrbod ta’limga kompleks yondashuvni aks ettiruvchi erta bolalikdan kattalar ta’limigacha bo‘lgan ta’lim uchun asoslarni taqdim etadi (O‘zbekiston hukumati, 1997).

B.Kattalar ta’limi va kasb-hunar ta’limi

O‘zbekiston uzluksiz ta’lim strategiyasining bir qismi sifatida kasb-hunar ta’limi va kattalar ta’limiga katta e’tibor qaratdi. Dasturlar, ayniqsa, qishloq joylarida kattalarning malakasini oshirish va ishga joylashish qobiliyatini oshirishga, shu orqali ta’limni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan (Jahon banki, 2018 yil).

C. Texnologik integratsiya

Raqamli ta’limga global siljish bilan O‘zbekiston ta’lim sifatini oshirish uchun texnologiyani o‘zlashtirdi. “Bir million o‘zbek koderi” dasturi kabi tashabbuslar yoshlar va kattalarga zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli ko‘nikmalarni taqdim etishga qaratilgan (Xalq ta’limi vazirligi, 2020 yil).

Uzluksiz ta’limni targ'ib qilishdagi muammolar

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda:

Resurslarni taqsimlash: Kattalar ta’limi va noan'anaviy ta’lim yo‘llari uchun etarli mablag' va resurslarni ta’minlash muammo bo‘lib qolmoqda.

Sifatni ta’minlash: Ta’lim natijalari milliy va xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlash uchun barcha daraja va ta’lim shakllarida yuqori ta’lim standartlarini saqlab qolish zarur.

Madaniy idrok: norasmiy va norasmiy ta’limni qadrlashga jamiyatning munosabatini o‘zgartirish, ayniqsa, keksa avlodlar, umrbod ta’lim tashabbuslarining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Misollar:

A. Andijon viloyati

Andijon viloyatida uzluksiz ta’lim tamoyillarining amalda qo‘llanilishini ko‘rsatuvchi, ishlaydigan kattalar uchun kechki sinflarni tashkil etuvchi kattalar ta’lim markazlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda (Viloyat ta’lim boshqarmasi, 2019 yil).

B. Toshkentdagi IT-o‘quv markazlari

Toshkentda IT bo‘yicha ixtisoslashtirilgan o‘quv markazlari aholining raqamli savodxonligini oshirishga hukumat e’tiborini qaratgan holda barcha yosh guruhlari uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etadi (TechPark, 2021).

O‘zbekistonda ta’lim olish huquqiga asoslangan umrbod ta’lim tizimining rivojlanishi barqaror milliy taraqqiyot sari istiqbolli yo‘lni taqdim etadi. Ta’lim sohasidagi islohotlarga

sarmoya kiritishda davom etish va mavjud muammolarni hal qilish orqali O‘zbekiston o‘z ta’lim natijalarini oshirishi va o‘z fuqarolarini umrbod muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 1997.
3. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident qarori, 2019.
4. O‘zbekistonda raqamli savodxonlikni oshirish tashabbuslari, Ta’lim vazirligi.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI VA UNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Katayeva Saodat Abduraxim qizi,
Termiz davlat unversiteti magistranti

Annotation*: This article describes the approaches to modernization of the content of higher education, the individual educational trajectory of the student and the possibility of creating electronic information systems in higher education. Also, distance education is explained as a promising direction for the development of higher education and the individual educational trajectory of students in the credit module system.*

Key words: *credit module system, individual education trajectory, modern information technologies, electronic information system, distance education.*

Dunyo ta’lim amaliyotida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni (ya'ni o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va talablariga e'tibor qaratish) va o‘quvchilarni tayyorlash jarayoniga kompetentlik yondashuvini amalga oshirish zarurati mavjud. Tadqiqotchilar fikricha, kompetentsiyaviy yondashuv tanlangan kasbga muvofiq kompetentsiyalar majmuasini shakllantirishni nazarda tutadi. Tayanch, umumiy va maxsus kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish tegishli ta’lim komponentlarini (akademik fanlarni) o‘rganish orqali sodir bo‘ladi. O‘z navbatida, kompetensiyalarga kasbiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun ichki va tashqi resurslar majmui sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, talabalarning madaniy va shaxsiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, ular uchun aniq o‘quv trayektoriyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Chunki, zamonaviy turmush sharoiti insonlardan ijodiy va virtual fikrlash, xulq-atvor va hamkorlikning yangi shakllarini o‘zlashtirishni talab qilmoqda. Bu esa har bir mutaxassisdan yangi bilimlarni imkon qadar tezroq topish va o‘zlashtirishni, vaziyatga qarab adekvat qarorlar qabul qilishni talab etmoqda.

Bugungi kunda ta’lim, ayniqsa, oliy ta’lim ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim talabalarga akademik bilimlarni o‘zlashtirish, zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun talaba shaxsining dinamikligi va ko‘p qirraliligini inobatga olgan holda kasbiy va ta’lim manfaatlari doirasida chuqur tayyorgarlik bilan ajralib turadigan individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish kerak. Talabalarni tayyorlash jarayonida individual ta’lim trayektoriyalaridan foydalanish ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, akademik harakatchanlikni kengaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtiradi.

Shaxsiy ta’lim trayektoriyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ta’lim manfaatlariga to‘liq javob beradigan tanlov kurslarini mustaqil tanlash;

b) diplom va kurs ishlari uchun mavzularni tanlash, shuningdek, o‘qitish va amaliyot uchun asoslarni ishlab chiqish

c) tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo‘shimcha kurslarda ishtirok etish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning jadal rivojlanishi va ularning ta’lim jarayoniga joriy etilishi yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarining paydo bo‘lishiga, ta’lim tarkibi va mazmunining o‘zgarishiga olib keldi. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning yo‘nalishlaridan biri ta’limni axborotlashtirish muammosini amaliy hal etishdir. Bu jarayon esa oliy ta’lim mazmunini ham isloh etishni talab etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi hozirgi davrning barcha o‘ta jiddiy talablariga javob bera olmasligi juda ko‘pchilik olimlar va mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda. Ushbu holatni tubdan o‘zgartirishning asosiy yo‘llaridan biri – ta’lim tizimiga zamonaviy texnologik rivojlanishning eng yangi usullari va dasturiy-texnik vositalarini keng miqyosda jalb qilishdir. Bunday vositalardan biri – insonlarning ishlab chiqarish va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan holda to‘laqonli ta’lim olishga imkon beradigan masofaviy ta’lim (*distance education*) tizimidir.

Ta’lim muassasalarini kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash, sifatli dasturiy ta’minot ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta’limni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim omil bo‘lmoqda. Xuddi shu narsa o‘quvchilar/talabalarning individual ta’lim traektoriyasini ta'minlash uchun ham amal qiladi. Kompyuterga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari an'anaviy o‘quv qo‘llanmalariga nisbatan yangi ta’lim imkoniyatlarini beradi, eng yangi o‘qitish usullarini amaliyotga tatbiq etishga hamda o‘qitish metod va vositalarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Quyida yuqoridagi holat bilan bog‘liq xorijiy tajribalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Xorijiy mamlakat ta’lim muassasalarida AKT ni keng joriy etish kuzatilmoqda. Masalan, maktablarda elektron darsliklardan faol foydalanilmoqda. Ular mualliflar tashabbusi bilan yoki 2018-yildan 2021-yilgacha amalga oshiriladigan “O‘rta ta’lim uchun elektron kitob (EBSE)” butun Ukraina eksperimenti doirasida ishlab chiqilgan. Oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) va masofaviy ta’lim tizimlaridan samarali foydalanilmoqda. Ukrainada eng keng tarqalgan MOOC Prometey, EdEra va OUM bo‘lib, ular 2014 yildan beri faol rivojlanmoqda. MOOC a priori yordamida o‘rganish talabalarning yuqori motivatsiyasini va ularning o‘z- o‘zini tarbiyalashga e'tiborini o‘z ichiga oladi. MOOC yordamida ta’lim traektoriyasini yanada samarali shakllantirish uchun genetik algoritm yoki neyron tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish uchun individual ta’lim tizimlari rivojlana boshladi. Ularning asosiy xususiyati o‘quv jarayoni bilan sinxronlash va dinamik moslashish imkoniyatidir. O‘quv jarayoniga Internet va bulutli texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, bugungi kunda o‘quv va boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirish uchun axborot tizimlaridan faol foydalanilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Boshqaruv axborot tizimlari ta’lim muassasasi darajasida amalga oshiriladi va ular ko‘p modulli tuzilishga ega. Masshtabga qarab, ular boshqaruv, tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, o‘quv va ilmiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin. Oliy ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan axborot tizimlaridan foydalanish samaralidir.

O‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash va individual ta’lim traektoriyasini hisobga olish uchun o‘quv tahlilining axborot tizimlari qo‘llaniladi. Ularning yordami bilan o‘qituvchilar ta’lim mazmunini talabalarning o‘zlashtirish natijalariga muvofiq yangilashi, turli mezonlar bo‘yicha talabalar reytingini shakllantirish uchun baholash (imtihonlar, kreditlar) shakllaridan foydalanishi mumkin. O‘qitish va individual ta’lim traektoriyalarini ta'minlaydigan har xil turdagi axborot tizimlari mavjudligiga qaramasdan, talabaning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish uchun samarali axborot tizimlarini yaratish istiqbolli vazifadir.

Talabalarning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish uchun axborot tizimini ishlab chiqish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

a) o‘quv dasturlarini tahlil qilish;

b) elektron kursga o‘ziga xos xususiyatlar bo‘yicha umumiy talablarni qo‘yish;

c) masofaviy ta’lim tizimining tuzilishini loyihalash;

d) zaruriy jihozlarni tanlash (dasturlash muhiti va ma'lumotlarni saqlash uchun ma'lumotlar bazasi); axborot tizimini rivojlantirish;

e) elektron axborot resurslari modullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tekshirish;

f) ma'lumotlarning to‘g‘ri ishlashi uchun domen nomini tanlash va ro‘yxatdan o‘tkazish;

g) elektron axborot resursi ishidagi xatolarni aniqlash va tuzatish;

h) axborot tizimiga o‘quv dasturlari, foydalanuvchilar va boshqalar haqidagi rasmiy ma’lumotlarni yuklash.

Talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish uchun axborot tizimi ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarga o‘quv dasturlari, talabalarning individual ta’lim trayektoriyalari bilan tanishishini ta'minlashi, shuningdek, turli mezonlar bo‘yicha hisobotlarni yaratishi kerak.

Masofaviy ta’limda elektron axborot tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

A) individual ta’lim dasturi bo‘yicha o‘quv rejasini yaratish;

b) talabaning tanlov kurslari ro‘yxatidan erkin tanlov fanlarini tanlash imkonini berish;

c) talaba tomonidan individual o‘quv rejasini shakllantirish;

d) fanlar haqidagi ma'lumotlarni izohlar/sillabuslar ko‘rinishida ko‘rsatish;

e) muayyan fanlardan dars beradigan o‘qituvchilar (ma'ruzachilar) haqidagi ma'lumotlarni ko‘rsatish;

f) turli mezonlar bo‘yicha talabalar/o‘qituvchilar uchun hisobotlarni yaratish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

2. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002. - 264 с.

3. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. - 799 b.

4. Avlayev O.U, Jo‘rayeva S.N, Mirzayeva S.R Ta’lim metodlari. T.: NAVRUZ, 2017. - 208 b.

5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2012. - 193 b.

6. Xodjayev B. Umumiy pedagogika. Darslik. T. “Sano-standart” nashriyoti, 2017. - 416 b.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN PROFESSOR O'QITUVCHILARNING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATI

M.A.Jumayeva,

Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlangich ta’lim kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

Asatova Mohichehra,

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Professor-o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahorati tushunchasi, o'qitishning boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tushuncha, ularning kasbiy bilimlarini amalga oshirish va o'qitish jarayonini tashkil etishdagi xususiyatlarni aks ettiradi. Professor o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahorati, ularning so'nggi ilmiy va amaliy ko'nikmalarini o'rganish, yangi metodlar va texnologiyalarni joriy etish, talabalarni o'quv jarayonida ishtirok etishga qat'iy qandayligi, o'qitish-uslubiy va metodik tushunchalarni tuzish, shuningdek, ta'limning sifatini oshirishda yuqori darajada ko'rsatgichdir.

Ular bu mahorat bilan talabalarga bilimni samarali tarzda o'rgatish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va o'zlarining so'nggi ko'nikmalarini talab etishlari, o'quv jarayonini dinamik va qiziqarli qilishlari kabi vazifalarni bajarishadi. Bu esa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyatni sifatli o'rganish va oshirishda katta o'rin egallaydi.

Professor o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahorati, ularning ta'lim jarayonida o'quvchilarga eng yaxshi bilimni o'rgatishda ahamiyatli rol o'ynaydi. Ular ta'lim texnologiyalarini va yangi metodlarni o'rganish, tadqiqotlarni amalga oshirish va bilimni amalda yaratishda o'z ko'nikmalarini samarali tarzda o'rgatishlari, talabalarni o'qitishni sevimli va qiziqarli qilishlari, shuningdek, ta'limning sifatini oshirishda muhim vazifalarni o'zlariga oladi. Kasbiy-pedagogik mahorat, professor o'qituvchilarga ta'lim usullari va tushunchalarni qiziqarliroq qilish, talabalar orasida samarali o'rganishni ta'minlash, bilim va fan sohasida ilmiy rivojlanishni oshirish, shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsiyalarni joriy etishga imkoniyat yaratadi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o‘quvchilar bilan muomilasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Lekin, odatda bo‘larning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog uning hatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatatganligiga ahamiyat berib, unga kerakli to‘zatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday o‘qituvchilarning ilhombaxsh muammolaridan o‘quvchilarda o‘qishga intilish o‘zlarida yanada yaxshiroq o‘qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo‘ladi. Bu holda ta’lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan o‘quvchiga axloqiy fazilatlarni o‘tkazish vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham, pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarining majmui sifatida qarab, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini e’tirof etish lozim. Muhandis-muallim pedagogik mahorati nazariyasini yaratishda Ural davlat professional-pedagogik universitet olimlari (Bezrukova V.S., Romantsev G.M., Tkachenko Ye.V., Zeer E.F) munosib hissa qo‘shganlar. O‘zbyokisonda bu masala bo‘yicha pedagog olimlardan Jo‘raev R.X., Nishonaliev U.N., Mirsaidov K.J., Choriev E.T. va boshqalar samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Pedagogik faoliyat o'zining pedagogik faoliyat qay darajada boshqarishgabog'liq. Qobiliyat faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlaydi professorM.Ochilov, hamda o' tishning turlarini tavsiya qiladi.

-tashkilotchilik
-muomala qila bilish (kommunikativ)
-didaktik (tushintira olish)
-kuzatuvchanlik
-nutq
-obro' ortira olish
-kelajakni ko'ra bilish
-perseptiv
-tadbirkorlik
-diqqatni taqsimlay bilish

Tashkilotchilik masalasi -bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish,bunday jamoani jipslashtira olish va undan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila oladiolinishidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladilar.

Avtoritar o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburonligi, o'zini tutabilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy xislatlarga, shubilan birga o'quvchilarni ta'lim tarbiyasida boshqarishni his etish, uning e'tiqodi,o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodinisingdira o'lganligiga ishonchi kabi xislatlargaham bog'liqdir.

Obro' orttira olish -o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sirko'rish va shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi asosida ham olinadi. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish ma'qulligini his qilib, o'ziniga ishonchiga, bu ishonchni o'quvchilarga etkaza olishkabilarga ham bog'liq.

Kelajakni ko'ra bilish haqida -o'zining holatini oldidan ko'rish,o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqida tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirish oldindan aytib bera olishda ifodalangan maxsus narsa.

Diqqatni taqsimlay olish -bu boshqaruv bir o'zida diqqatni qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir

"Boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahorati" mavzusidagi maqolada, professor o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik tajribalari, ta'lim texnologiyalari va metodikalarini o'rganish va ularni o'zlashtirishda ko'rsatiladigan roli, ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishlari, talabalarni o'zlashtirish va o'rganishning muhim vazifalari, ta'lim jarayonini innovativ qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularning talabalar o'rtasida ishtirokini oshirish jarayonida o'z vazifalari, o'qitish-uslubiy va metodik tushunchalarni tuzishni ta'minlash uchun samarali bo'lishlar keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, maqola professor o'qituvchilarning boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyatini sifatli o'rganish, oshirish va o'zlashtirishda ahamiyatini ta'kidlaydi va ularning kasbiy-pedagogik mahoratiga qanday e'tibor qaratilishi kerakligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahkamov U, Tilaboeva N. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: 2003 yil

2.Siddiqov B. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. F.: 2000 yil

3.Ruvinskiy LI Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: «O'qituvchi» 1991 yil

4.Azizxo'jaeva NN Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Magistrlar uchunqo'llanma. T.: 2003 yil

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI

Nekiyeva Umida Nematovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Annotation: This article analyzes the factors that provoke the emergence and development of pedagogical innovations, the types of innovative approach to education, the structure of pedagogical innovative activity, the qualities of creativity in educators, the factors that prevent the development of their qualifications.

Kalit so‘zlar: ta’lim, kreativlik, innovatsiya, innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat, pedagogik konsepsiya, integratsiya.

Ta'lim ulkan o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan bugungi kunda oddiylik muhitidan chiqa oladigan va innovatsion yondashuvlarni qabul qila oladigan bo‘lajak o‘qituvchilarga talab kun sayin ortib bormoqda. Ushbu doimiy rivojlanayotgan muhitda kreativlik bo‘lajak o‘qituvchilar uchun shunchaki kerakli sifatgina bo‘lib qolmay, balki bu muvaffaqiyat uchun asosiy talab ham bo‘lib hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik sifatiga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g’oyalarni yaratish, noodatiy fikrlash, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlikni shakllantirish aniq maqsadlardan biridir. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg’or, talabalarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g’oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg’or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida uzluksiz, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi va takomillashuvini yuzaga keltiradi Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatida kreativlikning muhim ahamiyatini o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g’oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [2,1]

Mamlakatimizda 2019- yilda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini ko‘zda tutadi. [1]

A.R.Aripdjanova ta’limni axborotlashtirish va innovatsion faoliyat bilan aloqadorlikda innovatsion salohiyatning ayrim elementlarini ta’kidlab o‘tishga harakat qilgan: “Bugungi kunda oliy ta’limda innovatsion faoliyat, faoliyatning asosiy turlaridan (o‘quv va ilmiy faoliyat bilan teng holat) biri sanaladi. Innovatsion faoliyat eng avvalo, shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishning sifat bosqichi, mustaqil ta’lim, refleksiya natijasi sifatida yuzaga keladigan ta’lim jarayoni sub’ektlarining o‘z-o‘zini aktuallashtirish jarayonidir” [3,20] Bu jumlalardan kelib chiqib, innovatsion faoliyat bugungi kundagi bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatning muhim turlaridan biridir.

Pedagogik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga quyidagi qator omillar sabab bo‘ldi:

1) ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, ta’lim muassasalari ehtiyojlaridagi farqlar;

2) bir ta’lim muassasasining o‘zida xilma-xil pedagogik konsepsiya va yondashuv ta’rafdorlarining mavjudligi;

3) innovatsion va an’anaviy o‘quv dasturlarini birlashtirish muammosi;

4) yangi konsepsiyaga doir ishlar uchun o‘quv-metodik ta’minotning mavjud emasligi;

5) mavjud shart-sharoitlarga yangiliklarni moslashtirish;

6) yangi turdagi novator-pedagoglar, bundan tashqari innovatsion ta’lim muassasalari rahbarlarini kasbiy tayyorlashning yo‘lga qo‘yilmaganligi;

7) ta’lim natijalarini tashxis etish va baholash, monitoring tizimini yangilash ehtiyoji kabilar shular jumlasidandir. Bundan kelib chiqib, shu kabi omillar natijasi sifatida paydo bo‘lgan pedagogik innovatsiyalar ta’lim oluvchilar va ta’lim muassasalaring ehtiyojlaridagi farqlarni qisqartirish, xilma-xil pedagogik konsepsiyalar va yondashuvlarda umimiylikni hosil qilish, innovatsion va an’anaviy o‘quv dasturlarini birlashtirish choralarini izlash, yangi konsepsiyaga doir ishlar uchun o‘quv-metodik ta’minotlar ishlab chiqish, yangiliklarni mavjud shart sharoitlarga moslashtirish, ta’lim natijalarini tashxis etish va baholash, monitoring tizimini yangilash ehtiyoji kabilarni inobatga olish orqali pedagogik innovatsilarni amaliyotga tadbiq etish mumkin.

Xorij mamalakatlari olimlaridan O.G.Xomeriki o‘quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog’liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko‘rsatadi:

1) ta’lim mazmuniga doir innovatsiyalar;

2) o‘quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;

3) o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;

4) ta’lim tizimini boshqarishga doir innovatsiyalar.[8]

Pedagogik innovatsiyalarni B.Xodjaev va Sh.Zufarovlar tasnifi bo‘yicha pedagogik ta’lim jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik innovatsiyalarning quyidagi umumlashgan tizimlarining bir nechtasiga to‘xtalib o‘tamiz:

Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlariga munosabatiga ko‘ra pedagogik innovatsiyalarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) ta’lim maqsadi va vazifalari bilan bog’liq pedagogik innovatsiyalar. Masalan, “identiv o‘quv maqsadlarini o‘quv vazifalariga aylantirish”;

2) ta’lim va tarbiya mazmuni bilan bog’liq innovatsiyalar. Masalan, “ta’lim mazmunini integratsiyalash va differensiyalashtirish”, “axborotlashtirish va prognozlash”;

3) ta’limning shakl, metod, vosita va texnologiyalari bilan bog’liq innovatsiyalar. Masalan, noana’naviy dars shakllari, interfaol metodlar, multimedia vositalari, ta’limning samarali

texnologiyalari (modulli ta’lim texnologiyalari, madaniy-insonparvarlik yondashuv texnologiyalari);

4) ta’lim olganlikni tashxis etish bilan bog’liq innovatsiyalar. Masalan, o‘quv portfoliolari;

Ta’lim sub’ektlarining shaxs shakllanishiga munosabatiga ko‘ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) pedagog kadrlarning ma’lum bir qobiliyatlarini rivojlantirishga doir innovatsiyalar. Masalan, birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirish;

2) pedagog va o‘quvchilarning BKM, faoliyat usullari, kompetentligini rivojlantirishga doir innovatsiyalar.

Pedagogik qo‘llanilish sohasiga ko‘ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, ta’limning axborot texnologiyalari;

2) o‘quv kursida qo‘llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, elektron xarita;

3) ta’lim sohasida qo‘llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, ta’limni demokratlashtirish;

4) ta’limni boshqarish sohasida qo‘llaniladigan innovatsiyalar. Masalan, ta’limning davlat boshqaruvidan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tilishi.

Amalga oshirish usullariga ko‘ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) rejali pedagogik innovatsiyalar;

2) tizimli pedagogik innovatsiyalar;

3) davriy pedagogik innovatsiyalar;

4) stixiyali pedagogik innovatsiyalar;

5) tasodifiy pedagogik innovatsiyalar;

6) o‘z-o‘zidan yuzaga keluvchi pedagogik innovatsiyalar. .[7,14]

Yuqorida ta’kidlangan pedagogik innovatsiyalar tasniflaridan ma’lum bo‘ladiki, ta’lim tizimidagi innovatsiyalar:

- maqsad, mazmun, metod va texnologiya, ta’limni tashkil etish shakli, boshqaruv tizimi;
- pedagogik faoliyat va o‘quv-bilish jarayonini tashkil etish uslubi; - nazorat va ta’lim olganlik darajasini baholash tizimi;
- ta’limni moliyalashtirish tizimi;
- o‘quv-metodik ta’minot;
- tarbiyaviy ishlar tizimi;
- o‘quv reja va o‘quv dasturlari;
- professor-o‘qituvchi va talaba, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan bog’liq ravishda yuzaga kelmoqda.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning ko‘rsatilgan to‘rtta usuli mavjud:

- Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish[4].

Bugungi kunda ham shu to‘rtta usul bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tamoqda.

M.V.Klarin ta’limga innovatsion yondashuvning ikkita turini ajratib ko‘rsatadi:

1) o‘quv jarayonining an’anaviy reproduktiv yo‘nalganligi doirasida kafolatlangan natijalarni qo‘lga kiritishga yo‘naltirilgan modernizatsiyalashgan innovatsiyalar;

2) an’naviy o‘quv jarayonini qayta tashkillashtirishga yo‘naltirilgan transformatsiyalangan innovatsiyalar. Olim yuqorida qayd etilgan yondashuvlarning birinchisini texnologik , ikkinchisini tadqiqotchilikka doir yondashuv deb ataydi.[5]

Shu jumladan, pedagoglarda kreativlik sifatlarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan omillarni ta’kidlab o‘tish va ularni oldini olish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda pedagoglar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) tavakkal qilishdan qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘polliklarga yo‘l qo‘yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash[6,40].

O‘qituvchilarni o‘qitish dasturlari doirasida kreativlikni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zgaruvchan ta'lim dunyosida rivojlanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashiga zamin yaratiladi. Ushbu kreativ o‘qituvchilar talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali o‘quv tajribasining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, ularni kelajakdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga tayyorlaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilar sinfda innovatsion bo'lishlari uchun ijodkorlik juda muhimdir.

Talabalarni jalb qilish: kreativ o'qituvchilar qiziqarli darslarni loyihalashtirishi va talabalarning tasavvurlarini qamrab olishi mumkin. Bu chuqurroq tushunishga va o'rganishga bo'lgan muhabbatga olib kelishi mumkin.

Muammoni hal qilish: dars jarayonida kutilmagan vaziyatlar uchraydi. Kreativ o'qituvchi darslarni to'g'ri yo'lga qo'yish va talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun yechimlarni taklif qilishi mumkin.

O'zgarishga moslashish: dunyo doimo rivojlanib bormoqda va ta'lim ham hamqadam bo'lishi kerak. Kreativ o'qituvchilar o'zlarining o'qitish usullarini yangi texnologiyalar va o'quv uslublariga moslashtirishlari mumkin.

Talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish: o'qituvchi qila oladigan eng muhim narsalardan biri bu talabalarida ijodkorlikni tarbiyalashdir. O'qitishning ijodiy usullaridan foydalangan holda o'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilishni modellashtirishlari mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. Mirziyoev Sh. M. 2020- yil – ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili. //Xalq so‘zi. 1-5 b. 25.01.20 y.

3. Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях информатизации образования: дисс. ... доктора философии. – Ташкент, 2017. – 172 с. – С.20.

4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 188 p

5. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта) - Рига, НПЦ«Эксперимент», 1995 - 176 с.

6. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma.: – Toshkent 2015. – 204 b. – 40 B.

7. Xodjaev B., Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. – 200 b. – B.14-15

8. Хомерики О.Г. Системное управление инновационным процессом в общеобразовательной школе: дисс. … канд.пед.наук. – М., 1996.

BO‘LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARIDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI

Ismailov Murodulla Kaxramonovich
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotation. *In this article, the need to develop sanogenic reflection in future social workers is based, and its principles of health, authenticity of emotions, subjectivity, self-awareness, introspection, reflexivity, scientificity and their content are theoretically analyzed.*

Key words: *reflection, sanogenic reflection, principle, pathogenic reflection, subjectivity, introspection.*

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati hamda ma’naviyati jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil va vosita ekanligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun zarur ijtimoiy faol fuqarolar, yuksak saviyaga ega mutaxassislar, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta’lim muxitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tayyorlash zarurati bilan bog‘liq pedagogik kadrlarni tayyorlash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda.

Dunyoda oliy ta’lim muassasasi talabalarida sog‘lom fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ularda sanogen refleksiyani tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, sanogen fikrlashini faollashtirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish, SMSC (Spritual – ma’naviy, Moral – axloqiy, Social – ijtimoiy, Cultural – madaniy) strategiyasi asosida akmeshaxsni shakllantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Zero, Respublikamizda inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan[1].

Oliy o‘quv yurtlarida talabalar ham shaxsiy, ham kasbiy va intellektual jihatdan rivojlantirilishi lozim. Shu jihatdan, bo‘lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyani rivojlantirish ularning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishishini ta’minlovchi mexanizm sifatida baholanmoqda.

Sanogen fikrlashning konseptual asoslari Yu.Orlov tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, olimning fikriga ko‘ra, uning asosiy vazifasi shaxsning o‘zini-o‘zi takomillashtirish maqsadlariga erishishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir: xususiyatlar va sifatlar, o‘zi va atrof-muhit bilan uyg‘unlik, yomon odatlardan saqlanish, hissiyotlarni boshqarish, nazorat qilish.

Yu.M.Orlov tomonidan “sanogen tafakkur” g‘oyasi salbiy hissiyotlardan azob chekilishini kamayishiga olib keladigan fikrlashning o‘ziga xos turi sifatida taqdim etilgan, uning asosiy vazifasi inson hissiy holatini konstruktiv tarzda tartibga solishdan iborat. [2; 9-b.] Muallifning fikriga ko‘ra, bizning fikrlash tarzimiz shaxsiy hayotimiz, ta’lim olishimiz, shaxslararo munosabatlarimiz sifatini hamda hayotimiz mazmunini ham belgilaydi [3; 4; 5].

Inson hayoti davomida yoqimli va yoqimsiz hislarni boshidan kechiradi. Yoqimli (stenik) hislar ijobiy faoliyat natijasini, yoqimsiz (astenik) hislar esa salbiy faoliyat natijasini keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik, ketma-ketlikning buzilishi, aybdorlik kabi hislar nafaqat faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir etibgina qolmasdan, balki insonning jismoniy, ruhiy va aqliy salomatligining buzilishiga ham olib keladi. Yu.M.Orlovning fikricha, bunday holatdan faqatgina sanogen tafakkur yuritish orqaligina chiqish mumkin. Biroq, sanogen fikrlashga qarshi patogen fikrlash ham mavjud.

Patogen fikrlash insonga vaziyatni hissiy jihatdan ijobiy yakunlashga imkon bermaydi, u o‘tmish asiriga aylangan, bu surunkali stressni, o‘zi va boshqalar bilan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi [2, 25-b].

Sanogen refleksiya shaxsiy rivojlanish, moslashuvchanlik va salbiy hissiy holatlarni nazorat qilishga ta’sir etuvchi omil bo‘lib, u shaxsning hayotiy qiyin vaziyatlarga nisbatan qarshi kurashish qobiliyatidir.

Tadqiqot mavzusining nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyani rivojlantirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim.

Sog‘lom, ya’ni, sanogen tafakkurning birinchi prinsipi - hissiyotlarning haqiqiyligini tan olish. Bunda, emotsional holat bizning fikrlashimizning natijasi ekanligini bilish muhimdir. Mazkur tamoyilning mohiyati zarar yetkazadigan vaziyatlarga bo‘lgan nuqtai nazarni o‘zgartirishdir. Chunki odam o‘zining barcha muammolaridan xalos bo‘la olmasligi sababli, dunyoga nisbatan “salbiy” qarashlarini, bizning nuqtai-nazarimizdan “patogen” qarashlarini ko‘proq dialektik dunyoqarashga o‘zgartirishi kerak. Qarama-qarshilik, muammoga qarshi kurash pozitivistlarning fikriga ko‘ra, ko‘p hollarda samarasizdir.

Sanogen tafakkur nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan, sanogen fikrlash anglash yo‘li bilan hissiyotlarni boshqarish va shunga mos ravishda uni avtomatik ravishda keltirib chiqaradigan aqliy operatsiyalarni boshqarish vositasi sifatida qaraladi. Bunda sanogen tafakkur o‘tmish tajribasini konstruktiv qayta anglash va mulohaza qilish, ilmiy asoslardan yiroq bo‘lgan kundalik falsafaga xizmat qiladigan, samarasiz refleksiv (aks ettirish) strategiyalarini aniqlashdan iborat bo‘lgan ijobiy, ya’ni, real fikrlashdir.

Sanogen fikrlash hissiy holatlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, Yu.M.Orlov nazarida, sanogen va patogen fikrlash tarzi ular keltirib chiqaradigan oqibatlar bilan farq qiladi. Fikrlashning bir usuli muvaffaqiyatsizlik, xafagarchilik, ayb, hasad, uyat yoki boshqa hissiyotlarning salbiy ta’sirini kamaytirishga, ikkinchisi hayotning oddiy patogen falsafasini shakllantirgan holda kechinmalarni kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Ikkala fikrlash ham bir xil aqliy operatsiyalarga - tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirishga asoslangan. Va bu ma’noda ikkala fikrlash ham mutlaqo to‘g‘ri, ammo shunga qaramay, hatto to‘g‘ri fikrlash ham sog‘liq uchun zararli bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, sanogen tafakkurning ikkinchi asosiy prinsipi subyektivlikdir. Subyektivlik - bu insonning dunyo haqidagi tasavvurlari, uning nuqtai nazari, his-tuyg‘ulari, fikrlari, e’tiqodi va istaklari ifodasi. Subyektivlik muayyan faoliyat ko‘nikmasining har qanday jihatini o‘ziga xos, har xil talqin qilishni anglatadi. Muayyan faoliyat ko‘nikmasi har doim uni boshdan kechirayotgan subyekt uchun o‘ziga xosdir va uning tasviri faqat shu kishining ongida mavjud bo‘ladi. Garchi, o‘zlashtirilgan tajriba manbai obyektiv va hamma uchun ma’lum bo‘lsa-da, ammo uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa bevosita subyektga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bundan mantiqan uchinchi prinsip – o‘z-o‘zini anglash tamoyili kelib chiqadi.

O‘z aqliy odatlarini anglash, o‘z-o‘zini anglash - bu sanogen fikrlashga imkon beradi. Ongli fikrlash tegishli hatti-harakatlarning nomuvofiqligini aniqlashga imkon beradi.

Sanogen refleksiyani rivojlantirish bevosita introspeksiya (o‘z-o‘zini kuzatish) bilan uzviy bog‘liq. Introspeksiya tamoyili - bu sanogen tafakkur nazariyasi va amaliyotining to‘rtinchi tamoyilidir. Introspeksiya - bu subyektning o‘zi tomonidan o‘z-o‘zini chuqur tadqiq qilish usuli va uning aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni anglash: individual fikrlar, tasavvurlar, his-tuyg‘ular, tajribalar, tushunchalar va shu kabi holatlarni o‘z ichiga olgan ong faoliyati sifatida namoyon bo‘luvchi fikriy ko‘nikmalardir. Demak, ushbu tamoyil bizga insonning ichki dunyosi va ma’naviyati haqidagi yangi tasavvurlarga ega bo‘lishimizga imkon beradi.

Subyektga vaziyatdan ustun turishga, unda faoliyat obyektiga aylanmaslikka, ziddiyatli vaziyatni konstruktiv tarzda hal qilishga imkon beradigan mexanizm refleksiyadir. Refleksiya bu nafaqat o‘zini va dunyoni bilish qobiliyati, balki o‘zining xatti-harakati va faoliyatini tavsiflash, shuningdek vaziyat talablariga muvofiq ularni o‘zgartirish qobiliyati hamdir. Shu sababli, refleksivlik subyektning kundalik o‘z hayot falsafasi doirasidan tashqariga chiqa olish qobiliyati

sifatida nafaqat o‘zini bilish, balki aqliy odatlarini o‘zgartirish maqsadida ham sanogen fikrlashning beshinchi tamoyili sifatida qaraladi.

Biroq, refleksiya (aks ettirish), fikrlash kabi, patogen xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Muammoli-nizoli vaziyatlarda shaxs o‘zini namoyon qilish usuli bo‘yicha biz refleksiyaning qaysi xususiyati ta’sirida ekanligini aniqlashimiz mumkin. Agar, ziddiyatli vaziyatda shaxs ta’sirlanish va o‘zini tutishning reproduktiv-regressiv usulini namoyish etsa, unda bu holda refleksiyaning patogen xususiyati mavjud; agar muammoli-mojaroli vaziyatga javob berish usuli progressiv-produktiv bo‘lsa, unda refleksiya tabiati sanogendir.

Shundan kelib chiqib, sanogen refleksiyaning oltinchi tamoyili – fikrlash tarzining ilmiylik tamoyilidir. Bu shuni anglatadiki, talabalarni sanogen fikrlash va sanogen refleksiyaga yangi odatlar va aqliy xatti-harakat ko‘nikmalarini, fikrlarni nazorat qilishga va hissiyotlarni boshqarishga imkon beradigan sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonida o‘rgatish mumkin va zarur. Bunday mashg‘ulotlar natijasida his-tuyg‘ularni doimiy qat’iy boshqarish yoki yo‘qotish emas, balki ularning asoslarini anglash qobiliyati shakllanadi, bu esa salbiy hissiyotlar yuzaga kelishini bartaraf etadi.

Demak, canogen refleksiya bu insonning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z dunyoqarashini, fikrlash tarzini tushunishni hamda orttirilgan tajribalarni qayta aks ettirish va yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda, ayni vaqtda bajarayotgan va kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan faoliyat shakllarini hamda boshqa subektlar bilan bog‘liqligimizni va ular bizga qanday aloqasi borligini sanogen aks ettirish vositasida to‘g‘ri asoslash va baholash amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sanogen refleksiyaga uyg‘un ravishda inson hayotiy faoliyatining to‘rtta asosiy – tana, aql, ijtimoiy-muloqot va ma’naviy sohalarini sog‘lomlashtirish modeli sifatida qarashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y.

2. Орлов Ю.М. *Саногенное мышление* / сост. А.В. Ребенок. Серия: Исцеление размышлением. М. : Слайдинг. 2008. С. 96

3. Орлов Ю.М. *Восхождение к индивидуалности* : Кн. для учителя. М. : Просвещение. 1991. С. 221

4. Орлов Ю.М. *Исцеление философией* / сост. А.В. Ребенок. Серия: Исцеление размышлением. М. : Слайдинг. 2004. С. 140

5. Орлов Ю.М. *Обида. Вина* / сост. А.В. Ребенок. Серия: Исцеление размышлением. М. : Слайдинг. 2010.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Rasulova Zilola Durdimurotovna
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ta’lim texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini qurish mazmuni bayon etilgan. Fanlar mazmunini talabalar ongiga chuqur singdirish, ularni kreativ fikrlashga o‘rgatuvchi zarur axborotlarni tanlashga undash, tegishli shart-sharoitlarni yetkazish orqali innovatsion bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim jarayonini yaratish masalalari ifodalangan. Bo‘lajak o‘qituvchilar bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishishdagi ta’lim texnologiyalarining muhim xususiyatlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, kreativ tafakkur, ta’lim texnologiyalari, innovatsion muhit, texnologik yondashish, ijodiy va tanqidiy fikrlash.

Abstract: The article describes the content of building an innovative educational environment based on educational technologies. The issues of creating an educational process aimed at instilling the content of science into the minds of students, encouraging them to choose the necessary information that teaches them to think creatively, and meeting their needs for innovative knowledge by providing appropriate conditions are expressed. The important features of educational technologies in achieving thorough assimilation of knowledge by future teachers are described.

Key words: creative thinking, creative thinking, educational technologies, innovative environment, technological approach, creative and critical thinking.

Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida jahon andozlariga mos raqobatbardosh, kreativ shaxsni tayyorlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, mazkur tadqiqotlar asosida oliy ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish tizimiga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ta’lim sifati va talabalarning bilim olish samaradorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi fanlar mazmunini talabalar ongiga chuqur singdirish, ularni kreativ fikrlashga o‘rgatuvchi zarur axborotlarni tanlashga undash, tegishli shart-sharoitlarni yetkazish orqali innovatsion bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim jarayonini qurishdan iborat.

Kreativ fikrlash - bu mavjud hodisa ta’lim jarayonini tashkil etish va psixologik-pedagogik ta’minlash uchun katta ahamiyatga ega. Kreativ tafakkur – aqlning peshqadamligi, tezlikda qarorlar qabul qilish, qarorlar qabul qilishdan

Cho‘chimaslik, ish vazifasi va sohasiga sodiqlik, tafakkurning egiluvchanligi, noan’anaviyligi, nostandart qarorlar va yechimlar qabul qilishlik, ong, tafakkur va aqlni barcha yo‘nalishlarida istiqbolni ko‘rish va anglashga o‘rgatish, prognoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirilishiga bog‘liq pedagogik jarayondir. Hozirgi bosqichda u yanada samaraliroq va tarixiy jihatdan kreativ tafakkurni tafakkur turi sifatida emas, balki uning eng yuqori shakli sifatida talqin qilish tabiiydir. Talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning muhim omili ta’lim mazmunini qurish va rivojlantirish mantiqidir. Tarkibni tanlash va qurish, uni o‘zlashtirishni to‘rt darajada - nazariy taqdimot, o‘quv dasturi, o‘quv intizomi va didaktik tsiklda tashkil etishning barcha masalalarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim mazmunini qurishning har bir darajasi o‘qitish strategiyasiga mos kelishi kerak.

Talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi faol xarakterdagi usul va shakllardan keng foydalanishdir. Bu yerda ta’lim texnologiyasi eng samarali usul bo‘lib, ta’limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi. Ta’limga texnologik yondashish - bu ma’lumot va ta’lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida ta’limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta’limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan ko‘zlangan maqsadga erishishdir.

Shu o‘rinda ta’lim texnologiyalari quyidagi o‘ziga xos belgilari bilan ifodalanadi.

- ta’lim maqsadlarini aniq belgilash;
- ta’limni qo‘yilgan maqsadga yo‘naltirish;
- kafolatlangan natijaga intilish;
- ta’lim natijasining shxsiy qiymatini oshirish;
- joriy natijalarni baholash;
- ta’limning borishiga o‘zgartirishlar kiritish;
- ta’limga tuzatishlar kiritish;
- ta’limni takrorlash va nazorat qilish;
- tuzatish va o‘zgartirish kiritilgan ta’lim natijalarini baholash;
- etalon darajasida o‘zlashtirish va baholash [4].



Bo‘lajak o‘qituvchilar bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishishda ta’lim texnologiyalarining quyidagi muhim xususiyatlari

“Ta’lim texnologiyalari - bu ma’lum narsalarning kombinatsiyasi o‘qituvchilar uzatishda foydalanadigan usullar, uslublardir. Shu uchun “ta’lim texnologiyasi” tushunchasining asl mohiyati shundan iboratki, ulardan foydalanish bilan qurilgan o‘quv jarayoni otalabalarga bilimlarni samarali o‘zlashtirish bilan birga kreativ fikrlashga imkon beradi. Ta’limni tashkil etish orqali o‘quv jarayonini boshqarish ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni eng samarali deb hisoblash mumkin [5].

Aynan kognitiv va ijodiy faollashtirish uchun talabalar faoliyatida ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu talabalarning ish samaradorligini oshiradi, bunday holda o‘qituvchi va talabalarning roli o‘zgaradi. O‘qituvchi maslahatchi vazifasini bajaradi va talabalar mustaqillikka erishadilar. Shuning uchun ularning kognitiv faolligi ortadi. Pedagogik faoliyatda turli texnologiyalardan foydalanish shaxsiy yondashuvga qaratilgan holda amalga oshiriladi, chunki talabalar o‘quv jarayonining markazida joylashadi.

Bu turdagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi [3].

Garixina K.E., Vaganova O.I., Aleshugina E.A. o‘z tadqiqotlarida ta’lim texnologiyadan foydalanishda talabalarning nafaqat mustaqil bo‘lish qobiliyati, balki ularning kreativ salohiyati shakllanadi degan fikrni ilgari suradilar [1].

Bir so‘z bilan aytganda ta’lim texnologiyalari o‘qituvchi va talabalarning muayyan harakatlar ketma-ketligini ifodalaydi va belgilangan maqsadlar va ko‘zlangan natijalarga erishishni ta’minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kreativ tafakkurini rivojlantirishning muhim sharti, ularning ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishidir. Chunki bunday ilmiy izlanishlar ularni doimiy
ravishda muammoli vaziyatdan chiqishga, o‘rganilayotgan ob’yektlardagi qarama-qarshiliklarni ko‘rishga, muammolarni his qilishga imkon beradi. Shuningdek ulardagi fikrlash, tasavvur, qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatni rivojlantiradi, kasbiy adabiyotlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni, o‘zini-o‘zi namoyon etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Innovatsion muhitda ta’lim jarayonida o‘qituvchilar tomonidan muammoli izlanish, kichik tadqiqotlarni olib borish, debat, bahs-munozara, evristik suhbat, kichik guruhlarda ishlash, turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish, talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlash, mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga

e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga talabalar kreativ tafakkur qila olish qobiliyatlarini rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi [2].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashirgan kasbiy ko‘nikma, malaka va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash usullari bilan qurollantirish pedagogik ta’lim jarayonini innovatsion g‘oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida ularni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi**.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda nazariy bilish darajasida aql, tushunchalar, tamoyillar, nazariyalar kabi tafakkur shakllari bilan ishlash ustuvor faoliyatga aylanadi. Kreativ potentsialni rivojlantirishda hissiy bilish aqliy tafakkur uchun empirik, hissiy – tajribaviy zamin bo‘lib xizmat qiladi .

Adabiyotlar

1. Гари хина К.Е., Ваганова О.И., Алешугина Е.А. Кейс-обучение в подготовке будущих бакалавров профессионального обучения В сборнике: Инновационные подходы к решению профессионально-педагогических проблем сборник статей по материалам Всероссийской научно-практической конференции. Мининский университет. 2019. С. 183-187.
2. Jumaniyozova M.T. O‘qituvchining kasbiy kreativligini takomillashtirish texnologiyalari // Monografiya. Toshkent.: “Metodist” nashriyoti. 2023, - 224 b.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari //– Toshkent: 2015. – 208 bet.
4. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi // Risola. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, “Ziyo – Noshir” 1999. – 72 b.
5. Смирнова Ж.В., Ваганова О.И., Карпова М.А. Роль технологии дискуссионного обучения в формировании коммуникативных компетенций обучающихся // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). 2018. Т. 9. № 9-2. С. 113-116.

BO‘LAJAK ZAMOVIY O‘QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Nematova Nigina Nabiyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Zamonaviy ijtimoiy borliqning moddiy va ma’naviy sohalarida yuz berayotgan rivojlanishlar inson tafakkuri, fikrlashi, dunyoqarashini ham o‘zgarishida o‘z aksini topmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda talabalarning bilish faoliyatini o‘stirish mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy, innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning ta’lim sistemasida samaradorlikni kafolotlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida ko‘pgina ilmiy-amaliy ishlar natijasida interfaol metodlar yaratilgan va bunday metodlar o‘quv jarayonida o‘quvchining o‘z-o‘ziga baho berishi, o‘qish faoliyatiga ijodiy yondashishi, mustaqil muammoni hal qila olishi jihatlarini rivojlanishi har bir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tanqidiy fikrlash bilan qaray olishi kabi qobiliyatlari shakllanishi uchun zamin bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

Tanqidiy fikrlash qobiliyati hozirda talabalarda bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalarning eng muhimlaridan biri. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullari haqida to‘xtalishdan oldin fikrlash o‘zi qanday tushuncha ekanligiga to‘xtalib o‘tsak. Fikrlash bu- dars davomida amalga oshiriladigan, ta’lim oluvchilar o‘zlari duch kelgan mavzularga savollar berishi, talqin va taxlil qila olishi,bahs-munozara yurutish jarayonida bilimlarini yangi sohaga qadar kengaytirishlari hisoblanadi[2]. Fikrlash - bu muammoni hal qilish uchun fikrlash yoki fikrlashdan iborat psixologik jarayon. Tanqidiy fikrlash atamasi ko‘plab o‘zbek olimlari tomonidan ham

o‘rganilib uning mazmun- mohiyati ochib berilgan va “Pedagogika faninining izohli lug‘ati”da ham bir qancha ta’riflar keltirilgan: “Tanqidiy fikrlash– bu berilgan fikrlar(ma‘lumotlar) davrasidan chetga chiqaradigan fikr (ma‘lumot) larning mavjudligini idrok qildirish va bunga erishish; mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni kengaytirish borasida yangi o‘lchovlarni yaratish; tegishli muammolarni izlash va ularni optimal yechimlarini topish. Tanqidiy fikrlash – bu axborotlarni o‘zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o‘ylash jarayoni. Tanqidiy fikrlash– bu ochiq va demokratik jamiyatning g‘oyatda muhim ramzi. Tanqidiy fikrlash– bu fikr va imkoniyatlarni murakkab ijodiy yaxlit holga keltirish, axborot va konsepsiyalarning mohiyatini o‘zgartirib, ularni qaytadan mushohada etish jarayonidir. Tanqidiy fikrlash – murakkab o‘ylash jarayoni. Tanqidiy fikrlash – to‘g‘ri tuzilgan pedagogik jarayonning natijasi bo‘lib, unda o‘qitishning maqsadi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash – berilgan fikrlar doirasidan chetga chiqadigan fikrlarning mavjudligi; mavzuda yangi o‘lchovlarni ko‘rish; muammolarni izlash va yechish, shunindek, dalillangan yozish yoki munozara shaklida ifodalanadigan fikrlar o‘rtasidagi tafovut” [2]. Tanqidiy fikrlash ta’lim jarayonlari va kundalik hayot bilan uzviy holda o‘rganiladigan faoliyat hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi haqida jahon olimlari ham ko‘plab izlanishlar olib borganlar va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni haqida shaxsiy qarashlarini kelitirib, izohlab o‘tadilar. E.A.Xodos va Butenko fikriga ko‘ra: ”Tanqidiy fikrlash- metokognitiv qobiliyatlar majmuasi sifatida mantiqiy xatolarni qidiradi, bilimlar asosini o‘rganadi, yashirin taxminlar va noto‘g‘ri qrashlarni, steriotiplarni aniqlaydi, dilemma(muammo)larni hal qilishning muqobil usullarini shakllantiradi shuningdek, hukmlarning to‘grili, ishonchliligini baholaydi”[3]. Psixolog olimlar R.Ennis va E.Norris tanqidiy fikrlash sohasida chuqur va shartli tadqiqotlar olib bordilar, ular buni oqilona fikrlash, fikrlash jara yonining o‘zini nazorat qilish va qonunlarga rioya qilish qobiliyati kabi ko‘nikma va qobiliyatlarning yig‘indisi sifatida izohladilar[4]. E.M.Richard o‘rganish va fikrlashning ta’rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multmedia madaniyati ta’limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi[5].

Bu tadqiqotlaming asosiy natijalari:

1. O‘rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo ladi. Bunday strategiya o‘rganish jarayonini yanada onglilashtiradi[6].

2. O‘rganish va tanqidiy fikrlash talabalaming aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlami qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lgan taqdirda rivojlanadi[7]

3. O‘rganish talabalaming oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi(Ros,1990).

4. Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalaming turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash yakkayu-yagona to‘g‘ri javobmi qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muayyan muddatni talab qiladi. Dastlab uni shakllantirish va shakllantirishga yordab beruvchi mexanizmlarini muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami bilan tanishish lozim.

Ular:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g‘oya va fikrlami qabul qilish;
- talabalaming o‘quv jarayonidagi faolligini ta ’minlash;
- talabalami kulgiga qolmasliklariga ishontirish;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘ziarida ishonch hissini uyg‘ otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini erkin bayon qila olish, omma oldida gapirishishdan cho‘chimaslik kabi xususiyatlar ham talabalarda ma’lum bir vaziyatlar tufayli yopilib qolishi mumkin. Bunday holatlar asosan biron bir mavzuni ko‘r-ko‘rona yodlash, dars jarayonlari bir xil qolipga tushib qolgan yoki yodlashga

asoslangan vaziyatlarda kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganayotgan abiturentlarning asosiy vazifasi berilgan ma’lumotni yodlash va eslab qolishga tayangan bo‘ladi va bunday talabalar oliy o‘quv yurtiga kirganlarida erkin fikrlarini bayon qilish bilan bogliq muammolarga duch kelishlarini kuzatganmiz. Aynan mana shunday talabalada

tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va uning shakllanishi davomida e’tibor beradigan jihatlarimiz mavjud:

- o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushuntirish;
- o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi;
- turlicha fikrlarni e ’tibor bilan tinglashi;
- o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi.
- har bir aytilgan fikr-g‘oya juda qimmatli va asosli bo‘lishi talabalarga tushuntirilishi kerak.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirilishida kerak bo‘ladigan omillar:

1. Vaqt.
2. Izn.
3. Rang-baranglik.
4. Faollik.
5. Tavakkalchilik.
6. Qadrlash.
7. Qimmatchilik.
8. O‘zaro fikr almashuv[8].

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. O‘z fiklarini ijod qilish go‘yo avvalgi g‘oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalami arxeologik jihatdan tadqiq qilishga ma’lum bir vaqt kerak bo‘ladi. Bola tug‘ilgan zahoti gapira olmaydi bu layoqat shakllanishi uchun bir muncha vaqt talab qilgani kabi tanqidiy fikrlash ham ko‘nikmasi ham bir tushuntirishda shakllanadigan jarayon emas unga moslashish, o‘z yondashuvini shakllanishi uchun muddat kerak bo‘ladi.

Izn. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo‘lgan va do‘stona hamda samarali sharoitda beriladi ya’ni boshqa bir insonning fikrini xurmat qilgan holda o‘zining fikrlarini bayon qilish jarayonidir.

Rang-baranglik. Insonning ongi cheksiz bilim va g‘oyalarni o‘zida mujassam qila oladi. Rang-barang fikr va g‘oyalar mavjudligi yagona javob borligi haqidagi tasavvurni inkor qiladi. Agar javob bitta bo‘lsa talabalarga o‘sha javobga borish uchun ishlatiladigan vositalarni, metodlarni va shakllarni o‘zgartirish usullarini o‘rgatish joiz.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalardan faollikni talab qiluvchi ko‘nikmalardan biridir. Talabalarda dars jarayoni uchun faqat o‘qituvchi mas’ul degan tushunchani shakllanishidan uzoq tutish kerak. O‘quv jarayonlarida talabalarning faol ishtirokini va o‘qish jarayoni uchun o‘zlarida ma’suliyat hissini uyg‘otish tanqidiy fikrlash jarayonida kutilgan samarali natijani beradi.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirayotganimizda u asosan tavakkalchilikka asoslangan bo‘ladi hamda bu jarayon vaqtida talaba- o‘quvchilar tomonidan asossiz va axmoqona g‘oyalar ham aytilishi mumkinligini tabiiy qabul qilish va bu o‘qituvchi pedagog tomonidan izoh berib o‘tilishini talab qiladi.

Qadrlash. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o‘z g‘oyalari, tushunchalarini o‘qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holatdagina ma'suliyat hissi bilan javob qaytaradilar. Talabalar o‘z fikrlash jarayonini qadrlashlarini namoyish qilish maqsadida uni haqiqat ekanligini isbotlashga harakat qiladi va uning natijalariga jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar.

Qimmatchilik. Har bir talabada dastlab o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini uyg‘otish unda o‘z fikriga nisbatan ham sobit qadam bilan hech qanday qo‘rquvlarsiz so‘zlash imkonini beradi. Ko‘p mutolaa qilgan.o‘qigan asarlarini tahlil qila oladigan insonlarning odatta fikrlash qobiliyati ham yuksak,fikrlari ham ravon bo‘ladi bunday insonlarning aytgan so‘zlarining ham qadri baland bo‘ladi.

O‘zaro fikr olishuv.Tanqidiy fikrlash jarayoni o‘zaro bahsli fikr almashinuvu, debatlar vaqtida yuzaga keladigan jarayondir va bu jarayonlar davomida talabalar o‘rtasida o‘zaro ijobiy raqobatdosh hamkorlik yuzaga keladi, bu esa o‘z navbatida o‘zaro fikr olishuvi ham deb yuritiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan oldin uning shakllantirilishi va shakllantirish jarayonida qanday omillarga e’tibor qaratishimiz kerakligini naqadar muhim ekanligini ko‘rib o‘tdik. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi omillarni paydo qilinishi ularning kelajakka qadam qo‘yishlarining debochasi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.

2. Pedagogika fanidan izohli lug‘at”. M.X.To‘xtoxodjayevning umumiy taxriri ostida O‘zbekiston respublikasi FA —”Fan” nashriyoti, Toshkent – 2008.264 b.

3. E.A.Xodos, A.V.Butenko Критическое мышление: метод, теория, практика. Moskva: “Мирос”, 2002. -176b.

4. R. Ennis Evaluating Critical Thinking. New York: “Pacific Grove, CA, Widwest”, 1989. -283b.

5. E.M.Richard Learning and Instruction. Upper Saddle River, N.J.: Merrill, 2003 ISBN (https://en.m.wikipedia.org/wiki/ISBN_(identifier)) 978-0-13-098396-1 (https://en.m.wikipedia.org/wiki/Special:BookSources/978-0-13-098396-1)

6.A.Palinskar. Anne.L.Brown Center for study of reading university of illunois. // Cognition and Instruction. – online nashr etilgan,117-175b https://doi.org/10.1207/s1532690xci0102_1

7.L.B.Resnik Education and learning to think. //Creative education. –Washington, 1987.

8.N.N.Azizxo‘jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Oquv qo‘llanma. -T. : “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot” jamg‘armasi nashriyoti. 2006. -160b.

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA’LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Zilola Tosheva,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo`lidan dadil odimlayotgan mamlakatimizda kelajakning tayanchi va suyanchi bo'lmish yosh avlodni yangicha, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, tashabbus bilan faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy bilim, kasb-hunarni puxta yegallagan, o'z yurtining haqiqiy yegasi, Vatanimizning taqdiri va taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlarni voyaga yetkazish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bunday yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish yuksak darajadagi pedagogik va ma'naviy-axloqiy madaniyatga yega bo'lgan o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga yuklangan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalaridir”.

Ushbu fikrda zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati aks etgan. O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish o'qituvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Barcha o'qituvchilar pedagogik jamoa, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqot o'rnata olish texnikasini o'zlashtira olganmi? Hamma o'zlarini kuzatib, o'z harakatlarini o'zboshimchalik bilan his etishga, aqlan va irodali harakatlarga tayanib, kelib chiqadigan nizoni hal qilishning barcha mumkin bo'lgan usullaridan birini tanlashga qodirmi? Aksariyat pedagoglar quyidagi

tendensiyani qayd etadi: pedagogik faoliyatda ko'p yillik tajribaga yega bo'lgan, oliy va o'rta ta'lim muassasalarida yaxshi psixologik va pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan, ammo pedagogik etika to'g'risidagi bilimlar yetishmaydi. Bu ko'pincha maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab o'quvchilarining zamonaviy ota-onalari (qonuniy vakillari) bilan muloqot qilishda nizoli vaziyatlar paydo bo'ladi va ko'pincha ziddiyatlar vujudga keladi, pedagogik jarayon murakkablashadi, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati pasayib borishga sabab bo'ladi. Pedagogika oliy o'quv yurtida pedagog xodimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, kichik xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik kerak. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi kasbiy etika me'yorlari bo'lajak o'qituvchilar kasb axloqi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir. Pedagogik etika? pedagogik faoliyatning ma'naviy xarakteri va pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni ta'minlovchi o'qituvchining xatti-harakatlari to'plami; fan, kelib chiqishi va tabiatini o'rganish, axloqning namoyon bo'lishining shakli, funksiyalari va xususiyatlari.

Axloqiy qadriyatlar - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari haqida g'oyalar tizimi. O'qituvchining axloqiy me'yorlariga quiydagilar kiradi: xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, sobitqadamlik, ochiq ko'ngillik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sipolik, kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

Xushmuomalilik- ko'ngildagi ardoqli fikrlarni, yeng noyob his-tuyg'ularni, yeng yezgu niyatlarni o'quvchilar, odamlar bilan baham ko'rish, osoyishtalik, vazminlik, xotirjamlik bilan ish tutishdir. Uning 10 ta belgisi bor. Ular quyidagilar: insof, aql, ilm, oliyjanoblik, ko'rkam fe'l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlik.

Odoblilik-yaxshi tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi, xatti-harakatlarda, so'zlashuvda me'yorni, chegarani, muvofiqlilik va nomuvofiqlikni bilishdir. Odoblilikning asosiy belgisi – o'zini tuta bilish, hukm chiqarishda shoshilmaslik, kishlarning orqasidan g'iybat qilmaslik, o'zgalar fikrini tinglay bilish, shirinso'zlik hisoblanadi. Halollik har bir insoning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning evaziga topgan mol-mulki, obro'si, jamiyatga tutgan o'rni, xulqining to'griligi, so'zida qat'iylik va sadoqatining majmuasidir.

Sobitqadamlik-niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga yetmaguncha undan chekinmaslik, boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir. Sabr-qanoat-boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan yengishdir.

Kamtarlik deb kishining o'zini tabiiy holda qanday bo'lsa shundayligicha hamma bilan teng bab-barobar tutishiga aytiladi.

Rostgo'ylik-halollikning bir ko'rinishi bo'lib, haqiqatni gapirish, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'gri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir.

Shijoat-botirlik, jasorat, dovyuraklik, mardlik degani. Pokizalik? bu tozalik va soflik degani. Tozalik-inson salomatligining garovi. O'qituvchining axloq normasi sifatida kiyim-kechagi, ish joyining pokiza bo'lishini hamda qalbining pok bo'lishini, taomiga harom aralashmasligi, halol bo'lishini talab qiladi.

Burch-ado yetilishi, bajarilishi shart bo'lgan vazifa, majburiyatdir. Pedagogik burch pedagogik etikaning yeng muhim kategoriyalaridan biridir. Ta'lim sohasi xodimlarning kasbiy burchi deb jamiyat, davlat qo'ygan vazifalarni, xizmat vazifalarini majburiy ravishda bajarishlariga aytiladi.

Pedagogik burchning asosiy mazmunini tashkil yetuvchi vazifa va majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- Ona Vatan O'zbekiston Respublikasiga cheksiz sadoqat bilan xizmat qilish;
- o'z davlati Konstitutsiyasiga va qonunlariga qat'iy rioya qilish, buyruq va nizomlarning talablarini bajarish;
- o'qituvchilik faoliyatida va shaxsiy hayotda halol va to'g'ri, mehnatsevar, intizomli bo'lish;

- axloq, odob qoidalariga qat'iy rioya qilish, doimo ozoda va orasta kiyinish;
- o'z fani mazmunini va bu fanni o'qitish metodikasini puxta yegallash;
- o'z kasbiga nisbatan muhabbatli bo'lish, bolalarni sevish, ular bilan ishlay olish qobiliyatiga yega bo'lish;
- kasbiy mahoratini doimo rivojlantirib borishi;
- zamonaviy talablar bo'yicha yetuk, faol, ijtimoiy, siyosiy masalalarni to'g'ri tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Pedagoglik mehnatini o'ziga olgan har qanday shaxs moyillik, qobiliyat va imkoniyatlariga qaramasdan muayyan axloqiy qoidalar va talablarni bajarishga majburdir. Pedagogik burchning talablaridan biri–o'zining bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borishdir. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasida muhim ahamiyatga yega. Buning uchun o'qituvchi muntazam o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashi shart. Burch o'qituvchi oldida bo'sh vaqtning kamligiga qaramasdan o'z ustida doimiy ishlashni talab yetadi. Pedagogik burchni yeng yuqori nuqtasi fidoyilik: vaqt va salomatlik holatiga qaramasdan ishlashdir. Kasbiy fidoyilikning yorqin namunasiga A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiy hayoti va faoliyati misol bo'la oladi. O'qituvchilik mas'uliyati. Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir.

O'qituvchilik kasbining sha'ni deb, o'qituvchilik faoliyatini bajarishida o'zlarining insoniylik, adolatparvarlik, vijdoniylik, halollik xislatlarini har tomonlama namoyish qilib, oriyatli, diyonatli bo'lib, o'z kasblarini ulug'lashlari va ardoqlashlariga aytiladi.Qadr-qimmat deb xodimlarning jamiyatda, kishilar orasida tutgan o'rni, topgan obro'si, hurmati va nufuziga aytiladi.

Or-nomus kategoriyasi shaxs axloqining tashqi tomonlarini ifodalasa, qadr-qimmat kategoriyasi yesa insonning o'z-o'zini anglashi va nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o'z qadrini anglash shakli bo'lib, insonni kamsitadigan, xo'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida o'z qimmatini yo`qotishga sabab bo'ladigan qiliqlarga yo`l qo'ymaydigan to'siq hisoblanadi. O'qituvchilarning qadr-qimmati ularning o'zini-o'zi hurmat qilishi va saqlashi, o'quvchilar hurmatini yo`qotmasligi, o'z sha'niga dog' tushirmaslik uchun o'zini nazorat qilishi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik vijdon deb o'qituvchining o'z xatti-harakati, qilmishi yurish-turishi uchun o'quvchilar, odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usi tushiniladi. Insonda irodaning paydo bo'lishi va kuchayishi uni harakatga keltiradi, vijdon azobidan qutqaradi. Vijdon insonning faqat o'ziga, o'z xatti-harakatlarigagina yemas, balki boshqa kishlarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda yetadi. O'qituvchi qanchalik vijdonli bo'lsa, o'z kasbiy burchini shunchalik chuqurroq anglaydi va faolroq bajaradi. “Tarbiyada hamma narsa murabbiyning shaxsiga asoslanishi kerak”? deydi-K.D. Ushinskiy

O'quv – tarbiya jarayonida oqituvchining pedagogik etikasi bu- A.Xoliqovning ta'kidlashicha: “O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish o'qituvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, turli xarakterdagi o'quvchilardan iborat bo'lgan, sinf jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U o'quvchilar xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, o'quvchilar bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart”. Yuqorida pedagogik etikaning kategoriyalari haqida to'xtalib o'tdik. Bundan tashqari, umuminsoniy axloqqa zid illatlar ham mavjud.

Shuning uchun oilada, maktabda, oliygohda, mehnat jamoasida o'qituvchi mazkur illatlardan yiroq bo'lishi shart. Zero, ta'kidlaganimizdik, o'qituvchi ta'lim-tarbiya ishida o'zi namuna hisoblanadi. Axloqqa zid illatlarni yo`q qilish har bir vijdonli fuqaro, xususan, ta'lim sohasi xodimlari, pedagoglar ? barkamol avlod yaratuvchilarining asosiy burchidir.Pedagogik etikaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma tomonlari chuqur ichki bog'lanishga yegadir. O'qituvchining o'quvchilarga munosabatida bu xususiyatlarning har biri

uning kundalik ishlarida, xatti –harakatlarida, nutqida, ba'zan yesa sharoitlarga qarab o'quvchiga ta'sir ko'rsatishning ayrim choralarini qo'llashdan o'zini tutib qolishda ham aniq ifodalanadi. O'qituvchi boshqa ixtisosdagi kishilarga qaraganda, ma'naviy boy, ustahkam ye'tiqodli, shuningdek, yuksak darajadagi umumiy madaniyatga yega, o'z ixtisosi doirasidan tashqari ham ko'p narsalarni bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchida yeng yaxshi xususiyatlarning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy shartlardan biri uning o'z ustida ishlashi, tinmay malakasini oshirib borishidir.

ASSESSMENT FOR STUDENTS 21 ST CENTURY SKILLS

Boboyev Maqsud Mahmudovich
The head of the methodical service department, Bukhara, Uzbekistan

Abstract: The development of society, reforms in the field of education in our country require highly educated and knowledgeable candidates in accordance with the world standard. This article describes the solution of the problems in the fields of physics and the problem of prospects for improvement.

Key words: Elective subject, formative assessment, summative assessment.

21st century in the minds and hearts of students in the process of building a free, prosperous and powerful New Uzbekistan formation of century skills. The "Uzbekistan-2030" strategy also shows the implementation of this urgent task.

It is known that one of the most important tasks in the education system is to raise the quality and content of education to a new level, to educate spiritually mature, morally pure, rich in personal and professional qualities, independent thinking, initiative and active young people.

Organization of educational processes based on the ability and choice of students, widening the specialization of high school students in subjects, creating wide opportunities for directing them to higher educational institutions, and "Effectively organizing the activities of the Ministry of Preschool and School Education and organizations within its system on the measures to achieve" Order of the Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan dated June 27, 2023 No. 192 in order to ensure the implementation of the tasks specified in Decree No. PF-79 dated May 26, 2023 was accepted.

Based on this order, starting from the 2023-2024 academic year, elective subjects were introduced for students of the 10th grade and were organized in the directions of mathematics - physics, chemistry - biology, mother tongue - foreign language, mathematics - foreign language .

In general education schools where experiments are conducted on the organization of educational processes based on the ability and choice of upper class students. formative and summative assessment types are used to determine the indicator of students' knowledge acquisition.

Formative assessment is a process of continuous feedback between teacher and students. It is a continuous process of obtaining information about the student's progress in order to adjust the subsequent actions of the students to achieve the learning goal.

Summative assessment is a process of formal assessment of the student's mastery of the competencies specified in the state educational standard and curricula during a certain period of study (sections and chapters of the curriculum, quarterly, at the end of the academic year) and includes a test, written work, oral interview, project work, presentation work, it is carried out with the help of practical training, laboratory work, creative work and other similar forms.

As it is known, summative assessment of the unit (here in after - SAU) is a process of official assessment of the level of acquisition of competencies defined at the end of the chapter or section.

Summative assessment of the term (here in after - SAT) is an official process of assessing the level of mastery of defined competencies at the end of the term.

In this case, as a result of summative assessment, the teacher identifies possible gaps in the student's learning and works to eliminate them together with the student. Also, this evaluation system provides objectivity. As a result, there is no room for subjective assessment.

Based on this news, Bukhara region pedagogues at the National Center for Training in New Methods Methodical service show department, we have prepared a methodological guide " On the development of 21st century skills and their assessment for students of the 11th grade in physics ". As a physics teacher, we approved the practical notebook for students in the 44th and 46th schools of Jondor district. According to the conducted monitoring, effective results will be achieved if science teachers use this recommendation appropriately during their work.



The advantage of this methodical manual is that 8-12 questions on each subject of 11th grade physics (that is, students' knowledge of the subject), problem solving (application) and practical assignments (reasoning) are given.

In addition, this methodical manual increases the activity of students, encourages them to acquire deep knowledge. It also helps to develop the ability to apply the acquired theoretical knowledge in practice . It is known that in teaching physics illustrating each topic with hands-on experiences gives great results. As a result, students' creative abilities and independent work skills form n adi.

the teachers of physics organize the study process in this way during their classes, it will be easier for the students to understand the essence of the given knowledge and master it .

Below, we have presented the QR code of this methodical guide. In addition, we intend to bring to the attention of teachers the same methodical manuals of physics for the 7th and 10th grades of general education schools as soon as possible.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. May 26, 2023 No. PF-79
2. N. Sh. Turdiyev, KA Tursunmetov , AG Ganiyev. 11th grade physics textbook T.: "NISO POLYGRAPH" - 2018.
3. M. Ismailov, S. Yunusov Elementary physics course T.: "Teacher" – 1990
4. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Sharipova Sitora Xaydarovna,
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta'lim texnologiyasining oliy ta'limda qo'llanilishi va ijtimoiy -gumanitar fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyaning afzalliklari, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Tayanch atamalar: *texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, uzluksiz ta'lim, ijodiy metod, ta'lim tamoyillari, motivatsiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ta'limning barcha bosqichlarida islohotlar amalga oshirilib, bugungi kunda ularning amaliy natijalari sarhisob qilinayotganligi va bu borada yangi sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyati mavjudligi tobora asosiy vazifa bo'lib bormoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalar ko'lamini bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan[1].

Oliy ta'lim oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologik ta'minoti muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Ilmiy-texnika taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiramoqda, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Texnologizatsiyalash -bu obyektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davridir.

Ta'lim va o'qitish sifatini yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro standartlar asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirishni talab etadi. Shuning uchun oliy ta'limni isloh qilishda texnologiya ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari o'sha davrning mashhur olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.l.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktiklarga taalluqlidir.[2]

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. 20.04.2017 yildagi Qarori bilan -2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturidan - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroridan

[2] Azizxo'jayeva N.N Pedagogik texologiyalar va pedagogik mahorat. - TOSHKENT: " Adabiyot" nashriyoti, 2006. 65-bet

Texnologiya atamasi keyinchalik pedagogika faniga kirib kelib, pedagogik texnologiyalar ostida ta’lim berishning o’ziga xos metodlari, usullari va vositalari shakllandiki bu fan taraqqiyotida muhim ixtiroga aylandi. Pedagogik texnologiya atamasiga mashhur didaklar va olim pedagoglar qator ta’riflar berishdi va bu atama fanning o’zagiga aylana bordi.

“Pedagogik texnologiya — bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ulaming birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YuNESKO)[1].

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi ta’lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko‘zda tutadi.

Oliy ta’limda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimdir. Bu tizimda yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo’llab-quvvatlash va ro’yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o ‘rin tutadi. U bo‘lajak pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo‘nalganligini idrok qilish, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tanqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog‘langan.

Bo’lajak pedagogning texnologik tayyorgarligi, oliy o‘quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o‘quv yurti ta’lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar; ***muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyalaridir.***

Yuqorida qayt etilgan texnologiyalardan biri **muammoli o'qitish texnologiyasi,** bugungi kunda talaba o’quvchilarni mustaqil o’qishga, firklashga, vaziyatlani to’g’ri baholay olishgaga va yakuniy to’g’ri xulosalar chiqarishga o’rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan biri sanaladi. Muammoli o‘qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi, uning tafakkurini, moyilligini va layoqatlarini aniqlash o’quv maqsadlarini bajarishga to’liq mos keladi.

Hozirgi kunda chop etilayotgan pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Bu fikrlarning, nisbatan to‘liqroq va aniqroq ta’rifi M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan, o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo‘lgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Oliy ta’limning barcha yo’nalishlarida, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’rgatishda samarali qo’llanilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bu albatta keng tarmoqli fanlar sohasi bo’lib, talabalarni bugungi siyosiy va ijtimoiy hayotni o’rganib to’g’ri xulosa chiqarishlariga xizmat qiladi. Gumanitar fanlar sohasi quyidagi fanlarni o’z ichiga oladiki, bu fanlar albatta oliy ta’lim muassasasi o’qituvchilarning bugungi innovatsion tamoyillar asosida rivojlanayotgan jamiyatda o’z o’rinlarini topishlarida muhim bilimlar poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Shuni inobatga olib, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham bejiz emas. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[2].

Shunday ekan, sog’lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish oliy ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liqdir.

[1] Azizxo’jayeva N.N Pedagogik texologiyalar va pedagogik mahorat. - TOSHKENT: “ Adabiyot” nashriyoti, 2006. 66-bet

[2] Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini, o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv jarayonlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, maqsadlarini, funktsiyalarini, savollar va bahsli munozaralar orqali hal qilish yangi bilimlarni o‘zlashtirish tizimi orqali ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Bu esa, bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usullarini yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxsiy rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil — muammolilikka tayanadi.

Bugungi kunda muammoli o’qitish texnologiyasi uzluksiz ta’limning barcha jabhalarida qo’llanilishi, ayniqsa oliy ta’limda bu kabi texnologiyalarni qo’llash bo’lajak pedagog kadrlarni raqabatbardosh mehnat bozorida faol, mustaqil firklashga o’rgatish, kasbiy kompetensiyalarning takomillashishi uchun muhim zamin hozirlaydi. Oliy ta'lim yo’nalishlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning hozirgi jarayoni tahlili, bo’lajak ijtimoiy soha vakillari, psixolog va pedagoglarning fikrlashi muammoli vaziyat, kutilmagan natijalar hosili bilan bog’liq bo’lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rsatadi. Muammoli o‘qitish sharoitida talabaning psixologik, emotsional va hissiy holati undagi fikrlash va aqliy izlanish uchun o‘ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zaruriyati yaratiladi. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikrlash yo‘lidagi kutilmagan to‘siq» bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlarini maxsus taqazo qilgan aqliy faollik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat qilish usullari yotadi. Bu aqliy va amaliy harakat usullari yordamida talabalarda muhim aniq va mukammal bilimlarni shakllanishiga sabab bo’ladi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talabadan jiddiy izlanishni talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talabaga tanish bo‘lgan ma’lumotlar va yangi faktlar, hodisalar, izohlar o‘rtasidagi ziddiyatlar majmuidir. Bu kabi ziddiyatli vaziyatlar talabalarda bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo’lib xizmat qiladi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

• *talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;*

• *vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko’rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.*

Muammoli vaziyatdan chiqa olish, hamma vaqt muammoni, ya’ni nima noma’lum ekanligini, bilim natijasini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog’langan bo‘ladi. Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo‘lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarini tushunishga, unga kirishish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya’ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. O’z o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammosi shakllanadi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma’lum (berilgan vazifa asosida), noma’lum (ulami topish yangi bilimlami shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar natijasi (talabalar tajribasi). Ular noma’lumni topishga yo‘nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma’lum bo’lgan o‘quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma’lum bo‘ladi, shunda talabalar o‘zlaridagi avval egallangan bilim va ko‘nikmalarga asoslanib kutilayotgan natija yoki yechimni yo‘lini izlashga tushadi.

Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o‘rganuvchilarda tanqidiy

fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o‘zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: **gnoseologik, metodik va o‘quv.** Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyusiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo‘l qo‘yiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o‘quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy mushohidalash, tahlil qilish va o‘z xatolarini to‘g‘rilash ko‘nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o‘quv predmeti va fanga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi: o‘rganilayotgan fan mazmuni o‘rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig‘indisi sifatida emas, balki g‘oyalar va odamlarning tarixiy tasavvuri tarzida, ijtimoiy maktab va yo‘nalishlar kurashi tarzida, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o‘quv xatolari bilan o‘zaro bog‘liq: o‘rganish xatolari ko‘p hollarda - o‘qitish xatolari natijasidir. O‘quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli ta’sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi.

Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko‘p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta’sir etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo‘lishi mumkin[1].

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo’llashda o’qituvchi va o’quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O’qituvchi faoliyatining tuzilmasi	**O'quvchi faoliyatining tuzilmasi**
- o’quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilish;	-o’quv materiali mohiyatining anglab yetilish;
- muammoli vaziyatlarni tuzish;	- muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash;
- muammoning mavjudligini aniqlab berish;	- mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash;
- muammoli topshiriqlarni loyihalash	- muammoli masalaga o’tkazish;
	- topshiriqni natijasini bajarish

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilish usuli o‘quv muammosi bo‘la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o‘quv muammosi hosil bo‘la olmaydi.

Talabalarning muammoli o‘qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg‘ulotda muammoni ifodalab berishidan iborat bo‘ladi, ya’ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi mohiyatini so‘z bilan ifodalab beradi, so‘ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg‘a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlashga harakat qiladi. Izlanish muammo yoki vazifa to’liq bajarilganidan so‘ng tugallanadi, ta’lim maqsadlari va vazifalari shu usul orqali echiladi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat — o‘quv muammosi — o‘quv muammosini yechish uchun izlanishlar majmui — muammoning yechilishi.

Muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o‘qituvchi uning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo‘lishi va ketma-ketlikdagi ilmiy izlanishlarini aniq tasniflab olganligi talab qilinadi.

Muammoli o‘qitish bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirish, atrof muhitga o‘zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o‘qitishga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi unda qo‘llaniladigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik,

[1] Olimov SH.SH Pedagogik texologiyalar va pedagogik mahorat o’quv qo’llanmasi - Buxoro: 2019. – 19 b

axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli bayon qilish asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi va afzalliklari haqida quyidagi jadvalda muammoli talimning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan[1].



Biz shu joyda ijodiy metod haqida fikr yuritamiz. **Ijodiy metod-** ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda talaba o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zlari ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zi mustaqil gipotezani yechishga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadi. Shu tariqa ijod metodini qo'llash bilan talabalar faoliyati, ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi va ularni ushbu jarayonda boshqarib boradi. Vazifalar esa ularning mustaqil o'quv bilish xatti-harakatlarining to'la davriy stiklini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar yig'iladi yoki yechilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi, hamda yechimlar tekshirib ko'riladi va yangi bilimlar hosili aniqlanadi.

Oliy ta'lim talabalarning ijodiy ishlari shakllari turlicha va rang-barangdir; Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar yigish, analiz qilish, sintezlash, kerakli ma'lumotlarni arxivlardan o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardan iborat.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi. Bunda talabalar o'quv mummosining qo'yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy izlanishlarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbati, talabalarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatishi va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to ulardan aksariyati yechilgunga qadar o'zgarib turishi kuzatiladi.

Talabalar suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning yechimini topadi.

[1] www. aim.uz

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o‘qituvchining unga o‘ta ma'suliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O’qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi lozim: avvaldan shunday savollar o‘ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodisaning mohiyatini o‘ylashga majbur etsin hamda suhbat yo‘nalishi va gipotezaning ehtimol ko‘rilgan variantlari va uning yechilish yo‘llarini, uni o’rganishga to’sqinlik qilayotgan omillarni bashorat qila olsin. O’qituvchi talabalarning umuman muammoni yechish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rib kelmasligini ham ko‘zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo‘shimcha savollarni tayyorlab qo‘yishi lozim.

Ijodiy suhbat davomida tayyorgarlik ko‘rmagan, o’zaro bahs va munozlarda, shuningdek, darsga qatnashishni xohlamaydigan talabalarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday talabalarning hulq-atvorlarini ko‘zda tutgan holda, ularni faollashtirish maqsadida oldindan savollar tayyorlab qo’yish darkor, shunki ta’lim jarayoni barcha ta’lim ishtirokchilarini qamrab olishga qaratilgan bo’lib ta’lim samaradorligini belgilashning eng asosiy tamoyillarini tashkil etadi.

Xulosa o’rnida shu aytish mumkinki, ta’lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishda talabalar faoliyatini jadallashtirishga va shu bilan birgalikda ularni o’qituvchi tomonidan berilgan muammoni yechishga va u haqida ularning umumiy bilimlarini ma’lum va noma’lum tomonlarini yoritish bilan birgalikda mukammal bilimlarini mustahkam bo’lishini ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda muammoli o’qitish texnologiyasi-o’qituvchi tomonidan berilgan muammoni har tomonlama ochib berishda talabalarning ijodiy, tanqidiy yondashuvini talab qiladi va bilimlarini yanada keng qamrovli mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y. 104 bet
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. 20.04.2017 yildagi Qarori bilan -2017-2021 yillarda Oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturidan - Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qarori. www.lex.uz
3. Azizxo‘jaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2006 y. 159 bet
4. Olimov SH.SH Pedagogik texologiyalar va pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma. Buxoro 2019 y. 248 bet
5. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Fan, 2006.
6. Sharipova S. H. Technology of Problem Learning as a Tool for the Development of Students' Independent Work //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 30. – C. 129-130.
7. Sharipova S. Mastery of the teacher-garant of stable development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 269-272.
8. Sharipova S. Application of problem educational technologies in higher education system //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 193-197.
9. Шарипова С. Х. Технология проблемного обучения как средство и путь саморазвития студентов //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 12. – с. 112-116.
10. www. aim.uz

IMPORTANT WAYS TO USE NEUROPEDAGOGICAL KNOWLEDGE IN TEACHING

Samiyeva Shakhnoz Xikmatovna
associate professor of Bukhara State University

Abstract: *According to the authors, the introduction of modern psychological and pedagogical technologies of neuropedagogy into the science of education can significantly contribute to the development of all spheres of personality and a significant increase in the number of successful participants in the educational process.*

Keywords: *education, training, pedagogy, psychological and pedagogical technologies, neuropedagogy, need-volitional sphere of personality, cognitive sphere personality, emotional and volitional sphere of personality, individual sphere of personality.*

The 21st century has brought significant changes both in the world around us and in the psychology of modern youth. Expectation of comfort and tranquility, fear and confusion about future plans, dissatisfaction with monotony, fashion for self-development and personal exclusivity are the main characteristics of generations Y and Z. All this has led to difficulties in teaching and, accordingly, requires a rethinking of traditional teaching methods. Fundamentally new solutions to the problem are provided by the use of data obtained in related fields of knowledge. As part of this scientific work, attention was drawn to research in the field of cognitive neuroscience by Marcus Raichel, Eric Kandel, experiments of the Center for Educational Research and Innovation (CERI), Eremeeva V.D. and etc. They most fully reflect the characteristics of the brain organization during the perception, processing and memorization of information, which provides a reliable basis for innovation in the development of educational programs. Therefore, in our article, the key tasks are to analyze the properties of the brain during learning and determine effective principles for the work of a teacher [1].

In the discussion about the subject of neuropedagogy, other “narrow” definitions are put forward, reducing everything to solving particular problems of upbringing and teaching. Moreover, many experts are developing an opinion about the development of “private” pedagogies, for example, neurospeech therapy, neurodrawing, etc. In essence, this comes down to making modern private teaching methods for specific academic subjects independent of general pedagogy. Obviously, this is wrong, because... will transform the education and training of students in the basics of science into the mastery of individual academic subjects, isolated from the general goal of developing a comprehensively developed harmonious personality. How is it proposed to define neuropedagogy? As a theory and technology of education and training of children, youth and adults based on the use of data from modern neurosciences. In this definition, we want to emphasize, first of all, that neuropedagogy is called upon to completely and completely solve, in an inextricable unity, all the tasks of pedagogy and related sciences [2].

Oliy ta’lim muassasalarida “Ma’naviyat soatlari” ni o‘tkazish jarayonida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Insonning ijtimoiy hayoti sohalariga doir asosiy muammolar, qonuniyatlar nazariyalarni yoritib berish.
2. Ijtimoiy masalalar va ularning mohiyatini anglab olishga qiziqish uyg‘otish.
3. Ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, estetik qarashlar, ishonch va e’tiqodlar tizimini yaratish.
4. Talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishga yordam berish va boshqalar.

Tajriba-sinov ishlarida, talabalarning bilimlarni egallash jarayonida ularni ma’naviy tarbiyalashda quyidagi mezonlarga asoslandik:

1. Davlatimiz ramzlarining ma’no-mohiyatini bilishi.
2. Sharq mutafakkirlari va zamonimizning qahramonlarining ma’naviy merosini bilishi va ular haqida fikr yurita olishi.
3. Boy tarixiy merosimizni bilishi va ular haqida mulohaza yurita olishi.
4. Xalqimizning boy milliy ma’naviy an’analari va qadriyatlarini bilish hamda qadrlay olishi.
5. Sog‘lom turmush tarziga va madaniyatiga ega bo‘lish.
6. Talaba-yoshlarning kitobxonlik sohasiga qiziqishi.
7. Yoshlarning madaniy saviyasini oshirishga bo‘lgan intilishi.
8. Mehr-muruvvat, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi insoniy xislatlarga munosabati.
9. Jamiyatning ma’naviy-axloqiy me’yorlarini bilishi va ularga rioya etishi.

«Ma’naviyat soatlari» mashg‘ulotlari ijtimoiy hayotning qaysi sohasi bo‘lmasin ma’naviyatsiz hayot va taraqqiyot yo‘qligiga ishonch hosil qilish maqsadida tashkil etiladi. Bunda talabaning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyalari va milliy mafkurani shakllantirish ma’naviy yuksak insonni tarbiyalash uchun «g‘oya» va «mafkura» tushunchalari, bu tushunchalarning mohiyati, ularning shakl va turlari, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyili, dunyodagi va mintaqamizda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar, taraqqiyotning o‘zbek modeli, g‘oyaviy bo‘shliq va uni to‘ldirish zarurati kabi masalalarni yetkazishning muhim metod va vositalari orqali amalga oshirish talab etiladi.

“Ma’naviyat soatlari” ni o‘rganishdan asosiy maqsad ham talabalarni insoniyat, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi yaratgan ma’naviyatga oid bilimlar bilan qurollantirish, vatandoshlarimizning jahon tafakkuri taraqqiyotiga, islom madaniyati va tasavvuf axloqiga qo‘shgan beqiyos hissalarini yoritish orqali ularda milliy va ma’naviy merosdan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalashdir. Shuningdek, qadriyatlar hamda urf-odatlarimizga ongli munosabat hissini uyg‘otish, shu asosda ma’naviyati boy, milliy mafkurada qat’iy turuvchi, ona-Vatan kelajagi uchun fidoyi, bozor iqtisodiyoti sharoitida insoniylik fazilatlarini to‘la namoyon eta oladigan, o‘zini, yon-atrofdagilarni milliy turmush tarzimizga yot g‘oyalar, oqimlar, illatlar, qusurlardan himoya qila oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishga yordam beradi.

Bu borada talabalarning bilimlarni chuqur va mustahkam egallashi, Vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishi, huquqiy va ekologik madaniyat, xulq-odob qoidalarini egallab olishi, san’atning inson hayotidagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi o‘rni, oila ma’naviyati va bularning barchasining mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qilishi masalalari nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda “Ma’naviyat soatlari” mashg‘ulotini o‘tkazishda talabalarni ma’naviy tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash va muammo nuqtai nazaridan umumiy texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanish talabalarning qiziqishlarini oshirish, mustaqil, erkin, ijodiy fikr yuritishga yo‘llashi, eng muhimi madaniy muloqot yuritishga o‘rganishi bilan ijobiy natijalarga olib keldi. Ishbop o‘yinlar, musobaqa darslari, intellektual ring, teatrlashgan mashg‘ulotlar, guruhlarga bo‘linib ishlash, ijodkorlar tanlovlari, auksion darslar, bayt-baraklar, bahs-munozara darslari, ekskursiya darslari, mo‘jizalar maydoni kabilar shular jumlasidan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi ma’ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. https://www.pv.uz/uz/news/

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli Qarori. www.lex.uz.

10. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.-173 b.

11. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro‘ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri / - T.: «Sharq», 2006. - 528 b.

12. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 228 b.

TA’LIM JARAYONIDA QO’LLANILAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR

N.B.Ismatova,
BuxDPI Pedagogika kafedrasi dotsenti

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko’tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning zamonaviy bilim va kasbga ega bo’lishiga qaratilgan. O’zbekistonda ta’limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi“dir. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

O’quv jarayonida o’zaro hamkorlikka asoslangan do’stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo’naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta’limidagi o’quv-biluv jarayoni o’quvchining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim. O’qituvchi bilan o’quvchi orasida o’zaro hamkorlik muhiti yaratilayotganda barcha o’quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi juda muhimdir. Bu jarayonda o’zaro tenglik muhiti hukmron bo’ladi, o’quv jarayonida o’quvchilarning aksariyat muammolarini echishga ko’maklashadigan ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiya maktab, ota-onalar, mahalla va o’quvchilar jamoasi hamkorligida, demokratiya va tolerantlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda o’quvchilar oddiy ta’lim oluvchilar emas, ta’lim-tarbiya jarayonining teng huquqli, hamkorlik asosida jipslashgan ishtirokchilari bo’lishlariga erishiladi. Sinfdagi barcha o’quvchilarga bir xil muomala va munosabat, hamkorlikdagi ta’lim, o’quvchi, o’qituvchi va ma’muriyat orasida do’stona munosabat ustuvorligi asosida sifatli ta’lim berish jarayoni vujudga keladi. O’quvchilarga nisbatan do’stona munosabat

muhiti o’zaro adolatli munosabatlar zamirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o’zaro hurmat muhiti hukm suradi. O’quvchi va o’qituvchi orasida o’zaro hurmat shakllangan ta’lim jarayonida do’stona munosabat, o’zaro g’amxo’rlik, mehr-muruvvat qaror topadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o’qituvchi o’quv-biluv jarayonini tashkil etar ekan, har bir o’quvchining betakror ekanligi, uning ta’lim-tarbiyasi oilaviy muhitga, sinfdagi mavqeiga, o’stozlarining munosabatiga, ruhiy kechinmalari va kayfiyatiga ko’p jihatdan bog’liq bo’lishini unutmasligi lozim. Umumiy o’rta ta’lim muassasasidagi har bir pedagog o’quvchining qalbidan chuqur joy ola bilishi, ularning hurmat-ehtiromiga sazovor bo’la olishga erishishi, o’quvchining eng yaqin kishilaridan biriga aylanishi, quvonchi va tashvishiga sherik bo’lishi, muammoli vaziyatlarda to’g’ri yo’l ko’rsata olishi zarurki, shundagina ta’lim-tarbiya oldiga qo’yilgan maqsadga erishiladi.

O’quvchilar orasidagi o’zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish kerak:

− o’quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish;

− o’quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;

− o’quvchilar jamoasi orasida o’zaro do’stona muhitni vujudga keltirish kabilar.

O’zaro hamkorlik va do’stona muhitni vujudga keltirish uchun muayyan maqsadga yo’naltirilgan pedagogik jarayonni shunday tashkil etish lozimki, buning uchun o’quv-tarbiya jarayonining ochiq xarakter kasb etishi va o’zaro axborotlar almashinuvi uchun qulay bo’lishini ta’minlash muhimdir.

Ta’lim jarayonida o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish uchun o’quvchilarda ongli faoliyat ko’rsatish ko’nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o’rgatish alohida ahamiyatga ega. Chunki umumiy o’rta ta’lim o’quvchilari murakkab, ruhiy inqirozlar vujudga keladigan, yuqori quvvatga ega bo’lgan, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o’zlashtirishga intiluvchan, mustaqillik va moslashuvchanlikka moyil, xulq-atvorida ijtimoiy me’yorlarning shakllanishi jadal sur’at bilan kechadigan yoshda bo’ladilar. Shunga ko’ra quyidagilarning muhimligi kuzatilmoqda:

- o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligini boshlang’ich sinflardayoq yo’lga qo’yishning zarurligi;

- o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladigan metodlarni qo’llashning muhimligi;

- o’quvchilarga taqdim etiladigan axborotlar hajmining kengligi va ularni o’zlashtirish o’zaro hamkorlik va fikr almashinish muhitini taqozo qilishi;

- o’qituvchi bilan o’quvchilar orasida do’stona hamkorlikka asoslangan muhitning vujudga kelishi o’qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarurligi;

- o’quvchilar va o’qituvchilar munosabatlarida an’anaviy pedagogik yondashuvlarning saqlanib qolayotganligi va uni bartaraf etish ehtiyojining kuchayayotganligi;

- ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashda o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligining muhimligi;

- o’qituvchining muomala odobi, nazokati, shaxslararo muomala maromi, o’quvchilar bilan do’stona munosabatni o’rnatuvchi muhim omil ekanligi va boshqalar.

Bugungi kunda o’qituvchi va o’quvchi orasidagi do’stona munosabat negizida axborotlarni taqdim etish va o’zlashtirish, o’quvchilar orasida do’stona muhitni shakllantirish bilan bog’liq pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ta’limda do’stona munosabatni tashkil etish jarayonining mazmuni, shakl, vosita, usul va metodlarini aniqlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Pedagogik hamkorlik, ya’ni sinergetika yangi mohiyat kasb etgan tushuncha sifatida o’zbek pedagogikasiga kirib kelar ekan, u bevosita falsafiy metodologiya va sotsiologiya sohalari bilan ham bog’lanadi. Chunki, insonning hamkorlikdagi faoliyati muayyan jamiyat hayoti bilan bog’liq tarzda amalga oshadi. Bu jamiyat hayotida inson uchun hamkorlikda faoliyat ko’rsatish quvvati bilan bir qatorda, hamjihatlikda rivojlanish imkoniyati ham mavjud. Pedagogik hamkorlik doirasida o’z qiyofasini o’zgartirish tushunchasi ham amal qiladi. Agar yangicha ijtimoiy davr

shaxsning o’z-o’zini saqlashi, yangi sharoitga moslashishi g’oyasiga asoslansa, zamonaviy shaxs o’zining yangicha mohiyati va mavqeiga asoslangan holda faoliyat ko’rsatadi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarning hamkorlikka asoslangan ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun axborotli mahsullarni tayyorlash va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda sun’iy intellekt yoki mantiqiy-lingvistik modeldan unumli foydalanish mumkin. Bilimlarni modellashtirish turli ilmiy yo’nalishlarda turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Ekspert tizimlar nazariyasida bu metoddan intellektual vazifalarni kompyuter vositasida echishda foydalaniladi. O’quv muhitida o’qituvchi ham jismoniy, ham virtual ekspert model sifatida namoyon bo’ladi. Pedagogika fani uchun umumlashgan quvvatlarni qo’lga kiritish o’ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u yangi bilimlarni o’zlashtirishni ta’minlaydi. Umumlashgan quvvatlarni sarflash o’quv jarayonida juda zarur hisoblanadi. Jumladan,

1) o’quvchilarni aniq ilmiy, amaliy muammolarni echishga jalb etish, bu jarayonda ularda muayyan qiziqishlarni hosil qilish;

2) o’quvchilarning o’quv ishlarini shunday tashkillashtiriladiki, mantiqiy-lingvistik modeldan topshiriqlarni echish vositasi va ularning echimlarini tekshirish usuli sifatida foydalanish imkoniyati vujudga kelishi;

3) qo’lga kiritilgan natijalar aksariyat hollarda elektron ko’rinishlarda ifodalanishi lozim.

Buning natijasida o’quvchilarda kompyuterdan foydalanishga oid dastlabki ko’nikmalar tarkib topadi va har bir o’quvchida o’zlari uchun zarur bo’lgan axborotlar bazasini yaratishga bo’lgan intilish vujudga keladi. Bu jarayonda guruh a’zolari birgalikda harakat qila boshlaydilar, har bir o’quvchi o’z bilim zahirasini guruhdoshlari egallagan bilimlar yordamida boyitish imkoniyatini qo’lga kiritadi. Bunda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan o’quv materiallari yaqindan yordam beradi, shuningdek, o’qituvchi intellektual xarakterdagi o’quv topshiriqlaridan kengroq foydalangan holda hamkorlikka asoslangan o’quv muhitini vujudga keltirishi lozim. Ta’lim-tarbiya tizimiga bunday yodashuvni tatbiq qilish natijasida maktab ta’limida yangi yo’nalish vujudga keladi.

Pedagogik hamkorlik o’zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

1) o’quvchilarning quvvatlarini mujassamlashtirish asosida umumlashgan natijani qo’lga kiritishga asoslangan jamoa mehnatini tashkil etish texnologiyasi;

2) intellektual texnologiyalarga asoslangan axborotlarga ishlov berish usullari.

Bunday yondashuv natijasida intellektual madaniyatning yuqori darajasiga erishishi ta’minlanadi.

Pedagogik hamkorlik va hamjihatlikka asoslangan bilimlar to’rt ko’rinishda namoyon bo’ladi. Hamkorlik nazariyasi –

1) fundamental ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga asos bo’ladigan, umumiy ilmiy nazariyalar, dunyoqarashlar, g’oyalar, tamoyillar, timsollar, tasavvurlar tizimidan iborat paradigma;

2) nomuntazamlik, ochiqlik, o’tish xarakteridagi jarayonlarning tengsizligiga asoslangan g’oya atrofida birlashadigan muayyan xususiy ilmiy qarashlar;

3) tizimlarning o’z-o’zini tashkil etish yoki o’tish jarayonlariga oid umumiy ilmiy yondashuvlar;

4) ilmda mavjud bo’lgan hukmron tafakkurga barham berish, o’zgarmas tushunchalar va barqaror tafakkur, o’tish xarakteridagi daliliy shakllar va obrazlar, yangicha dunyoqarash − asosini tashkil qiladi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o’zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo qilmoqda. Umumiy o’rta ta’lim oldiga qo’yilgan maqsad, vazifa va tamoyillarni amalga oshirish nafaqat ta’lim mazmunini o’zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlari, o’qituvchi faoliyatini ham takomillashtirishga bo’lgan ehtiyoj kuchaymoqda.

Hamkorlikda o’qitish texnologiyasida o’quvchilarni hamkorlikda o’qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

Guruhlarda o'qitish (R.Slavin, Ishmuhamedov) da o'quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish **.** Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1) faoliyatga kirish;
2) mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;
3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
4) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi anna shu namuna asosida harakat qiladi);
5) madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6) o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7) o'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;
8) o'zini – o'zi uyushtiruvchi o'yinli harakatlar.

Qo'llanmaning keyingi sahifalarida shunday hamkorlik namunalari bo'lmish o'yin texnologiyalarini keltirib o'tamiz.

Hamkorlik pedagogikasida interaktivlik ("inter"-"o'zaro", "akt"-"faoliyat") muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktivlik – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi. "Sub'ekt-Sub'ekt" munosabatlariga asoslangan hamkorlik namunalari bo'lmish o'yin texnologiyalari bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi, mustaqil fikrlash, keng mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (viktorina, breyn ring, turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Quyida shunday texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

Pedagogik tenalogiyada o'quvchining o'quv jarayonida tutgan o'rnini va pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagi texnalogiyalarni ajratish mumkin:

a) Avtoritar texnalogiya. Bunda pedagog o'quv tartiblovchi jarayonining asosiy sube'kti, o'quvchi esa, faqat ab'ekt sifatida qatnashadi. U o'quvchilarning erkinligini bo'g'ishi, majburiy

o'qitish, tashabbusni bo'g'ish va o'quv tarbiyaviy jarayonini (O'TJ) qattiq qo'llik bilan olib borishga asoslanadi.

b) Didaktotsentrik texnalogiyalar – o'quvchi shaxsiga e'tibor bermaslik bilan ajralib turadi. Bunda ham sub'ekt-ab'ekt munosabat bo'lib, shaxsni shakllantira olish, didaktik vositalaridan iborat bo'ladi.

v) Shaxsga yo'naltirilgan texnalogiyalar – buning markazida o'quvchi shaxsi uni rivojlantirish uchun, barcha sharoitlarni yaratish, uning tarbiyaviy salohiyatini namoyon qilishga yordam berish yotadi. Bunda o'quvchi shaxsi faqatgina sub'ekt bo'lmay, prioritetga ega bo'lgan sub'ekt bo'ladi. Bunda u ta'limiy tizimning maqsadiga aylanadi. Bunday texnalogiyalar "antropoyentrik texnalogiyalar" deyiladi.

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan texnalogiyalar antropotsentrik, gumanistik va psixoterapistik, har tomonlama erkin, ijoddiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

g) Insonparvar – shaxsiy texnalogiyalar – insonparvarlik mohiyati bilan ajralib turadi, unga yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining kuchiga hurmat, undagi qobiliyatlarni ochilishiga yordam berish va majburiy ta'lim tarbiyani rad etadi.

d) Hamkorlik texnalogiyalar – u demokratizm, tenglik, g'oyalarini ilgari suradi va o'qituvchi o'quvchi munosabatlarida sub'ekt – sub'ektga asoslanadi. O'o'qituvchi va o'quvchi ta'lim tarbiya maqsadi mazmunini ishlab chiqadi. Hamjihatlik bilan o'z faoliyatlariga baho qo'yadi.

e) Erkin tarbiya texnalogiyasi – bunda o'quvchiga barcha yo'nalishlar bo'yicha erkin tanlash huquqi berladi. Tanlash davomida o'quvchi sub'ekt nuqtaviy nazaridan namoyon qiladi va natijaga tashqi ta'sirdan emas, balki ichki kuch vositasida ergashadi.

j) Ezoterik texnalogiya – bular ezoterik ("anglanmagan, bilib turib") blilimlarga – hqiqat va unga olib boruvchi yo'llarga asoslanadi. Bunda pedagogik jarayon habar berish, muloqot qillishdan iborat bo'lmay, balki, hqiqatga payvand bo'lish bilan iborat bo'ladi. Ekzotik paradigmada insoning o'zi koinot bilan o'zaro axborot almashish markaziga aylanadi.

O'rganuvchilar toifalariga ko'ra pedagogik texnalogiyalar quyidagilarga bo'linadi:

- **Oilaviy (an'anaviy) texnalogiya** – u o'rtacha o'quvchiga asoslangan.
- **Axborotli texnalogiya darajasi** (predmetlarni chuqurlashtirib o'qitish) – gimnaziya, litsey, maxsus ta'lim.
- **Turli xildagi bititimalogik –** (surda pedagogika, teplo, oligofreno pedagogika).
- **Qiyin va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan texnalogiyalar.**

Majud bo'lgan o'qitish tizimlarini modernizatsiya qilish va modifikatsiya qilish asosiga qurilgan texnalogiyalar:

A) Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish asosidagi pedagogik texnalogiyalar. Unga Sh.A.Amomashvillining hamkorlik, insonparvar – shaxsiy texnalogiyasi kiradi.

B) O'quvchilarning faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish asosiga qurilgan pedagogik texnalogiyalari. Masalan, o'yinli texnalogiyalar, Shatalovning "tayanch s - №1 kanspektori" asosida o'qitish texnalogiyalari.

V) O'qitish jaryonini tashkil qilish va boshqarish samaradorligiga asolangan pedagogik texnaloyalar. O'qitish jarayonini samaradorligini tashkil qilish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnalogiyalar

Masalan, Dasturli o'qitish, differentsiallashgan o'qitish texnalogiyasi, Induviallashtirilgan O'qitish texnalogiyasi.

O'qitishning guruhli va jamoaviy usullari, Kompyuterli texnalogiyalar

D) Alternativ texnalogiyalar :

Shtaynerning "Valdrov pedagogikasi", Freyne "Erkin mehnat texnalogiyasi", Ehtimolli ta'lim texnalogiyasi.

O'quv jarayonini muammolari asosida qurishga mo'ljallangan texnalogiyalar

Jamoa bo'lib o'qitishning dolzarbligi

Ushbu pedagogik texnalogiyalarning dolzarligi shundaki, u to'planib qolgan muammollarni va zamonaviy ta'limning ziddiyatlarini ochishga yo'l beradi.

An'anaviy ta'limda yuz berayotgan krizisni barcha pedagoglar tan oladi. U quyidagi ziddiyatlarda yaqqol ko'rinadi:

1. O'quvchilarni o'qitish mativayiyasi va rag'batlantirish orasidagi ziddiyat. O'qituvchilar o'quvchilarni o'qishmayapti deb shikoyat qilishadi, o'quvchilar esa, o'qishning zerikarliligi, bir xilligi va kuchi etmasligiga shikoyat qilishadi. Jamoaviy o'qitish esa, o'qituvchilardagi mativatsiyani hamkorlik asosida shakllanadi va rivojlanadi.
2. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi, qolganlar eshitadi. Bu butun dars davomida davom etishi mumkin. Jamoa bilan o'qitish esa har bir o'quvchini dars davomida faol ishlashga undaydi.
3. Psixologik komfort va diskomfort o'rtasidagi ziddiyat. Oddiy klassik darsda pedagog 1soat 20 minut davomida butun sinfni o'z qo'lida ushlab turishi kerak. Jamoaviy o'qitish usuli esa, majburli bo'lmagan va qiziqarli muloqot uchun, sharoit yaratadi.
4. Tarbiya va o'qitish orasidagi ziddiyat. Oddiy darsda o'quvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri o'qtuvchi tomonidan "gaplashmang", "o'rgatmang" degan so'zlar bilan chegaralab qo'yishadi. Jamoaviy o'qitishda esa aksincha : "Suhbatlashing", "To'g'irlang", "bir-biringizni baholang" degan so'zlar ishlatiladi.
5. Induvidual rivojlanish bilan o'qitish standartlari orasidagi ziddiyat: 1- sentyabrda auditoriyaga 30 ta o'quvchi keldi va 1 iyungacha ularning hammasi sinfdan-sinfga o'tishi kerak. Rivin buni poda o'tish deb atagan. Jamoaviy o'qitishda esa, o'quvchi sinfga istagan vaqtda kelishi mumkin va imthonni ham istagan vaqtda topshirishi mumkin.

Jamoaviy o'qitish usullarining metodikasi

Jamoaviy o'qtish usullari quyidagi tamoyillarga rioya qilishni talab qiladi:

1. O'zgarib turadigan o'quvchilar juftligi bo'lishi;
2. Ularning bir-birini o'qitishi;
3. O'zaro nazorat;
4. O'zaro boshqaruv.

Sh.A.Amonshivilining insonparvar-shaxsiy texnalogiyasi.

"O'zingni bolalarga bag'ishla"

Akademik Shalva Aleksandrovich Amonashivili o'zining tajribali maktabida hamkorlik pedagogikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbiq qildi.

Pedagogik faoliyatining natijasi "Maktab hayoti" texnalogiyasidir. Sh.Amonashivilining texnalogiyasining maqsadi quyidagilardan iborat:

- boladagi shaxsiy sifatlarni yechish yo'li bilan unda komil insonga xos bo'lgan xususiyatlarni paydo qilishga imkoniyat yaratish.
- bolaning ko'ngli va yuragiga yaxshilikni, ezgulikni joylash.
- Bilim va o'quvlarni chuqur va mustshkam o'zlashtirish uchun sharoitlarni ta'minlash.

Ushbu yo'nalishlarning har birida ta'lim o'kuvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e'tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Mustaqil o'qib-o'rganish, o'quv jarayonidagi qiyin vaziyatlarda o'qituvchining yordamisiz muammolarni hap qilishga urinish, shundan keyingina o'zining xulosalari to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun o'qituvchining yordamiga tayanish zarurligini anglatish muhimdir.

Adabiyotlar royxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyoting muhim omili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. – Xalq so'zi. – 2016. – 31 dekabr.

2. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.

3. Исматова Н.Б. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш давр талаби //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

4. Хабибова Г.Г., Исматова Н.Б. Социально-педагогическое исследование выявления уровня знаний об организаторских качествах педагогов профессиональных учреждений //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 12 (137). – С. 14-19.

5. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.

CONDITIONS FOR EFFECTIVE SOCIO-EDUCATIONAL INTEGRATION OF STUDENTS INTO A FOREIGN LANGUAGE ENVIRONMENT

Норбаев Бахтиёр

Руководитель к.м.н. доцент кафедры педагогики ФГБОУ ВО УУНиТ Гаязова Г.А.

Abstract: Aspects of the socialization of foreign students are considered by a young researcher at the Department of Pedagogy of the Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Education from the position of an active participant in the socio-psychological, cultural, linguistic, educational and leisure interaction of students of various ethnic communities studying in higher educational institutions of the Russian Federation. Key words: socialization, international students, cultural and linguistic integration, interests.

Абитуриенты и первокурсники высших учебных заведений, прибывшие на обучение в другое государство, испытывают множество разноплановых проблем: бытовых, социально-психологических, культурнолингвистических, организационных, наблюдается, как правило, недостаточность преемственности между образовательными системами и программными регистрами различных стран.

Трудности наблюдаются как совпадающие с ожиданиями и, до некоторой степени, беспокойством – а также не позиционируемые ранее семьями и самими молодыми людьми. Вместе с тем даже минимизация излишнего беспокойства, а также тревоги, напряжённости позволяет недавним школьникам и обучающимися в колледжах более рационально и уверенно встретить объективные проблемы и задачи.

Психологические проблемы, как правило, испытываемые иностранными студентами, получающими педагогические специальности, имеют высокий допрофессиональный ресурс [1], так как во многом отражают сходные затруднения, которые испытывают обучающиеся иных возрастных ступеней: школьники, дети дошкольного возраста из билингвальной среды, где зачастую язык семейного общения разнесён с языком обучения [2; 3].

Тем более существенен опыт преодоления культурно-образовательных и вербальных барьеров для будущих специалистов коррекционного профиля, так как для обучающихся с особыми образовательными проблемами такие трудности бывают трудно преодолимы. Снижается уровень образовательной успешности студентов в непривычных обстоятельствах, окружении, коммуникативной среде, тем более что образовательная разница также имеет место в силу различных объективных и субъективных обстоятельств. Нарушается комфортность и эффективность социальной занятости студентов, уникального периода молодости, дружбы, романтических событий и устремлений – а ведь эти аспекты для профессионального становления будущих педагогов, родителей, руководителей образовательных и иных организаций крайне важны. Даже эмоциональная напряжённость небезразлична для формирования личностного, социального, профессионального статуса будущего педагога при высокой выраженности и длительности.

Но есть множество интересов и возможностей у молодых людей и их сообществ, которые могут быть актуализированы в помощь их текущему социально-психологическому благополучию и профессиональному становлению, самоопределению, презентации в допрофессиональной и профессиональной среде [4].

Конечно же, культурные интересы и достижения студентов, социально эффективные клубные виды активности и волонтёрские формы занятости могут и должны стать их проводниками и структурирующими ресурсами в непривычной языковой и этнической среде. Наши студенты таким образом не просто получают возможность более разнообразно и непосредственно общаться на языке обучения, осваивая лингвистические и иные компетенции, но и освобождаются от ожидания неуспешности коммуникации, наблюдая оперативную продуктивность общения, подтверждая их реальную интегрированность в новое для себя сообщество, новую культуру – и вместе с тем ощущая эмоциональную включённость, интерес к себе товарищей и ситуативное взаимопонимание. Кафедральный информационно-технологический системный ресурс, издательский информаторий и средства культурно-образовательной интеграции студентов в учебную, научную, профессиональнопедагогическую среду открывают нам свои возможности ещё до нашего поступления в университет, ориентируя в профессиональной и научнокультурной областях работы кафедры и профессорско-преподавательского состава университета.

Сайты кафедры педагогики предоставляют возможность будущим и уже обучающимся студентам и их семьям ознакомиться с профильной и исследовательской информацией, адресовать статьи и пособия коллегам и родителям обучающихся, позиционировать личные учебно-исследовательские и культурологические амбиции.

Студенты нашей кафедры публикуют статьи в российских изданиях и в материалах конференций других государств, расширяя свои представления и компетенции, представляя в международном сообществе свою страну и свой университет. Многие из них не планировали получить такой статусный академический ресурс уже в ходе получения образования. Кафедральные издания научно-популярного и научно-методического плана на русском и английском языках поддерживают высокий рейтинг университета [5; 6], предоставляемых образовательных услуг в международном формате, привлекают повышающийся запрос на сотрудничество учёных, абитуриентов, практиков, общественности [7; 8].

Проектные, дискуссионные, презентативные площадки и круглые столы предоставляют расширенные возможности для актуализации индивидуальных интересов и амбиций студентов, а также для их компетентностного роста, эффективной социализации в новой для себя среде и в ситуации самооткрытия в меняющихся условиях деятельности, личных и корпоративных возможностей, статусных достижений. Закономерно наступает период более органичного контакта, когда студентам не нужно дополнительно переспрашивать, подтверждая правильность полученной информации, что экономит время и силы всех участников социально-образовательного пространства, способствует удовлетворённости и результатами сотрудничества, и процессов совместной работы. Более того, они ощущают свою эффективность, значимость в студенческой и профессиональной среде, востребованность, социальную и личностную привлекательность.

Список литературы:

1. Султанова Р.М., Гаязова Г.А., Рыбакова Е.В. Организация философско-филологического компонента в образовании как условие формирования профессиональных компетенций педагога // Педагогическая наука и педагогическое образование в классическом вузе: Ежегодная международная научно-практическая конференция. Уфа, 2017;

2. Гаязов, А.С. Семь проблем современного образования [Текст] / А.С. Гаязов. - Уфа : Вагант, 2008. - 246 с.

3. Гаязов А.С.. Состояние и тенденции развития современного образования. – Педагогический журнал Башкортостана, 2008;

4. Рыбакова Е.В., Рыбаков Д.Г., Султанова Р.М., Гаязова Г.А.. Система целевого тьютинга для иностранных абитуриентов и студентов на кафедре педагогики факультета психологии БАШГУ. - Актуальные проблемы науки и образования в условиях современных вызовов. Москва, 15 августа 2022 года. Исторический парк "Россия - моя история", Кыргызский национальный университет им. Ж. Баласыгина, Российский государственный университет им. А.Н. Косыгина [и др.], с 150-157;

5. Рыбакова Е.В., Султанова Р.М., Гаязова Г.А.. Аспекты диджитализации социальных и образовательных систем. - Ridero.ru, 2023;

6. Rybakova E.V., Rybakov D.G, Sultanova R.M., Gajazova G.A., Ankudinova A.A.. What teaches dysgraphia. - Ridero.ru, 2020;

7. Султанова Р.М., Гаязова Г.А., Рыбакова Е.В.. Современный личностно-правовой аспект адресного сопровождения детей с РАС. // Развитие российской дефектологической науки и практики в современном образовательном пространстве: новый взгляд, Москва, 02–03 ноября 2017 года.

8. Рыбакова Е. В. Султанова Р.М., Гаязова Г. А.. Условия обеспечения резонансности образовательных систем. // Современная наука как фактор и ресурс передового развития: сборник статей Международной научнопрактической конференции (18 сентября 2023 г.). – Петрозаводск: МЦНП «Новая наука», 2023. – 164 с. : ил. – Коллектив авторов. © Б.Э. Норбаев, 2023

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Shabon Muxamadovna Farmonova
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga fikrlar bayon etilgan. Bunda o‘qituvchilarni o‘quv jarayonini loyihalash faoliyatiga tayyorlashda kreativ faollikni rivojlantirish, ta’lim jarayonni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik–psixologik treninglar tizimi, ta’lim jarayonini rivojlantirishda fanlararo integrasiyani qo‘llash, o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish, neyrolingvistik dasturlash asosida shaxsga yo‘naltirilgan muammoli ta’lim texnologiyani qo‘llash xususida fikrlar dalillangan.*

Kalit so‘zlar. *Loyiha, tafakkur, ta’lim jarayoni, integratsiya, model, metod.*

Bo‘lajak o‘qituvchilarni loyihalash faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSh (Princeton university), AQSh (Association for Educational Communications and Technology – AECT), Germaniya (Rheinische Friedrich–Wilhelms–Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta’lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaponiya (Miyagi pedagogika universiteti)da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoning etakchi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini loyihalashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini tashxislash va korreksiyalash asosida takomillashtirish; o‘quvchilarning kreativ faoliyatini takomillashtirish; ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; darsda o‘qituvchi va o‘quvchining imkoniyatlarni integrasiyalash faoliyatga tayyorlash va hk.

Loyihalashga oid faoliyat – o‘quv predmetini o‘qitish metodikasini yaxshi biladigan o‘qituvchi, dasturchi, psixolog, dizayner va boshqalarning faoliyati. O‘qituvchi o‘zi dars beradigan o‘quv predmeti mazmuni, xususiyatlarini hisobga olib ta’lim maqsadi, vositasi, natijalarini belgilaydi [1].

Loyihalashtirishni amalga oshirish bosqichlari o‘quvchilar tomonidan hal etiladigan vazifalar o‘quvchilar faoliyati o‘qituvchi faoliyati o‘qitish shakllari va usullari

1. Qidiruv–izlanish va muammoni tahlil qilish: loyiha mavzusini tanlash, loyihani rejalashtirish, loyiha mavzusi haqida ma’lumot, muammoni muhokama qilish, o‘qituvchi va tengdoshlari bilan vazifalarni shakllantirish, ma’lumotlarni takomillashtirish va tahlil qilish, qo‘yilgan maqsadlar va harakat rejasini tanlash, izlanish olib borish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ishtirokchilar uchun muammo o‘rtaga tashlanadi va uning muhokamasini tashkil etadi, loyiha maqsadlarini tushuntiradi, nazorat qiladi, maslahat beradi, muammoga doir suhbat tashkil etiladi, hikoya, maslahat, mustaqil ish, ekskursiya.

2. Loyiha echimni izlash.

o‘quvchilar tomonidan taklif etilgan variantlarini o‘rganish;
muammoni echish uchun muqobil variantlarni tanlash;
iqtisodiy samaradorlik (fanlararo yoki mavzulararo integrasiya);
asosiy echimni tanlash;
axborot bilan ishlash;
sintez va analiz qilish va g‘oyalarni baholash;
grafik ishlarni bajarish;
muammoga daxldor takliflarni muhokama qilish;
echimlarni tanlashda yordam beradi;
maslahat;
tavsiya qiladi;
suhbatlashish;
munozara;
“brainstorming”;
morfologik tahlil;
TRIZ;
rolli o‘yin;
mustaqil ish

3. Dars davomida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini amalga oshirish rejasini tayyorlash, loyihani amalga oshirish.

darsga kerakli jihozlarni tanlash;
rejalashtirilgan vazifalarni bajarish;
joriy sifat nazorati;
mashq qilish;
mustaqil ish;
amaliy ishlar

4. Yakuniy sifat baholash bosqichi.

jarayon tahlili
natijalar loyiha ijrosi;
o‘z–o‘zini tahlil qilish;
natijalarni baholash;
muammo bo‘yicha himoya tashkil etiladi;
o‘quvchilarning muammo atrofidagi bahs–munozarasida qatnashadi;
dars jarayonida rolli o‘yin tashkil etiladi;
simulyatsiya va faollik o‘yini.

Loyihalashtirish “ART” (vizual, kinestik), “Kouching”(muammoli vaziyatlarni hal etish), “Fallstudy”(aniq vaziyatlar tahlili) motivasiyasini oshirishga qaratilgan “Sinektika”, “VARK” interfaol metodlari asosida amalga oshiriladi.

“VARK” metodi – o‘quvchilarning ko‘rgazmali, audiovizual va kinestetik imkoniyatlaridan foydalanib o‘quv materialini o‘rgatishni maqsad qilgan usul. Turli xil materiallar: ko‘rgazmali qurollar, diafilmlar, tovush blankalari va turli xil o‘yinlardan foydalanib o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Audialistlar o‘z nutqini eslab qolish va u orqali materialni o‘rganish uchun o‘qituvchining tushuntirishlarini tinglashni ma’qul ko‘radi.

Aynan “faol o‘qitish metodlari ham ana shunday o‘yinlarga tayanilgan xolda tashkil etiladi. Har bir o‘yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko‘proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o‘n o‘quvchigacha ishtirok etadi. Masalan: “ishbop o‘yinlar” yoki “boshqaruv” deb yuritiluvchi o‘yinlar bilim va ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi” [2]. “Ishbilarmonlik o‘yinlari” mutaxassislarning kasbiy sifatlarini takomillashuviga xizmat qiladi.

“Kompyuterli ishbilarmonlik” o‘yinlari shunday psixologik vaziyatlar majmuik sifatida o‘yin ishtirokchilari bir vaqtning o‘zida ham o‘yin ishtirokchisi, ham kuzatuvchi bo‘lish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinlar keng ma’noda turli ishlab chiqarish vaziyatlarida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish immitasiya qilinadi. Bu o‘yin shartlari bir guruh kishi orasida kompyuter bilan muloqot tartibidagi ish rejimida o‘ynalishi mumkin.

Ishbop o‘yinlar – “faol o‘qitish metodlaridan bo‘lib, u real o‘rganilayotgan ob’ektni to‘g‘ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatni o‘yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir” [3].

Ishbilarmonlik o‘yinlar keng tarqalgan o‘yin metod sifatida ma’lum obrazlarga kirish, o‘sha obrazga xos bo‘lgan hissiyotlarni o‘z boshidan kechirishni taqozo etadi. Mazkur o‘yin ishlab chiqarish jarayonida o‘zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi.

“Qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asosiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatiladi, bunda katta iqtisodiy samara beradigan, qabul qilingan, muhim qarorlar alohida ta’kidlanadi. O‘yin guruhlari rahbarlarining tavakkal qilishdan ishbilarmonligi guruh umumiy balini belgilashda hisobga olinadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha maslahatlar beriladi. Ishbilamonlik o‘yinidan olingan natijalar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha maslahat” [4] lar taklif qilinadi.

Ishbop o‘yinlarining belgilari: “boshqaruv ob’ekti va muhitning modeli va mavjudligi, rollarning mavjudligi, qaror qabul qilishda rollarning faoliyat maqsadlarining farqliligi, ishtirokchilarning o‘zaro munosabati, umumiy maqsadning mavjudligi, jamoa bo‘lib qarorlar ishlab chiqish, o‘yin davomida qarorlar tizimini tatbiq qilish, qarorlarning ko‘p variantliligi, hissiy zo‘riqishni boshqarish, o‘yin ishtirokchilarini jamoa tomonidan alohida baholash”.

O‘yinda bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ sifatlarini rivojlantirish, intellektual qobiliyati, ziyrakligi, qaror qabul qilishikabi vazifalar qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизхўжаева Н. Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б.

2. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув–услубий қўлланма. Замонавий таълим технология серияси. – Т.: “Иқтисодиёт” нашр., 2009. –206 б.

3. Джураева Б. Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла. Дис. ... канд. пед. наук. – Т.: 2002. – 146 с.

4. Маҳмудов М. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фан. док. дисс. –Т., 2003. – 306 б.

5. Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий–методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2007. – 215 б.

6. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. –Т., 2012. – 46 б.

ОПЫТ ТРАНСПОЛЯЦИИ СИСТЕМЫ РАЗВИВАЮЩИХ СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗЛИЧНЫЕ УРОВНИ И ТИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Русакова Н.Н.,
Муниципальное казенное учреждение отдел образования муниципального района Учалинский район Республики Башкортостан, специалист

Мир многомерно, системно сложен. И вряд ли будет проще, например, в обозримый период времени.

Поэтому для образовательных систем, для детей одарённого, нормативного статуса, с особенностями в развитии, для будущих педагогов необходимо предоставить условия, обеспечивающие внутренний и корпоративный развивающий, здоровьесберегающий, социально и личностно защищающий системообразующий ресурс для успешного и уникального самоопределения в меняющемся мире неопределённости [1; 2] и растущей противоречивости. Существенно, что антиэнтропийный ресурс жизнедеятельности, противостоящий, между прочим, дегенеративным процессам личности и когнитивной сферы людей различных категорий возраста, социального, культурно-образовательного статуса и развития [3; 4; 5], согласно материалам исследований, регулярно публикуемым Кембриджским университетом, - при эффективной организации обогащает и защищает личностный, интеллектуальный потенциал как обучающихся, так и самих обучающих субъектов.

Классические достижения отечественной и мировой педагогики, конечно, сохраняют свои основополагающие позиции в обеспечении устойчивости, жизнеспособности, адаптивности образовательных систем и сообществ. Однако сам по себе принцип развивающего обучения предполагает предоставление условий сотрудничества с динамично адаптивным обучающим субъектом как моделью саморазвития обучающихся в контексте социально, научно, интегративно синергирующей среды.

Условия системного осуществления такого взаиморазвития образовательных пространств авторы уникального метода трансполяции развивающих технологий в образовании [6], Дмитрий и Елена Рыбаковы, разрабатывают в течение более десятка лет, на базе нескольких научных школ: Уральского госпедуниверситета, УГАТУ, МАГУ, МГТУ им. Носова, БашГУ, ныне УУНиТ, сотрудничая с зарубежными научными сообществами, - обогащая и совершенствуя системообразующие подходы, минимизируя риски и проблемные, конфликтогенные области организации современной дидактики, моделируя перспективные алгоритмы интерсубъектной образовательной среды. В таком научном контексте формируется и развивается деятельность научно-волонтерских организаций студентов, практиков, руководителей образовательных организаций, общественности, способствуя качественному преобразованию гражданских сообществ, продвижению эффективных созидательных тенденций образования, сотрудничества, активной личностной позиции.

Я в своей работе с руководителями образовательных организаций, со студентами, которые осваивают различные специальности на базе подведомственных мне вузовских площадок, реализую тот же метод: обеспечиваю субъектам образовательной занятости возможность самим побыть в инновационно эффективной, комфортной, мотивирующей, актуализирующей ситуации, прочувствовать новое качество интерсубъектного взаимодействия, ощутить непосредственно личный проектный и компетентностный рост [7; 8]. Такой опыт органично способствует готовности участников распространить его на обучающихся других категорий, в собственном профессиональном пространстве.

Менялись статусы и структура образовательных институций, в некоторой степени - содержание государственно-социального заказа, некоторые целеполагающие и

аксиологические установки в области организации дидактических систем, предстоит, я полагаю, продолжение непростой работы адресного сопровождения эволюционного характера системы современной дидактики. Так, директора школ, решая каждодневно разнообразные насущные е стратегические задачи, внутрикорпоративно и интегративно совершенствуют свой личный и коллективный синергирующий ресурс. В ходе самоанализа они отмечают не только эффективность нового подхода, но и содружественность самоактуализации целенаправленной и спонтанной, осознаваемой и подсознательной составляющих профессиональной деятельности.

Образовательная активность молодых людей, получающих педагогические и иные специальности, в формате эффективно развивающихся образовательных организаций обеспечивается адекватно этим процессам и современным реалиям, запросам, перспективам дальнейшего преобразования социальной жизни. В процессе прохождения практики они убеждаются, что эффект присутствия, эмоциональной включённости, проектно-креативной самоактуализации органично распространяются на сферу их практикоориентированного сотрудничества.

Мы разрабатываем и совершенствуем действенный инструментарий сотрудничества образовательных субъектов и семей обучающихся в отечественном и международном формате, что становится обновляющим ресурсом развивающегося, резонансного, увлекательно интегрирующего образовательного пространства.

Татьяна Черниговская, видный научный, общественный, государственный деятель современности, убедительно доказывает, что без непосредственного участия, удовольствия детей от учебной деятельности успех невозможен. Мы стремимся не просто преподать молодым людям необходимость создавать условия инициирующего аффекта в образовании - вначале обеспечиваем им возможность самим ощутить благотворное, здоровьесберегающее, жизнеутверждающее воздействие такой мотивирующей среды в формате российского образования и в широком международном пространстве, осуществляя долгосрочный проект «Резонасное образование» с участием граждан и организаций различного возраста и уровня вовлечённости в творческое сотрудничество.

К этим процессам проявляют растущий интерес зарубежные университеты и журналы, пополняя список научных, издательских, публикационных контрагентов. Отечественные и зарубежные студенты, преподаватели, семьи обучающихся в такой социально эффективной среде становятся субъектами участия в глобально созидательной миссии университетов.

Развивая систему обеспечения образовательной активности детей различных категорий и молодых людей, совершенствуя условия непрерывного образования педагогических кадров, я руководствуюсь и руковожу деятельностью образовательных систем с учётом не только существующих диалектических противоречий глобального, регионального, локального характера - но и с позиций перспективы саморазвития социума, обучающих субъектов, вероятных запросов обучающихся и их семей.

Список литературы:

1. Дубовская Е.М. Социализация в изменяющемся мире // Социальная психология в современном мире / Под ред. Г.М. Андреевой, А.И. Донцова. — М.: Аспект пресс, 2002. — С. 148—161. [Dubovskaya Ye.M. Sotsializatsiya v izmenyayushchemsya mire // Sotsialnaya psikhologiya v sovremennom mire / Pod red. G.M. Andreyevoy, A.I. Dontsova. — M.: Aspekt press, 2002. — S. 148—161].

2. Репина, Л. В. Тенденции развития образования в XXI веке в условиях современной глобализации / Л. В. Репина, Е. Г. Реутова. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы VII Междунар. науч. конф. (г. Москва, ноябрь 2015 г.). — Москва : Буки-Веди, 2015. — С. 22-24. — URL: https://moluch.ru/conf/ped/archive/184/8958/ (дата обращения: 02.05.2024).

3. Burbules, Nicholas C. and Callister, Thomas (1996) "Knowledge at the Crossroads: Some Alternative Futures of Hypertext Learning Environments," Educational Theory 46, No. 1 (Winter): 23-50.

Bugungi talaba yoshlarni milliy g’oya ruhida tarbiyalash ularga ozodlik demokratik tamoyillariga asoslangan jamiyat barpo etish, erkin fuqorolik jamiyatiga asoslanganligi haqida tushuncha berish barchamizning demokratik burchimizdir.

O’zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan islohatlar jumladan, ijtimoiy tizimni liberallashtirish fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish sharoitida jamiyatda mahalla ro’lini oshirish, boshqaruvda yettilik kamissiyasini tashkil etish orqali yoshlar tarbiyasiga e’tibor berish, o’sib kelayotgan avlodga tarbiya tushunchasini singdirish avlod, xosil qilingan prinsiplar asosida aqliy kamolot dunyo qarashni insoniy e’tiqotni burchni va ma’suliyatini jamiyatimiz fuqarolariga xos axloqiy fazilatlarni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishimiz zarurdir.

Bugungi avlod tarbiyasida oiladagi ma’naviy qadriyatlarni ikkisi ham muhimdir:

1.Ota-ona tomonidan bolada shakllantirilgan ma’naviy axloqiy tushunchalar assalomu alaykum , dastlabki shirin sog’lom muloqot madaniyati.

2. Ota-ona farzand o’rtasidagi munosabatlar qalban yaqinlik bir birini chin qalbdan hurmat qilish ezozlash va qo’llab turishdan iboratdir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida oila va mahalla muhim shaxs g’oyaviy barqarorligini shakllantiruvchi oila sifatida yetakchi o’rinda turadi. Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishishi ko’p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo’lishi ularning oilaviy tarbiyasida birdamlik va tenglikga erishish, kuch g’ayratlarini birlashtirishga bog’liq. Bizga ma’lumki 2024- yil yoshlarni qo’llab quvvatlash va tadbirkorlik yili deb e’lon qilinishi bugungi yoshlar uchun juda katta imtiyozlar berishi ularni har tomonlama barkamol avlod bo’lib yetishlari uchun maxalla va ta’lim muassasalarida ko’plab ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar uzluksiz olib borilmoqda. Mahallalarda keng jamoatchilik o’rtasida mafkuraviy - ma’naviy ishlarni samarali yo’lga qo’yish uchun dasturlar, konferensiya va tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda oilalarda, mahallalarda, oliy o’quv yurtlarida yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish maqsadida hukumatimiz tomonidan alohida chora tadbirlar O’zbekiston 2030 strategiyasi asosida tamoyili yuritilmoqda:

- Tuman, shahar, viloyat, Respublika dasturida turli sport musobaqalari, marafonlar, festivallar, musobaqalari o’tkazilish va yoshlar o’rtasida qobilyatlarni tanlash;
- Turli musiqa kitobxonlik sa’nat musobaqalarini, tanlovlar o’tkazish va g’oliblarni rahbatlantiriish ;
- Fanlar bo’yicha maktablarda kasb professional maktablarda texnikumlarda fanlar bellashuvlari olimpiyadalarni o’tkazishni tashkil qilish ;

- Mahallalarda sport musobaqalari ayniqsa kichik-kichik -futbol kamandalarini tashkil etish yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

- Mahallalarda ham sayillar, mustaqillik kuni, konstitutsiya kuni, yangi yil, navro'z bayramlarini yuqori saviyada o'tkazish nishonlash bunda oila mahalla faollari bosh qosh bo'lishlari ;

- Mahallalar ta'lim muassasalari homiy tashkilotlar boshchiligida hasharlar tashkil qilish, yoshlarni faol bo'lishiga chorlash va hasharlarni ma'naviy -marifiy ahamiyatini tushuntirish;

- Bugungi yoshlarni huquqiy saviyasini yuksaltirishda zamonaviy imkoniyatlar axborot vositalari ta'limning zamonaviy yutiqlari samarali olib borilmoqda.

Lekin afsuski voyaga yetmagan yoshlar orasida ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli turli mazmunsiz g'oyalarga ishonib jinoyat yo'liga kirib bormoqdalar. Biz pedagoglar ota-onalar mahalla faollari farzandlarimizni ana shunday aldovlardan turli salbiy g'oyalardan saqlab bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishni ular ongiga milliy qadriyatlarni madaniyatimizni odob axloq tushunchalarini uzluksiz singdirib borishimiz lozim. Shunga ko'ra o'z tajribamga tayanib quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'naviy marifiy ishlarni samarali etishni maqsadga muofiq deb hisoblayman:

1) Mahallalarda ota-onalar va farzandlar o'zarining huquq majburiyatlarini deontologiyani tushunib olishlarida biz pedagoglar voyaga yetmagan yoshlarga har tomonlama yordam berishimiz lozim:

2) Ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya sifatini ularni mahallalar bilan hamkorligini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlarni ko'paytirish kerak:

3) Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi voyaga yetmaganlar , yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tanqidiy mahalliy o'rganish, mahallalardagi yoshlarni tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash sport musobaqalarini uzluksiz tashkil qilish:

4) Ta'lim to'g'risidagi islohatlar yoshlar uchun tashkil etilayotgan professional maktablar texnikumlar faoliyatini yoshlarga keng targ'ib qilish ota-onalar universitet faoliyatini oilaviy an'analar oilada sharqona sadoqat ota-ona yoshlar tayanchi mavzusida suhbatlar faol professor o'qituvchilarni mahalliy televideniya va nashrlar chiqarishlarni tashkil etish yoshlar ma'naviyatini rivojlanishiga katta ko'mak bo'ladi.

5) O'qituvchi – yoshlar o'rtasida g'ayri ijtimoiy qarashlarni vujudga kelishi ularni sabablarini tashxis qilish shart-sharoitlarini o'rganish va salbiy g'oyalarni bartaraf qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

6) Biz pedagoglar ayniqsa mahalliy o'g'il bolalarni Respublikamizda keng ommalashayotgan turli kasb-hunarlarga yo'naltirishimiz, turli kasblar bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishimiz ularga kasblarini kelajagi haqida va xorijiy tillarni o'rganish haqida motivatsiyani singdirishimiz lozim.

7) Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalashga oid ma'naviy marifiy tadbirlarni samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishning, ma'naviy - marifiy tadbirlarning mazmunan mohiyatini keng targ'ib etishi maqsadida hammamiz ma'sulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Milliy tiklanish milliy yuksalish sari".O'qituvchi-T O'zbekiston. 2020 - 400 b.
2. Karimov I.A "Yuksak manaviyat yengilmas kuch". -Toshkent ma'naviyat 2008 115-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish harakatlar strategiyasini 4947- conli farmoni.
4. Kenjaboyev A.E "Yoshlarga ma'naviy mafkuraviy immunitetni shakllantirishda mahalla – ta'lim muassasasi' hamkorligi Xalq ta'limi jurnali. 2017-yil № 157-168-bet
5. Kenjaboyeva D.A. Xorijiy til o'qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent., -2021, -6-son, B.57-60.

ИМОМ АЛ-БУХОРИЙ МУҲАДДИСЛАР ПЕШВОСИ ВА МАЪРИФАТ АСОСЧИСИ

Самиев Асроридин Сайфидинович,
Термиз давлат педагогика институти Педагогика кафедраси доценти,

Имом ал-Бухорийнинг исми Муҳаммад, куняси Абу Абдуллоҳ, лақаби баъзан “Имом ал-муҳаддисийн” (муҳаддисларнинг имоми, пешвоси), баъзан Амир ул-мўминийн фи-л-ҳадис (Ҳадис илмининг амири, султони) ва насаби Муҳаммад ибн Исмоил ибн Иброҳим ибн ал-муғийра ибн Бардазбеҳ ибн Базазбеҳдир. Мутафаккир Абдураҳмон Жомий машҳур муҳаддиснинг илмий-ижодий салоҳиятига юксак баҳо бериб, “Батха (Макка) ва Ясриб (Мадина) да ясалган танганинг сайқали Бухорода камолига етди”,-деб ёзган еди.

Ҳадис илми тарихи ва унинг тарбиявий аҳамиятини ўрганувчи тадқиқотчиларига маълумки, “Саҳиҳ” йўналишининг асосчиси, энг етук ва машҳур муҳаддис Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорийдир. Имом Бухорий милодий 810 йил, 13 майда (ҳижрий 194 йил шаввол ойининг 13 куни) дунёда олиму уламо ва шайху авлиёлари билан маълуму машҳур бўлган Бухорои Шарифнинг зиёли бир хонадонда дунёга келади. Отаси Шайх Исмоил ибни Иброҳим ҳадис илмидан бохабар бўлиб кўпроқ тижорат билан шуғулланган. Имом ал-Бухорийнинг отасининг исми шарифи ва умуман шажарасидан хулосага келиши мумкинки, Имом ал-Бухорийнинг насл насаби бир томони Иброҳим Халиллуллоҳга, ҳамда Пайғамбаримиз Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи вассаламга бориб тақалади.

Исмоил касал бўлиб тўшакда ётган вақтда ёнида дўстлар келиб: “Ей Исмоил қандай қилиб шундай доно ва оқил фарзандни тарбияладингиз, бунинг сири нимада деганда” у киши қисқа қилиб шундай жавоб беради. **“Мен ўйимга ҳаром нарса у ёқда турсин, шубҳали нарсани киритганим йўқ”.** Мен фарзандларимни ҳалол нон насиба билан боқдим мазмунидаги фикрни айтади. Шундан хулоса чиқариш мумкинки, оталари ҳам жуда билимли, доно, тақводор ва парҳезгор одам бўлган. Тарихий манбаларда ёзилишича Имом ал-Бухорий болалигида номаълум сабабларга кўра кўзлари ожиз бўлиб қолади. Онаси кечалари ибодат қилиб Аллоҳдан фарзандини кўзига шифо беришни ёлвориб сўрайди. Бу ҳолат шундан далолат берадики, онаси ҳам покиза, тақводор ва илмли аёл бўлган. Араб ва форс-тожик тилларини яхши билган ва кечалари Қуръон тиловат қилиб чиққан.

Онаси бир кеча узоқ ибодат қилиб фарзанди Абдуллоҳнинг кўзига шифо сўраб жойнамозни устида ўхлаб қолади. Тушида Иброҳим Халиллуллоҳни кўради, у киши айтади: “Эй онаи зор туринг илтижоларингни Аллоҳ қабул қилди ва фарзандингизни кўзини нурини қайтарди”. Онаи зор хурсанд бўлиб жойидан туриб фарзандини юзини очиб қараса дар ҳақиқат Абдуллоҳнинг кўзлари очиқ онага қараб кулимсираб турибти.

Болалигидан отадан етим қолган. Мактабда савод чиқарган ва 10 ёшиданоқ ҳадис илмини катта қизиқиш билан ўргана бошлайди. Ёшлик чоғидан бошлаб турли ровийлардан эшитган ҳадисларни ёдлаб борар эди. Абдуллоҳ ибн ал-Муборак, Вақиъ ибн Жарроҳ каби олимлар тўплаган ҳадисларни ёд олган, ҳадис ривоятчилари ҳақидаги баҳс-мунозараларда фаол иштирок этган.

Имом ал-Бухорий 825 йилда, ўн олти ёшида онаси ва акаси билан Ҳижозга сафар қилади. Маккаи Мукаррама ва Мадинаи Мунавварада бўлиб, ҳаж ибодатини адо этади. Балх, Басра, Куфа, Бағдод, Хуме, Дамашқ, Миср, Макка ва Мадинада бўлиб, сафар жараёнида муҳаддислардан ҳадис илмини ўрганар эди. Олти йил Ҳижозда қолиб устозлардан ҳадис илмидан таълим олади. Шу билан бирга, Дамашқ, Коҳира, Басра, Бағдод шаҳарларида машҳур олимлардан фиқҳ илмидан дарс олади, ўзи ҳам баҳс мунозараларда иштирок этади, толиби илмларга дарс беради.

Имом Бухорий жуда ҳам истеъдодли, қобилиятли, ўткир зиҳнли ва ўта кучли “феноменал” (ноёб) хотирага эга бўлган.

Манбаларга кўра, Бағдодда истиқомат қилган пайтида кўпинча ойнинг нурида ижод қилиб, қоронғи кечалари шам ёруғида китоб ёзар экан. Агар тунда бехосдан бирор-бир фикр мулоҳаза келиб қолса, шамни ёқиб дарҳол фикрини қоғозга туширар, шу тахлитда баъзи кечалари шамни йигирма мартагача ўчириб-ёқар экан”.

Имом Бухорийнинг ўткир зеҳн ва кучли хотира эгаси эканлигини қўйидаги мисолдан ҳам билиш мумкин.

Ривоятларга кўра “У қайси бир китобни қўлга олиб бир маротаба мутолаа қилса, ҳаммаси ёд қолаверади”. Имом Бухорийнинг ўз сўзига кўра, юз минг саҳиҳ (ишончли) ва икки юз минг ғайри саҳиҳ (ишончсиз) ҳадисни ёд билар экан.Ўз шогирдларидан Амир ибн Фаллос айтади: “Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорийга маълум бўлмаган ҳадис, албатта ишончли ҳадис эмасдур”. Устози Имом Аҳмад ибн Муҳаммад айтади: “Ислом дунёсида Ибн Исмоил каби олим чиққан эмас”.

Имом Бухорийнинг ўткир зеҳни ва кучли хотирага эга эканлиги ҳақида шундай ривоят келтиради: “Имом Бухорий билан Басрада ҳадис илмидан сабоқ олган шерикларидан бири Ҳошид ибн Исмоил айтади: “Имом Бухорий бизлар билан бирга устознинг дарсини эшитарди. Устоз ривоят қилган ҳадисларини биз ёзиб олар эдик, аммо Бухорий фақат қулоқ солибгина ўтирарди. Шу тарзда қанча кунлар ўтиб, орада устоз қарйиб 15 минг ҳадис ривоят қилди. Шунда биз Бухорийга: “Сен нега ҳадисларни ёзмайсан?” –деб сўраган вақтимизда: “Сизлар ёзиб бораётган ҳадисларни мен устоз оғзидан ёдлаб олаётирман”,-деди-да, устоз ўша кун ривоят қилган барча ҳадисларни бир чеккадан ёддан айтиб берди. Шундан кейин биз ёзиб олган ҳадисларимиздаги хатоларни унинг ёдлаганидан тузатиб оладиган бўлдик”.

Имом Бухорий жуда кўп забардаст олимлардан таълим олади. Манбаларда унинг устозларини тўқсонга яқин деб кўрсатишади. Муҳаммад ибн Юсуф ал-Ғартобий, Убайдулла ибн муса ал-Абасий, Абу Бакр Абдулла ибн аз-Зубайр ал-Ҳамийдий, ибн Раҳавайҳ номи билан машҳур имом Исъҳоқ ибн Иброҳим, Имом Аҳмад ибн Ҳанбал, Али ибн ал-Мадийнийлар унинг устозларидир.

Имом ал-Бухорийнинг ўзи ҳам йирик ва машҳур олимлар Исъҳоқ ибн Муҳаммад ал-Рамозий, Абдуллоҳ ибн Муҳаммад ал-Маснадий, Муҳаммад ибн Ҳалаф ибн Қутайба, Иброҳим ал-Ҳарбий, Муҳаммад ибн Абу Исо ат-Термизий, Муҳаммад ибн Наср ал-Марвазий, Муслим ибн Ал-Ҳажжожларга ўз вақтида устозлик қилган.

Имом ал-Бухорий ўта камтар, инсонпарвар, хулқ-одобда тенгсиз, саховатли инсон ҳам бўлган. У ҳадис илмининг етук олими бўлса ҳам, вақти келганда замондошлари, шогирдларидан ҳам ўрганган. Имом Бухорий бир минг саксонта муҳаддисдан ҳадис эшитган. Ундан тўқсон минг киши ишонарли ҳадисларини эшитган.

Имом ал-Бухорий узоқ сафардан она юрти Бухорога қайтгач, толиби илм ва уламоларга ҳадис илмидан сабоқ беради ва унинг тарғиботчисига айланади. Ривоятларга кўра, халифанинг Бухородаги ноиби Холид ибн Аҳмад ибн Холид аз-Зуҳалий уни саройга келиб ҳадис илмидан сабоқ беришга таклиф этади. Аммо Бухорий бу таклифни қабул этмайди ва: “Мен илмни хорлаб султону амирлар эшигига олиб бормайман. Агар амирга илм керак бўлса, болаларини уйимга ёки масжидга юборсин”, -деб жаво беради. Ал-Бухорий билан Бухоро амири Холид ибн Аҳмад аз-Зуҳалий ўртасидаги муносабатларда рахна тушади. Бунга баъзи Имом Бухорийга нисбаттан ҳасад ва адовати борлар фойдаланиб Имом Бухорий билан амир ўрталарида фитна чиқариш учун Имом Бухорийнинг сўзларига қўшиб амирга етказиш ҳам сабаб бўлади. Амир буюк алломани Бухородан чиқиб кетишга фармон беради. Самарқанд уламолари буни эшитиб вакил юбориб ўз юртларига таклиф этадилар. Имом Бухорий йўлга чиқади. Самарқанд шаҳрига яқин жой (ески Ҳафтанг) ҳозирги Пояриқ тумани Хартанг қишлоғини ўзига манзил қилади. У жойда кўп яшамайди ва бетоб бўлиб қолади ва шу ерда ҳижрий 256 йили

рамазон ойининг охирги куни (милодий 870 йил 1 сентябр) 62 ёшида вафот этади ва ўша Хартанг қишлоғида дафн этилади.

Минг йиллардан буён Имом ал-Бухорийнинг қабри бутун дунёда яшаётган миллионлаб мусулмон халқларининг зиёратгоҳига айланган.

Маълумки, Ислом дини инсонни юксак маънавий камолот сари етакловчи таълимот ҳисобланади. Шу сабабли Қуръони каримда ҳам, ҳадисларда ҳам яхши хулқ ва одоб кенг тарғиб этилган. “Ота-она фарзандига одоб-ахлоқдан яхшироқ мерос қолдиролмайди” (Ҳадис). Имом Бухорий ҳам 4 жилдли “Ал Жомеъ ас-саҳиҳ” асарининг бир жилдида одоб-ахлоқ ҳақидаги ҳадисларни жамъ этган. Кейинчалик аллома бутун Ислом олами одоб-ахлоқи ва тарбияси масалаларига бағишланган “Ал-адаб ал-муфрад” (“Адаб дурдоналари”) номли махсус ҳадислар тўпламини яратади. Бу асар 644 бобда баён этилган бўлиб маънавий-ахлоқий тарбияга оид 1322 ҳадисни ўз ичига олади.

Демак Имом ал-Бухорий ривоят қилган ҳадислар, мазмунан ҳар бир мўминнинг ишончини, эътиқодини мустаҳкамлайди ва шу билан инсонни маънавий камолотга даъват этади. Ислом дини маърифатга асосланган учун ҳам ҳар бир шахсни ақлий, жисмоний, ахлоқий жиҳатдан камолга етказишга оид эътиқод ва имондан иборат бўлиб, фақат эзгуликка хизмат қилиш, олийжаноб бўлиш, покиза юриш, бир бурда луқмани ҳалол қилиб ейиш, жаҳолат ва жаҳолатпарастликка йўл қўймаслик, ўз биродарининг, қариндош ўруғларининг, миллатининг ва ватанининг қадриятларини асраш авайлашдан иборатдир. Шундай экан, ҳадислар комил инсонни шакллантиришда муҳим манба ҳисобланади ва ҳозирги глобаллашув жараёнида ундан ёш авлоднинг маънавий-ахлоқий тарбиясида фойдаланиш шу куннинг долзарб вазифалардан саналади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. (ал-Жомъе ас сахиҳ). 1-к. Қомуслар бош таҳририяти.–Т.: 1997. – 560 б.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 199 б.
3. Аҳмад ибн Ҳажар ал-Асқлоний.”Фатҳул-Борий шарҳу Саҳиҳил-Бухорий”, Дорул райяни лит-турос, Қоҳира, 1986. 1-нашр.
4.Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. “ Саҳиҳул-Бухорий”, Дорул фикр, Байрут, Ливан. 1994/1414 й.
5.Каримов И. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.: “Ўзбекистон”, 2011.
6.Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.:”Ўзбекистон”, 2017
7. Олимов.Ш.Маънавий-ахлоқий тарбия асослари.Тошкент-2015 й.
8. Ҳошимов.К, Нишонова.С, Иномова.М, Ҳасанов.Р Педагогика тарихи Т.”Ўқитувчи” 1996 йил.
9. Интернет “Меҳроб.уз “ маълумотлари.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING ILMIY MEROSINI O'RGANISH VA UNDAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mehribo Jumayeva Abduvohitovna,
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy merosini o'rganish va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish haqida so`z yuritiladi. Maqolada, shuningdek, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlari: Jadidlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlar, barkamol avlod, mustaqillik, “Turkiy guliston yoxud axloq”

Avvalo, mustaqillik bizga o‘z taqdirimiz va hayotimizga egalik qilish huquqini berdi. Bu esa o‘z kelajagimizning bunyodkori o‘zimiz deganidir. Barchamizga ma’lumki, mustaqillikdek

oliy ne’matga erishganimizdan so‘ng, muqaddas an’ana va milliy qadriyatlarimizga tayanib yashay olish huquqiga ham erishdik. Mustaqillikdan oldin bo‘lsa, o‘zligimizni anglashimiz bilan bir qatorda an’ana va qadriyatlar asosida hayot kechirishimizga yo‘l qo‘yilmagan, vaholanki milliy urf-odat va an’analarsiz millat – millat bo‘lmaydi. O‘sha davrlarda Navro‘z, ramazon, qurbon hayiti va boshqa shu kabi bir qator muqaddas sanalgan milliy bayramlarimiz taqiqlangan edi. O‘tmishimiz tarixini, shuningdek, unda o‘tgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi buyuk bobokalonlarimiz, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi jadidchilarimizning nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga, umuman olganda “Tarixi bo‘lmagan xalqning, kelajagi ham bo‘lmaydi” degan fikr asosida o‘zbek millati o‘tmishini tarix zarvaraqlaridan butunlay o‘chirib tashlashga harakat qilinar edi.

Har qanday davlat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati hamda ma’naviyati bilan kuchlidir. Bunda qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytib o‘tish joizki, mustaqillikdan keyin bir qator bayramlarni nishonlash yurtimizda an’anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrning boshlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma’nan yetuk hamda barkamol bo‘lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu xususda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”, - degan jumlalarini keltirib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylayman. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an’analarning ahamiyati katta bo‘lib, ular tarbiya jarayonida eng ta’sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo‘rin bo‘lmaydi.

Bilamizki, jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o‘sib kelayotgan kelajak avlodni o‘z milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ya’ni mustaqillikka erishgan bo‘lishi kerak.

Jamiyatning har bir fuqarosi XXI asr bo’sag’asida turar ekan, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiiydir. Jumladan, ta’lim sohasida faoliyat ko’rsatayotganlar ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni o’quv jarayoniga qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda,buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda tinglovchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsning bu rivojlanishi shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan ta’lim jarayonida tinglovchi asosiy o’rin egallaydi. Hozirgi kunda ham o’tgan asrimizda ham ta’lim jamiyatning asosiy bo’g’ini sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini oladigan bo’lsak, unda zamonaviy pedagog yetishtirish,yangi darsliklarni yaratish va ta’lim uslublari, ko’nikmalari uchun yangi majmualar yaratish keng o’rin olganligini ko’rishimiz mumkin. Hatto adib bu asari xususida “Men bu asari nochinozimning birinchi maktablarimizning ta’lim berma ila barobar ulug’ adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim” deya aytib o’tgan. Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarga ta’lim va tarbiya berish masalasi har bir muallif asarining bosh g’oyasi sanaladi. Ta’lim va tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi hisoblanadi. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq

bilan chegaralab qo’ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog’ligi haqida g’amxo’rlik qilish lozimligini uqtiradi. Shu jumladan 1913-yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosildi. 1917-yilda esa ikkinchi marotaba nashr etildi. Kitob maktablarning yuqori sinf o’quvchilari uchun yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o’zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo’lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo’llanma bo’lib xizmat qiladi. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm”- axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu- xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo’lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik badbinlikning timsoli. Shu jihatdan kishida xulqning u yoki bu jihati o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug’ilishidan yomon bo’lib tug’ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog’liq. Tarbiya tug’ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – oila va maktab tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiya doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo’ymaydi. “Sog’ tanda sog’lom aql” degan naqlning bejiz emasligini yaxshi biladi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo’lmaydi - bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir. Shu jumladan, avval madrasada jadid va domlalar ta’lim va tarbiyani uzviy bergan bo’lsa endi bu maktabda ham o’z o’rnini topgan. Chunki maktab milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz asosini o’rgatadigan asosiy maskandir. Madrasalarda jadidlar o’z faoliyati darajasidan kelib chiqqan holda o’quvchilarga ilm o’rgatganlar. Jadidlar o’z asarlarida ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo’lida qo’llanmasa, u o’likdir degan fikrni aytgan. Shuning uchun ular yoshlarni ilm olishga, uning sirlarini bilishga, hodislar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash,yomonlikdan qaytarib,yaxshilikka chorlash bevosita va bilvosita ta’lim-tarbiyaga bog’liq. Uning yuqorida ta’kidlab o’tgan asarida tarbiyani ilmni targ’ib qiladi. Ilm dunyoning izzati,oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g’oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni,harakatimizni oyna kabi ko’rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir”

Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki, jadid ma’rifatparvarlari inson qadrini ijtimoiy muhit, oilaning o’rni, “Badan tarbiyasi” sog’lom insonni tarbiyalash, “Fikr tarbiyasi” tafakkurni rivojlantirish, fikrlashga o’rgatish, “Axloq tarbiyasi” – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish kabi masalalarga e’tibor qaratadi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy.Tanlanga asarlar.2-jild. “Turkiy guliston yoxud axloq ”,- T,Ma’naviyat,2006.
2. Zunnunova A. Pedagogika tarixi , - T, ; Sharq,2004.
3. Qosimov. B Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti,-2004,-T,;Ma’naviyat.
4. Abdulaziz, A. (2018). Jadid ma'rifatparvarlik nazariyasi. Toshkent: Fan va ta'lim.
5. Olimjonov, O. (2020). Ilmiy merosni o'rganishning asosiy omillari. Toshkent: Sharq.
6. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahoratning o‘rni. Buxoro. 2021 yil. 21 aprel. B. 223-225.

TALABA-YOSHLAR MA’NAVIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY SHAKL VA USULLARI.

Mirzayev M. J.
Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD).

Annotation: Hoc in articulo, opiniones exprimuntur de methodis theoricis et formalibus excolendi spiritualem studentium et iuvenum cogitationem, altae conscientiae, philosophicae rerum et humanarum qualitatum enucleandi.

Keywords: spiritualitas, studentis iuventus, cogitatio, altior conscientia, perfectio, educatio et educatio.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlar ma’naviy tafakkurini rivojlantirish, ularda yuksak ong, falsafiy dunyoqarash va insoniy fazilatlarini rivojlantirishning nazariy va shakliy usullari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, talaba-yoshlar, tafakkur, yuksak ong, barkamollik, ta’lim va tarbiya.

Аннотация: В данной статье высказаны мнения о теоретических и формальных методах развития духовного мышления студентов и молодежи, развития их высокого сознания, философского мировоззрения и человеческих качеств.

Ключевые слова: духовность, студенческая молодежь, мышление, высшее сознание, совершенствование, образование и обучение.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yuksak ma’naviy tafakkurga ega bo‘lgan iqtidorli yoshlar bilan ishlashga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Ularning ma’naviy jihatdan o‘zligini namoyon qilishga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri ekanligi bilan yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Endilikda barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va maqsadlaridan kelib chiqib, avlod- ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda ma’naviy tafakkurni, yuksak ongni rivojlantirishda ilg‘or zamonaviy usullardan foydalanish zaruriyati tug‘ilmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ma’lumki, mamlakatimizdagi yoshlarda ma’naviy tafakkurni, milliy qadriyatlar, milliy g‘oya va milliy an’analar asosida tarbiyalash va ta’lim–tarbiya jarayonida undan foydalanish, yangilangan jamiyat manfaatlariga xizmat qildirishni taqozo etadi. Har qanday jamiyatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodning hayotga kirib kelishida uning qanday ta’lim-tarbiya olishi, qanday muhitda tarbiyalanishi, va qay tarzda ma’naviy tafakkurni va yuksak ongni tarbiyalanganligiga bog‘liqdir[4]. Ana shunday ma’naviy tafakkurga ega bo‘lgan avlodgina mamlakat oldiga turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, shu xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qila olishi mumkin bo‘lgan va kelajakda o‘z yurti va o‘z xalqining keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa nafaqat hozirgi avlod taqdiri, balki kelajak avlodning taqdiri ham shunga bog‘liq ekanligini tushunib anglashimiz lozim[2].

Azal-azaldan ota bobolarimiz, farzand, shogird kamoli yo‘lida ko‘p ming yillik tajribadan kelib chiqib, turli tarbiyaviy vosita va bilimlar orqali tafakkur bulog‘i bilan sug‘orilgan sharqona hayot maktabini yaratishgan. Bu amaliy tajriba maskani dunyo tamadduniga Muso AL-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Hakim At-Termiziy, Mahmud Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro Aziziddin Nasafi, Abu Mansur Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiydek yetuk allomalar ma’rifat ahlini, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temur Malik kabi mard va jasur sohibqironu sarkardalarni, noyob aql sohiblarini yetkazib berdi. O‘tmish mutafakkirlarimiz turmush tarzi, muqaddas kitoblar, hadislardagi ibratomuz fikrlardan hosil bo‘lgan saboqlarni jamlab, ” “Qutadg‘u bilik”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Qobusnoma”, “Pandnoma”, ”Odobnoma”, ”Bo‘ston” va “Guliston”, “Bahoriston”, ’Otalar so‘zi”, “Ey farzand”, “Zarbulmasal”, “Hayrat-ul Abror” va yaqin o‘tmishimizda “Qizlar daftariga”, “Tolibnoma”, “Saodatnoma” kabi qator axloqiy-falsafiy asarlar bitishgan. Bu kabi sharafli ishlar bugun ham izchil davom etmoqda. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, “Go‘zal odob-farzand iqboli”, “Sog‘lom bola”, “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz”, “Farzandlar-jannat rayonlari”, “Otamdan qolgan o‘gitlar”, “Farzandingiz aqlli, sog‘lom va oqibatli bo‘lsin desangiz.”, “Talaba qizimga maktublar”, “O‘g‘limga maktublar” kabi asarlar shular jumlasidandir[7]. Millat va mamlakatning ma’naviy taraqqiyoti yoshlarning ma’naviy kamolotiga asos soladi. Ma’naviy tafakkur yoshlarga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudratbaxsh etadi. Ma’naviy barkamollik esa-yoshlar uchun eng muhim ijtimoiy ehtiyojga aylanadi. Buning uchun talaba-yoshlarda ma’naviy tafakkurni rivojlantirish bevosita milliy an’analar va urf-odatlar, qadriyatlarimizni ular ongiga chuqur singdirib borish orqali umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizni inson uchun nafaqat zarurligini his etish va unga amal qilish talab etiladi.

Respublikamiz prezidenti hurmatli Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 08. 10. 2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi PF-5847-son qarori, O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi “Prezident maktablari” to‘g‘risida Nizom bo‘yicha 526-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va besh tashabbus asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu hujjatlar muayyan darajada xizmat qiladi[4].

Mamlakatimizning birinchi prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi:” Biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma’naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarini kishilar ongida nechog‘lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz”. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma’naviy tafakkurga, yuksak ongga va ma’rifatga doimo katta e’tibor berib kelganlar. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o‘zligini tanib, o‘z ma’naviyatini yuksak holatda shakllantirish yo‘lida bir qancha usullar orqali amaliy chora tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilishmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 16-17 noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi doirasida milliy ma’naviyatimiz hamda azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yoshlarning intilish va maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash, vatanparvarlik tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi o‘rtasida sog‘lom muhitni shakllantirish maqsadida respublikada birinchi marta “Surxondaryo tajribasi” misolida “Ma’naviyat sektori” ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu esa voha xalqi uchun o‘ziga xos, kutilmagan voqea bo‘ldi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan bebaho ma’naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Ayniqsa, ma’naviyat va ma’rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berilib, milliy tarbiya sohasida sog‘lom fikrli, ma’naviy barkamol inson bo‘lgan yoshlarga ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati, ularning hayotdagi asl maqsadini anglatish borasida jiddiy ishlar olib borishimiz zarur ekanligini davrning o‘zi taqozo etmoqda [6]. Chunki, “mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq” Bu esa har bir insonning ma’naviy dunyosi va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Shu maqsadda ma’naviyat va tafakkur tushunchalariga “Pedagogika fanidan izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif beriladi. “Ma’naviyat-(arabcha-ma’nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. U kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo‘lib, ma’lum bir axloq me’yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir”.

Ma’naviyatning negizi va mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy pokligi, qalban ulug‘lanishi haqida gapirar ekanmiz, insonning dunyoda halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularni mazmunli hayotga qiziqtirish, foydali mehnat bilan band qilish, ehtiyojmand bo‘lgan: nogiron, boquvchisini yo‘qotgan, chin yetim toifadagi yoshlarga alohida e’tibor berib kelinayotgani barchamizga ayon. Respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni yanada yaxshilash maqsadida kelajakda bilimli, iqtidorli, ishbilarmon, har tomonlama kamol topgan ma’nan yetuk mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish zarur. Shu maqsadda respublikamiz Oliy ta’lim muassasalari talabalarining chuqur bilim olishlari uchun, kelajakda o‘z sohasining haqiqiy munosib egalari qilib voyaga yetkazishga qaratilgan dasturlar asosida ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda talabalarning ma’naviy tafakkurini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Zakovat”, “Munozara”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Teatr — tarbiya maskani”, kabi klub va intellektual o‘yinlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib nazorat qilib borilmoqda. Turli- tuman tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi: “Tinchlik-eng oliy ne’mat”, “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Giyohvandlik va uning salbiy oqibatlari” kabi mavzularda maqolalar tanlovi, talabalarni kitob mutolaasiga jalb etish hamda badiiy

savodxonlik darajasini yanada oshirish maqsadida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida yozuvchi va shoirlar, mehnat faxriylari va mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali ham talaba — yoshlarda ma’naviy tafakkurni rivojlantirish, yuksak ong va dunyoqarashni tarbiyalashga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”- Toshkent -2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019. , 9 oktyabr, 209 (7439)-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etishi va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori, “Xalq so‘zi” gazetasi 2017, 14 sentyabr, 184 (6878)-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab –quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4602 son Qarori. — T. :2020 yil 18 fevral.

5. Islom Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma’naviyat” 2008 yil.

7. Obiddin Mahmudov “Farzandnoma”. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. , 2018 yil.

8. X. J. Xudoyqulov. , M. J. Mirzayev “Tolibnoma”. , Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”. 2020 yil.

9. M. Mirzayev., O‘quvchi – yoshlar ma’naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Nurulloyev Laziz Latipovich BuxDPI
Harbiy ta’lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti

Annatatsiya: Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, metodologik asoslari, mazmun-mohiyati, vazifalari, vositalari, pedagogik, psixologik asoslari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi va uning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: odob, axloq,tarbiya, zero, lozim

Hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish yo‘nalishlari orasida vatanparvarlik tarbiyasi hamda uning tarkibiy qismi bo‘lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi alohida o‘rin egallaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi insonni tarbiyalash yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tegishlicha keng qamrovli ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni hamda o‘quv-tarbiya jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu masalalar ilmiy jihatdan pedagogika, psihologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma’naviyat asoslari, tarix, falsafa, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari, Qurolli Kuchlarning asosiy me’yoriy hujjatlari va ular faoliyatining hamda Vatanimiz mudofaasining asosiy tamoyillari, matematik statistika, mantiq va boshqa bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ushbu fanlarning har biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarni o‘z tadqiqot yo‘nalishlari va usullari bo‘yicha o‘rganib, tegishli xulosalarni chikaradi va tavsiyalarini beradi. Ular harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining **metodologik asoslarini** tashkil qiladi.

Bunday **metodologik asos harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy tamoyillarini, rivojlanish yo‘nalishlarini, samarali shakl va usullarini hamda istiqboldagi vazifalarini zamonaviy ilmiy xulosalarga muvofiq belgilashga xizmat qiladi.** Bunda harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy mutaxassislar tayyorlash masalalari bo‘yicha umumiy va harbiy pedagogika va psihologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma’naviyat asoslari, tarix falsafa, matematik statistika, mantiq, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari hamda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga va me’yoriy-huquqiy talablarga asoslaniladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi va uning davomi hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tarbiyasining sifati va samaradorligi qanday darajada ekanligi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi zamon pedagogika fanining ta’lim va tarbiyaning bir-biri bilan bog‘liqligi hamda ajralmasligi tamoyiliga muvofiq vatanparvarlik tarbiyasi vatanparvarlik ta’limi bilan chambarchas bog‘liq. Xuddi shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham harbiy-vatanparvarlik ta’limi bilan chambarchas bog‘liq. Bundan xulosa chikarish mumkinki, vatanparvarlik tarbiyasi vatanparvarlik ta’limi asosida amalga oshiriladi, xuddi shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham harbiy-vatanparvarlik ta’limi asosida amalga oshiriladi. Ma’lumki, har qanday tarbiya tegishli bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish asosida amalga oshadi. Bu esa tarbiyani amalga oshirish, avvalo, o‘sha tarbiyaga tegishli bilim, ya’ni ta’lim jarayonidan boshlanishini ko‘rsatadi.

Shunga muvofiq tartibda bu jarayonlarni quyidagicha yaqqolroq ifodalash mumkin:

Vatanparvarlik ta’limi - o‘sib kelayotgan yosh avlodda o‘z Vatanini, xalqini sevish, uning himoyasiga tayyor turish sifatlarini tarkib toptirish va mustahkamlab borishga xizmat qiluvchi bilimlarni o‘rgatish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jarayon.

Vatanparvarlik tarbiyasi - o‘sib kelayotgan yosh avlodda o‘z Vatanini, xalqini sevish, uning himoyasiga tayyor turish sifatlarini tarkib toptirish va mustahkamlab borishga qaratilgan jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik ta’limi - o‘sib kelayotgan yosh avlodning Vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilishga tayyorligini amalga oshirish va shu tayyorlikni takomillashtirib borishga xizmat qiluvchi bilimlarni o‘rgatish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi - o‘sib kelayotgan yosh avlodning Vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilishga tayyorligini amalga oshirishga qaratilgan jarayon.

Shunga muvofiq ravishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir metodologik asosi uning ushbu yo‘nalishdagi ta’lim jarayoni hamda umumiy vatanparvarlik tarbiyasi va ta’limi jarayonlari bilan chambarchas bog‘lik ekanligi hisoblanadi. Bu jarayonlar esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviy-ma’rifiy va nazariy asosini tashkil etuvchi Vatanni himoya qilish to‘g‘risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari bilan birgalikda xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi, shuningdek, mazkur masala bo‘yicha umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablarni o‘rgatish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu metodologik asoslar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq barcha nazariy hamda amaliy masalalarni hal etishda hisobga olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo‘ramiz. Mazkur kitobda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorakalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga

oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni

7. Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarori

O`SMIRLARDA TARBIYASI QIYINLIK TIPALOGIYASI VA ULARDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXALAGIK USULLARI

Ismatova Halovat Baxtiyorovna,
BuxDU, Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning deviantlik holati, tarbiyasi qiyin o`smirlar hamda ularning pedagogik-psixologik holatlari keltirib o`tilgan.Shunindek, jamiyat hayotidagi sodir bo‘layotgan turli o‘zgarishlar, barcha tizimlarga nafaqat ijobiy balki, sezilarli darajadagi ijtimoiy-salbiy ta’sirlari natijasida ko`zga ko`rinarli darajadagi o`smirlik davriga ta`siri to`g`risida ma`lumot keltirib o`tilgan. Shu bilan birga rus hamda xorij olimlarning fikr-mulohazalari ham ushbu maqolada joy egallagan.

Kalit so`zlar: deviantlik holati, tarbiyasi qiyinlik, inqiroz, adaptiv xulq-atvor, tajovuzkorlik, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy me’yor, faoliyat, o'zini o'zi idrok etish.

Oramizda shunday insonlar ham borki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to‘siq bo‘luvchi me’yordan og‘ish holatlarini yuzaga keltiradi. Jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish holatlari psixologiyada “deviantlik holati” undan tug‘uluvchi xulq-atvorni “tarbiyasi qiyinlik” deb nomlanadi. Tarbiyasi qiyin o`smirlar - jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yolariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Jamiyat hayotidagi sodir bo‘layotgan turli o‘zgarishlar, barcha (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy) tizimlarga nafaqat ijobiy balki, sezilarli darajadagi ijtimoiy-salbiy ta’sir qilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatlayotgan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy anomiya, turmush darajasidagi tafovutlar bu deviant muammolardir. Salbiy omillar natijasida jamiyat a’zolari o‘zlarini ojiz va xo‘rlangan, ijtimoiy loqayd, jismoniy va ma’naviy zararlangan hisoblashadi. Tarbiyasi qiyin tip bu ko‘pincha o`smirlar hisoblanadi. O`smirlar o‘rtasida og‘ish holatlariga esa ota-onalarning o‘z bolalariga e’tiborsizligi, nazoratsiz va qarovsiz bolalarning ko‘payishi sabab bo‘ladi. Demak, tarbiyasi qiyin shaxslar deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh-urug‘lari va do‘stlarining ko‘nglini og‘ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug‘diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo‘lib, shunga ko‘ra, faolligining barcha ko‘rinishlari yuzaga chiqadi.

O'smirlik davri inson rivojlanishidagi burilish davri bo'lib, o'smirning ehtiyojlari va qobiliyatlari ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi, bu esa moslashishning turli shakllariga olib keladi. Bolaga hayotning ushbu qiyin davrida yuzaga keladigan ob'ektiv va subyektiv qiyin vaziyatlarni engishga yordam berish muhimdir. Aynan o'smirlik davrida shaxslararo o'zaro ta'sirning konstruktiv va buzg'unchi usullari shakllantirilishi, himoya mexanizmlari ishlab chiqilishi va o'smir arsenalida mavjud bo'lgan adaptiv xulq-atvor modellari qayta ko'rib chiqilishi tufayli ushbu yoshga alohida e'tibor beriladi. Noto'g'ri o'smirlar orasida xulq-atvorida og'ish, o'rganish va muloqot qilishda qiyinchiliklar mavjud bo'lgan o'smirlar "qiyin" deb nomlanadi. Shuning uchun o'zlarining individual xususiyatlarida sezilarli darajada farq qiladigan o'smirlar ko'pincha "qiyin" deb tasniflanadi.

O'smirlik tajovuzkorlikning kuchayishi, charchoq, befarqlik, asabiylashish, hissiy beqarorlik, ma'lumotni idrok etishda qiyinchiliklar, istak va ehtiyojlarning nomuvofiqligi kabi psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bu qiyinchiliklarni ham yumshatib, ham og‘irlashtirishi

mumkin. O'smirning salbiy o'zini o'zi idrok etishi bolaning salbiy tajribalari borligi sababli yuzaga keladi.

Birinchidan, o'smirlar odatda o'zlarining shaxsiy qimmatli fazilatlariga ega emasliklariga ishonishadi va shuning uchun jamiyat uchun foydali bo'la olmaydilar, aksincha, salbiy xarakterli xususiyatlarga ega yoki boshqalarga va ular uchun muhim bo'lgan odamlarga zarar etkazadilar.

Ikkinchidan, o'smirlar, odatda, ular uchun eng muhim bo'lgan odamlar ularga ijobiy emas, balki salbiy nuqtai nazardan qarashadi deb o'ylashadi.

Uchinchidan, o'smirlar hali kamroq salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish imkonini beradigan aqliy o'zini o'zi himoya qilish mexanizmlaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega emaslar. Tarbiyasi qiyin o'smirlarda o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji juda kuchli va jamiyatda maqbul yo'llar bilan qondirilmaganligi sababli, ular tajovuzkorlik, yomon so'z va ziddiyatlarda namoyon bo'ladigan deviant xatti-harakatlarga murojaat qilishlari kerak. O'smirlar o'rganishda, ota-onalar, do'stlar, o'qituvchilar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatlar jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi va ular tartibsizlik bilan ajralib turadi. Shuningdek, tarbiyasi qiyin o'smirlarda ijobiy qarashlar va maqsadlar yo'q, ya'ni ularning qadriyat yo'nalishlari etarli darajada shakllanmagan, o'smirlar o'z hayotini yaxshilash uchun o'z oldilariga maqsad qo'ymaydilar, faqat mavjud me'yor va qoidalardan chetga chiqadilar. Asta-sekin o'smirning jamiyatdagi mavjud me'yorlarga moslashish istagi pasayadi, bu esa o'smirlarning og'ish istagining kuchayishiga olib keladi. Bularning barchasi oxir-oqibatda o'smirning o'z-o'zini anglashining o'zgarishiga olib keladi, u "tarbiyasi qiyin o'smirlar" o'zini o'ziga xos mustaqillik bilan tuta boshlaydi, ko'pincha o'z o'rganishni istamaydi, o'qituvchilarga hurmatsizlik qiladi. tengdoshlari orasida etakchilik mavqeini va obro'sini olishga intiladi. Bunday holatda, qoida tariqasida, qiyin o'smirlar jinoyat qilishni boshlaydilar, chunki ular ko'pincha sinf jamoasi tomonidan rad etiladi. Aynan shunday hollarda o'smirlar boshqa tengdoshlari, odatda "qiyin" guruhlari bilan yaqinlashishga intilishni boshlaydilar va maktabga borishni to'xtatadilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning qo'polligi, beadabligi va beparvoligi ko'pincha pastlik, o'ziga ishonchsizlik, kamchilik va bolalik tuyg'ularining niqobidir.[1] Tarbiyasi qiyin o'smirlarning eng xarakterli xususiyatlaridan biri bu yosh normalaridan orqada qolishda namoyon bo'ladigan aqliy etuklikdir. Bunday o'smirlar o'z harakatlarini xulq-atvor me'yorlari bilan bog'lay olmaslik, mantiqiy fikrlashning zaifligi bilan ajralib turadi. Bunday o'smirlar, qoida tariqasida, tanlash vazifasi bilan duch kelmaydilar, ular o'zlari qaror qabul qilmaydilar, lekin ular aytganidek harakat qiladilar yoki agar bu mustaqil qaror bo'lsa, unda bu impulsivdir. Ushbu qiyin davrda rivojlanishning ijtimoiy holati qaram bolalikdan mustaqil va mas'uliyatli kattalikka o'tishni anglatadi. O'smir bolalik va kattalik o'rtasidagi oraliq pozitsiyani egallaydi.[1]

Hozirgi kunda Respublikamizda mutaxasislar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta’lim tizimini yanada modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor berilmoqda.Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 9 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishlarida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3183-son qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy xulq-atvor asoslarini shakllantirish pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik deontologiya fani bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga ham axloqiy, ham psixologik jihatdan tayyorlaydigan, shu orqali kasbiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan fan sohasidir.“Deontologiya” so‘zi lotincha deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatadi.Deontologiya

so’zini dastlab fanga ingliz faylasufi Dj.Bentam ilmiy jihatdan asoslagan[1]. Uning “Deontology of science of morally”[2] asarida deontologiya ya’ni, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dj.Bentam tomonidan tavsiya qilingan “deontologiya” fanidagi g‘oyalar nemis faylasufi I.Kant tomonidan rivojlantirildi, u deontologiyani “etika bu burch, majburiyat etikasidir” deb ta’rifladi.O‘qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy, milliy axloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, burch, qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o‘qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan tahlil qilinadi.

Hozirgi kun o‘qituvchi-tarbiyachisi o‘z mutaxasisligi bo‘yicha yuksak insoniy fazilat, kasbiy xulq-atvor, pedagogik mahorat va pedagogik etika egasi bo‘lishi kerak. Oliy pedagogik ta’lim maktablarida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumot berish bilan birga, ularga kasbiy xulq-atvor, pedagogik kompetentlik, o‘qituvchi-tarbiyachilik etikasi va estetikasi bo‘yicha ma’lumotlar berish zarur.Chunki ta’lim va tarbiya birgalikda olib borilsa samarali natija beradi.O‘qituvchi-tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori,odob axloqi, burchi, muruvvati, adolatparvarligi, beg‘arazligi, bolajonligi, bilimdonligi inobatga olinib, ular ta’lim-tarbiya ishlarida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etishi nazarda tutildi. Pedagogik deontologiya – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, uning pedagogik majburiyatlari, ma’suliyati munosabatiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar majmui hisoblanadi. Pedagogik deontologiya odob-axloq me’yorlarini, qadriyatlarni, shuningdek, pedagogik axloq-odobga xos talablarni shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi soha sanalib, ularni anglash va amalga oshirish ishlarini olib boruvchi fan sifatida qabul qilingan. Shunga asosan pedagogik deontologiyaning predmeti - o‘qituvchining kasbiy xulq-atvori va odobini belgilaydigan axloqiy me’yorlar tizimini o‘zida ifodalaydigan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni o‘zlashtirish va boshqarish jarayonini o‘rganishdir.

Shuni aytishimiz kerakki, pedagogik deontologiya o‘qituvchining xulq-atvori nafaqat ijtimoiy me’yorlarni (axloq normalari, urf-odatlar, huquq normalari va boshqalarni) bilish bilan, balki uning ushbu ijtimoiy, kasbiy qadriyatlarga (huquqiy, axloqiy estetik va boshqalar) munosabati bilan belgilanadi. Pedagogik deontologiya fanining predmeti - bu o‘qituvchini uning kasbiy xulq-atvorini birgalikda belgilaydigan axloqiy me’yorlar tizimi tomonidan amaliy faoliyatda o‘zlashtirish va boshqarish jarayonini o‘rganishdir.O‘qituvchining xulq-atvori nafaqat ijtimoiy normalarni (axloq normalari, urf-odatlar, huquq normalari va boshqalarni) bilish bilan, balki uning ushbu ijtimoiy, kasbiy qadriyatlarga rioya qilish bilan izohlanadi.Axloqiy pedagogik deontologiyaning predmeti quyidagilar kiradi:

1.Pedagogik deontologiya va kasbiy (o‘qituvchilik) xulq-atvori
2.O‘qituvchining pedagogik kompetentligi
3.Pedagigik mahorat va pedagogik muloqot
4.Pedagogik kreativlik
5. Inson faoliyati kompetensiyalari
6. Tyutorlik va fasililatorlik faoliyati.
7. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar

Bo’lajak o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish;talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etish, tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga kirishib keta olishi,muloqotchanlikning shakllangan bo’lishi lozim.“Kompetensiya” so‘zi – loyiqman, muvofiqman, mos kelaman ma’nolarni anglatib, u har qanday kasbni egallash uchun muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollanishdir. Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlikda quyidagilarga amal qilish lozim bo‘ladi.

- maqsadni belgilash va unga erishish yo‘llarini tashkil qilish, maqsadni anglash;

[1]Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 121.

- o‘z o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirish qobiliyati rivojlantirish;

- kuzatilgan faktlar, dalillarga tanqidiy nuqtai nazardan savollar bilan murojat qilish;

- hodisalarning sabablarini ko‘rsatish, ularning tushunilishi yoki tushunmovchiligini ko‘rsatish o‘rganilayotgan muammo bilan to‘liq tanishish;

- bilim vazifalarini belgilash va farazlarni ilgari surish, kuzatish yoki tajriba o‘tkazish uchun shartlarni tanlash, shuningdek zarur asbob va uskunalar, o‘lchash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ko‘rsatmalar bilan ishlash, idrokning ehtimollik va statistik usullaridan foydalanish, natijalar, xulosalarni shakllantirish;

- olingan natijalarini og‘zaki va yozma ravishda taqdim etish;

- kompyuter vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda tahlillar va tadqiqotlar o‘tkazish; jurnallar (matnli va grafik muharrirlar, taqdimotlar)lanish tushuniladi hamda jamiyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta’lim jarayonini rejalashtirishi va shu reja asosida faoliyatini tashkil etishi, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish, o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilish, ta’lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini yaxshi bilishi va o’z mutaxassisligi bo’yicha xorijiy adabiyotlardan foydalanishi,xorij tajribasini qo’llay olishi bo’lajak pedagogda kompitensiyani yanada shakllanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda,bo’lajak o’qituvchilarda deontologik kompitensiyani rivojlantirish uchun avvalo o’qituvchining tirishqoqligi,izlanuvchanligi,o’z ustida tinimsiz mehnat qilishi,pedagogik qobilyatga ega bo’lishi hamda bo’lajak o’qituvchi milliy qadriyatlarga va odob –axloq normalariga amal qilgan holda o’z faoliyatini yurita olsa demak deontologik kompitensiyasi shakllangan yetuk pedagog sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Kenjaboyev A.E,Kenjaboyeva D.A Pedagogik deontologiya va kompetentlik .Darslik.T.: “Termiz davlat universiteti NMM” nashriyoti ,2022-yil,280 bet.

2.N.N Azizxo’jayeva .Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.O’quv qo’llanma.T.:2006 yil

3.Muslimov N.A.Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish.Monografiya.-T.: Fan,2004 yil

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕНЫХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЕЖЫ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ.

Г.Г.Хабибова,
Ст. преподаватель кафедры педагогики
Бухарский государственный университет, Узбекистан

Аннотация: в данной статье показывается принципы формирование нравственных качеств у молодежи в трудах восточных мыслителей Центральной Азии.

Ключевые слова: личность. ценности, духовность, принципы, наследие, формирование, воспитание, процесс.

Annotation: this article shows the principles of the formation of moral qualities among young people in the works of Eastern thinkers of the 9th-12th centuries.

Keywords: values, spirituality, principles, heritage, formation, education, process

Успех масштабных преобразований в нашей стране обусловлен прежде всего изменением содержания образования, его обновлением на основе требований времени и повышением духовного и интеллектуального потенциала учащихся. В этом контексте высокую роль играет изучение наследие наших предков, великих мыслителей Востока.

В последнее время в престижных высших учебных заведениях нашей страны и в мире проводятся исследования с целью обучения студентов образовательным аспектам ценностей, обычаев и традиций узбекского народа, историко-просветительское, социально-культурное наследие, изучение идей и учения великих мыслителей, научно-теоретический анализ.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, «... наши совместные усилия по глубокому изучению бесценного наследия, оставленного великими людьми и сохранению их памяти, являются источником удовлетворения для всех нас».[1]

Сегодня важно использовать ценное духовное и педагогическое наследие, созданное нашими предками во время учебно-воспитательного процесса. Образовательные ценности, морально-педагогическое наследие, созданное восточными мыслителями IX-XII вв важны для морального воспитания молодого поколения. Ценности, созданные ими, духовное наследие, педагогические взгляды, идеи и дидактические работы служат для формирования молодого поколения, как зрелого, компетентного человека и обеспечения им правильного образования. Потому что, в педагогическом наследии мыслителей Востока IX-XII вв. с теоретически обоснованы вопросы морали, убеждений, совести, свободы, семьи и воспитания детей. Их воспитательные ценности и дидактические работы вносят большой вклад в образование молодежи и сегодня.

Изучение и анализ работ восточных мыслителей IX-XII веков, их педагогические взгляды на творчество и образование имеет важное практическое значение.

В X - XI веках в Средней Азии устанавливается власть династий Саманидов, Караханидов и Хорезмшахов. Многие из них благосклонно относились к духовности и просвещению, что побуждало их к меценатству. Например, в период правления Саманидов наблюдался экономический и культурный подъем в Хорасане и Мавераунахре, а Мерв, Самарканд, Бухара и Ургенч приобрели славу культурнейших центров того времени. Укрепление централизованного управления при Саманидах способствовало тому, что страну прекратили грабить и разорять соседние кочевники, развивавшаяся караванная торговля способствовала культурному обмену со многими европейскими и восточными странами. Помимо этого, складывается традиция покровительства науке и культуре со стороны местных правителей.

Общественно - экономические интересы народов региона в связи с образованием местных централизованных государств также диктовали потребность в развитии материальной и духовной культуры. Здесь происходит интенсивное развитие зодчества, основанного на научном расчете, новаторстве и прогрессивных тенденциях в архитектуре. Строятся медресе, мечети, библиотеки, рабаты, приюты, караван - сараи, дворцы. Получает сильный толчок развитие ремесел и народно - прикладного искусства, обработка горных пород. Возводятся прочные мосты, строятся ирригационные сооружения.

Анализ научной теоретической литературы показал, что ценности, оставленные восточными мыслителями, должны соблюдаться в ряде педагогических принципов в формировании духовности студентов через их взгляды. Они заключаются в следующем:

- направление формирования воспитательного процесса на основе ценностей, созданных восточными мыслителями;
- соответствие образовательного процесса с приобретением секретов социальной жизни и занятий;
- уважать взгляды, интересы и убеждения студентов;
- требовательный, бдительный подход к процессу духовного и культурного воспитания студентов;
- добиваться последовательности, регулярности и целостности образовательной и воспитательной деятельности студентов на основе ценностей, созданных восточными мыслителями;

[1] Ш.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т., “Ўзбекистон”, НМИУ, 2017. - 408 Б. стр.45.

- формирование самодисциплины студентов, чувственность, познавательные навыки и т. д.

Воспитательные ценности восточных мыслителей IX-XII веков, их богатое педагогическое наследие, их взгляды на образование и воспитание подрастающего поколения, особенно нравственные, сознательные, благочестивые, убеждения, убеждения, совесть, трудолюбие, филантропия и гуманистические идеи являются всеобъемлющими и гармоничными основными инструментами развития всесторонне развитой личности. Также важно представить идеи гармоничного человеческого развития для молодого поколения, такие как тяга к знаниям, патриотизм, свобода, гуманизм, трудолюбие, доброжелательность, честность, этика, справедливость, братство, свободомыслие, игравшие ключевую роль в их образовательных и моральных взглядах.

Восточные мыслители обучали нравственному воспитанию как третий сегмент после физического и умственного воспитания. Моральное образование учит человека быть сострадательным, хорошим и социально-полезным человеком.

Мыслители демонстрируют в человеке следующую систему нравственного воспитания:

1. Объяснить правила этики для молодежи через рассказы, предания.
2. Преподаватель должен быть примером. Поведение воспитателя должно быть в гармонии с его поведением и должно быть примером для всех.
3. Моральное воспитание стабилизируется морально и этически с реальной действительностью и практическими аспектами.

Пока человек живет в обществе, он должен придерживаться этических норм, правил поведения и культуры повседневной практики. Но гордые манеры и культура врожденны, то есть он не будет готов с младенчества. Культура общения - это результат общения, сплоченности и воспитания людей.

Великие предки прошлого всегда уделяли особое внимание воспитанию детей. Ибн Сина подчеркнул тот факт, что разумный ребенок должен держать свет науки и что эта лампа должна быть освещением его жизни, воплощением смысла в его жизни и превращением его в великого человека.

Все эти обстоятельства способствовали интеллектуальному возрождению края. В этот период десятки наших соотечественников обогатили мировую науку и культуру ценными открытиями и новыми умозаключениями.

Исходя из вышесказанного, мы пришли к следующим выводам:

Глубина мыслей и смысла идей восточных мыслителей о воспитании ребенка, близости к человеческой жизни и интересам важны для всего периода и общества. Их человеческая жизнь оказывает глубокое влияние на развитие педагогики и науки, с жизнеспособностью их воспитания и обучения. Поэтому желательно провести крупномасштабные исследования, которые могут выявить суть передовых идей мыслителей Востока, которые жили в IX-XII веках. Необходимо расширить возможности высших учебных заведений организовать тренинги, основанные на педагогических взглядах восточных мыслителей, которые жили в IX-XII веках.

Литература:

1. К.Хошимов, С.Нишонова. Педагогика тарихи. Т.: Ўқитувчи.1996
2. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX– XIV вв. – М., 1961.
3. Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. Тошкент : Янги аср авлоди, 2009. С. 178.
4. Абдуллаев К. Ф., Хабибова Г. Г. ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ АР БЕРУНИ //Символ науки. – 2021. – №. 4. – С. 125-126.
5. Хабибова Г. Г. Вклад ар Беруни в естественные науки //Ответственный редактор. – 2020. – С. 36.

ЖАДИДЛАРИМИЗ ФАОЛИЯТИ - ЮРТГА ФИДОЙИЙЛИК ТИМСОЛИ СИФАТИДА

Ш.У.Исматов,
БухДПИ ўқитувчиси

Маълумки,жорий 2024 йилимизни кутиб олиш арафасида яъни маънавий ҳаётимизда янги ислоҳотлар даври бошланишида Президентимиз Шавкат Мирзиёев раислигида Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши ўтказилиб унда мамлакатимиз раҳбари " Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак" мавзуида катта маъруза килган эди.

Тан олиш керак, жадид маърифатпарварларининг илмий меросини ўрганишга барчамизни даъват этган ва бу ташаббусни ҳам маънавий хам моддий қўллаб-қувватлаб келаётган инсон-мамлакатимиз раҳбари ҳисобланади. Ҳеч кимга сир эмас, ўтган 2023 йилда Тошкент шаҳрида ўтказилган "Жадидлар: миллий узлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари" мавзусидаги халқаро конференция ҳам айнан Президентимиз таклифи ва ташаббуси билан ташкил этилди. ҳозирги кунда Бухоро шаҳридаги қадимий, яъни ўлкан тарихий аҳамиятга эга бўлган ҳудуда "Жадидлар мероси давлат музейи " ҳам айнан юрт раҳбарининг тавсияси билан барпо қилинмоқда.

Ўзбек жадидчилик ҳаракатининг фаол аъзоси, маърифатпарвар олим ва оташин шеърлар муаллифи, биринчи ўзбек профессори, жамоат арбоби Абдурауф Фитрат бобомизнинг бу борадаги фикрлари ўз аҳамиятини йўқотган эмас: ".. Халқнинг аниқ мақсад сари ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши ёки заиф бўлиб хорликка тушиши, бахтсизлик юкини тортиши, эътибордан қолиб ўзгаларга тобеъ ва кул бўлиши уларнинг ўз ота- оналаридан болаликда олган тарбиясига боғлик".

Шунингдек, Маҳмудхужа Беҳбудий : ".. Дунёда турмоқ учун дуеёвий фан ва илм лозимдур, замона илми ва фанидан бебаҳра миллат бошқаларга поймол булур.." деб ёзган эди .Уша давр маълумотларининг гувоҳлик беришича тарбия масаласи барча –барчанинг уй-фикри ва ҳаётий мақсадларига айланган. Бунинг албатта сабаблари бор. Жаҳонда трансформация жараёнлари руй бераётган вақтда ҳар миллат, жамият, давлат ва оила ўз келажагини ёшларда кўради. Чунки барчага маълумки, бугун биз тарбиялаётган фарзанд эртага нафақат оила таянчи, балки келажак эгаси сифатида уни ҳаракатга келтирувчи куч сифатида дунёга келади, яъни вояга етади, шаклланади.Асосий масала шундаки у эртага қандай ғояларга хизмат қилади? Бунёдкор ғояларгами ёки аксинчами. Мана масаланинг моҳияти каерда. Яъни юқорида Фитрат бобомиз айтмоқчи –уларнинг ёшликда олган тарбияларига боғлиқ. Айнан шунинг учун ҳам 20-аср бошида ёшлар тарбияси масаласи нега "ҳаёт-мамот" масаласига айланганлигини энди ҳис қилмокдамиз.

Уша давр, яъни 20-аср бошида қардошларимиз ҳозирги Туркия давлатининг асосчиси ва Биринчи президенти Мустафо Камол Ота Туркдан тарбия ҳақида сурашган экан: "Агар Сиз Туркия Жумхурияти президенти булмаганингизда ,ким булар эдингиз? У уйламасдан туриб жавоб берган экан: Бундай холда тарбия вазири булар эдим". Бундан Туркистондаги бўлаётган жараёнлар, айниқса жадидчилик ҳаракати аъзоларининг маърифатпарварлик ғоялари қўшни юртларда ҳам кенг тарқалганлигини пайқаш қийин эмас.

Мақоламиз бошида маърифатпарварлик ҳақида, яъни жадид боболаримизнинг фаолияти ҳақида фикр юритган эдик. Маърифатпарварлик , яъни маърифат –(бу арабча сўз бўлиб –билиш, билим, маълумот, таниш, танишиш деган маъноларни билдиради. Яъни табиат, жамият ва инсон моҳияти ҳақидаги билимлар, маълумотлар, таълим-тарбия ва маориф тизими мажмуини ифодаловчи тушунчадир. Тор маънода маърифат билимли, маълумотли, маънавиятли инсонга нисбатан қўлланади. Кенг маънода, кишиларнинг билими, маданиятини оширишга қаратилган маориф ва таълим-тарбияга ҳам маърифат деб қаралади. Маърифат тушунчаси билим ва маданиятни ёйиш ҳамда юксалтиришнинг ҳамма турлари ва соҳаларини камраб олади.

Маърифатпарварлик –жамият ҳаёти, унинг маънавий-маърифий соҳаларида намоён бўладиган жаҳолатга, ижтимоий-сиёсий жоҳилликка зид бўлган ижтимоий-фалсафий тушунча. Унинг мақсади муайян жамият ҳаётини ғоявий жоҳиллик ва мафкуравий зўравонликдан, жаҳолатпарастликдан озод этиб, эркин тафаккур, илғор маърифий фаолият орқали тараккиётнинг барча зарур моддий ва маънавий ютукларига эришишдир.

Маърифатпарварлар одатда давр учун, жамиятнинг бугуни ва келажаги учун муҳим бўлган ғояларни кутариб чиқади ва шу ғоянинг амалга ошиши учун изчил кураш олиб боради[1].

Дарҳақиқат юқорида таъкидлаб ўтилганидек 19-аср охири ва 20-аср бошларида вужудга келган жадидчилик ҳаракати аъзолари бўлган маҳаллий зиёлилар, маърифатпарварларимиз жуда ибратли ишларни амалга оширдилар.1906 йилдан бошлаб жадид боболаримиз Туркистонда “Тараққий”, “Хуршид”, “Тужжор”, “Самарқанд”, “Ойина”, “Бухоройи Шариф”, “Умид” каби газета ва журналлар чиқарганлар. халқимизни миллий уйғонишга даъват этиб “Нажот илму-урфонда” деб билишган ва шу мақсад йўлида бошларига кўп ташвишлар орттирган бўлсаларда, ўз маслакларидан ва эътиқодларидан қайтмаганлар. Ҳаттоки кўплари шу эзгу ғоя йўлида қурбон ҳам бўлдилар. Бу эътиқод бутунлиги, Ватан ва халқ манфаати йўлидаги қаҳрамонликларини ҳозирги авлод, айниқса талаба ёшлар ҳеч қачон унутмасликлари керак.

Бундай олий даражадаги Ватанга бўлган эътиқод,фидоийлик, ватанпарврлик ҳисси ва юрт тақдирига дахлдорлик тўйғси бугунги ёшларимиз учун маърифатпарвар боболаримиздан колган улкан маънавий мерос юртга содиклик тимсоли сифатида ибрат мактаби вазифасини ўташи лозим.

Бугунги талабалар эртага ёш мутахассис, илм-маърифат зиёсини тарқатувчи ўқитувчилар сифатида майдонга кириб келадилар. Талаба (арабча сўз бўлиб –изловчи, ўрганувчи) студент деган сўз маъносида келади. Яъни толиби илм, илм изловчи киши яъни олий ўқув юртида таҳсил олаётган кишига айтилади.

Маълумки тарихда Мовароуннаҳр яъни Туркистон ҳудудларида ислом дини тарқалгач бошлангғч таълимдан сўнг билим олиш билан машғул бўлган ҳар бир киши талаба ҳисобланган. Дастлабки мадрасалар бунёд қилингач (масалан 10-асрда Бухоро шаҳрида ўз фаолиятини бошлаган Фаржак мадрасаси ва бошқалар) унда таҳсил олаётган болалар талаба , яъни фалон мадраса талабаси дейилган. Бугунги кунда талабалар ҳар бир юртнинг ижтимоий фаол қатлами яқин келажакда ёш мутахассис сифатида катта ҳаётга кириб келаётган ёшлардир. Бугунги давр талабаси яъни булажак ўқитувчиларлардан кўп нарса яъни, ўз мутахассислигидан ташқари инсон дунёқарашини шакллантиришга хизмат қиладиган барча фанлар –жумладан, ижтимоий, гуманитар, аниқ ва табиий йўналишлардаги билим, маълумот ва янгиликлардан хабардор бўлиши талаб этилади. Чунки ҳар томонлама ривожланган баркамол авлодни тарбиялаш учун ўқитувчининг ўзи ҳам чуқур билимга эга бўлиб ушбу талабларга жавоб бериши керак.

Маълумки, жамиятни инсон ўзгартиради, инсонни эса таълим-тарбия. Миллатни-миллат, халқни- халқ сифатида ривожланиб тараққий топиши фукароларнинг ижтимоий фаоллиги ва ақлий салоҳиятининг ошиши аввало, жамиятнинг илғор қатлами бўлган зиёлилар ва биринчи навбатда ўқитувчилар фаолиятига боғлиқ. Ота-оналаримиз ўз фарзандларига тарбия бериб билим олиш ёки касб-ҳунар сирларини ўрганишга қанчалик кўп ундашмасин, ўқувчиларнинг кўпчилиги келажакда касб танлаш ва бирон бир фаолият турини ўзлаштиришда албатта ўқитувчиларидан андоза оладилар ва уларнинг маслаҳатларига қулоқ соладилар.

Кадимги юнон файласуфи Суқротда шундай ибора бор: “ Ўзгаларни ўзгартирмоқчи бўлган инсон, аввало, ўзини ўзгартириши керак. Бунинг учун эса-аниқ мақсад,толмас ирода ва доимий изланишда бўлиши лозим”. Бу фикр ўқитувчи –тарбиячилар учун айнан айтилганлигини исботлаш шарт эмас деб уйлаймиз.

[1] Маънавият .Асосий тушунчалар лугати .Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент.2021 йил.375-бет

Маърифатпарвар жадид бобомиз Исҳоқхон тура Ибрат узининг “Мезон ул –замон” асарида бу борада: “ Асримиз –илму-ҳунар ва ҳаракат асридур” дея қилган хитоби бугунги кун ёшларимизга ўз ҳаракатлари билан илм ўрганиб, маълум бир касб-ҳунарга эга бўлишларига аждодлар номидан даъват сифатида эътироф этилиши лозим.

Туркистон жадидчилик мактаби етакчиси маърифатпарвар бобомиз Маҳмудхўжа Беҳбудий : “ Дунё иморатлари ичида энг улуги мактаб бўлса, касбларнинг ичида энг шарафлиси ўқитувчилик ва мураббийликдур” дея бу касб ва унинг эгалари мақомини кўтариш билан бирга улар олдида турган вазифа, халқимизга маърифат зиёсини улашиш айнан уларнинг зиммасига юклатилганлигини яна бир бора таъкидлаган эди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Жамият ҳаётида ўқитувчининг ўрни ва таъсири ошса –мактабнинг обрўйи ошади, илм-фан,таълим ва тарбия соҳасининг қадди кўтарилади. Муаллимнинг обру-эътибори эса бу миллатнинг, бутун халқнинг обрў-эътиборидир”.

“Муаллим тушунчаси арабча сўз бўлиб таълим берувчи яъни турли йўналиш ва даражадаги таълим тизимида ўқувчига амалий таълим-тарбия бериш ишларини амалга оширадиган мутахассис ҳисобланади. Шунингдек муаллимларга нисбатан “домла”, “устоз”, “ўқитувчи” ёки “педагог” атамалари ҳам қўлланилади.

Тамаддуннинг Оссурия, Бобил, Миср, Туркистон, Хитой сингари қадимий ўчоқларида топилган тарихий-маданий обидалар гувоҳлик беришича, бу ўлкаларда муаллимлик бошқа соҳаларга қараганда катта имтиёзларга эга касб ҳисобланган“[1]

Туркистонда хам мактаб масжид ва мадрасалар фаолияти йўлга қуйилган даврдан бошлаб муаллимлик касби энг ҳурматли касб, яъни жамиятда маълум мавқега эга зиёли сифатида катта обрўга эга бўлган. Маълумки ўлкамизга ислом дини кириб келиши билан ҳар бир маҳаллада масжид ва кўпгина масжидлар ҳузурида кичик мактаблар фаолият олиб борганлиги (албатта ҳар кунлик беш маҳал намоз фарзини адо этиш вақтидан буш пайтда) тарихдан маълум. 19-асрнинг охирларида маърифатпарварлик ҳаракати яъни Чор маъмурлари ўтказган сиёсатларини аҳолига тушунтиришда халқимизнинг зиёли катлами ҳисобланган муаллимлар хизматидан ҳам фойдаланганлар .Рус ёки рус –тузем мактабларида фаолият олиб борган муаллимлар оврупоча услубда дарс утиш,янги анъана ва услубларни таълимга жорий этиш ,яъни узига хос ва даврга мос “илғор педагогик технология”лар хам айнан уша давр муаллимлари томонидан жорий килинган.Бу хол жадидчилик ҳаракатининг тез ёйилишига ва халқ дилидан жой олишига хизмат килди.

Жадид маърифатпарварлари уша давр таълим усулини замонга мослаштирибгина қолмай , “усули ҳижо “ урнига “усули савтия”(овоз чикариб укиш)ни жорий қилдилар ва “усули таҳсил” яъни ўқитиш методикасини янада такомиллаштиришга эришдилар.

“Беҳбудий фикрича, муаллим ,биринчидан-олим,иккинчидан-гайратли,учинчидан усули таҳсил(методика)дан яхши хабардор булмоги зарур.Жумладан мутафаккир узининг “Ислохи таҳсил” маколасида бундай ёзган: “ Агар муаллимнинг узи ҳозирги аксар мактабдор ва мударрислардан камхавсала ёки камилм булса ,ёинки илми була туриб ,усули таҳсилдан хабарсиз булса,анинг шогирдлари нодон колур..”

Хакикатан хам ,биз ёш авлод ,айниқса болаларимиз калбига буюк маърифатпарвар боболаримиз даражасига етишмок орзусини жойлаштиришимиз шарт.халқимизнинг “Чуккига интилган хеч булмаганда тепага чикади” мазмундаги маколи бор”[2].

19-асрда буюк француз маърифатпарвари Виктор Гюго : “Мактабларни очган қамоқхоналарни ёпади” деган яхши бир иборани ишлатган. Жадид маърифатпарварлари ҳам айнан ушбу хикматли сўзнинг маъно-моҳиятини яхши тушунган холда мактаб-маориф - маданият(театр)-нашриёт(газета, журналлар нашр этиш ва халққа тарқатиш) ислоҳотини олиб бордилар ва айтиш мумкинки жадидчилик ҳаракати ғояларини тарғибот қилишда катта натижаларга эришдилар ҳам. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Театр –ибратхонадур”

[1] Маънавият. Асосий тушунчалар лугати.Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент.2021 йил.427-бет

[2] НУРБОЙ ЖАББОРОВ.”Тилда ,фикрда ,ишда бирлик” маколаси .Янги Узбекистон газетаси,2024 йил.19-январ.14-сон 6-бет

деган ҳикматнамо фикрини ҳозирги замон театрларимизнинг пештоқига зарҳал ҳарфлар билан ёзиб қуйиш ҳам фойдадан ҳоли бўлмайди.

Мактаб-маориф маърифатпарварлик борасидаги фикрларимизни давлатимиз раҳбарининг қуйидаги сўзлари билан давом этамиз: “Ўқувчиларда креатив фикрлашни, жамоада ишлаш ва мулоқот кўникмаларини шакллантириш зарур. Мана мактабларимизга қандай муҳит кириб келиши керак.”

Мазкур мулоҳазаларимизга хулоса сифатида шуни алоҳида таъкидлаш керакки, мавзуни биз Республика Маънавият ва маърифат кенгаши йиғилишида мухокама қилинган масалалар ва Президент Шавкат Мирзиёев маърузасида келтирилган маълумотлар ва топшириқ тарзидаги курсатмаларини имкониятимиз доирасида мушоҳада қилдик .

Президентимиз ҳозирги кун ёшларимиз тарбияси билан боғлиқ куйидаги саволларни ўртага қуйди : “.. Биз ҳозирги кескин шароитда ғоявий-мафкуравий соҳада рақобатга тайёрмизми? Ёш авлодимиз тарбияси мураккаб замон талабларига жавоб бераяптими? Мана бугун миънавий-маърифий соҳада масала қандай ўткир ва кундаланг бўлиб турибди. Булар оддий саволлар эмас... Одамни жиддий ўйлантирадиган, ташвишга соладиган саволлар .Агар биз бу ёруғ дунёда “ўзбек” ва “Ўзбекистон”деган номлар билан яшаб қолишни истасак, бу саволларга бугун жавоб топишимиз ва уларни ҳал этиш бўйича амалий ҳаракатларимизни бугун бошлашимиз шарт. Эртага кеч бўлади”.

Дарҳақиқат бу саволлар ҳар бир уйғоқ фикрли фукароларимизни ташвишга солиши ва вазиятни яхши томонга ўзгартириш учун ўйлантириши лозим. Юқорида биз маърифатпарвар жадид боболаримиз юрт бошига ташвиш тушганда бирлашиб ундан қутулиш, озод бўлиш йўлини топа олганлар. Ҳатто Шўро сиёсати қилич қайраб турганда ҳам ўз азиз жонларини эмас, балки, халқ, миллат ва мамлакат келажагини, унинг истиқлолини куриш учун барча куч, билим, имконият ва салоҳиятларини шу улуғвор мақсад йўлида бирлаштирганлар.

Қуролли қузғолон ёки кескин ҳарбий ҳаракатлар билан эмас, балки тинч йўл яъни миллатни маънан уйғотиш йўли билан, уни миллий ўзликни англашга бўлган ҳиссини жунбушга келтириш йули билан, Ватан манфаатини, юрт озодлигини буюк неъмат эканлигини ва бизлар не-не ганимларга буйин эгмаган Тумарису-Широқ, Жалолиддин Мангуберди ва соҳибкирон Амир Темур каби буюк жаҳонгирлар авлоди эканлигимизни англатиш йўли, бахт-саодатга кураш орқали эришишни кураш бўлганда ҳам бундай вазиятда маърифий кураш, яъни рақибдан илм, билим, ақлий салоҳият билан узиб кетишни истаган эдилар. Бу оркали маърифатга интилиш оркали улугвор мақсадларга эришиш мумкинлигини кейинги авлодга курсатиб бердилар.Адолат билан шуни алохида таъкидлаш керакки жадидчи боболаримиз миллий истиқлолга яъни мустақилликка эришишимизга 20-аср бошларида тамал тошини куйган эдилар.

Эндиги вазифа шу улуғвор мақсад сари бирлашиб .жамиятни ҳаракатга келтирмоқ қолди холос. Зеро, миллатимиз фахри Қаҳрамон шоиримиз Абдулла Орипов ёзганидек:

Мақсад бир бўлмаса жам бўлмагаймиз,
Гар жам бўлсак бошимиз ҳам бўлмагаймиз.
Ватан бир, ғоя бир, дўстмиз биродар.
Гар бирлашсак ҳеч кимдан кам бўлмагаймиз!

Фойдаланилган адабиётлар:

1. БУХОРОНОМА газетаси. 2023 йил.25-декабрь 103-сон.
2. ЖАДИДЛАР . Ёшлар нашриёт уйи.Махмудхужа Бехбудий.китоб .2022 йил 3-бет.)
3. МАънавият .Асосий тушунчалар лугати .ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент.2021 йил.375-бет.
4. МАЪНАВИЯТ. Асосий тушунчалар лугати.ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент.2021 йил.427-бет
5. НУРБОЙ ЖАББОРОВ.”Тилда ,фикрда ,ишда бирлик” маколаси .Янги ўзбекистон газетаси,2024 йил.19-январ.14-сон 6-бет.

3-ШЎЪБА: ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

MUSTAQIL ISH TALABALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING ENG MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Avezov Olmos Ravshanovich,
Psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori, dotsent
Xoliqov Soib Orifovich,
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta`lim tizimida mustaqil ishlarni samarali tashkil qilinishiga qo`yiladigan pedagogik talablar haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy o'quv jarayonida mustaqil ish - bu zarur ma'lumotlarni mustaqil izlashni, sinf darslarida o'quv materialini ijodiy idrok etish va tushunishni, o'quvchilarning sinfda va undan tashqarida kognitiv faoliyatining turli shakllarini ta'minlashga qodir bo'lgan ta'limni tashkil etish shakli ekanligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Mustaqil ta`lim, talabalar mustaqil ishi (TMI), o`qituvchi bilan muloqot, mustaqil ishlash, maqsadlarni tanlash texnologiyasi, vazifalarni loyihalash texnologiyasi, nazoratni tashkil etish, maxsus adabiyotlar bilan ishlash.*

KIRISH. O`zbekiston Respublikasida Oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining “Oliy ta`lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo`nalishlari” deyilgan 3-bobining “Oliy ta`lim bilan qamrovni yanada kengaytirish va oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan birinchi paragrafda “Mustaqil ta`lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta`lim olish , tanqidiy va ijodiy fikrlash, tadbirkorlik ko`nikmalarini shakllantirish, o`quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o`quv jarayonini amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirish, bu borada o`quv jarayoniga xalqaro ta`lim standartlariga xos ilg`or pedagogik texnologiyalar, o`quv dasturlari va o`quv uslubiy materiallarni keng joriy etish ” masalalarida ta`lim oluvchilarning mustaqil ta`lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratilgan.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta`lim jarayonini tashkil qilish muhim o`rin tutadi. Mustaqil ta`lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo`yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil ravishda o`zlashtirilishi hisoblanadi. Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadlaridan biri — talabalarda o`quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo`ladigan bilim, ko`nikma va malakalarning tashkil topishi va bajarishda kerak bo`ladigan bilim, ko`nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishidir.

Mustaqil ish talabalarni o'qitish va tarbiyalashning eng muhim elementi sifatida qaraladi. Bunday holda, o'qituvchi o'quv jarayoni menejeri sifatida o'quvchilarning bilim faoliyatini tashkil qiladi va boshqaradi.

Talabalar mustaqil ishining (TMI) asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: muvaffaqiyatga erishish uchun psixologik sharoitlar, fanlarning kasbiy yo'nalishi va talabaning cheklangan vaqt byudjeti.

ASOSIY QISM. Mustaqil ishlarni individuallashtirish quyidagi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi: ko'proq tayyor talabalar bilan intensiv ish ulushini oshirish; sinflarni majburiy va ijodiy qismlarga bo'lish; stajyor bilan maslahatlashuvlarning muntazamligi; mustaqil ishning tematik mazmuni, muddatlari, yordamchi vositalarga bo‘lgan ehtiyoj, shakllar, nazorat va yakuniy natijalarni baholash usullari haqida har tomonlama va o‘z vaqtida ma’lumot berish.

Pedagogik sikl fanlari bo‘yicha o‘qituvchining yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish xususiyati va nazorat qilish usuli, o‘z-o‘ziga yordam berish joyi va vaqtiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- asosiy auditoriya mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar, o‘quv mashg‘ulotlari)dagi mustaqil ishlar. laboratoriya ishi);

- rejalashtirilgan maslahatlar, ijodiy aloqalar, testlar va imtihonlar shaklida o'qituvchi nazorati ostida mustaqil ishlash;
- talaba o'quv va ijodiy xarakterdagi uy vazifalarini bajarganida sinfdan tashqari mustaqil ishlar.

Tarkibiy jihatdan TMIni ikki qismga bo'lish mumkin: o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan (**OrgTMI**) va talaba o'z xohishiga ko'ra, o'qituvchining bevosita nazoratisiz tashkil etadigan mustaqil ish (ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik, testlar, kollokviumlar va h.k.)

OrgTMI mazmuni har bir fanning ish dasturida tavsiflanishi mumkin va ma'lum bir kurs bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga, yuqori kurslarda esa - fanlararo aloqalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Uni to'ldirish vaqti ma'lum bir fan bo'yicha mustaqil ishlash uchun o'quv rejasida belgilangan me'yordan oshmasligi kerak. Shu munosabat bilan, hatto o'quv dasturlarini ishlab chiqish bosqichida ham, talabalarning sinf va sinfdan tashqari ishlariga ajratilgan vaqt miqdorini belgilashda, Tashkiliy ijtimoiy ish shaklini hisobga olish kerak, chunki uning turli shakllari tabiiy ravishda turli xil ishlarni talab qiladi.

Talabalarni mustaqil ishlashga maqsadli ravishda o`rgatish zarur. Bular o'quv faoliyatining o'zini modellashtirish usullarini shakllantirish, talabalar tomonidan optimal kun tartibini aniqlash, ularning xabardorligi va o'quv materiali bilan oqilona ishlashning izchil amaliyoti, tez o'qish usullarini o'zlashtirish, turli harakatlar rejalarini tuzish, qayd qilish, o'quv va amaliy muammolarni belgilash va hal qilish kabilar. Buni ixtiyoriy darslarda va tanlov kurslarida muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Agar texnologik tomon haqida gapiradigan bo'lsak, TMIni tashkil etish quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Mustaqil ish uchun maqsadlarni tanlash texnologiyasi. Maqsadlarni tanlash uchun asos bo'lib Davlat ta'lim standartida belgilangan maqsadlar, kelajakdagi o'qituvchilik kasbi, kasbiy nazariyalar va tizimlar va texnologiyalarga kirishni aks ettiruvchi kurslar uchun maqsadlarning aniqlanishi hisoblanadi. Tanlangan maqsadlar maqsadlar taksonomiyasini aks ettiradi, masalan: kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash manbalarini bilish, mustaqil ishlarni tashkil etishda o'z-o'zini tarbiyalashning turli shakllaridan foydalanish. Bundan tashqari, mustaqil ishning maqsadlari kasbiy va pedagogik o'z-o'zini tarbiyalashga, shu jumladan motivatsion, kognitiv va faoliyat tarkibiy qismlariga tayyorlik tuzilishiga mos kelishi kerak.

2. TMI tarkibini tanlash texnologiyasi. Mustaqil ish mazmunini tanlash uchun asoslar Davlat ta'lim standarti, o'z-o'zini tarbiyalash manbalari (maxsus ilmiy adabiyotlar, tajriba, o'z-o'zini tahlil qilish), o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari (o'quv qobiliyati, tayyorgarlik, intellekt, motivatsiya, o'quv xususiyatlari kabilar).

3. Vazifalarni loyihalash texnologiyasi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar turli darajadagi maqsadlarga mos kelishi, har bir taklif etilayotgan fanning mazmunini aks ettirishi va talabalarning bilim faoliyatining turli turlari va darajalarini o'z ichiga olishi kerak.

4. Nazoratni tashkil etish texnologiyasi. Nazorat vositalarini sinchkovlik bilan tanlash, bosqichlarni belgilash, nazoratning individual shakllarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Pedagogika oliy o`quv yurtlarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari quyidagi parametrlar bilan belgilanadi: o`quv fanining mazmuni; talabalarning ta'lim darajasi va tayyorgarlik darajasi; mustaqil ish vaqtida talabalarning ish yukini tartibga solish zarurati. Ushbu parametrlarga asoslanib,

OrgTMI ning klassik shakllari quyidagilardir:

referatlar; semestr topshiriqlari;
kurs ishi; kurs loyihalari;
bakalavr, mutaxassis, magistrlarning attestatsiya ishlari.

TMIda muhim tashkiliy jihatlardan biri testlarni mustaqil bajarish uchun topshiriqlarni tayyorlash bo'lib, ularni tayyorlashda o'qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilishi kerak:

- Har bir topshiriqning hajmi shunday bo'lishi kerakki, o'quv materialini mustahkam bilgan holda, talaba test uchun ajratilgan vaqt ichida topshiriqning barcha savollariga yozma ravishda javob berishga ulgursin;

- Barcha vazifalar taxminan bir xil qiyinchilikda bo'lishi kerak;

- Muammolarning xilma-xilligi bilan har bir vazifada aniq javoblarni talab qiladigan savollar bo'lishi kerak;

- Har bir topshiriqda o'quv adabiyotlaridan mustaqil o'rganilishi kerak bo'lgan material haqida savol bo'lishi kerak;

- O'qilgan ma'ruza materiali bo'yicha cheklangan miqdordagi savollar bilan bir xil savollarga ega ikkita yoki undan ortiq topshiriq bo'lmasligi kerak.

Maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish talabalar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham mehnatni ilmiy tashkil etishning jihatlaridan biridir. U qo'llaniladigan kasbiy yo'naltirilgan adabiyotlar sifatiga ma'lum talablarni, shuningdek, o'quv jarayonini uslubiy tashkil etishga qo'yiladigan talablarni nazarda tutadi. Birinchisi, mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan matn materialini sinchkovlik bilan tanlash bilan ta'minlanadi. Ikkinchisi, maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar va ko'nikmalar tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Quyidagi ko'nikmalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, axborot manbalarini qidirish, bir yoki bir nechta manbalardan kerakli ma'lumotlarni tanlash va tanlangan (tavsiya etilgan) nashrlar bo'ylab harakat qilish qobiliyati.

Ikkinchidan, talabalarni qiziqtiradigan bosma materiallardagi ma'lumotlarni semantik qayta ishlash ko'nikmalari.

Uchinchidan, har xil turdagi yozuvlar (kontur, referat, annotatsiya va boshqalar) yordamida keyinchalik foydalanish uchun ma'lumotni yozma ravishda yozib olish imkoniyati.

Yangi bilimlarni olish va uni mustaqil egallash qobiliyatini egallash talabaning turli mashqlar bajarishi, tahliliy ishlarni bajarishi, tarqatma materiallar bilan ishlash asosida amalga oshiriladi. Shunday ishlardan biri hozirgi kunda keng tarqalgan proyektiv texnikadir. Ushbu texnikaning afzalligi shundaki, talabalar o'z ishlarining yakuniy natijasini ko'rishadi, ular loyiha mavzusini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega. Loyiha ustida ishlash talabalar tomonidan mustaqil ravishda rejalashtirilgan va amalga oshiriladigan ish bo'lib, ularni ijodiy fikrlashga, o'z harakatlarini mustaqil ravishda rejalashtirishga va duch keladigan muammolarning mumkin bo'lgan echimlarini bashorat qilishga o'rgatadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning navbatdagi jihati turli tanlovlar va pedagogik olimpiadalar o‘tkazishdir. Ularni o'tkazish jarayonida tashkiliy masalalarni hal qilish mumkin: kuchli tomonlarini o'lchash, bilimlarni sinab ko'rish va yangi narsalarni o'rganish istagi. Bu talabalarga ongli ravishda motivatsiyalangan va kasbiy yo'naltirilgan xarakterni beradi.

O'qituvchi bilan muntazam muloqot qilish imkoniyatlari cheklangan sirtqi va kechki kurs talabalari uchun mustaqil ishlarni tashkil etish xususiyatlarini alohida ta'kidlash kerak. Fanlarni o'rganish, test va kurs ishlarini yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, shubhasiz, fanni o'rganishda ularning mustaqil ishlarini tashkil etishda samarali vositadir. Lekin bu ko‘rsatmalarning bajarilishini nazorat qilishning samarali tizimini barpo etish muhim omil hisoblanadi. Qoida tariqasida, test topshirig'i bitta mavzu bo'yicha savollarni o'z ichiga oladi, shunda talaba muammoli masalalarni o'rganmasdan, mavzu bo'yicha materialni mavhum taqdimotga murojaat qiladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun fanning har bir mavzusi bo'yicha natijalar bo'yicha nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir, jumladan: kichik, ammo mazmunli savollar, ularga javob mulohaza yuritishni talab qiladi; testlar; amaliy vazifalar. Shunday qilib, o'qituvchi test ishlarini tekshirish va keyinchalik himoya qilishni tashkil etishda talabaning fan bo'yicha to'liq hajmdagi materialni o'zlashtirishini va uning bilimining chuqurligini baholashi mumkin.

TMI samarali bo'lishi uchun bir qator shartlar bajarilishi kerak. Keng qamrovli sinf va mustaqil ishlarning to'g'ri uyg'unligini ta'minlash. O'quv rejasini optimal tuzilish nafaqat individual kurslarni o'rganish ketma-ketligi nuqtai nazaridan, balki auditoriya va mustaqil ish o'rtasidagi oqilona mutanosiblik nuqtai nazaridan ham zarur. Bu yerda har xil turdagi mustaqil ishlarning, masalan, kurs loyihalari va ishlari, hisoblash va grafik ishlari va boshqa vazifalarning mehnat zichligini to'g'ri aniqlash muhim rol o'ynaydi. Bunday rejani tayyorlashdan oldin talabaning vaqt byudjetini, uslubiy adabiyotlarning mavjudligini va ta'lim tizimidagi milliy an'analarni hisobga olishni jiddiy o'rganish kerak.

TMIni nazorat qilish o'qituvchi uchun o'z-o'zidan maqsad bo'lmasligi kerak, balki talabaning ta'lim faoliyatida rag'batlantiruvchi omil bo'lishi kerak. SRS natijalari joriy akademik ko'rsatkichlar ko'rsatkichlariga, chiptalar va test (imtihon) savollariga kiritilishi kerak, ularning ballari talabaning reytingini, yakuniy bahosini va natijada stipendiya yoki uning miqdorini belgilaydi. Ko'pgina talabalar axloqiy qiziqishni ijtimoiy tan olish shaklida qadrlashadi (bo'lim, mutaxassislik yoki guruhda birinchi bo'lish yoqimli).

Mustaqil ish - talabalarning o'qituvchining ko'rsatmalari va uslubiy rahbarligi bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladigan rejali ishi. Mustaqil ish quyidagilarga yordam beradi: talabalar bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish; kognitiv faoliyatga qiziqishni shakllantirish; bilish jarayonining texnikasini o'zlashtirish; kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish. Shu bois u zamonaviy mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning asosiy zaxirasiga aylanmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda mustaqil ish barcha turdagi tarbiyaviy ishlarning vazifalarini bajaradi. Mustaqil faoliyat bilan quvvatlanmaydigan hech qanday bilim insonning haqiqiy mulkiga aylana olmaydi. Bundan tashqari, mustaqil ish tarbiyaviy ahamiyatga ega: u mustaqillikni nafaqat ko'nikma va qobiliyatlar majmui sifatida, balki zamonaviy yuqori malakali mutaxassisning shaxsiyati tarkibida muhim rol o'ynaydigan xarakterli xususiyat sifatida ham shakllantiradi.

O'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy ish shakllarini rejalashtirishda talabalarning ularni bajarishlari uchun zarur bo'lgan vaqtni, kutubxonalar va bo'limlarda elektron va qog'oz tashuvchilarda etarli miqdordagi monografik, o'quv, o'quv va uslubiy adabiyotlarning mavjudligini hisobga olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son farmoni. www.lex.uz

2. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,”Durdona” nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.

3.Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar - ta'lim natijalari uchun yangi paradigma // Oliy ta'lim 2003. No 5.

4.Kovalevskiy I. Talabaning mustaqil ishini tashkil etish // Rossiyada oliy ta'lim № 1, 2000, p. 114-115 b.

5. Qo`ziboyeva M.M.Talabalar mustaqil ishlarining o`quv jarayonida tutgan o`rni. “Ekonomika i sotsium” jurnali № 5 (108) -2 2023 yil

TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI

Juraev Bobomurod Tojievich,
BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda.

O‘z navbatida bu vazialarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari sifatida:

-oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning

intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

-mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etishni amalga oshirish ta’kidlangan.

DTS ga asosan talabalarning mustaqil ishi ta’lim jarayonining muhim komponenti hisoblanib, ma’ruza mashg‘ulotlari davomida egallangan bilimlarni mustahkamlash, o‘z navbatida bu bilimlar mazmunini anglash va kengaytirish, umummadaniy hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini berib, seminar, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik hamda joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni topshirish jarayonidagi faoliyatni nazarda tutadi.

Turli xil bilimlarni egallashga oid mustaqil ish ko‘nikmalari insonning ilk bolalik davridan boshlanib butun umri davomida rivojlanib boradi. Oliygohda o‘qishni boshlash davrida har bir talaba maktab, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida o‘rgangan, ijtimoiy muhitda shakllangan o‘z faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikmalar va shaxsiy tajribasiga ega bo‘ladi. Murakkab umummadaniy hamda kasbiy kompetensiyalarni egallash asnosida, oliygohda ta’lim olish jarayonida mustaqil ishni tashkil etishga qo‘yiladigan talab sezilarli darajada ko‘payadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil ishni bajarishga qo‘yiladigan talabalarni bajarishga tayyorgarlik darajalari turlicha bo‘ladi.

Bu o‘rinda talabalarning ikkita asosiy guruhi ajratiladi. Birinchi guruh vakillari universal o‘quv kompetensiyalariga ega bo‘lgan holda mustaqil ish vazifalarini muvvafaqiyatli bajaradilar ya’ni, olingan ma’lumotlarni eslab qolish va tushunish, mantiqiy fikrlash, o‘quv materialini og‘zaki va yozma bayon qilish, hisoblash, o‘lchash, loyihalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Ikkinchi guruh talabalari o‘quv materialini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlarni muntazam bajarishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular past o‘quv kompetensiyalarni namoyon qilgan holda o‘z faoliyatlarini sust tarzda tashkil etadilar.

Oliy ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan mustaqil ishlar quyidagi **vazifalar**ni hal etishga yo‘naltiriladi:

-auditoriya va auditoriyadan tashqarida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikmalarni kengaytirish va mustahkamlash , ularni aqliy va jismoniy faoliyat stereotiplariga aylantirish;

- o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni egallash;

- ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- ta’lim dasturlarini sifatli o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabat va ustanovkani rivojlantirish;

- mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- samarali mustaqil kasbiy nazariy, amaliy va o‘quv-tadqiqot faoliyatini ko‘nikmalarini hosil qilish.

Talabalar mustaqil ishlari vazifalarini bajarish va amalga oshirish uchun bir qator **shart-sharoitlar** bo‘lishi talab etiladi. Bular:

- moddiy-texnik bazaning mavjudligi;

-auditoriya va auditoriyadan tashqarida talabalarning mustaqil ishlashlari uchun zaruriy axborot fondining mavjudligi;

-talabalarning mustaqil ishlar tarkibiga kiruvchi aniq vazifalarni bajarish uchun kerakli binolarning mavjudligi;

- talabalar mustaqil ishi vazifalari mazmunining asoslanganligi;

-mustaqil ishning fan ishchi dasturi hamda uni bajarishga ajratilgan vaqt bilan bog‘liqligi;

-professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarda o‘z faoliyatini tashkil etish va universal o‘quv kompetensiyalari ko‘nikmalarini shakllantirish

-o‘qituvchilar tomonidan talabalar mustaqil ishlarini bajarishning barcha bosqichlarini nazorat qilib borish, natijalarning joriy va yakuniy nazorati.

Zamonaviy ta’lim jarayoni doirasida mustaqil ishlarni tashkil etishning quyidagi o‘ziga xos **prinsiplari** mavjud:

- o‘qitishning interfaolligi prinsipi (talabalar harakatini nazorat va korreksiyalashni amalga oshirishni ta’minlaydigan interfaol muloqot va teskari aloqani ta’minlash)

-talabalar intellektual quvvatlarini rivojlantirish prinsipi.

(tafakkurning algoritmik, ko‘rgazmali-obrazli, nazariy uslublarini hamda murakkab vaziyatlarda qulay va turli xil qarorlar qabul qilish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish)

— o‘qitishning didaktik davri uzluksizligi va butunligini ta’minlash prinsipi.

(modul, bo‘lim, hamda mavzu doirasida didaktik davrning barcha bo‘g‘inlarini amalga oshirish imkoniyatini hosil qilish)

Talabalarning mustaqil ishi o‘qituvchi tomonidan fanning ishchi dasturi mazmunida rejalashtiriladi va o‘z ifodasini topadi. Texnologik xaritada esa mustaqil ishning shakli, hajmi, bajarish muddati hamda baholash mezonlari yoritiladi.

Talabalarning mustaqil ishi:

- tashkil etish joyi (auditoriya va auditoriyadan tashqari);
- tashkil etish maqsadi(fan ishchi dasturida belgilangan va asoslangan maqsad asosida);
- tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ga qarab tasniflanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ni tanlash o‘quv fani mazmuni va o‘qitishni tashkil etish shakli bilan aniqlanadi(ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, nazorat ishi va x.k.z)

Turli darajadagi mustaqil ish turlari farqlanadi:

1. Namuna asosidagi mustaqil ish- mustaqil faoliyatning past darajasi.

Yechimni aniqlashning taniqli usulini qo‘llagan holda vazifalarni bajarish. Bu ishlar o‘qituvchi tomonidan avval ko‘rsatilgan hamda talabalar tomonidan tajribadan o‘tkazilgan mustaqil ishlarni qayta takrorlash asosida bajariladi.

2. Rekonstruktiv-variativ tip mustaqil faoliyatning boshlang‘ich darajasi. Bilimlarni tipik vaziyatlarga ongli ravishda o‘tkazish, turli hodisalar, voqealar, faktlarni tahlil qilish, bilish faoliyati metodlari va usullarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

3. Evristik mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning harakatchan darajasi. Talabalarda ijodiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bu tipdagi ishlarni bajarishda doimiy ravishda yangi yechimlarni izlash, egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni nostantardt vaziyatlarga o‘tkazish taqozo etiladi.

4. Predmet ichida va predmetlararo tadqiqot tipidagi mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning yuqori darajasi. Mustaqil ishlarni bajarishning eng yuqori bosqichi hisoblanib, bunday ishlarni bajarishda vazifa yechimini topish yo‘llarini ishlab chiqish talab etiladi.

Turli darajadagi mustaqil ishlarni bajarishda talabalar konspektlashtirish, misollarni tanlash, taqqoslash, fanlararo aloqalarni aniqlash, qo‘shimcha adabiyotlarni qo‘llash kabi kompleks faoliyat usullaridan foydalana olishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Абдалова С.Р. Физикадан мустақил таълимни ташкил этиш технологиялари (Касб-ҳунар коллежлари мисолида)// Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. –Наманган, 2011

2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2006.

3. Davronov I. E., Jurayev B. T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi //B.: Durdona. – 2019.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Berdiyeva Ro‘zixol Allayorovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotation*. The article describes the scientific and theoretical aspects of the problem of effective organization of independent education of students. The content of independent education and independent work as a form of training outside of the auditorium, their main functions, and pedagogical possibilities for the formation of professional activity skills in future specialists are based. The article also describes the main conditions that ensure the effectiveness of independent work and independent education, as well as the possibilities of using information technologies.*

Key words: *higher education, independent work, independent education, portfolio, information technologies, web-quest.*

Oliy ta’limda malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti barqarorligini ta’minlash, aralash ta’lim (blender learning) tamoyili asosida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘qitishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Mazkur jarayonda talabaning individual ta’lim trayektoriyasiga asoslangan faoliyat shakllaridan samarali foydalanish hamda professor-o‘qituvchilarning metodik bilim darajasi muhim o‘rin tutadi.

Dunyoda oliy ta’limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali tashkil etish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashtirish, mustaqil ta’lim jarayonida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini modernizatsiyalashga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Sh.Nurullayeva [8], Z.SHAMIRZAYEVA [9], G.MUSAXANOVA [6; 7], I.MADATOV [5], A.BATIRSHINA [4], A.ANDREYEV [3]larning ilmiy maqolalarida auditoriyadan tashqari mashg‘ulot shakli sifatida mustaqil ta’limning amaliy va metodik jihatlari mazmuni yoritilgan.

Ushbu jihatlar oliy ta’lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. auditoriyadan tashqari mashg’ulotlar mazmuni va nazorat qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5847-son Farmoni [1], O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 824-son Qaror[2]lari asosida belgilanadi.

O‘quv yuklamada ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda bevosita o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan o‘quv ishlari majmuini “mustaqil ta’lim” va “mustaqil ish” tashkil etadi.

Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig’i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog’liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referat/portfoliolar tayyorlash va uni kichik guruhlarda taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishdan asosiy ko’zlangan maqsad fan (modul) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Quyidagilarni mustaqil ish va mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy shartlar sifatida belgilash mumkin:

- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etish;
- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymaslik;
- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashish, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o‘zlashtirish.

Odatda oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq, mustaqil ta’lim ko‘proq ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda o‘rganilmagan masalalarni o‘z ichiga qamrab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mustaqil ta’lim asosida o‘qib-o‘rganilgan masalalar fan bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o‘z aksini topadi.

Mustaqil ta’limni tayyorlashda fanning xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1) darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha mavzularni konspektlashtirish hamda annotatsiya tayyorlash;
2) adabiyotlar asosida referat yozish;
3) kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
4) Internet tarmog‘idan axborotlar izlash va tahlil etish.

Talabalarning mustaqil ta’limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim: auditoriya mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo‘yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o‘qib-o‘rganish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma’lumlotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma’lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog’liq saytlarga taqriz yozish; ma’lum mavzuga doir mavjud manbalarni tahlil etish, ularni baholash; ma’ruza rejasiga doir o‘z variantini yoki uning ma’lum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish; amaliy mashg’ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir ma’ruza tayyorlash; mavzuga doir munozara o‘tkazish; professor-o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko‘rinishda tashkil etish mumkin: o‘tkazilgan yoki o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan ma’ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratish – html muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik websahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish va chop etish; indiviudal va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo‘yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’limi va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog’liqlikda mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalashi;
- talabalarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- ta’lim oluvchilarda bilim olishga doir mas’uliyatni oshirish;
- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berishi;
- ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son
3. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002. - 264 с.
4. Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008. - № 9. – С. 82 – 84.
5. Madatov I.Y. Aralash ta’lim texnologiyasi asosida mustaqil ta’limni tashkil etish. // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. Ilmiy-metodik jurnal, - 2022/6/23. - 126-131-b.
6. Musaxanova G.M. Ta’lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta’limning o‘rni // Pedagogika. - №5. – Toshkent, 2022. – 95-98 b.
7. Musaxanova G.M. Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonidagi tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvoli // Образование и инновационные исслеводания. – М., 2021. - №6. – С.275-279
8. Nurullayeva Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari // Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 1(1)2022. – 12-18 b.
9. Shamirzayeva Z.X. Mustaqil ta`limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st June, 2023. – p.125-128

TALABALARNING MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Beknazarova Dilafruz Amirovna,
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarining mustaqil-ijodiy ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari yoritilgan. Mustaqil ish tushunchasi mazmuni va olimlarning talqinlari bayon etilgan. Talabalarning mustaqil faoliyati ko‘rsatgichlari asosida ularda mustaqil ishlash ko‘nikma, malakalarining rivojlanganlik darajalari dinamikasi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, tanqidiy fikrlash, mustaqil faoliyat ko‘rsatkichlari, ijodiy yondashuv, iroda, qobiliyat, faollik.

Mamlakatimiz ta’limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogika oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish

sharoitlariga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini e'tirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondoshuvni shaklantirish va mustaqil fikrlash kabi sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Mustaqil ta'lim olish talabalardalarda kasbga bo'lgan ishtiyoqni, iroda, qobiliyat va faollikni, tasavvurini, shaxsning ahloqiy sifatlarini (qat'iyatli, aniq maqsadga intilish, ijodkor, mustaqil, ma'suliyatli, mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikrlash) hamda o'zining qarash va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ish tushunchasini va uning turli talqinlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, S.Matjonovning ilmiy ishlarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, darslarda talabalarning og'zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadbiq qilingan. Tadqiqotchi olim quyidagi fikrlarni ilgari suradi, zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan o'quvchi ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritolmaydi [4]. N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir [3].

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiy muammo sifatida qaraydilar. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondashish ko'zga tashlanadi. Bunda u faol, ta'limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaraladi. T.V.Maydanov "Mustaqil ish" atamasini individual yoki jamoaviy faoliyat deb hisoblaydi, talabalar o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning nazorati ostida bo'ladi deydi. B.G.Iogannsen mustaqil ishni oqilona izlanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish chora-tadbirlari tizimi sifatida izohlaydi.

S.I.Arxangelskiy mustaqil ta'lim olishni quyidagicha tavsiflaydi, axborotni mustaqil izlash va undan foydalanish orqali bilimlarni egallash sifatida ishlash amaliy, ilmiy va o'quv muammolarini hal qilish uchun olingan bilimlardir [1].

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o 'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir [5].



Mustaqil ta'lim olish turlarining sxematik tasviri

1. Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi.

2. Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda ma’ruza, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan muammolar hal qilinadi.

3. Ijodiy tadqiqot ishlarida talaba masalani hal qilish yo‘llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Bunday ishlar qatoriga tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, jihozlar, modellar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi.

4. Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni ko‘ra bilish malakasini shakllantiradi va natijada ular muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi.

Talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish quyidagi yo‘llar asosida tartibga keltirildi:

– o‘quv faoliyatida inson ob’yektiv borliqni o‘rganishda, o‘zining hayotiy tajribasini boyitishda, tabiatga ta’sir ko‘rsatish vositalarini bilib olishda, shu bilan bir vaqtda, o‘zining qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beruvchi idrok etish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi.

– talabalar amaliy faoliyati jarayonida kerakli bilim, ko‘nikma va malakalar egallashlari, bu jarayonda o‘qituvchi kuzatishga, o‘z kuzatishlarini tajribalar yo‘li bilan tekshirishga, o‘quv adabiyoti bilan ishlashga, fan ma’lumotlaridan kundalik hayotida foydalanishga o‘rganadi.

Talabalarning mustaqil ishi bir nechta harakatlarni o‘z ichiga oladi:

birinchidan aniq o‘z faoliyatining maqsadini bilish, o‘quv topshirig‘iga o‘quvchi uchun shaxsan muhim bo‘lgan ma’no berish;

ikkinchidan, aniq o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tashkil qilish va o‘z shaxsiyligini oqilona taqsimlash [2].

Talabalarda mustaqil ta’lim olish malakasi shakllanganlik darajasini aniqlashda turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularni shartli ravishda quyidagi nomlar bilan atash mumkin.

1. O‘quv materiallarini o‘rganishda va mustaqil ish jarayonini tashkil etishda umumiydan tipiklikni va xususiylikni ajratib olish malakasi.

2. Mustaqil ish bajarilishi jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik ob’yektlarni tanlash, amaliy bajarish, texnik chizmalar, sxemalar tuzish malakasi.

3. Auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, o‘quv ustaxonasida va uyda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish malakasi.

4. Mustaqil fikrlash malakasi.

5. Materialni o‘rganishda o‘z-o‘zini nazorat qilish malakasi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonlarida mustaqil ishlarni tashkil etish xususiyatlari olamni o‘rganish uchun barcha fanlarning ishtiroki asosida mavjudligini o‘rganilishi pedagogik ahamiyatga ega. Mustaqil bilim olishga tayyorgarlikning tashkiliy asoslari pedagogik-psixologik, texnik-texnologik tushunchalar hisoblanadi. Pedagogik-psixologik va texnik-texnologik tushuncha kategoriyalar va tekshirish-baholash tarkibiy qismlarining rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatadilar. Demak, mustaqil bilim olishga tayyorlash jarayonida talabalarda nazariy tushunchali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bunday tayyorgarlikni amalga oshirish barcha muhim bog‘liqliklar bilan tushunchalar ko‘rinishida aks ettirilgan pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatli topshiriqlarni xayolan tasavvur etish va qayta o‘zgartirishga o‘rgatib borish, ya’ni, ma’lum intellektual harakatni amalga oshirish demakdir.

Adabiyotlar

1. Быстрова Н.В., Уханов А.Ф. Управление воспитательной системой общеобразовательной организации // В сборнике: Инновационные подходы к решению профессионально-педагогических проблем сборник статей по материалам II Всероссийской научно-практической конференции. Мининский университет. 2017. С. 177-180.

2. Филатова О.Н., Быстрова Н.В., Васильева Н.В., Дюжакова Д.А. Роль педагога профессионального обучения в реализации профессиональных стандартов // Проблемы современного педагогического образования. 2017. № 57-7. С. 222-228.

3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 128 b.

4. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiètdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Avtoref. dis. … ped.fan.dokt. – T.:1998. – 42 b.

5. Rasulova Z.D. Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education // International Journal of Scientific & Technology Research. Vol. 9, no. 3, 2020. – P. 5061-5062.

MUSTAQIL TA’LIM OLISH VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

M.N.Amonov,
BuxDU pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

Mustaqil ta’limi - bu bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabalarning uzoq muddatli bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqillik va o'zini rivojlantirish uchun maqsadli, ichki motivatsion ishlarini ta'minlaydi hamda o'qituvchi tomonidan bilvosita, maqsadga muvofiq, tizimli boshqarish asosida kasbiy va shaxsiy fazilatlar sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ishi samaradorligini oshirishning eng muhim "vositasi" bu keng didaktik imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuterni o'qitish texnologiyalari (talabalarni ma'lumotni topish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etishdagi ishlarini faollashtirish, aloqa uchun fazoviy va vaqt chegaralarini kengaytirish va axborot almashinuvi, jamoa va mustaqil ish jarayonida talabalarning faol o'zaro aloqasini ta'minlash, o'quv vazifalarini talabalarga taqdim etish xususiyatini o'zgartirish, har bir talabaning mustaqil ishi borishini doimiy ravishda (onlayn) nazorat qilishni ta'minlash, agar kerak bo'lsa, uni tahrirlash) foydalanish bo‘lib, mustaqil ta’limning protsessual va mazmunli tomonlarini takomillashtirishga, talabalar o'rtasida mustaqil ta’limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda kasbiy shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyatini anglashga hissa qo'shadi.

Mustaqil ta‘limda qo‘llaniladigan eng muhim metodlardan biri kitob ustida ishlashdir. Bu metodning afzalligi shundaki, u kitobxonga o‘quv axborotini uning o‘ziga xos sur'atda va qulay vaqtda olishini ta'minlaydi. o‘quv adabiyotlari bilan ishlash metodlariga xos funk siyalarni barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishlashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki para-graflarni sinchiklab o‘qish, berilgan materialni o‘rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu metodning qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modifikatsiyalarda qo‘llash mumkin.

Bunda o‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha o‘quv adabiyotidan paragraf yoki biron parchani o‘qishni taklif etadi. So‘ngra o‘qituvchi talabalaiga:

Aytinglarchi, muallif bu yerda nima haqida gapirayapti? degan savolni beradi. Talabalar javob bergach, o‘qituvchi gap nima haqida ketayotganligiga yakun yasaydi. Hamda aniqroq, tushunarliroq bo‘lishi uchun siz bu fikrni qanday ifodalagan bo‘lardingiz? degan savol bilan murojaat qiladi.

Bu metodni boshqacha variantda, dars o‘tishni uch kursga bo‘lib quyidagicha qo‘llash mumkin:

Dastlab, o‘qituvchi talabalaiga kitob yoki ilmiy maqolani o‘qib chiqib, tushunmagan jumla, fikrni alohida ajratib daftarga yozishni topshiradi.

So‘ngra, ikkinchi kursda muallif nima haqida fikr yuritayotgani, u nima demoqchi ekani muhokama qilinadi.

Uchinchi kursda, o‘qituvchi talabalardan o‘zlari muallif sifatida bu fikrni yozma ravishda qanday ifodalagan bo‘lar edingiz, yozib bering deb, topshiriq beradi.

To‘rtinchi kursda, talabalar yozgan javoblar o‘zaro tekshiriladi va muhokama qilinadi. Muhokama individual yoki kichik guruhlar bo‘yicha olib borilishi mumkin. Asosiy maqsad,

yozilgan fikr tanqid qilingan muallifnikiga qaraganda tushunarliroqmi yoki aksinchaligini aniqlash.

Talabalar o‘z fikrlarini bildirgach, ularni solishtirib, o‘qituvchi o‘zi yakun yasaydi. Ana shu parchani tushunish uchun avvaldan nimalarni o‘qigan bo‘lishi, nimalarni bilish kerak? va hokazo.

Topshiriqni bajarilishiga qarab talabalaiga ball beriladi

Bunday usulni qo‘llash talabalarni o‘qishni faol o‘rganishga undaydi. Undan tashqari talabalarni o‘z fikrlarini asoslashga, materialni taqdim qilishni o‘igatadi.

«Muallifdan so‘rang» usuli bo‘yicha talabalar o‘zlari yangi matn bilan ishlab, yozishni o‘rganishadi.

Ko‘pincha, talabalar oliy o‘quv yurtini bitirib, ishga tushganda ustozlar hayron bo‘lishadi, nahot shu narsalami bilmaydi, o‘quv yurtini bitirib keldi-ku, u yerda bu narsalarni o‘qitgan, o‘rgatgan bo‘lishi kerak edi, deb. Psixologlarning fikricha, buning asosiy sababi, eng avvalo, har bir kishi o‘qishdan aniq maqsad qo‘ymas ekan, ko‘zlagan natijaga erishib bo‘lmaydi. Agar aniq maqsad qo‘yilmasa, bilimli mutaxassis emas, o‘qiganini tutiqushdek takrorlovchi, bilganini real hayotda qanday qo‘llashni bilmaydigan bitiruvchilar tayyorlanadi.

Talabalar kitob yoki maqola o‘qir, ekan, unga olgan bilimi yoki undagi berilgan axborotdan joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat topshirishda yoki ball to‘plashda qanday foydalansam bo‘ladi, degan nuqtayi nazardan qaraydi. Kasb egasi bilimi jihatidan undan ustun bo‘lmasada, mutaxassisligi bo‘yicha qo‘liga kitob tushsa, eng avvalo, undan ish jarayonida qanday foydalanish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Akademik va amaliy bilimning asosiy farqi ham ana shunda.

Shuning uchun ham hozirda o‘quv yurtlarini bitiruvchilarni egallayotgan kasblari bo‘yicha amaliyot bilan bog‘lashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi dars o‘tish metodlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Kitob o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki talabalarning o‘zlari tanlashlari mumkin. o‘qituvchi talabalrning hikoyasini tinglab yoki esselarini o‘qib, uni - naqadar real hayot bilan bog‘langanligi, fikrning originalligi, bayon qilinishiga qarab ball berishi lozim.

Bu metodni qo‘llashda o‘qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida organishni aniqlaydi. O‘rganilgan mavzu bo‘yicha savollar va ularning javoblarini, o‘qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma'ruza matni, yangi mavzu bo‘yicha bilish lozim bo‘lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va o‘z-o‘zini boshqarishni amalga oshirishga qaratilgan model asosida qo'llash orqali erishiladi, bu o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning interaktiv xususiyatini, o'qituvchilar tomonidan onlayn nazoratni, o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Mustaqil ish samaradorligini baholash mezonlari quyidagilardan iborat: bilim sifati, olingan bilimlarni o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarning mustaqilligi va o'zini o'zi boshqarish darajasi. Ularning har biri uchun mustaqil ish samaradorligini baholash kompyuter sinovlari va ekspert baholari usullari orqali amalga oshirilishi va uch darajaga ajratilishi mumkin: yuqori, o'rta, past. Ushbu texnikalarning soddaligi va mavjudligi mustaqil ishlarning doimiy (onlayn) monitoringini ta'minlaydi.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va o‘z-o‘zini boshqarishni amalga oshirish modeli samaradorligini baholash maqsadida o‘tkazilgan tajriba-tadqiqot tajriba guruhi talabalarining yuqori natijalarga yerishganligini ko‘rsatdi. Ularda chuqurroq va mustahkam bilimlar, ularni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish darajasi yuqori bo‘lib, mustaqil ishga qiziqish va mas’uliyatli munosabat yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Yuqori xulosalardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etamiz:

- Talabalarning mustaqil ta’limiga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar asosida veb-saytlar mazmunini ishlab chiqish;
- Talabalar bilimini baholash mezonlariga talabaning mustaqil ta’limni bo‘yicha bajarilgan ishlarini inobatga oluvchi baholash tizimini kiritish.

- Talabalarning mustaqil ta’limini baholovchi inson omili aralashuvini kamaytiradigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / B.T. Jurayev.- Buxoro : Fan va ta’lim, 2022. –375 b.

2. Bozorova A., Sayfullayeva G. Kredit–modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 24-28.

3. Rahmonovna S.N. Mustaqil ta’limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish mazmuni //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 100-104.

4-ШЎЪБА: УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ҲАМКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

УДК 371.59+37.013

К ВОПРОСУ МОДЕЛИ САМОУПРАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ УЧРЕЖДЕНИЙ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Копнова Н. В.
Челябинский государственный институт культуры
Научный руководитель - Погорелова Н. В.

Аннотация: рассматривается школьное самоуправление как форма организации жизнедеятельности коллектива учащихся, обеспечивающая развитие их самостоятельности в принятии и реализации решения для достижения общественно значимых целей. Ставится задачи выявить организационно-педагогические условия, способствующие развитию социальной активности подростков и создать организационно-педагогические условия, способствующие развитию социальной активности подростков

Ключевые слова: школьное самоуправление, цель, самостоятельность, реализации решения, коллектив учащихся, организационно-педагогические условия, социальный активность подростков

Annotation: school self-government is considered as a form of organizing the life of a group of students, ensuring the development of their independence in making and implementing decisions to achieve socially significant goals. The task is to identify organizational and pedagogical conditions that contribute to the development of social activity of adolescents and to create organizational and pedagogical conditions that contribute to the development of social activity of adolescents

Key words: school self-government, goal, independence, implementation of decisions, student team, organizational and pedagogical conditions, social activity of adolescents

Дополнительное образование подростков на сегодняшний день понимается как организованная система образовательной и культурной среды, которая наиболее гармонично создает систему условий для развития персонализированной социальной и культурной созидательной деятельности. В социокультурной среде образовательных учреждений система деятельности задается через образование, а не определяется образовательными стандартами, то есть она "дополняет знание в часть базового образования и делает его завершенным". Таким образом, система дополнительного образования "обучает" современным социальным практикам, реализует и развивает культурные традиции своего народа, помогает найти личностный смысл в важнейших социальных ценностях.

Самоуправление означает планирование всех видов деятельности, организацию работы, а затем анализ и обобщение результатов. Здесь очень важна роль активистов, то есть самых активных учеников. Возможно, именно поэтому она продолжает находить свое значение и место в школьных сообществах детей и взрослых. Самоуправление будет развиваться только тогда, когда учащиеся окажутся в ситуации выбора и сами решат, как решить стоящую перед ними проблему. Принятие решений является ключом к формированию мотивации для групповых действий.

Там, где сфера интересов учеников более очевидна, развитие самоуправления происходит быстрее. В результате разработки постановка управленческих задач в основном зависит от инициативы и автономии учеников. Однако самоуправление школой может быть чем-то совершенно иным, то есть реальной частью учебного процесса. Основная задача воспитательной работы связана с созданием в школах условий для активной жизни учащихся, их гражданского самоопределения и самореализации, а также максимального удовлетворения их потребностей в интеллектуальном, культурном и нравственном

развитии. Эта задача в основном предполагает проведение системной работы по формированию гражданской позиции и патриотического сознания у учащихся. Чтобы обеспечить учащимся эффективное обучение и общественно полезную деятельность, воспитательная работа преподавательского состава и родителей направлена на воспитание соответствующих личностных качеств учащихся (моральных качеств, духовной цивилизации, общечеловеческих ценностей, духа и гуманистического настроя) [1, с. 19].

Многие общеобразовательные учреждения успешно применяют различные формы автономии и различные модели автономии учащихся, которые включены в общую систему школьной автономии.

Основной целью студенческого союза является удовлетворение личных потребностей учащихся, основной целью является защита их гражданских прав и интересов, а также участие в решении насущных проблем в школе. Участие учеников в самоуправлении помогает развивать более ясное и мудрое чувство гражданственности и ценностное отношение к себе и другим; повышать социальную компетентность; развивать социальные навыки и способность к независимому принятию решений в контексте социальных проблем. Самоуправление учеников проявляется в их способности проявлять инициативу, принимать решения и реализовывать их на благо студентов. Вообще говоря, самоуправление воплощается в планировании коллективной деятельности, организации этой деятельности, анализе собственной работы, подведении итогов выполненной работы и принятии соответствующих решений [2, с. 11].

При организации автономии и реализации программ студенческой автономии в общеобразовательных учреждениях рекомендуется использовать в качестве основы следующие приоритетные принципы.

- общеобразовательные учреждения свободны в выборе модели студенческого союза в соответствии со своими конкретными обстоятельствами и существующими традициями.

- обращать внимание на индивидуальные и коллективные интересы, потребности и способности всех участников (учащихся, учителей и родителей) образовательного процесса.

- позитивная основа для студенческой автономии, позволяющая использовать энергию молодого поколения для деятельности по социальному обеспечению.

- тесное взаимодействие между образовательными учреждениями и местными органами власти [3, с. 50].

Количество коллективных учреждений, созданных за этот период, невелико, и они не полностью готовы к самостоятельной работе. Инициатива по их созданию может исходить от учителей.

На данном этапе единственным основным коллективом для создания исполнительного органа является классная комната. Структура ученического самоуправления показана на рисунке 3.



Рисунок 3 - Структура ученического самоуправления

Второй этап характеризуется появлением более широкой автономной деятельности, учащиеся заражаются коллективными интересами школы, дети приобрели предварительный, еще небольшой и несложный опыт организационной работы, появилось чувство удовлетворения и вера в дальнейший успех, сформировалась первая партия

традиций.

Кроме того, на самом деле, помимо классов, в каждой школе могут быть такие первичные коллективы, как клубы, творческие объединения и, возможно, общественные организации для детей.

Второй этап развития ученического самоуправления характеризуется тем, что классы, клубы, творческие объединения и общественные организации работают в качестве основного коллектива в автономной системе. В то же время представители класса избираются в исполнительный орган, а руководители этих организаций (клубов, ассоциаций и т.д.) вводятся в исполнительный орган (они не избираются).

Особенностью последнего этапа является то, что активное и пассивное разделение учащихся в участии в автономии стало очень тесным. Каждый студент имеет значительный опыт лидерства, и почти все студенты стали организаторами своей собственной жизни.

Очевидной особенностью третьего этапа автономного развития является то, что почти каждый школьник участвует в автономных организациях.

Поэтому, если в школе начинают создаваться временные исполнительные органы: тематические комитеты, организационные комитеты и инициативные группы, и все они включены в общую систему автономии (представители этих временных организаций приглашаются для участия в заседаниях исполнительных органов), то мы можем сказать, что автономия школы эта школа находится на третьей стадии - высшей стадии развития [4, с. 15].

Продолжительность определенного этапа развития школьной автономии не может быть строго оговорена или ограничена каким-либо крайним сроком. Точно так же развитие форм личной автономии не может быть строго организовано в соответствии со временем (таблица 1).

Таблица 1 - Динамика самоуправления на разных этапах развития коллектива [5, с. 52]

Этапы	**Первый этап**	**Второй этап**	**Третий этап**
Коллективу присущи	Отсутствие актива, общности целей, интереса к деятельности в коллективе	Сформированность актива, заинтересованность учащихся в делах коллектива	Наличие общественного мнения , постоянно меняющегося актива в органах самоуправления.
Функции самоуправления	**Исполнительская**	**Организаторская**	**Управленческая**
Содержания функции	Получения задания, определения режима выполнения, экспертная оценка, самооценка, самоконтроль	Определении цели и усвоение задач, обеспечении работы (условия, средства), распределение обязанностей, оперативное руководство, подведение итогов	Оценка, анализ, принятие решений, организация планирования, контроль регулирование
Тенденция развития самоуправления	**Метод**	**Форма**	**Принцип**
Элементы системы ученического самоуправления	Задание, поручение, расстановка, взаимоконтроль	Учком, старостат, комиссия, штабы	Коллективное планирование, проведение, анализ дела

Позиции педагога	Учитель	Консультант	Партнер
Характер деятельности педагога	Сообщает учащимся знание о значении самоуправления, формирует положительные мотивы учащихся в самоуправленческой деятельности, вырабатывает у учащихся навыки самостоятельноц работы	Передает учащимся организаторский опыт, показывает пример участия в общественной работе, выступает носителем традиций сложившихся в самоопределении школы	Сотрудничество на разных началах, на равных основаниях при выполнении общих задач

Таким образом, ученическое самоуправление – это форма организации жизнедеятельности коллектива учащихся, обеспечивающая развитие их самостоятельности в принятии и реализации решения для достижения общественно значимых целей.

Современному обществу нужна позитивная, активная и предприимчивая социальная личность, способная коренным образом изменить социальные отношения и осуществлять творческую работу по улучшению общества и окружающей среды. Если мы не начнем со школьного образования развивать личную социальную активность школьников, в дальнейшем мы не сможем решить проблемы, порожденные современностью.

Литература

1. Мальковская, Т.Н. Социальная активность школьников и пути ее формирования / Т.Н. Мальковская // Советская педагогика. – 1978. – № 5. – С. 14–21.
2. Мещеряков Б.Г. Большой психологический словарь. — М.: Прайм-ЕВРОЗНАК / Под ред. В. П. Зинченко. 2003
3. Монахов В. М. Методология проектирования педагогической технологии (аксиоматический аспект) // Школьные технологии. — 2000.— № 3.— С. 57-71.
4. Сластенин В. А. Формирование творческой личности будущего учителя // Сов. педагогика. — 1999. — № 1. — С. 79-85.
5. Социальная педагогика / Под общ. ред. М.А. Галагузовой. – М.: Владос, 2012. – 362 с

АСПЕКТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧЕВОЙ ФУНКЦИИ

Исроилова Мукаддас Шониёр кизи,
г.Бухара, Узбекистан
студентка кафедры педагогики Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский университет науки и технологий», Российская Федерация, Республика Башкортостан, город Уфа
Рыбакова Елена Владимировна
руководитель старший преподаватель кафедры педагогики Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский университет науки и технологий», Российская Федерация, 450076, Приволжский федеральный округ, Республика Башкортостан, город Уфа, Pedsovet83@yandex.ru, SPIN-код автора: 6392-1234, https://orcid.org/0000-0002-9622-0248

Ключевые слова: социализация; билингвизм; здоровьесбережение; психоэмоциональное благополучие; нарушения речи

Аннотация. Автор изучает условия социализации детей дошкольного возраста с нарушениями речи на фоне двуязычия – билингвизма, выявляет проблематику самооценки,

межличностных отношений, возможности коррекции и развития речевой функции обучающихся. Более эффективно и психологически комфортно для детей из семей мигрантов происходит социально-образовательная адаптация детей в дошкольном возрасте, при обеспечении необходимых психолого-педагогических условий.

Условием психоэмоционального благополучия, системного здоровьесбережения, успешности в обществе, социальной привлекательности личности и даже безопасности обучающихся различных возрастных, нозологических и иных категорий является эффективная социализация в семье, образовательной организации, иных сообществах и широком общественном пространстве.

Социализация — это одновременно и процесс, и результат активного освоения индивидом всех базовых норм и ценностей, необходимых для общественной жизни [3; 6]. Личность перенимает, интегрирует социальный опыт в контексте конкретной группы и практически реализует эти компетенции. Процесс социализации отмечается с рождения и далее уже не прекращается, реализуясь в общении, деятельности, идентификации и самоидентификации.

Особенно продуктивным для этого является период до совершеннолетия, а определяющими, в силу пластичности нервной системы и динамизма моделирования личности ребёнка, являются предшкольные годы. Несамостоятельность малыша определяет тесную связанность жизненных обстоятельств его и будущую успешность социализации с окружением. Процесс развития здоровьесообразных и социально приемлемых поведенческих компетенций, формирование представлений о нормах и значении следования им, их обиходное и осознанное применение становятся всё более актуальными в процессе отдаления от матери или лица, её заменяющего, от семейного окружения. Согласие обучающегося дошкольного возраста на такое отдаление знаменует готовность и возможность всё более самостоятельного расширения социальных связей, опыта, представлений, - а, соответственно, освоения навыков самообслуживания и других системообразующих компонентов жизнедеятельности.

Такие проявления являются также значимыми диагностическими показателями соматического, психологического благополучия детей в связи с темпоральным и динамическим соответствием параметром возрастной физиологии и психологии.

На протяжении раннего возраста происходят важные изменения в личности ребенка. Эти изменения, по мнению В.С. Мухиной, прежде всего связаны с развитием предметной деятельности и общения со взрослыми. Базовые концептуальные, политэкономические предпосылки понятия «социализация» восходят к работам Франклина Г. Гиддинса – как подготовка человека к общественной жизни [3]. Ныне изучаемая в русле социологии (как освоение индивидом социальных ценностей, норм и правил поведения, принятых в обществе с позиции активной или пассивной роли самого человека в процессе социализации - А. И. Ковалева и др.), философии («человек и мир», Б.Д. Парыгин и др.), психолого-педагогической науки (как двусторонний процесс, активное освоение и осмысление человеком социального опыта, правил поведения, культуры и традиций – Андреева Г.М. и др.), научная область социализации охватывает всё новые пространства, реализует всё новые аспекты научно-практической актуализации.

Согласно исследованиям Л. В. Мардахаева, социализация представляет собой развитие, становление личности, формирование его сознания (на основе социальных ценностей, языка, культуры), овладение социальными ролями и опытом поведения (стандарт поведения), овладение стилем социального общения и проявление с учетом возраста, окружающей среды и самоактивности личности.

Проблематика нарушений социализации может детерминироваться как преимущественно внешними факторами социальной дезинтеграции (микросоциальная и педагогическая специфика сопровождения [7; 8], выраженно деструктивные события субкультурного, эпидемиологического, военного характера и др.), особенностями развития обучающихся, культурно-языковыми и социальными барьерами и др..

Соответственно, наличие в социально-образовательном маршруте обучающихся особенностей в развитии, таких как речевая дисфункция и другие дефицитарные, иные дизонтогенетические состояния, отягощают процесс социализации детей, особенно в динамичном предшкольном периоде, когда спонтанное саморазвитие ещё недостаточно продуктивно, а частота и выраженность нарушений речевого, сенсорного, интеллектуального, моторного, коммуникативного развития наиболее представительна.

Эти вопросы исследованы в работах О.С. Павловой, Л.Г. Соловьевой, Е.Г.Федосеевой, О.Н. Чумовской, Г.Ф. Юсуповой, Г.Н. Соломатиной и продолжают являться акцентными направлениями развития науки и практики в силу растущего значения для адресной поддержки и благополучия обучающихся и их семей.

Также активно растущей является проблемная область исследования аспектов социализации обучающихся-билингвов как вследствие роста миграционных и культурно-языковых интеграционных, дезинтеграционных процессов, так и из-за осложнения нозологической картины современного детства и возможностей дигностически-коррекционной поддержки на местах, готовности родителей обеспечить детям посещение дошкольных организаций и др..

Само по себе наличие билингвизма не означает снижения обучаемости, интегративных и социализирующих возможностей обучающихся, но на определённых этапах интеграции, а также в связи с наличием нарушений в развитии той или иной природы двуязычие становится препятствием для эффективной социализации детей и их семей. Данную сферу рассматривали такие исследователи, как Е.М. Верещагин, Л.Г.Федоренко, Л. Мардер, И.А. Бубнова, Л.Б. Лазуренко и многие другие, и эти вопросы продолжают оставаться предметом исследований,практикоприменения, проектирования.

Таким образом, актуальность соответствующей проблематики определяется не только её образовательной, специально-образовательной и общественной значимостью изучения, практической актуализации описанной выше проблематики – но и растущим характером и вызывающих эти проблемы факторов, и выраженности исследуемых процессов.

Специфика социализации обучающихся с нарушениями речи и билингвизмом состоит в стойкости, выраженности и комплексном характере нарушений, они требуют системного подхода в организации и обеспечении коррекционно-развивающей работы с детьми данной категории.

Всё большее значение обретает изучение аспектов социализации детей дошкольного возраста с билингвизмом и нарушениями речевого развития в контексте различных факторов развития, дизонтогенеза, в прогностическом регистре. Методологическим базисом здесь является культурно-историческая теория Л.С. Выготского как обоснование освоения значимых компетенций развивающейся личности ребёнка.

Аспекты данной проблематики рассматриваются во взаимовлиянии десоциализирующих и ресурсных факторов, весьма актуальных для современного детства и педагогических систем.

Процесс социализации личности происходит на протяжении всей жизни, с самых первых дней. Некоторые исследователи полагают, что даже в пренатальный период закладываются элементы готовности будущего малыша к восприятию значимых компонентов внешнего мира. «Социализация - процесс, в результате которого младенец формируется в сознательную личность, осваивающую культуру, в которой он рожден» (Э. Гидденс). Проблематика социализации обучающихся дошкольников зачастую обусловлена неготовностью посещения дошкольной организации, страхами, коммуникативной недостаточностью. Дефицит общения в семье, сенсорная, психомоторная депривация дополнительно отягощают социализирующие процессы микросоциального и средового уровня [2; 3], что нередко недостаточно осознаётся окружением детей и сводится к привычному набору социальных фобий – переоценке роли гаджетов, недостаточным осмыслением качества и роли общего предметного и личностного окружения. Хотя, конечно, цифровую реальность необходимо не просто дополнить традиционными

компонентами предметно-развивающей среды, но гармонично, благоприятно интегрировать её в полноценное живое общение, адресное сенсорное пространство. Поскольку социализация означает активное двустороннее освоение индивидом норм и ценностей [7; 8], морали, правил поведения в социуме – окружение должно представлять собой социально активную мотивирующую среду [9; 10], и выстраивать её следует с учётом того, что игровая (основная, сензитивная для данного периода) деятельность дошкольников не является набором специфически детской игровой занятости детей – а отражает реалии окружения.

Эти дети не обладают достаточными вербальными ресурсами для преодоления недостаточности возможностей социализации в дошкольной образовательной организации, ощущают культурно-языковую дистанцированность от остальных воспитанников, нередко и их родители не обладают достаточными компетенциями для преодоления коммуникативного дефицита.

Как мы видим, и дошкольный период сопровождения таких обучающихся, и школьный этап социально-образовательной занятости не обеспечены в достаточной степени не просто методологической разработанностью, но и системообразующими организационными решениями, которые могли бы стать основой для построения эффективного системообразующего процесса социализации обучающихся – а значит, и их семей и сообществ.Проблема социализации имеет глубокие философские и исторические истоки [14], представлена антропологической наукой, развивается в русле психологии и педагогики, обогащает социологию. Л.С. Выготский и К.Д.Ушинский, другие основатели научных школ и направлений, а также современные исследователи подготовили базис для нового качественного прорыва, необходимого для преодоления накопившихся трудностей социализации обучающихся и будущих вызовов социально-образовательного пространства.

Неслучайно этой проблемой занимались и занимаются многие исследователи и практики, школы и организации: Морозова Н. М., Акопов Г.В., Волков Б. С., Волкова Н. В., Голованова Н. Ф., Карпова Ю. В., Корепанова М. В., Крупская И. Ю., Макаренко А. С., Мардахаев Л. В., Полат Е.С., М.Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева, А. Е. Петров, Щетинина А. М. и многие другие.

Значимость этой проблемы и смежных аспектов развития обучающихся с билингвизмом, имеющих нарушения речи, продолжает возрастать и в перспективе обретёт новые направления, формы обеспечения, критерии и методики [12; 15].

Реализуя комплексное сотрудничество педагогов и родителей таких детей, мы совместно выработали рекомендации по социализирующему сопровождению детей дошкольного возраста с билингвизмом и нарушениями речевого развития

Поскольку изученная проблематика представляет собой сложную многокомпонентную картину устойчивых трудностей в процессе социализации детей дошкольного возраста, имеющих двуязычие и нарушение речевого развития, то и психолого-педагогическая поддержка таких детей также должна носить комплексный характер – а участие всех сторон коррекционно-развивающей работы создаёт субъектно-деятельностную базу для мотивации не только моделирования адресных преемственных условий – но и для активной, проектно-креативно достоверной, ответственной совместной работы на всех дальнейших этапах поддержки обучающихся.

Самым важным здесь представляется темпоральный аспект – то есть при плановой миграции либо перед поступлением в образовательную организацию ранее не посещавшего дошкольную организацию, «домашнего» ребёнка необходимо обеспечить ряд подготовительных мероприятий:

- элементы культурно-языковой интеграции – этикетные речевые модули, слова-просьбы, предложения помощи, мотивирующие к общению оценочные реакции («Ты молодец!», «У тебя хорошо получается!», «Красиво получилось!»

- это производится непринуждённо, привлекательно для ребёнка, чтобы ему захотелось перенести такие формы коммуникации, пусть в несовершенной форме, в свой операционал);

- ориентировочные мероприятия – пройти мимо детского сада, поздороваться с детьми, обратить внимание ребёнка на то, как играют дети, какое оборудование, какие деревья есть и др., посмотреть видеозаписи, фильмы соответствующего содержания, картинки, обсудить простые проблемные вопросы, напомнить, что в случае затруднений можно обратиться к воспитателю или рассказать дома;

- постараться создать условия для первичного опыта социализации – в малой группе, со знакомыми детьми, периодически покидая комнату или участок с играющими детьми, понаблюдать за протеканием спорных, конфликтных ситуаций, оценить их с точки зрения перспектив актуализации поведенческих особенностей и опыта ребёнка, принять доступные меры;

- по возможности своевременно начать коррекционно-развивающую работу с логопедом, чтобы минимизировать проблемы речевого общения,создать базу для общения со сверстниками и обогатить опыт сотрудничества с педагогом – многие родители полагают, что уже в условиях детского сада ебёнок с ТНР получит необходимую коррекционную поддержку, однако это слишком большая нагрузка для данной категории обучающихся;

- по возможности, хотя и деликатно, постараться преодолеть общеобразовательный программный дефицит развития ребёнка для создания базы преемственности общественного и семейного воспитания ребёнка, снизить трудности образовательной занятости;

- изучить, выявить, актуализировать способности и интересы ребёнка – чтобы снизить неблагоприятные впечатления и переживания, связанные с нарушением социализации и вербальной коммуникации, а также обеспечить условия социальной привлекательности обучающегося;

- постепенно выстраивать субъектную сферу ребёнка – запрашивать его мнение, согласие, формировать договорные отношения, демонстрировать уважение и внимание к его переживаниям и др.;

- рассмотреть вопросы привлечения средств дополнительного образования – музыкального и т.п. – для обогащения праксиса, коммуникативного опыта, социально-ролевого компонента развития ребёнка, гармонизации психоэмоционального статуса, субъектно-деятельностной самоактуализации;

- рассматривать семейные условия воспитания и общения с другими близкими, друзьями как модель социализирующего общения и внести соответствующие коррективы в свой обиход;

- обеспечить условия для проектно-креативной самоактуализации детей как для совершенствования социализирующих компетенций, создания социально привлекательного статуса личности, гармонизации деятельности – так и с целью сублимации психоэмоциональной напряжённости, возникающей в межличностном пространстве, в области творчества, самобытной занятости, избирательной активности;

- организация диагностического мониторинга с целью своевременного и динамического наблюдения компонентов социального благополучия и развития, внесения необходимых корректив, моделирования дальнейшего социально-образовательного пространства;

- сформировать основы безопасного поведения и здоровьесбережения на доступном уровне представлений и с постепенным вербально-смысловым усложнением, создавая привычку к умственному усилию, если ранее эта работа проделана не была.

После такой подготовки – мы полагаем, что должен быть специалист, владеющий этими компетенциями, например, применительно к задачам инклюзивного образовательного сопровождения – не только ребёнок становится более подготовленным к

социальной адаптации в детском саду, но и семья формирует определённый уровень готовности, активности, опыт целенаправленного взаимодействия с ребёнком, что пригодится при освоении семьёй дошкольного образовательного пространства.

К сожалению, приходится наблюдать, как даже в школьный период обучающийся остаётся один на один с программой [11; 13], к которой он не подготовлен, с детьми, которые не готовы его по-настоящему принять, - и которых он сам не понимает, опасается, вынужденный искать поддержки в не самых безопасных и благожелательных формах. Некоторые семьи и в этих условиях оказывают своему ребёнку ощутимую поддержку, но она редко оказывается достаточной.

Поэтому подготовленность дошкольной образовательной организации к сопровождению обучающихся с билингвизмом и нарушением речевого развития – это ещё одно чрезвычайно важное звено успешности социализации, психоэмоционального благополучия. освоения программных компетенций и подготовки к школьному обучению.

Несомненно, комплексный характер адресной поддержки обучающихся данной категории в дошкольной образовательной организации – определяющий принцип обеспечения благоприятной социализации дошкольников:

- моделирование адаптивного социализирующего пространства для всех категорий воспитанников с адресным индивидуализированным проектированием адаптационного периода;

- организация диагностического мониторинга в детском саду с выявлением общеобразовательных потребностей обучающихся, особых образовательных потребностей, в том числе – социализирующей направленности;

- эффективное взаимодействие всех педагогов и остального персонала для обеспечения психолого-педагогических условий реализации образовательных и особых образовательных потребностей, в том числе – в социализации воспитанников;

- развитие в ДОО адаптивного и вместе с тем социально активного образовательного пространства с функцией проектирования и реализации индивидуального социально-образовательного маршрута ребёнка в контексте общего образовательного процесса;

- адресное проектирование процесса интеграции обучающихся в школьное образовательное пространство с учётом возможностей организаций и перспектив развития будущего школьника;

- выявление индивидуальных способностей и приоритетов детей и разработка условий для их реализации, самоактуализации личности, субъектно-деятельностного ресурса обучающихся;

- плановая цифровизация социально-образовательного пространства ДОО и семьи для обеспечения информационной открытости и привлекательности расширения коммуникативной занятости обучающихся в различных средах и сферах, создания перспективных направлений саморазвития коммуникативно-компетентностного ресурса и амбиций обучающихся, фиксации достижений и результатов дошкольников и их семей, возможностей для повторения и варьирования словесных, коммуникативно-социальных форм взаимодействия и сотрудничества, социальных ролей и портретов обучающихся;

- моделирование и актуализация проектных, креативных форм занятости обучающихся и педагогов как обязательного условия самораскрытия личности и её социальной готовности в субъектно-деятельностном сотрудничестве взрослых и детей, образовательной организации и семей воспитанников;

- повышение роли проводимой работы через широкое общественное информирование о мероприятиях ДОО, достижениях детей и их семей, предложениях, дальнейших планах организации;

- структурирование социально-образовательного пространства ДОО адекватно решаемым задачам социализации дошкольников различных категорий, с тем чтобы эти процессы становились моделями саморазвития и интеграции: субъектно-деятельностной,

культурно-лингвистической, социально-образовательной, обеспечивая благоприятное ответственное единство всех участников созидательного сотрудничества.

Таким образом, для обеспечения адресных психолого-педагогических условий социализации обучающихся с нарушениями речи при билингвизме необходимо объединить усилия родителей и образовательной организации, учреждений дополнительного образования и средовых форм поддержки для эффективного решения задач общеобразовательного плана, симптоматического (то есть помощи в преодолению проблем, связанных с речевой дисфункцией, декомпенсированным билингвизмом, специфическими проблемами социализации [16; 17]) и перспективно предполагаемыми трудностями школьного обучения в благоприятном психоэмоциональном климате с самоактуализацией личностно-деятельностного статуса обучающихся, их проектно-креативных ресурсов [1].

Трудно переоценить отягощения и риски социально-образовательного, психоэмоционального, экономического характера, обусловленные растущим совокупным воздействием на состояние современного детства и их микросоциального окружения [2], образовательной среды взаимодействием декомпенсированного билингвизма и нарушения речевого развития обучающихся различных возрастных и социальных групп, в особенности –дошкольного периода развития.

Сопутствующие и вторичные компоненты дизонтогенеза, декомпенсации, десоциализации обучающихся [4; 5] нарастают в сложной прогрессии. Своевременный ответ образовательных систем и научных сообществ предполагает динамическое и перспективное изучение проблематики данного кластера и своевременное моделирование адресных психолого-педагогических условий поддержки детей и их семей.

Список литературы:

1. Андреева И.А. Исследование уровня социально-коммуникативного развития детей дошкольного возраста / И.А. Андреева // Научно-педагогическое обозрение. Педагогика дошкольного образования. — 2014. — No4. – С. 7-11.

2. Баженова О.В. Особенности двуязычного воспитания или как вырастить успешного ребенка. – Киров, 2016. – 352с.

3. Гидденс Э. Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. 704 с.

4. Дети-билингвы в детском саду. Методическое пособие. Под редакцией Н.В. Микляевой. ООО “ТЦ Сфера”, 2011.

5. Дюжакова, М.В. Педагогическая поддержка детей-мигрантов [Текст] / М. Дюжакова // Сельская школа. - 2014 - No 1 - С. 57-62

6. Ковалева. Психологическое сопровождение процесса адаптации представителей разных культур в условиях образовательного учреждения / // Культурно-историческая психология. – 2010. – No 1. – С. 75-80.

7. Котик Б. С. Межполушарное взаимодействие при осуществлении речи у билингвов. URL: http://www.voppsy.ru/issues/1983/836/836114.htm (дата обращения: 31.03.2017).

8. Протасова Е. Ю., Родина Н. М. Многоязычие в детском возрасте. СПб.: Златоуст, 2005. 276 с.

9. Рыбакова Е.В. Проблемно-ресурсные аспекты дистанционного обучения детей с ОВЗ. – Материалы VI Международной научно-практической конференции «Дистанционные образовательные технологии» на базе Гуманитарно-педагогической академии (филиал) ФГАОУ ВО «КФУ им. В.И. Вернадского» в г. Ялте, 20-22 сентября 2021 г., с. 199-201

10. Рыбакова Е.В.. Султанова Р.М.. Гаязова Г.А.. Интерязыковая готовность обучающихся с ограниченными возможностями здоровья в современной специальной дидактике // Педагогическая наука и педагогическое образование в классическом университете материалы ежегодной Международной научно-практической конференции.

Уфа, 2022, Издательство: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Уфимский университет науки и технологий" (Уфа) DOI: 10.33184/pnipoku-2022-11-27.26

11. Харенкова А.В. Анализ особенностей речевого развития детей-билингвов. Проблемы современного образования. № 2, 2013. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.pmedu.ru/ (дата обращения: 17.12.2021).

12. Хухлаев, О.Е. Интеграция мигрантов в образовательной среде: социально-психологические аспекты. [Текст] /О.Е. Хухлаев, И.М. Кузнецов, М.Ю. Чибисова// Психологическая наука и образование. - 2013 - No 3 - С. 5-17.

13. Чиршева Г. Н. «Языки родителей» при формировании раннего детского билингвизма // Проблемы онтолингвистики – 2009. Материалы международной конференции (17–19 мая 2009 г., Санкт-Петербург). СПб., 2009. С. 67–70.

14. Швейцер, А.Д. Современная социолингвистика / А.Д. Швейцер - М.: Наука, 1976. - 176 с.

15. Шульга Н. П. Некоторые наблюдения над метаязыковой деятельностью детей, осваивающих русский язык как неродной в естественной языковой среде // Проблемы онтолингвистики – 2009. Материалы международной конференции (17–19 мая 2009 г., Санкт-Петербург). С. 233– 234.

16. Adler Max K. Collective and individual bilingualism: a sociolinguist study. 1. Aufl. Hamburg: Buske. 1977. 184 p.

17. Bell R. T. Sociolinguistice L.: B. T. Bats-ford LTD. 1976. 240 p.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI HAMKORLIGI MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILIDIR

Alimov Alisher Yarashevich,
Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahar

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’limda umumiy o‘rta ta’limning keyingi bosqichi bo‘lgan yuqori sinflarda hamda oliy ta’lim muassasalarida uzviylikni ta’minlagan holda matematika o‘qitishda og‘zaki hisoblash texnologiyalari g‘oyasi ilgari surilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: og‘zaki hisoblash, boshlang`ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uzluksiz ta’lim tizimi hamkorligi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o`rin tutadi. Bu masalada “matematik savodxonlik” tushunchasiga duch kelamiz.

Tarixan matematik savodxonlik yoki kompetentlik asosiy arifmetik ko‘nikmalarga ega bo‘lish, xususan, butun sonlar, oddiy va o‘nli kasrlar ustida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajarish, foizlarni hisoblash, sodda geometrik shakllarning yuzi va hajmlarini hisoblash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga olib kelgan[2;14]. Hozirgi vaqtda matematik savodxonlik shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo‘llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyati sifatida qaralmoqda.

Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalardan biri og‘zaki hisoblash texnologiyasi haqida fikr yuritamiz. Chunki, o‘quvchilarning matematik savodxonligi og‘zaki hisoblash malakalarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Birinchi sinfga kelgan bolalar turli oilalardan va turlicha matematik tayyorgarlikka ega bo‘ladilar. Og‘zaki hisoblash o‘quvchilar bilimlarini chuqurlashtirishga va tez hisoblash

malakasini hosil qilishda juda qo‘l keladi. Og‘zaki hisoblash ham boshqa bilimlar sohasi kabi izchillikni va uzviylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, 1-sinfda o‘n ichida raqamlashga o‘rgatish jarayonida 1+9, 2+8, 3+7, 4+6, 5+5 ni hisoblash o‘quvchilarda avtomatlashgan holat darajasidagi malakaga aylanishi lozim. Bu bilimlar asta-sekin rivojlantirilib, 10+90, 20+80, 30+70, 40+60, 50+50 ni hisoblashda, undan keyin ikki xonali sonlarni xona orqali o‘tmasdan 69-18, 60+28 kabi misollarni hisoblashda qo‘llanib, o‘quvchilarda keyingi bosqichda hisoblashlarda unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. 2-sinfda bir xonali sonlarni xona orqali o‘tib qo‘shish va ayirishni o‘rgatishda biroz qiyinchilik paydo bo‘la boshlaydi. Masalan, 9+6 darslik bo‘yicha berilgan topshiriqlarda 9=5+4 yoki 6=1+5 ekanligidan foydalanib quyidagicha hisoblanadi:

1) 9+6=5+4+6=5+(4+6)=5+10=15

2) 9+6=9+1+5=(9+1)+5=10+5=15

Biz yana 9+6 yig‘indini og‘zaki hisoblashga e’tibor beramiz. O‘quvchi berilgan og‘zaki topshiriqni xotirasida qayta-qayta takrorlashi natijasida bajaradi: 9 ga 1 birlik qo‘shamiz, 10 hosil bo‘ladi va 10 ga 6 sonini qo‘shamiz. Hosil bo‘lgan yig‘indi 16 dan dastlab qo‘shgan bir birlikni ayiramiz. Natija 15 hosil bo‘ladi. Bu hisoblashni boshqa konsentrlarda ham qo‘llash mumkin:

Masalan, 82-9 ni og‘zaki hisoblashda ayriluvchi 9 sonini 1 birlikka orttiramiz va 82-10 ni hisoblaymiz. Endi ayirma 72 ni hosil qilib unga birlikni qo‘shamiz natija 73 hosil bo‘ladi. Demak, 82-9=73 ekan. Xuddi shunga o‘xshash 98+74 yig‘indini hisoblashda 98 sonini 2 birlikka orttiramiz va 100 soni hosil bo‘ladi va unga 74 ni qo‘shish qulay 174 soni hosil bo‘ladi, uni 2 birlik kamaytiramiz. Oxirgi natija 172 hosil bo‘ladi. Demak, 98+74=172.

Qo‘shish va ayirishga doir og‘zaki hisoblashda ushbu qoidalarni o‘quvchilarga puxta o‘rgatish o‘rinli deb hisoblaymiz:

1) Agar qo‘shiluvchi bir necha birlik orttirilsa, oxirgi yig‘indi bir necha birlik kamaytiriladi;

2) Agar kamayuvchi bir necha birlik orttirilsa, oxirgi ayirma bir necha birlik orttiriladi.

2-sinfdan boshlab dastur bo‘yicha 10 ga ko‘paytirish o‘rgatiladi. Shu 10 ga ko‘paytirish qoidasidan foydalanib sonlarni hisoblashda arifmetik amal xossalaridan foydalanib og‘zaki hisoblashni quyidagicha o‘rgatish mumkin:

1. Sonni 2 ga ko‘paytirishni hisoblash usulining mohiyati shundan iboratki, har qanday sonni 2 ga ko‘paytirish uchun shu sonni o‘zini o‘ziga qo‘shish kerak, ya’ni 34*2 ko‘paytmani og‘zaki usul bilan hisoblash usuli bo‘yicha 34*2=34+34=68 bo‘ladi.

2. Sonni 5 ga ko‘paytirishni og‘zaki hisoblash usuli orqali 28*5 ni hisoblaymiz: 28*5= 28*10:2= (28*10):2= 280:2= 140;

3. Ketma-ket kelgan sonlarni og‘zaki ko‘paytirish usuli orqali 12*13 ni hisoblaymiz: 12*13= 12*(12+1)= 12*12+12= 144+12= 156;

4. Sonni 25 ga ko‘paytirishni og‘zaki hisoblash usuli:

28*25= 7*4*25= 7*(4*25)= 7*100=700.

Nol bilan tugaydigan sonning o‘zini o‘ziga ko‘paytirishni bilgan holda, masalan, 20*20 ni og‘zaki hisoblash oson. 20*(20= (2*10)*(2*10)=(2*2)*(10*10)=4*100=400. Boshlang‘ich sinfda bu hisoblashni sonni o‘zini o‘ziga ko‘paytirish qoidasi deb kiritish mumkin. Har qanday nol bilan tugaydigan sonning o‘zini o‘ziga ko‘paytirishni bilgan holda sonni undan oldin va undan keyin kelgan sonlar o‘zini o‘ziga ko‘paytirishning og‘zaki hisoblash usuli: masalan, 20(20=400 ekanligini bilgan holda 19*19 ko‘paytmani hisoblaymiz: 400 dan 20+19 yig‘indini ayiramiz. Natija 361, ya’ni 19*19 sonli ifodaning qiymati hosil bo‘ladi. Yana bir misol 21*21=400+20+21=441;

Agar sonni 9, 99, 999 ga ko‘paytirish kerak bo‘lsa, u holda biz qulay usulda hisoblashdan, ya’ni 10-1, 100-1 dan foydalanamiz[1;225].

Masalan, 560*9=560*(10-1) = 5600-560=5040

670*(100-1) =67000-670=66330

O‘quvchi va talabalarning hisoblash malakalarini rivojlantirishda o‘qituvchi ta’lim jarayoniga kirib kelayotgan pedagogik texnologiyalarga, matematika darslarini o‘qitilishi bilan bog‘liq ilg‘or, tajribali o‘qituvchilar tajribasiga tayanishi lozim.

Og‘zaki hisoblashda uzluksiz ta’lim tizimida hamkorlikni ta’minlashni e’tiborga olish lozim. Chunki, boshlang‘ich ta’lim o‘qishni davom ettirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Uzluksiz ta’limning bu har bir bosqichida matematik bilimlarni takrorlash orqali og‘zaki hisoblash bo‘yicha o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishiga erishish lozim.

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning og‘zaki hisoblash bo‘yicha kompetensiyalarini oshirish quyidagilarni hisobga olishi zarur:

-o`quv muhiti va imkoniyatlardan foydalana olish;

- ko‘rsatma, ya’ni yo‘riqnomalarni puxta o‘zlashtirish;

- ta’lim muassasasida rag‘batlantiruvchan o‘quv muhitini yaratish;

o‘qitishda og‘zaki hisoblashni amalga oshirishga yordam beradigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va tezkor tatbiq etishni amalga oshirish;

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash bo‘yicha egallagan matematik malakalari o‘qishning keyingi bosqichlarida va undan keyingi kundalik hayotida kerak bo‘ladigan malakaga aylanib qolmog‘i lozim. Chunki, og‘zaki hisoblashdan foydalanmaslik, borib-borib bilimlarning unutilishiga olib keladi. Shuning uchun uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlikda tashkil etilishi muhim sifat bo‘lib, u ma’lum bosqichda avvalgi bosqich o‘quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta’minlaydi.

Talim oluvchilarga quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- og‘zaki hisoblashga oid topshiriqlarni puxta o‘rganib chiqish lozim;

- takrorlashni muntazam ravishda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- yozma hisoblashni og‘zaki hisoblash bilan birgalikda olib borish;

- og‘zaki hisoblashga doir topshiriqlarni bajarishda barcha ta’lim oluvchilarni iqtidorli deb hisoblash;

- turli rasmlardan, sxemalardan, chizmalardan va didaktik o‘yinli texnologiyalardan foydalanishni amalga oshirish lozim.

Og‘zaki hisoblash o‘quvchilarning xatti-harakatlar bilan bog‘liq holda o‘rgatilsa, ya’ni kundalik hayotida va amaliy faoliyatlarida muntazam foydalanish, o‘quv materiali bilan og‘zaki nutq orqali ishlash va qayta takrorlash yo‘lga qo‘yilsa, o‘qitishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida o`quv fanining dasturi asosida matematikadan o`quv mashg`ulotlarida talabalarning og‘zaki hisoblash malakalari mustahkamlanadi va rivojlantiriladi.

Xulosa shuki, og‘zaki hisoblash ta’lim oluvchilarda tezkorlik fazilatini qaror toptiradi bu esa o‘quvchining vaqtini tejashiga imkon beradi. Ularda tez va to‘g‘ri xulosalar chiqarish malakalarini hosil bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) Jumayev M.E.Tadjiyeva Z.G.Boshlangich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005, - 312 bet

2) Ismailov A.A. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash – T.: “Sharq”, 2019, – 112 bet.

THE TECHNOLOGY OF APPLYING THE "4 K" MODEL IN PRIMARY EDUCATION

Aslanova Nozima Khakimovna

Doctor of Philosophy, Teachers trening centre, Bukhara Uzbekistan

Har qanday ta'lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun u ta'lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga xos bo‘lib, ayniqsa, kichik maktab yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ yondashuvlar asosida turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlash murakkab vazifa sanaladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni har

tomonlama to‘g‘ri tashkil etish, samaradorlikka erishish hamda keng ko‘lamli sifatli axborotlardan foydalanishga bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarga ta’lim berish, ularning bilimlarini oshirishda zamon bilan hamnafas ravishda mustaqil va ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish, o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi[1].

“Odamlar o‘qishdan to‘xtashlari bilan fikrlashdan to‘xtaydilar”, degan edi fransuz faylasufi Deni Didro. Ko‘pgina olimlar, psixologlar va o‘qituvchilar ko‘p yillardan buyon o‘qish jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishi ustida ish olib borganlar. Kichik maktab o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi V.P. Ostrogorskiy, N.A. Rubakina, M.A. Ribnikova, L.S. Vigotskiy, L.A. Mosunova, A.G. Asmolov, L.Yu. Nevuyeva, A.A. Zubchenko, M.P. Voyushina, V.P. Sinenko, N.N. Svetlovskaya kabi olimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik ular o‘qish jarayonini qanday tashkil etish kerakligini, o‘quvchilar matn ustida ishlash shakllarini aniqladilar va tavsifladilar.

Darslarda didaktik va zamonaviy texnik vositalardan doimiy foydalanish, ta’limiy o‘yinlar va vaziyatlarni joriy etish, xalqaro darajadagi va turli murakkablikdagi faollashtiruvchi test topshiriqlaridan, innovatsion texnologiya va usullaridan keng foydalanish o‘quvchilarni barcha fanlarni tushunish, tahlil qilish, bilimlarni qiziqib amaliyotga qo‘llashlariga olib keladi[3].

4 “K” modelining mazmuni quyidagi k**o‘**nikmalarni shakllantirishni **o‘**z ichiga oladi. Uning tarkibida 4 ta “K” harfi bilan boshlanadigan tushunchalar **o‘**z aksini topgan.

1. **Kritik (tanqidiy) fikrlash** (critical thinking) ko‘nikmasi;
2. **Kreativlik** (creative thinking) ko‘nikmasi;
3. **Kommunikatsiya** (communication) ko‘nikmasi;
4. **Kooperatsiya yoki kollaboratsiya** (coordinating with others) ko‘nikmalari.

“4K” ko‘nikmalar quyidagi mazmunga ega.

Kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking) ko‘nikmasi:

- **tahlil** - topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo‘lish, masalalarni yechishning ma’lum ketma-ketlikka ega bo‘lgan tizimli algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- baholash – olinadigan ma'lumotlarining sifatli qabul qilish qobiliyati;
- tushuntirish - o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog‘liq izchil fikr bildirish;
- maqsadlarni belgilash – erishishga yo‘naltirilgan maqsadni to‘g‘ri shakllantirish, mavjud ma’lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- o‘zini boshqara bilish - o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalar asosida tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- modellashtirish - amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhumdan ma’lum model bilan almashtirish qobiliyati;
- o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtali nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish asosida o‘lchovlarni rejalashtirish va amalda qo‘llash amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- strategik fikrlash vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Kreativlik (creative thinking) ko‘nikmasi:

- qiziquvchanlik - tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;
- tasavvur - ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- optimallashtirish - maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;
- g‘oyalarni rivojlantirish - g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi malumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish (communication) ko‘nikmasi

- muloqotda cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot jarayonidagi turli vaziyatlarni tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqalarning fikrini tinglashni o‘rganish;
- o‘z ijobiy obrazining shakllantirishga erishish;
- o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalay olish amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash (coordinating with others) ko‘nikmasi

- umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;
- ijtimoiy o‘zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;
- o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;
- o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
- mustaqillik tashabbuskorlikni namoyish qilishda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf fanlarida qo‘llsh mumkin bo‘lgan quyidagi metodlar o‘quvchilarda aynan **“4 K”** modeli asosida turli ko‘nikmalarni shakllantirishga erishishda yordam beradi.

1-bosqich. (lug‘at ustida ishlash) Matndan narsa va hodisalarning belgisini bildirib, **qanday?, qanaqa?** so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlarni topish vazifasi beriladi. Masalan:

Bugun havo yoqimli. Tabiat go‘zal manzara kasb etmoqda. Sinfda barchaning kayfiyati a’lo. Olisdan ko‘rinayotgan mevali va manzarali daraxtlar betakror tusda ko‘rinish bermoqda. Yomg‘ir hidi anqib turgan salqin havodan to‘yib nafas olging keladi. Kuzning bunday tarovati hech kimni befarq qoldirmaydi.

Dalalardagi hosil yig‘im-terimi qish mavsumining boshlanishidan darak berayotgandek. Bu yilgi mehnatning natijasi barakali bo‘libdi.

2-bosqich. Keyingi jarayonda so‘zlar kommunikativ ko‘nikmalari yaxshi shakllanmagan o‘quvchilarga tarqatiladi. Har bir o‘quvchi qo‘lidagi qog‘ozda mavjud bo‘lgan so‘zni yashirib, uning zid ma’nodoshini boshqalarga aytishga harakat qiladi. “4 K” modelining kommunikativlik va kreativlik jarayonlari amalga oshiriladi. O‘quvchilar qog‘ozda qanday so‘z yashiringanini topishi kerak.

mavjud so‘z	**ishtirokchining so‘zi** (antonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)
yoqimli	**yoqimsiz**	chiroyli	muloyim	yoqimli
go‘zal	**xunuk**	ko‘rkam	xushro‘y	go‘zal
a’lo	**yomon**	zo‘r	ajoyib	a’lo
mevali	**mevasiz**	mevali	sermeva	hosildor
manzarali	**ko‘rimsiz**	maftunkor	ko‘rimli	chiroyli
betakror	**oddiy**	takroriy	odatiy	betakror
salqin	**iliq**	sovuq	salqin	yoqimli
befarq	**e’tiborli**	e’tiborsiz	loqayd	befarq
barakali	**barakasiz**	serhosil	mo‘l	barakali

3-bosqich. Qo‘lida qog‘oz bor o‘quvchi avval qo‘lidagi so‘z topilgan yoki topilmaganini aytadi. So‘ngra qog‘ozni boshqalaga ko‘rsatadi.

4-bosqich. Topilgan so‘zlar muhokama qilinadi va matndagi so‘z o‘rniga qo‘yib ko‘riladi. **Masalan:**

Bugun havo (yoqimli) (chiroyli), (muloyim). Shu so‘zlar to‘g‘ri keladimi?

O‘quvchilar **“ha”** yoki **“yo‘q”,** degan javobni beradilar. Nima uchun **“ha”,** nima uchun **“yo‘q”.** Shunda **“4K”** modelining tanqidiy fikrlash va birgalikda hamkor bo‘lib ishlash ko’nikmalarini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikma va kompetensiyalar sifatida (tayanch va fanga oid kompetensiyalar) kommunikativ ko'nikma, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasi, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik ko‘nikmalarining rivojlanishida “4K” modelini darslarda qo ‘llash juda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limda ona tili, o‘qish, matematika, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda yuqorida keltirilgan ko’rsatmalarga amal qilish hamda ilg‘or tajribalarga murojaat qilish sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

Bibliography:

1. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T., 2001 y.

2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktorlik diss… avtoreferati. – T., 2003 y.

3. Azizova G.G. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. Ped.fanl. bo‘y. fal. dok. diss. avtoref. – T. – 2019 y .

4. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 y.

5. Aslanova N.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari. P. f. b. f. doktorlik. diss… avtoreferati. – T., 2023 y.

6. Kozimova , M. A. qizi, & Samiyeva , S. X. (2023). Oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish mexanizimlairi. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 100–105. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/4681

BO’SH O’ZLASHTIRUVCHI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MAZMUNI

Eliboyeva Lola Suleymanovna
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. O‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish bugungi ta’lim tizimining asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada bo’sh o’zlashtiruvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqari ishlar jarayonida ishlash usullari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: boshlang’ich sinf, sinfdan tashqari ishlar, bo’sh o’zlashtiruvchi, mustaqil ta’lim.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limni rivojlantirish asosiy davr talabi hisoblanadi. Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalaridan to’g’ri foydalanish, ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an’anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynana shu kategoriyalar o’qituvchi pedagogning kasbiy salohiyatini aniqlanishiga asos bo’ladi. Qayd etilgan pedagogik yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mustaqil o‘ylay oladigan tafakkur yuritib to‘g‘ri ma’qqul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak” deb ta’kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o‘z nutqlarida.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayon. O‘qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy dars o‘tish usullaridan foydalanishi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uni samarali amalga oshirish mumkin.

Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlashda sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi.

Bunday mashg‘ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmalar uyushtirish, tabiat qo‘yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to‘garak ishlari (o‘quvchilarning turli to‘garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishi, kolleksiya to‘plashi, texnika, musiqa, tasviriy san’at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug‘ullanishi)ni ko‘rsatish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlarning ta’limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlashdan iboratdir.

Har bir boshlang‘ich sinfda dars berish jarayonida fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarga duch kelamiz. Bu o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi yangi metodikalari qo‘llashi,past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning boshqa tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta’minlash lozim. Shundagina har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olgan va har bir o‘quvchi bilan individual ishlash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi.[3]

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o‘qituvchidan alohida sabot va mas’uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug‘ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o‘tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o‘zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o‘quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg‘ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o‘quvchilardagi ijobiy o‘zgarishlar rag‘batlantirilishi muhim. [4]

Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishdan oldin sinfdan tashqari ish turlari bilan tanishsak. Sinfdan tashqari ishlar quyidagi turlarga bo’linadi:

- To'garaklar tashkil etish
- Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish
- Turli bayramlar va tadbirlar o'tkazish
- Fan olimpiadalari
- Ekskursiyalar
- Adabiy kechalar o'tkazish
- Ko'rik tanlovlar

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda kitobxonlik targ’iboti alohida o’rin tutadi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish darslarining muhim vazifalari:

1. Kitobni targ‘ib qilish. Sinfdan tashqari ishlarga tavsiya qilinadigan asarlar ro‘yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo‘yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi, ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. O‘qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O‘quvchi o‘qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o‘qigan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota—onalari bilan suhbatlashiladi.

3. Sinfdan tashqari ishlar yuzasidan ommaviy ishlar: adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar ular uchun maxsus tayyorlaniladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o‘quvchilari o‘qituvchining ruxsati bilan, tavsiyasi bilan kutubxonaga a’zo bo‘ladi.

5. “O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olishda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalanish

Sinfdan tashqari ishlar darslari o‘quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o‘qish malakalarini ham shakllantiradi. Mustaqil o‘qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo‘linadi:

1.Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Unga darsning bir qismi—17-20 daqiqasi ajratilgani uchun sinfdan tashqari ishlar ma’lumoti deb yuritiladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, o‘qituvchi asarni o‘zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo‘lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e’tibor beradi. Asarni o‘zi o‘qib beradi. O‘quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga o‘rgatiladi, asar mazmunini hikoyalab berishga o‘rgatiladi. O‘qish gigiyenasi, kitobga qanday munosabatda bo‘lish bilan tanishadilar.

2.Boshlang‘ich bosqich. 1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. 1-va 2-bosqichdagi sinfdan tashqari ishlar haftada 1 marta o‘tkaziladi. «Boshlang‘ich bosqich”da 45 daqiqalik dars ajratiladi. Tanlangan mavzu yaxshi o‘qiydigan o‘quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘qitiladi. Asarning oson o‘qiladigan o‘rinlarini bo‘sh o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitish mumkin. Bu ularda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi.

Asar o‘qilgach o‘quvchilar asar nomi, muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, kitobxonlik daftarlariga u haqida qisqa va soddagina qilib muallif, asar nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi.

3. Asosiy bosqich. 2-4 sinfga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar uydagi o‘qish malakalarni mustahkamlanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qiganlariga baho qo‘yiladi. Baho qo‘yishda dastur talablariga asoslaniladi: Sinfning umumiy ishlariga qatnashishi, o‘qigan kitoblarining sifat o‘zlashtirishi me’yoriga, o‘qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e’tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o‘qib keladilar, ularning ayrim o‘rinlarini ifodali o‘qib beradilar, o‘qigan asarlarini o‘zaro taqqoslaydilar.

O‘quv yili davomidagi sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarining hammasi shu tartibda olib boriladi. Darsning boshlanish qismida esa hafta davomida o‘tilgan darslarning o‘quvchilar tomonidan bo‘sh o‘zlashtirilgan o‘rinlarini mustahkamlashga e’tibor beriladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr taqozosi». «Xalq ta’limi», 2004 yil, № 5

3. Sadinovna, K. D., & Qizi, Q. M. J. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA O ‘ZLASHTIRISHI PAST O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKALARI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(4), 11-15.

4. Элибаева, Л. С. (2021). Boshlang ‘ich sinflarda bo ‘sh o ‘zlashtiruvchi o ‘quvchilar faolligini oshirish texnologiyasi: LS Elibayeva Buxoro davlat universiteti, Pedagogika kafedrasi katta o ‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (3), 232-237.

РИСОВАНИЕ ПОД ДИКТОВКУ КАК КОМПОНЕНТ САМОБЫТНОГО РАЗВИТИЯ РЕБЁНКА

Коннова В.Д.,
Студентка Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский университет науки и технологий»
Руководитель Рыбакова Елена Владимировна,
(https://orcid.org/0000-0002-9622-0248), старший преподаватель кафедры педагогики Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский университет науки и технологий»

Изобразительная деятельность – одно из наиболее привлекательных средств самовыражения для детей и взрослых. Рисунок является отображением окружающей действительности [1; 2], внутреннего мира субъекта, личного отношения к реалиям этих важных сторон бытия человека, его воображение, мышления. рефлексии.

В данном русле находят своё место самовыражение, самореализация, самоопределение личности [3; 4]. Ощущение и сознание обучающимся со стороны взрослого активной жизненной позиции, развития личности обучающего способствует более эффективному, целенаправленному освоению ребёнком своих собственных потенциальных возможностей, поскольку он не один на этом важном пути, вдохновляем примером, достижениями авторитетного для него старшего человека, опирается на модель осознаваемого поиска и подсознательной саморегуляции, проектно-креативной самоактуализации педагога. Соответственно, готовясь к педагогическому поприщу либо к продолжению педагогического профессионального пути на более высоком компетентностном уровне, мы должны формировать в своём личном статусе как базовые педагогические навыки, так и субъектно-деятельностный ресурс саморазвития, который станет в дальнейшем динамичной моделью саморазвития [5; 6] для наших обучающихся.

Так, например, под «рисованием под диктовку» мы понимаем последовательное повторение за учителем, рисующим на доске, штрих за штрихом, мазок за мазком. В более широком смысле взаимодействие ведущего и ведомого, противостоя более самобытным действиям обучающегося, создаёт необходимый дискурс, расширяет спектр возможной организации продуктивной деятельности: от более исполнительской, репродуктивной – до самобытной, избирательной, артефактной.

Развивая тему творческой, личностной, избирательной свободы деятельности, заложенной реализуемой образовательными организациями РФ с сентября 2023 года Федеральной образовательной программой, мы убедились, что степени этой свободы осваиваются, рефлексивно изучаются детьми постепенно, опытным и культурологическим путём, становясь их личным социальным капиталом. Образно говоря, дети осваивают более и менее самобытные способы самовыражения, целенаправленно либо спонтанно выбирая вдохновенные или ремесленные, мастеровитые, приводящие к более предсказуемым результатам, формы самоорганизации занятости. Органично обогащаются при этом механизмы формирования и динамики самооценки, самопрогнозирования.

Воображение предполагает создание новых представлений на основе уже имеющегося опыта. Для того, чтобы соответствовать потребностям обучающегося применительно к развитию творческого воображения, педагогу необходимо не только в себе самом развивать такие способности, их позиционирование, самопрезентацию. Важно воспитывать в себе искренний интерес к процессу, продукту и самосознанию обучающегося в творческой деятельности.

Столь же творчески состоятельным, достоверным является и наше собственное обучение – что также закладывает опорную модель программно-компетентностного и проектно-креативного саморазвития обучающихся: мы осваиваем базовые компоненты психолого-педагогической науки и практики, совмещая этот процесс с актуализацией

нашего индивидуального опыта, личностной позиции, творческих возможностей, совместно выявляя при этом педагогические риски, позиции самоконтроля, перспективные направления индивидуального и корпоративного творчества. Презентативная активность наша также разнопланова, начиная от сотрудничества в учебных аудиториях – до научно-волонтёрского сотрудничества, учебно-исследовательской, учебно-методической деятельности, публикационной и издательской занятости.

Сначала ребенок учится манипулировать инструментами и материалами, осваивает основы цветоведения и графических построений, лишь затем, опираясь опыт, ребенок сможет грамотно, эстетически привлекательно передать свою задумку в работе и реализовать потребность в самовыражении. Каким образом мастерство (сейчас иногда «изограмотность» приравнивают к творческой активности детей) сочетается с креативностью и гениальностью? Конечно, путь каждого обучающегося здесь индивидуален, но столь же самобытным должен стать и маршрут самого будущего педагога, чтобы соответствовать потребностям и запросам ребёнка.

В столь эффективно организованном, развивающем сотрудничестве взрослых и детей самооценка, как оценка личностью самой себя, своих возможностей, обогащается, существует во времени и контексте, а не просто может быть выше либо ниже. «Рисование по диктовку» – это «беспроигрышная лотерея», поскольку результат прогнозируется заведомо благоприятный, помощь педагога поддерживает успешность ученика и удовольствие как от конечного продукта, так и от самого процесса изобразительной деятельности. Рисунок, соответствующий критериям положительной оценки, не только мотивирует прилагать усилия, но и помогает школьнику поверить в себя и свои возможности. Сочетая растущие навыки мастерства с избирательной, творческой активностью детей, мы способствуем интеграции осознанно целенаправленных механизмов саморазвития, самооценки, самопрогнозирования детей с проявлениями вдохновения, спонтанной активности, интуиции в различных видах деятельности и самосознания.

Таким образом, подобный подход к преподаванию ИЗО не только помогает сформировать правильную систему знаний, умений и навыков, необходимых для изобразительной деятельности во взаимодействии с растущими креативными возможностями, но и способствуют эффективному развитию самооценки младших школьников.

Использованная литература:

1. Краткий психологический словарь. – Ростов-на-Дону: «ФЕНИКС». Л.А. Карпенко, А.В. Петровский, М.Г. Ярошевский. 1998.
2. Новейший философский словарь. – Минск: Книжный Дом. А. А. Грицанов. 1999.
3. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога). – Екатеринбург. В.С. Безрукова. 2000.
4. Популярная психологическая энциклопедия. – М.: Эксмо. С.С. Степанов. 2005.
5. Рыбакова Е.В. Инклюзия в динамике саморазвития: трансполяция адаптивной обучающей среды / СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ И ЦИФРОВЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА, ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ Сборник материалов III Международной научно-практической конференции. Москва, 2022 Издательство: Общество с ограниченной ответственностью "Издательство АЛЕФ" (Махачкала) DOI: 10.34755/IROK.2022.63.94.012
6. Рыбакова Е.В. Личность педагога - открытая модель саморазвития и интегративной готовности / ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ГЛОБАЛЬНОМ МИРЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА материалы всероссийской научно-практической конференции. Уфа, 2022

Издательство: Башкирский государственный университет (Уфа) DOI: 10.33184/pplvsgm-2022-04-30.7

TARBIYA FANINI O’QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Jabborova O’g’iloy G’ani qizi,
Buxoro davlat universiteti Pedagogika va psixologiya ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar M.Yo.Umurova,
Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan tarbiya fani darslari samaradorligini oshirishda interfaol multimedia vositalaridan foydalanish o‘rni, usullari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia texnologiyalari multimedia vositalari, multimedia ma’ruza, ta’lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanish o‘rni va samaradorligi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Jahonda bo‘layotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, turli xildagi ma’naviy tahdidlar, g’oyaviy kurashlar, keskin qarorlarning qabul qilinishi, tuli mamlakat orasidagi nizolar kuchaygan bir davrda yurtimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, Uchinchi Renesans davrida yurtimiz kelajagi bo‘lgan o‘quvchi yoshlar tarbiyasiga e’tibor davlat siyosatining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekistonning yangi davrida ta’lim-tarbiya masalalarini oqilona yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borib, yurt taraqqiyot, taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar hal etadi.

Mamlakatimizning ertangi kuni intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirish zamirida ma’naviy-axloqiy sifat va fazilatlarga ega kadrlarni tarbiyalashga bevosita bog’liq.

Yuksak insoniy fazilatlardaga ega o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosati intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog’liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Inson o‘zini o‘zragtirishi uchun avvalo ilm-fan, madaniyat, ma’rifat va milliy tarbiyaga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirib, mamlakat va xalqni yuksaklikka ko‘tarishga hissasini qo‘shadigan fuqaroga aylanishi, daxldorlik hissi, uning taraqqiyotini ta’minlash va kelajakga ishonchini oshiradi. O‘zini o‘zgartirishda, albatta, ilm kerak, aqli-zavovat zarur. Shunday ekan, “Ilm o‘rgan, zero, faqir chog‘ingda u mol, boy vaqtingda jamol – ziynatdir”[1],- degan ajdodlarimizning purma’noli nasihatlariga amal qilmog’imiz kerak. Ilmning asosida tarbiya turadi, qaysikim tarbiya bor joyda ilm bo‘ladi, ilm bor joyda yuksalish bo‘ladi.

Ilm-tarbiya maskani bu maktab. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimdagi islohotlarning asosi ma’naviyat, ma’rifat, axloq, odob, tarbiya, tarbiyalanganlikka bog’liq. Bunday sifatlarni yosh avlodga o‘rgatishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya fani zimmasiga to‘g’ri keladi. Tarbiya faning umumiy maktablarga joriy etilishiga bevosita bog’liq. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida, „Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib

[1] Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy IHYOU ULUMID-DIN (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi Birinchi kitob. - Toshkent «Movarounnahr» nashryoti 2007 yil. 15 bet

borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga[1]“ qo‘yish va uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish shu bilan birga multimediali ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari shu jumladan multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Zamonaviy texnologiyalari ta’lim jarayoniga joriy etilgandan so‘ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta’lim vositalari ta’lim muassasalari tomonidan keng qo‘llaniladi. Ushbu o‘rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o‘rganish imkonini beradi.

Multimediali texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimedianing eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta’sir o‘tkaza olishga qodirlik hisoblanadi.

Interfaol multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Ta’lim tizimida interfaol multimedia texnologiyalarida an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanadi. Bu esa o‘quvchilarni mashg‘ulotlarda faolroq va diqqatliroq bo‘lishga o‘rgatadi, chunki axborotlar ma’lum bir harakatli amallarga mos javoblar asosida bayon qilinadi. Chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya fani nazariy materiallarni o‘rganishni amalga oshirish uchun video va interfaol multimedia ma’ruzalaridan iborat multimedia o‘quv kurslaridan foydalaniladi . Video ma’ruzada o‘qituvchining yoki voqea qahramoni hikoyasi video plyonkaga yozib olinadi. Unga montaj usuli bilan ma’ruzani ko‘rgazmaliroq qilish uchun multimedia ilovalarini qo‘shish mumkin. Bundan qo‘shimcha nafaqat ma’ruzani boyitadi, balki uni o’quvchilar uchun jonli va qiziqarli bayon qilinilishini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida fanlarni interfaol multimedia vositalari asosida o‘qitishda quyidagilarga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi:

multimedia vositalarida oddiyroq, tushunarliroq ohanglardan hamda milliy musiqalardan foydalanishga;

tasvirlarning mohiyati jonli ovoz, tovush va nutq vositalarida oro‘ali aniq va ravon yoritilishiga;

multimedia vositalarida barcha matn, tasvir, rasm, chizma va jadvallar imkon darajasida harakatli holatda ekranga uzatilishiga;

ko‘rgazmalilik multimedia vositalarining asosini tashkil etishiga.

Interfaol multimedia texnologiyalari vositalari real sharoitda amalga oshiriladigan trenajyorlar, modellar va laboratoriya ishlarini yaratish imkonini beradi.

Ta’lim tizimida interfaol multimedia texnologiyalari asosida o‘qitishning asosiy o‘quv-uslubiy va dasturiy ta’minoti - gipermatn, video va audio-ilovalar, animatsiyalar, katta sondagi namoyish materiallaridan foydalaniladigan multimediali o‘quv qo‘llanmalari hisoblanadi. SHuning uchun ularni yaratishda didaktik va pedagogik-psixologik tamoyillarga asoslanish kerak bo‘ladi.

Interfaol multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o‘zlashtirish imkoni bor;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, -T.: 26.03.2021 yil

ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

ta’lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

o‘qituvchi sinfda bo‘lishi shart emas;

olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddatsaqlanib,kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniga erishiladi.

Interfaol multimedia vositalari asosida fanlarni o‘qitish ma’lum bir miqdorda ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minlash muammosini hal qilish mumkin. Interfaol multimedia o‘quv kurslarida o‘quv materiallarini to‘ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko‘rgazmali vositalari alohida ko‘rgazmali jadvallar, grafik sxemalar , rasmlar va hokozalardan iborat bo‘lgan slaydlar, ovozli va harakatli videofilьmlar va boshqa shunga o‘xshash ko‘rgazmali nazariy va amaliy aniamatsion materiallar orqali tasvirlanilishi mumkin.

Interfaol multimediya vositalari o‘rganilayotgan mavzu to‘g‘risidagi har bir axborotni harakatli, ovozli va videoli ko‘rinishlarda bayon qilib berish va katta hajmdagi axborotni uzatish uchun ketadigan vaqtni tejash bilan birga , ularni yangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Interfaol multimediya vositalari orqali o‘qitish o‘quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko‘lamda tizimga keltirishga ko‘maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to‘liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o‘tish imkonini beradi.Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o‘zgacha o‘rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637 son

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017 . 229-230 бетлар.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori

4. Allaberganova M.X. Informatikadan interaktiv o‘quv majmualar yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish. P.f.n. darajasini olish uchun dis. avtoreferati - Toshkent: MCHJ “Fan va ta’lim poligraf”. - 2012 y.-22 b.

5. Suyarov A.M. Ta’lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanishning imkonoyatlari Международный научный журнал № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» февраль, 2023 г

6.Umurova M. Y. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarmi maktab ta’limiga moslashtirish metod, vosita va usullari //Ekonomika i sotsium. – 2021. – №. 12-1 (91). – S. 639-642.

7.Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.

TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA

O.O.Xonzafarov,
BuXDU Pedagogika va psixologiya 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: B.T.Jurayev,
BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti

Dunyoda qadimdan ko’plab xalqlar birgalikda istiqomat qilib keladi. Har bir millatning o’z tili, dini, an’analari, urf-odatlari, qadriyatlari, xulq-atvori va fikr-mulohazalari mavjud. Endi savol tug’iladi. Agar, birgalikda yashayotgan xalaqlar bir-birining dini, tili, urf-odatlarini va boshqalarni yoki boshqa bir millatdoshining qarashlari, fikri, dunyoqarashini qabul qilmasachi?

Bu savol quyidagi boshqa savollarni keltirib chiqaradi: Bunday mamalakatning rivojlanishi bo'ladimi? Bunday mamlakat hududida ichki tinchlik bo'ladimi? Va bu mamlakatda ruxan va jismonan sog'lom bo'lgan, ma'nan yetuk bo'lgan, iqtidorli, hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan, barkamol shaxslarni tarbiyalay olamizmi?

Bu savollarga bitta javob bo'lishi mumkin, u ham bo'lsa "Yo'q". Bu muammolarga bitta yechim bo'lishi mumkin, bu "Tolerantlik".

Tolerantlik lotinchadan olingan bo'lib "sabr-toqat", "bag'rikenglik" degan ma'nolarni anglatadi. O'zgalarning xulq-atvori, turmush tarzi, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, dini, tili, millatiga nisbatan toqatli bo'lishdir. Tolerantlik – o'zgalarning urf-odatlari, qadriyatlari, an'analari, qarashlari, g'oyalari, odatlariga nisbatan sabr-toqatli bo'lish. Ya'ni bag'rikenglik boshqalarni hurmat qilish, ularni boricha qabul qilish. Bu dunyoda har bir inson individual va har bir inson boshqa insonlarni boricha qabul qilishi lozim. Bu dunyodagi barcha manlakatlarning qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Har bir inson millati, tili, dinidan qatiy nazar teng huquqli.

Psixasamatika sohasida faoliyat olib borgan Valeriy Sinelnikov o'zining "Dardingni sev" kitobida tolerantlikning shakllanmaganligi, boshqa millat yoki boshqa insonlarga nisbatan salbiy munosabatlar turli xildagi kasalliklarni keltirib chiqarishini yozgan. Masalan:

Doimiy boshqa millat vakillari yoki boshqa shaxslarni tanqid qiladigan, ular ustidan doimiy shikoyat qiladigan, ularga nisbatan norozi kayfiyatda yuradigan odamlar bo'gimlar va tomoq og'rig'iga duchor bo'ladi. Revmatizm bunday odamlarning asosiy kasalligi hisoblanadi.

Boshqa odamlarni yoqtirmaslik, hazar qilish insonda quyidagi og'ir kasalliklarni keltirib chiqaradi: Onkologiya(turli xildagi o'simtalar),teri kasalliklari,psoriaz (yuqmaydigan surunkali teri kasalligi),ichkilikbozlik,nashavandlik,oshqozon yarasi.

Ushbu kasalliklarning barchasi insonlarni boricha qabul qila olmaslik naijasidir. Ularni yoqtirmaslik va ulardan hazar qilish insonning o'z-o'zini yo'q qilish programmasini harakarga keltiradi. Bu jarayonning salbiy oqibatlari inson tanasidagi turli o'simtalarda, uning terisida, oshqozonida, turli xil vositalarga bog'lanib qolishida namoyon bo'ladi. Agarda bu jarayon xomilador ayolda kuzatilsa, bu uning o'ziga ham, farzandiga ham ta'sir qiladi. Bolaning yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar bilan tug'ilishi yoki nobud bo'lish ehtimoli juda yuqori.

Boshqa millat vakillari yoki insonlarga nisbatan kuchli nafratning bo'lishi insonda quyidagi kasalliklarni keltirib chiqaradi: Epilepsiya (Tutqanoq),parkinson kasalligi,bosh jaroxati yoki boshqa kasalliklar,migren,ko'z kasalliklari,turli xildagi o'smalar,falajlik,og'ir teri kasalliklari.

Nafrat – bu yomon ko'rishning oxirgi darajasi. Nafrat insondagi eng yomon tuyg'u. Nafrat bu qotillik. O'zgalarga nisbatan emas insonning o'ziga qaratilgan qotillik. Ushbu tuyg'u insonni ich-ichidan yemiradi, barcha boshqa kasalliklar, salbiy va ijobiy tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadi, sekin asta portlab yo'q qiladigan bomba. Nafrat qanchalik kuchli bo'lsa kasallik shunchalik og'ir bo'ladi.

Turli sabablarga ko'ra erkaklardan nafratlanadigan ayol yoki ayollardan nafratlanadigan erkaklar juda kata ehtimol bilan bepushtlikka chalinadi. "Seni yomon ko'raman", "Seni ko'zim ko'rmasin", "Seni ko'rishni istamayman" kabi gaplar bilan o'z nafratiga zeb beradigan odamlar turli xildagi ko'z kasalliklariga chalinishadi. Xulosa qilib aytganda o'z istaklariga erishishadi. Ya'ni: o'sha odamlarni (narsalarni) va atrofidagi dunyoni ko'rishdan mahrum bo'lishadi.

Yuqoridagi kasalliklarning barchasi ota-onadan farzandga o'tib, jismonanan zaif bolalarni paydo qiladi.

Bu mavzuda o'z fikrini bayon qilgan Artem Tolokonin tolerantlikning shakllanmaganligi jamiyatda doimiy konfliktlarning vujudga kelishini va uning natijasida turli xildagi kasalliklar kelib chiqishini takidlaydi. Bularga misol qilib quyidagi kasalliklarni aytib o'tgan: Turli og'ir teri kasalliklari, har xil allergik kasalliklar, og'ir oshqazon-ichak kasalliklari, hazm qilish va ayirish sohasidagi kasalliklar, suyak, muskul va bo'g'im kasalliklari, qon aylanish sistemasining buzilishi, ko'rish sistemasiga ziyon yetishi, qandli diabet kasalligi, depressiyaga tushish, uyquning buzilishi, nevroz kasalliklari, ortiqcha vazn bilan bog'liq kasalliklar.

Hozirgi davrda insonlarda eng ko’p uchraydigan kasalliklardan biri qandli diabet. Bu kasallik bilan og’riydigan odamlar janjallashishga va konfliktlarni keltirib chiqarishga moyil bo’ladi. Konfliktlar nafrat tuyg’usiga yo’l ochib beradi. Konflikt natijasida vujudga keladigan bosim insonning terisiga, muskullariga, suyaklariga ulardan o’tib oshqozoni, ichaklari, hazm qilish va ayirish sohasi, immunitetiga og’ir zarba beradi. Albatta, odamlar buni birdaniga his qilmaydi. Konfliktning natijasi kasallikning ilk ko’rinishlari namoyon bo’lganda va agar oldi olinmasa kasallik o’zining eng yuqori darajasiga yetganda bilinadi.

Bundan shuni anglash mumkinki tolerantlikning shakllanmaganligi jamiyatda nafaqat notinchlik, rivojlanishdan ortda qolishga balki nosog’lom jamiyatning vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Shu sababdan ham tolerantlikni insonlarda shakllantirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ham ruxan, ham jismonan nosog’lom jamiyat bilan rivojlanib bo’lmaydi. Buning uchun eng avvalo jamiyatni sog’lomlashtirish zaruz. Bag’rikeng millatni shakllantirish oiladan, maktab ostonasidan bolalarga to’g’ri tarbiya berishdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Jamoldinova O.R. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan. dok. – T., 2015.
2. Valeriy Sinelnikov Dardingni sev kitobi. – T.: “Navro’z” nashriyoti 2019.
3. Артем Толоконин Практическая психосоматика. – Т.: Москва 2021.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUVCHILARNING OG’ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Azimova Umida Latipovna,
Buxoro shahar 20-son umumta’lim maktabining oliy toifali boshlang’ich sinf o’qituvchisi, “Xalq ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni sohibasi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim texnologiyalari va 4K modeliga asoslangan interfaol metodlarning o’quvchilarning og’zaki va yozma hisob malakalarini rivojlantirishdagi ahamiyati, darsda o’quvchilar faolligini oshirib ular orasida do’stona muhitni yuzaga keltiruvchi omil ekanligi, ularning komil inson bo’lib yetishishlarida hayotiy ko’nikma va axloqiy sifatlarning shakllantirishdagi o’rni va mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: 4K modeli, innovatsion metodlar, interfaol, “Tengini top”, “Hozirjavob qalpoqchalar” metodi, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik, Kenguru, TIMS.

O’sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash azal- azaldan milliy pedagogikamiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo’lib kelgan. Bu mas’uliyatni ado etish esa birinchi navbatda boshlang’ich sinf o’qituvchilari zimmasiga yuklangan. Barchamizga ayonki, boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’z kasbining chin fidoyisi, bilimdoni, jonkuyar, ijodkor ustoz bo’lsagina, Vatanimiz kelajagi bo’lgan yosh avlod ta’lim- tarbiyasining poydevori pishiq va mustahkam bo’ladi.

Poydevor qanchalik mustahkam bo’lsa, imoratning umri shunchalik uzun bo’lganidek, o’quvchilarga 1-sinfdayoq puxta bilim berilsa, shu o’quvchi keyinchalik har qanday murakkab dasturlarni qiynalmay o’zlashtira oladi. Buning uchun shu poydevorni yaratuvchisi ya’ni boshlang’ich sinf o’qituvchisi tinmay o’z ustida ishlashi, izlanishi kerak bo’ladi. Boshlang’ich ta’limning muhim jihatlaridan biri o’quvchilarda og’zaki hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Hammamizga ma’lumki, 2023-2024- o’quv yilida umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinflari uchun 4 K modeliga asoslangan matematika fanidan yangi, avvalgiga qaraganda bir muncha murakkab mavzularni o’z ichiga olgan darslik joriy qilindi. Lekin, biz bilamizki, o’quvchilarning hammasi ham iqtidorli emas. Bu darslikda berilgan materiallarni sinfdagi barcha o’quvchilar birdek o’zlashtira olishmaydi. Darslikdan o’rin olgan murakkab

tenglamalar, kasrlar, murakkab masalalar, fazoviy jismlar va geometrik mazmundagi masalalar ba’zi o’quvchilar uchun murakkablik qiladi. Noto’g’ri kasrlar, o’nli kasrlar va ular ustida amallar bajarish mavzulari esa 5-sinf dasturlaridan joy olgan edi.

Ushbu mavzularni o’quvchilar yaxshi o’zlashtirishlari uchun o’quvchilarning mantiqiy fikrlashi, dunyoqarashi, ularning tafakkurini kamol toptirish, og’zaki hisob malakalarini rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratish lozim.

O’quvchilarning og’zaki va yozma hisoblash qobiliyatlari yuqori darajada bo’lishi esa darslarni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etish, ilg’or metod va usullar, hisoblashning oson va qulay usullari yordamida, o’yinlar orqali o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini orttirishga erishishga bog’liq.

Men o’z darslarimda o’quvchilarimning og’zaki va yozma hisob malakalarini rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan va usullardan foydalanaman.

“ Tengini top “ metodi.

Bu metod men foydalanadigan va o’quvchilarimni qiziqtirib qo’ygan metodlardan biri bo’lib, darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Bu metoddan foydalanishda men futbol to’pini andaza qilib olganman. Chunki futbol o’yiniga ham o’g’il bolalar, ham qiz bolalar birdek qiziqishadi. Undagi rang- barang topshiriqlar esa undanda qiziqarli. Bu usuldagi topshiriqlarni o’qituvchi o’z o’quvchilarining bilim salohiyatini hisobga olgan holda murakkab yoki yengilroq variantda tayyorlashi mumkin. Bu topshiriqni har bir o’quvchi uchun individual tarzda har xil variantda ham tayyorlashi mumkin, butun sinf uchun bir xil variantda tayyorlab, topshiriq mazmuni bilan monitor orqali tanishtirishi yoki A 3 qog’ozida ham tayyorlashi mumkin.

Quyida “ Tengini top “ metodining sinflar kesimida tayyorlangan variantlarini namuna tariqasida keltirmoqchiman.

Futbol to’pining har bir ajratib ko’rsatilgan xonasiga misollar yoziladi va o’quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi.

“ Tengini top “ metodi 3- sinf uchun.

1. Javobi 1/2 ga teng bo’lgan sonlarni qizil rangga bo’yang.
2. Javobi 1/3 ga teng bo’lgan sonlarni sariq rangga bo’yang.
3. Javobi 1/5 ga teng bo’lgan sonlarni yashil rangga bo’yang

“ Tengini top “ metodi 4-sinf uchun.

a) Sonlar koordinatasida 1/2 ga teng bo’lgan sonlarni qizil rangli,
b) Sonlar koordinatasida 1/3 ga teng bo’lgan sonlarni sariq rangli,
c) Sonlar koordinatasida 1/5 ga teng bo’lgan sonlarni yashil rangli diagrammada belgilang.



O’quvchilar misollarni yechadilar va topshiriqni bajarib koptokni belgilangan ranglarga bo’yaydilar, koordinata o’qida diagrammalarda aks ettiradilar. Topshiriq tekshirilgach o’qituvchi tomonidan uch xil rang svetofor ranglarini eslatishi va yo’l harakati qoidalariga rioya qilishlari lozimligi, mashinalar qatnaydigan ko’chada o’ynash mumkin emasligi va koptok o’ynaganda maxsus belgilangan maydonda o’ynash lozimligi uqtiriladi.

“Hozirjavob qalpoqchalar” metodi.

Bu metoddan barcha fanlarda foydalanish mumkin. Ayniqsa, matematika fanida masalalarni yechish jarayoniga juda mos keladi. Masalalarni yechishning bosqichma- bosqich amalaga oshirilishi, a’lo natijalar garovidir. Bu metoddan ayni shu maqsadda foydalaniladi. Bunda qalpoqchalarning soni 6 ta bo’lib, ranglari har xil, oq, qizil, qora, sariq, yashil va ko’k ranglarda bo’ladi. Har bir qalpoqcha o’quvchilar zimmasiga ma’lum bir vazifani yuklaydi. Qalpoqni kiygan o’quvchi o’sha qalpoqqa tegishli bo’lgan shartni bajarishi lozim bo’ladi.

1. Oq qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning shartini o’qiydi.
2. Qizil qalpoqchani kiygan o’quvchi masalada nima haqda gap ketayotganligi haqida fikr bildiradi.
3. Qora qalpoqchani kiygan o’quvchi masalada nimalar ma’lum, nimalar noma’lum ekanligini aniqlab beradi.
4. Sariq qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning qisqa shartini tuzadi va chiqib xattaxtaga yozadi.
5. Yashil qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning yechimini aytadi va yozadi,
6. Ko’k qalpoqchani kiygan o’quvchi esa masalaning javobini aytadi va yozadi.

Bu metod o’z nomi bilan o’quvchilardan hozirjavoblikni talab qiladi. Ushbu metoddan foydalanilganda sinfdagi har bir o’quvchi “Balki, qalpoqni kiyish menga topshirilar?” - degan fikr bilan qalpoqlardagi har bir savolga tayyor bo’lib turadi. Shu orqali sinfdagi barcha o’quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi oshiriladi.

Ushbu metod “Algoritm” metodining davomchisi bo’lib, o’quvchilarning masala yechish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Har bir qalpoqcha qanday vazifani bajarishi o’quvchilar ongida muhrlanib qoladi. Bu esa masalani bosqichma- bosqich, tahlil qilib bajarish

ko’nikmasini hosil qiladi. Bu esa ayni damda masalani tez, oson va to’g’ri yechishning garovi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablari matematika dasturiga taalluqli masalalar boshlang’ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o’zlashtirilishi kerakki, o’quvchilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolsin.Shu bois boshlang’ich sinf o’qituvchisi ayniqsa birinchi va ikkinchi sinflarda mas’uliyatni har qachongidan ko’ra chuqurroq his qilishi, hamda qunt va sabr bilan ishlashiga tog’ri keladi.

Yuqoridagi metodlar o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirish va mavzularni chuqur o’zlashtirib, uzoq vaqt bolalar yodida saqlanib qolishida, ularning og’zaki va yozma hisob malakalarini rivojlantirishda, kreativlikni shakllantirishda, kritik fikrlash va kommunikativlikka o’rgatishda, motivatsiya berishda, o’quvchilarni xalqaro yo’nalishdagi Kehguru va TIMS tanlovida ishtirok etish malakalarini hosil qilishda turtki bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar.-T.:”Iste’dod jamg’armasi,2008.-180-b.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.-T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.- 275 b.
3. Matematika darsligi 4- sinf I.V.Repyova “Novda edutainment” nashriyoti 2023.

TIL O'RGANISHDA SAMARALI STRATEGIYALAR VA HAMKORLIKDA O'RGANISHNING AHAMIYATI

Ashurova Dildora G‘afurovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar tilni samarali darajada o'rganishi va o'qitish jarayonini mustaqil ravishda rivojlantirishi uchun xizmat qiladigan til o'rganish strategiyalari va ta'lim vositalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, til o 'rganish strategiyalaridan hamkorlikda o'rganish strategiyasi , uning afzalliklari va qiyinchiliklari va uni bartaraf etish yo 'llari haqida ham ilmiy tadqiqotchi Rhoades xulosalari qayt etilgan.

Kalit so‘zlar: til o‘rganish strategiyasi, hamkorlikda o‘rganish strategiyasi, mustaqil ta ‘lim, ta‘lim vositalari, afzallik va qiyinchiliklari

Kirish: Til o'rganish strategiyalari, talabalarning tilni ustuvor darajada o'rganishini ta'minlash, o'qitish jarayonini mustaqil ravishda rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu strategiyalar, talabalarga tilni o'rganishda o'zlarining uslublarini tanlash, ularning o'z qobiliyatlariga muvofiq keladigan tarzda tilni o'rgatish, va o'quv jarayonini samarali vaqtda tashqi va ichki omillarga moslashtirishni ta'minlash uchun kerakli tadqiqotlar va amaliyotlarga asoslanadi. Shu sababli, til o'rganish strategiyalari, o'qitishning bosqichlarini yuqori darajada mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Til o'rganishda bir nechta samarali strategiyalar mavjud. Bu strategiyalar o'quvchilarga turli usullar orqali tilni o'rganishda yordam berish uchun mo'ljallangan va amaliy o'quv jarayonlarida ishlatiladi. Shunday samarali til o‘rganish strategiyalaridan hisoblangan hamkorlikda organish strategiyasini va o'qituvchilar talabalarga o'quv jarayonida yordam berishi uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ta'lim vositalarini ko'rib chiqamiz.

Hamkorlikda o'rganish nima?

Dr. Spencer Kagan tomonidan 1994 yilda asos solingan, hamkorlikda o'rganish bu o'qituvchilar o'quvchilarga kichik guruhlarda, yakka tartibda emas, birgalikda ishlashlari uchun faoliyatlar va imkoniyatlar taqdim etadigan dars usulidir. Bu olimlar tomonidan tajribalarda isbotlangan quyidagi samarali natijalarni ko‘rsatgan o‘rganish strategiyasidir . Hamkorlikda o‘rganish:

- O'rganish uchun samarali muhit yaratadi;
- Talabalar jalb qilinishini rag'batlantiradi;
- Ishtirok va hamkorlikni maksimal darajada oshiradi;

- Har qanday kontent bilan qo'llanilishi mumkin;
- O'quvchilarni motivatsiyasini oshiradi;
- Turli darajadagi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi.

Nega hamkorlikda o'rganishdan foydalanish kerak?

Kagan fikricha, ta'lim an'anaviy ma'ruza usulidan hamkorlik asosidagi, guruh ishi yondashuviga o'tishi kerak. Talabalar bir-birlari va kurs kontenti bilan ko'proq motivatsiya bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Talabalar faqat ma'ruzada passiv o'quvchilar bo'lganida qaraganda hamkorlikda o‘rganishda ma'lumotlarni yaxshiroq saqlaydilar va faolroq ishtirok etadilar[2]

Hamkorlikda o'rganishda guruhlarni tashkil etish

Judith Rance-Roney (2010) samarali o'rganish va ta'lim uchun talabalarni guruhlarga qanday qilib joylashtirish mumkinligi haqida ko'plab usullarni taqdim etadi. Hamkorlikda o'rganish olib kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun quyidagi jihatlarni o'ylab ko'rish muhimdir: Talabalarni o'quv maqsadlari va faoliyatlarga asoslanib muntazam ravishda guruhlarda aylantirish; mahorat darajasini ro'yxatga olish orqali talabalarni o'xshash darajadagi boshqa talabalar bilan osongina moslashtirib guruh tuzish imkonini berish; turli javob formatlarini loyihalash (ya'ni, boshlang'ich bilim darajasidagi talabalar osonroq savolga javob berishadi, tajribali talabalar esa murakkabroq savolga); guruh yetakchisini tanlash, bu yetakchi o'rganish va faoliyatlarni tashkil qilishda yordam berish uchun rahbarlik, muzokara olib borish xususiyatlariga ega bo'lish; talabalar shaxsiy xususiyatlariga asoslanib boshqa rollarni tanlash, masalan guruhdagi aytib o‘tilgan fikrlarni yozib boruvchi, yozilganlarni boshqa guruhdagilarga hisobot beruvchi, til monitor (yani barcha talabalar o‘rganilayotgan tilda muloqot qilishni nazorat qilish)i va vaqt monitori(belgilangan vaqtda topshiriqni tugatishni nazorat qilish); talabalar o'zlarining ona tilidan foydalanib qiyin mazmunni o'zlashtirishlari uchun ona tiliga asoslangan holda o'quvchilarni guruhlarga ajratish; har bir talabaning akademik bilimlari haqida o'ylab ko'rish, bu orqali o'quvchilar bir-birlariga qiyin tushunchalarni tushuntirishda yordam berishlari mumkin.[1] Tadqiqotchi Rhoades hamkorlikda o'rganishning qiyinchiliklari haqida quyidagilarni aytib o‘tgan :

Tartibsizlik: Talabalar va o'qituvchilar guruh ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ish hajmi va mustaqillikdan qiynalishi mumkin ; o‘rtog'i bilan boshqa mavzularda gaplashishi mumkin,yani talabalar mavzuga aloqador bo'lmagan shaxsiy suhbatlarga kirishishi mumkin;

Shovqin : Guruh ishlari sinfda shovqin darajasini oshirib, sinfdagi boshqa guruhlarni va boshqa sinflarni bezovta qilishi mumkin

Vaqt: Har bir faoliyat uchun eng samarali guruhlarni shakllantirish qo’shimcha qimmatli dars vaqtini talab qilishi mumkin

Tadqiqotchi Rhoades guruhlarda ishlash jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etishning quyidagi yo‘llarini taklif etgan :

1-tavsiya: To'rt kishilik guruhlar tashkil etish tavsiya etiladi, shunda guruh talabalaridan birortasining yo'qligi guruh ishiga kamroq ta'sir qiladi.

2-tavsiya: Dars boshlanishidan oldin partalarni ko'chiring, shunda dars vaqtida bezovtaliklar minimallashtiriladi.

3-tavsiya: Talabalarni juftlikda o'tirishlarini tashkil eting, shunda ular partalarini ko'chirish o'rniga faqat orqalariga o'girilishlari kerak bo'ladi.

4-tavsiya: Yil boshida talabalarning ma'lumotlarini (masalan, ism-shariflari, nimalarni yoqtirishlari, yoqtirmasliklari, tug'ilgan shahri, tili va h.k.) yig'ing, bu yil davomida guruhlarni oson tashkil qilish imkonini beradi.

5-tavsiya: Talabalar guruhlarini kartalarga yozib qo'ying, shunda yil davomida takroriy guruhlashlardan qochiladi.

6-tavsiya: Yil davomida guruhlardagi talabalarni almashtirib turing, shunda talabalar yangi g'oyalar va birgalikda ishlash imkoniyatlarini oladilar.[7]

O'quvchilar strategiyalari: O'qituvchi vositalari

Talabalar o'z o'quv yo'llarini to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish uchun, o'qituvchilar sinfda quyidagi vositalardan foydalanishlari mumkin:

Grafik ustunchalar; haftalik o'quv jurnallari yuritish; talabalar ro'yxati;

O'qituvchi vositasi #1: Grafik ustunchalar

Grafik ustunchalar nima? Bu-vizual xaritalar bo‘lib, o'qituvchilar va talabalar g'oyalari va tushunchalarini vizual tarzda "xaritalash"ga yordam beradi

Nega ularni ishlatishimiz kerak? O'qitishni osonlashtirish uchun amaliy, qo'l bilan ishlash yo'lini ta'minlaydi

Ularni qachon ishlatishimiz kerak? O'qitishdan oldin, o‘qitish davomida va o’qitishdan keyin (masalan, jadvallar, grafiklar, hikoya xaritalari, fikr xaritalari)

O'qituvchi vositasi #2: Haftalik o'quv jurnallari

Haftalik o'quv jurnali nima? O'rganishning rasmiy bo'lmagan baholash turidir

Talabalar ularni kun, hafta oxirida nima o'rganganliklariga asoslanib to'ldiradilar.

Nega ularni ishlatishimiz kerak? Talabalarga o'z o'rganishlarini tashkil qilishga va nima hamda qancha narsa o'rganayotganliklarini tushunishga yordam beradi.

Ularni qachon ishlatishimiz kerak? O'rganishdan keyin taraqqiyotni baholash uchun.

O'qituvchi vositasi #3: Talabalar ro'yxati

Talabalar ro'yxati nima? Bu vazifalarning ro'yxati bo'lib, talabalar topshiriqning oxirigacha bajarilishi kerak bo'lgan vazifalardir.Nega ularni ishlatishimiz kerak?

Talabalar o'zlaridan nimalar kutayotganini tushunishlariga va topshiriqning barcha qismlarini bajarishlariga ishonch hosil qilish uchun.

Ularni qachon ishlatishimiz kerak? Topshiriqtlardan oldin, topshiriqlar vaqtida va keyin.[4]

Yuqorida qayt etilgan o‘qituvchi vositalari yordamida talabalar Passivdan faol o'rganishga o'tadilar, hamkorlikda o'rganish va o'zaro ta'sir uchun imkoniyatlarni yaratadilar, to'rtta tilni integratsiyalashgan faoliyatlarni o'z ichiga oladi, tanqidiy fikrlash va muammo yechishni talab qiladigan faoliyatlarni amalga oshiradilar, o'quvchilarni baholash/sinovdan o'tkazishning boshqa usullarini qo'shadilar.

Xulosa: Talabaning mustaqilligini rag'batlantirish va sinfda o'qituvchi vositalaridan foydalanishni ta'minlash uchun, ta'lim madaniyatini targ'ib qilish muhimdir: Murakkabroq savollarni berish va javob berish, talabalarni o'z o'quv jarayonlarini o'rganishga undash, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida g'oyalar almashish, hamkorlik qiluvchi o'quv usullaridan foydalanib, bir-birlaridan o'rganish va xatolarni qilish va muammolarni birgalikda hal qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rance-Roney, J. (2010). Reconceptualizing Interactional Groups: Grouping Schemes for Maximizing Language Learning. Retrieved January 13, 2018 from https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/10-48-1-d.pdf
2. Kagan, S. (1994). Cooperative learning. San Clemente: Resources for Teachers.
3. O'Malley, J.M., Chamot, A.U., Stewner-Manzanares, G., Kupper, Russo, R.P. (1985). 'Learning strategies used by beginning and intermediate ESL students', Language Learning, 35, 21-46 .
4. Richards, J.C., and Bolhke, D. (2011). Developing learner-centered teaching in Creating Effective Language Lessons. CambridgeUniversity Press, New York, NY.
5. Saul Mcleod. Jerome Bruner’s Theory Of Learning And Cognitive Development https://www.simplypsychology.org/bruner.html
6.Fisher, D. and N. Frey(2008). Better Learning Through Structured Teaching: A Framework for the Gradual Release of Responsibility, Association for Supervision and Curriculum Development, Alexandria, Virginia.
7. Rhoades, G. (2013). Minimizing the Chaos through Cooperative Classroom Management. https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY EHTIYOJLARI VA KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bozorova Nozigul Ramazonovna,
Buxoro tumani 23-maktab Boshlang‘ich ta’lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so’zlar: pedagogning kasbiy rivojlanishiga davlat va jamiyat buyurtmasi, pedagogning kasbiy ehtiyojlari, pedagoglar va o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan turli monitoring natijalari

Davlat ta’lim standartlarining bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi o‘qituvchiga kasbiy faoliyatini sezilarli o‘zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to‘ldiruvchi talablarni qo‘ymoqda. Chunki mazkur standartlar kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo‘lib, ular o‘quvchilarda shunchaki bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz ta’lim olishga, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga layoqatli shaxsni tarkib toptirishga yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi. Bu o‘z navbatida o‘qituvchi kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi o‘rnining o‘zgarishini bildiradi. Ya’ni pedagoglarni ta’lim jarayonidagi jadal o‘zgarishlarga tez moslashish, o‘ta faollik, doimiy o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga tayyorlik, o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari, texnologiyalaridan xabardorlik hamda faoliyatida samarali qo‘llay olish sifatlariga ega bo‘lishi lozimligini anglatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi faqatgina o‘quv dasturlari, darsni tashkil qilish, baholash bilan cheklanmasdan, o‘quvchilarning ichki salohiyatini rivojlantirishi, ularni qiziqtirishi, ergashtira olishi va doimo “bir qadam oldinda” yurishi lozim.

Malaka oshirish kurslari davomidagi kuzatishlar pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, o‘zaro ta’sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari hamda ko‘p ikkilanishlarini ko‘rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, malaka oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o‘zlarini namoyon qilish, pedagogik g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi qaysi subyektlarga murojaat qilishlarini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki salohiyatidan foydalanish, o‘z-o‘zini motivlashtirish, o‘zo‘zini rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, muxtasar aytganda, kasbiy rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilishga qulay sharoitlar yaratishga asosiy e’tiborni qaratish zarur. Ya’ni“Bir tarafdan pedagog doimiy o‘sib borishi, o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lishi, ikkinchi tarafdan, jamiyat tomonidan uning doimiy o‘qishi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim”. Demak, pedagoglar kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuv modeliga shunday sharoit yaratilishining pedagogik kafolati sifatida qaralishi mumkin.

Ilmiy-metodik kuzatuv maqsadi, strategiyalarini belgilashda quyidagi yo‘nalishlarda axborotlarni to‘plash va tahlil qilish jarayonni tashkillashtirishning maqbulligi hamda natijadorligini ta’minlaydi:

- *pedagogning kasbiy rivojlanishiga davlat va jamiyat buyurtmasi:* pedagoglar kasbiy kompetentliligiga qo‘yiladigan davlat talablari, ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan vazifalar tez o‘zgarishining obyektiv sabablari, ijtimoiy-pedagogik omillari, jamiyatdagi o‘zgarishlar, tegishli

muassasalarning ehtiyojlari, jamoat tashkilotlari, o‘quvchilar va ota-onalarining taklif hamda tavsiyalari;

- *pedagogning kasbiy ehtiyojlari:* kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, ehtiyojlari, muammolari, qiyinchiliklarini anglash, aniqlash, korreksiyalash, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat muhitida o‘zining o‘rnini tushunishi, kompetentliligini oshirishga yo‘naltirilgan shaxsiy-istiqbolli dasturini mustaqil shakllantirishi, o‘zini namoyon qilish, ilg‘or tajribalarini ommalashtirish;

- *pedagoglar va o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan turli monitoring natijalari:* maktab metodik birlashmasi faoliyati yakunlari, pedagoglar attestasiyasi, malaka toifalarini belgilash, pedagogik hamda metodik kengash xulosalari, malaka oshirishdan keyingi faoliyatni o‘rganish, turli tanlovlar, ta’lim sifati monitoringi, o‘quvchilar yakuniy attestasiyasi, bilimlar bellashuvi natijalari va boshqalar.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo‘lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. O‘qituvchining kasbiy ehtiyoji bu - uning bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zining o‘rnini tushunishi, kompetentligini oshirishga yo‘naltirilgan shaxsiy istiqbolli dasturini mustaqil shakllantirishi, o‘zini namoyon qilishiga bo‘lgan zaruriyatidir,shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish istagi, potensial imkoniyatlarini anglashga urinish hamdir. O‘qituvchi o‘zidagi mavjud ehtiyojlarni qanchalik tez tashxislasa hamda ularni tan olsa, shunchalik kam kasbiy qiyinchiliklarga uchraydi. tez o‘zidagi qobiliyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Kasbiy qiyinchiliklar deganda, maktab o‘qituvchisining muayyan vaziyatlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar yechimini aniq taqdim etishdagi va samarali ta’minlay oladigan hamda maqsadga yo‘naltirilgan kasbiy harakatni bajarishdagi qiyinchiliklari tushuniladi.

O‘z-o‘zini tarbiya – odamni o‘zini o‘zi takomillashtirish. Kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini o‘zi tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismi o‘z-o‘zini ta’limi, biz o‘z-o‘zini tarbiyalash, biz universal tajriba, uslubiy bilimlarni, uslubiy bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchining maqsadli, xususan, ma’rifiymadaniy faoliyatini tushunamiz Pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun o‘zo‘zini hisoblash uchta yo‘nalish bo‘yicha professional ravishda muhim fazilatlarni rivojlantirish bo‘yicha ongli ishlarni o‘z ichiga oladi:

Pedagogik faoliyat o‘qituvchilarining o‘ziga xos noyob xususiyatlarini moslashtirish;

Kasbiy kompetentsiyada doimiy o‘sish;

Doimiy ravishda ijtimoiy-axloqiy va boshqa shaxsning shaxsiy xususiyatlarini doimiy rivojlantirish.

Kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash, boshqa harakatlar singari, faoliyat manbalari va faoliyat manbalari juda murakkab tizimiga ega. O‘z-o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiruvchi tashqi omillar:

· pedagogik jamoa,

· maktab rahbariyati uslubi

· bo‘sh vaqt omili.

O‘z-o‘zini hisoblash:

1) O‘z-o‘zini bilish O‘z-o‘zini tarbiyalash maqsadlarini to‘g‘ri kiritish uchun, siz o‘zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni bilishingiz kerak, ya’nio‘zingizni bilishingiz kerak. O‘z-o‘zini bilishning eng muhim usullaridan biri bu sizning tajribangiz, ham ijobiy va salbiy tomoni. O‘zingizni bilishning yana bir usuli - boshqalar bilan taqqoslash;

2) o‘z-o‘zini dasturlash;

3) o‘zini-o‘zi harakatlantirish. Usul maqsadga erishish uchun yo‘ldir. O‘zo‘zini tarbiya usullari - o‘zini takomillashtirish usullari. Ularning boshidanko‘rib chiqaylik. O‘z-o‘zini shakllantirish usullari:

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash. Bunga ilmiy-texnik adabiyotlarni o‘qish, maxsus ma’ruzalar, ko‘rgazmalar, muzeylar, doiralar va amaliy muammolarni hal qilish, amaliy muammolarni hal qilish, turli kasbli odamlar bilan aloqa qilish, kitoblar va televizion dasturlar bilan tanishish orqali amalga oshirish orqali amalga oshirish mumkin.

3. Axmetjanov M.M, Tosheva G.Dj “Innovatsion pedagogning o‘quv va metodik faoliyati” Durdona Buxoro 2020 –y. 324- bet.
4. Мусурмонов А. Дидактические основы межпредметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе. //Дисс...канд. пед. наук. Ташкент: 1988, 149 стр.
5. Murodova M. M “Boshlang‘ich sinflarda integrasiyalashgan ta’lim asosida darslarni tashkil etishning roli va ahamiyati” PEDAGOGS jurnali. 5 Том №. 1. C. 243-248
6. Murodova M. M “Bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvchilari faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompetentlik” //Scientific progress// – 2022. – T. 3. –№.1

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA O’RGATISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARINING O‘RNI

Mustafoyeva Dilnoza,
Vobkent tumani 34- maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Zamonaviy jamiyatda axborot kommunikasion texnalogiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq ta’lim jarayonini intensivlash talabi kelib chiqmoqda. Bu masala o‘quvchining ta’limiy imkoniyatlarini namoyon qiluvchi bilish jarayonini boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish va tadbiq etish; faoliyatning reglament bilan cheklanmagan, ijodiy shakllariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, o‘quv materilanini ratsional, to‘g‘ri taqsimlash orqali, bilish jarayonini bir tekis emas, balki, sprial prinsipi asosida kechishini inobatga olgan xolda, yangi ma’lumotni ko‘p darajali ishlovdan o‘tkazgan xolda yetkazish; bilish jarayonining jamoaviy shakllaridan keng foydalanish; ta’lim oluvchilarning ijodiy, tanqidiy fikrlashini rivojluntiruvchi pedagogik muloqot malakalarini takomillashtirish; ta’lim jarayonini o‘zgartirish: maqsad, vazifalarni yangicha belgilash zaruriyati; innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘qitishning yanada samarali, yangi talablarga javob beradigan vositalarini olib kirishni nazarda tutadi.

Olib borilgan izlanishlar qiymatini inkor qilmagan xolda, ta’kidlash lozimki, ularda o‘zbek tilini o‘rgatishda multimedia vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq muammolar to‘liq yechim topmagan: multimedia materialida o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida o‘quvchining ongi, hissiyot va xulq-atvorning ichki birligiga erishishga qaratilgan mediakompetentligini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilmagan; uni samarali shakllantirish talablari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan metod va usullari belgilanmagan; mediakompetenlik, axborot va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijodiy kompetensiyalarning shakllanganligini aniqlash metodikasi ishlab chiqilmagan. Multimedia vositalarni xususiy qo‘llanishi masalasi ham ko‘rib chiqishni talab qiladi: multimedia vositalarining tipologiyasi, ta’lim tizimida ularni ishlab chiqish hamda o‘zbek tilini o‘rgatish jarayoniga kiritishning mazmuni va texnologik tomonlari.

Multimedia vositasi alohida qiziqish uyg‘otib, undan ta’lim jarayonida foydalanish axborotni taqdim etishda ko‘pfunksionallik va spesifik o‘ziga xos xsususiyatlari bilan asoslanadi.

Hozirgi kunda ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lganidek, boshlang‘ich ta’lim tizimida ham o‘qitish jarayonini yaxshilash, sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, o‘quvchilarni har jihatdan yetuk shaxs qilib tarbiyalash masalalari borasida jiddiy o‘sish-o‘zgarishlar, yangilanish va yuksalishlar jadal sur’atlar bilan davom etmoqda. Binobarin, boshlang‘ich ta’lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi bu boradagi amaliy natijalar samarasi ko‘lamini munosib darajada kengaytirmoqda. Bu jarayon o‘zbek tili darslarida o‘ziga xos mazmunda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich ta’lim O‘zbek tili fanida, xususan, multimedia texnologiyasining keng ko‘lamda qo‘llanilishi ta’lim tizimi sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tushuncha va bilimlarning tez va oson o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi. Yuqori natijaga qisqa fursatda erishish imkoniyatini yaratadi. Bunda kompyuter xotirasiga o‘quvchilarning yosh va psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’lumotlar, o‘quv materiallari, tushunchalar, qoidalar kiritilgan bo‘lib, ularning elektron varianti ta’lim berish manbai sifatida xizmat qiladi. Binobarin, boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimedia texnologiyasi variantida texnologik yondashuvni to‘g‘ri tashkil qilish kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining O‘zbek tili fanidan o‘rganiladigan o‘quv materiallarini osonlashtirish maqsadida o‘quv materiallari bir-biri bilan bog‘liq qismlarga ajratiladi, so‘ngra ta’limni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uchun vazifalar ketma-ket bajarilishi rejalashtirilgan bo‘ladi. Bunda, albatta, o‘quv dasturida belgilangan vazifalar, o‘quv mashg‘ulotida rivojlantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar asosiy diqqat markazda turmog‘i lozim. Shuningdek, bu jarayonda “Xotira mashqi”, “So‘z top”, “Rasmlarni to‘g‘ri joylashtir”, “Xatosini top”, “Unlilar imlosi” kabi bir qancha ta’limiy diaktik o‘yinlardan ham mahsuldor foydalanish pedagogik muvaffaqiyat garovidir.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, boshlang‘ich ta’lim o‘zbek tili darslari jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, jumladan, multimedia vositalaridan foydalanish: ta’lim jarayonini faollashtirish; o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirish; o‘quvchilarning mustaqil ravishda ishlash madaniyatini rivojlantirish; ularning ta’lim olishga ijodiy yondoshish ko‘nikmasini hosil qilish; mustaqil ta’lim doirasini kengaytirish orqali o‘quvchilarning fanga oid nutqiy kommunikativ va lingvistik hamda tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish singari bir qator muhim muammolarni yechishda amaliy yordam beradi, ta’lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga ko‘taradi.

Multimedia texnologiyasidan foydalanishda quyidagi tamoil va qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- multimedia texnologiyalari vositasini tayyorlashdan ko‘zlangan maqsadni aniq belgilash;
- multimedia texnologiyalari vositasini mavzuning mazmun-mohiyatiga mos kelishi kerak;
- multimedia texnologiyalari vositasini mavzuning nomi, rejasi ko‘rsatilishi kerak;
- multimedia texnologiyalari vositalarida ma’lumotlarni yozishda imloviy savodxonlikka amal qilish;
- yozuv shriftini tanlashda har xillikka yo‘l qo‘ymaslik, qoraytirib, kursivda beriladigan o‘rinlarni farqlash;
- multimedia texnologiyalari vositasida o‘quvchilarni qiziqtiradigan fanga oid yangi ma’lumotlarni berish;
- qoida, ta’rif va izohlarni lo‘nda, aniq va mazmunli bo‘lishini ta’minlash;
- sahifalarga fon tanlashda o‘ta yorqin ranglardan foydalanmaslik, ranglarni o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishiga yerishish;
- rasm, animatsiyalar tanlashda o‘quvchining yoshi, psixologiyasini hisobga olish.

Bugungi kunda multimdia vositalarini yaratish va namoyish etish yeng samarali va qulay zamonaviy vositaga aylandi. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tili ta’limida multimedia texnologiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi, o‘zga tilni o‘zlashtirishlarida qulayliklar yaratadi, darsni qiziqarli, samarali, zamon talablariga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilganadabiyotlarro‘yxati

1. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta’lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): Ped.fanl.nomz. ... dis., – Toshkent: 2004. – 152 b.
2. O‘zbek tili.4-sinf o‘qituvchilari uchun metodikqo‘llanma / F. Tolipova va boshq. – T.: «O‘zbekistonmilliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3. Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992, 26-26 b.
4. www.rtm.uz \o‘quv-dastur. Ona tili, Adabiyot, O‘zbek tili.

AQLI ZAIF MAKTAB O‘QUVCHILARINING RIVOJLANISHIDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI

Ostonova Umida Usmonovna,
Kogon tumani 1-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya*: ushbu maqolada biz aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishida badiiy adabiyotning rolini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, boshlang'ich maktab o'quvchilari, aqliy zaiflik, o'quvchi qiziqishi.*

Aqli zaif boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining kitobga qiziqishini kamaytirish muammosi yildan-yilga dolzarb bo‘lib bormoqda. Aqli zaif bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxsini shakllantirishga badiiy adabiyotning ta’siri katta. Afsuski, bugungi kunda badiiy adabiyotga qiziqishning pasayish tendentsiyasi yaqqol ko'rinib turibdi: OAVda axborotning haddan tashqari ko'pligi; oilada bolalarni tarbiyalash.

Adabiyotga befarqlik salbiy oqibatlarga olib keladi, xususan, bolalar nutqi, savodxonligi, axloqiy tarbiyasi, ta'sir doirasi, eng muhimi, aql-zakovati yomonlashadi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar N. N. Cherevichnaya, V. P. Yagunkova, A. V. Piontek, Z. N. Klopertanets, P. M. Yakobson, G. Nil badiiy adabiyotni aqliy rivojlanish vositasi deb bilishgan, u axloqiy tuyg'ular va hissiy sohani, estetik idrokni shakllantiradi, deb hisoblashgan. O. V. Tkachenko badiiy asarlarni o‘qish quyidagi muammolarni hal qiladi, deb hisoblaydi: bolaning dunyoqarashi kengayib, chuqurlashadi; kitob orqali bolaga tarbiyaviy ta'sir kuchayadi; kitoblar tilni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yerdan biz badiiy adabiyotning asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Kognitiv funktsiya. Gap shundaki, kichik talaba kitoblardan uni qiziqtirgan hamma narsani o'rganadi. Shunday qilib, u dunyo, tabiat, odamlar, insoniy munosabatlar haqidagi bilimlarini boyitadi va shunga mos ravishda dunyoqarashini kengaytiradi. Bundan tashqari, o‘qish jarayonida o‘quvchi o‘z-o‘zini bilishini ham amalga oshiradi, o‘zining “ma’naviy “men”ini, ya’ni aqliy-axloqiy sifatlarini anglab yetadi, dunyoqarashi shakllanadi. Badiiy adabiyot kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi: xotira, e'tibor, fikrlash, tasavvur.

I. N. Chakova badiiy adabiyot asarlarini o‘qish jarayonida bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, aniq tushuncha va g‘oyalar shakllanadi, deb ta’kidlaydi; u mavhum tushunchalarni o'rganadi va o'z dunyosining ufqlarini kengaytiradi, hayotni tushuntirishni o'rganadi va bir hodisaning ikkinchisi bilan bog'liqligini ko'radi, bu esa voqelik haqidagi bilimlarni beradi.

Badiiy adabiyot bilan tanishish orqali aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchisida faollik, qiziquvchanlik, umumiy madaniyat va bilimdonlik rivojlanadi.

E. A. Flerina ta'kidladiki, adabiy asar tasvirning tayyor og'zaki xususiyatlarini, bola ishlaydigan ta'riflarni beradi. Badiiy ifoda yordamida, hatto maktabgacha, grammatik qoidalarni o'zlashtirishdan oldin, kichik bola tilning grammatik me'yorlarini uning so'z boyligi bilan birlikda amalda o'zlashtiradi.

I. N. Chakovaning ta'kidlashicha, badiiy adabiyot tufayli boshlang'ich sinf o'quvchisining so'z boyligi boyitiladi, bu unga o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda etishga, boshqalarning gaplarini tushunishga va jumlalarni to'g'ri tuzishga yordam beradi.

Estetik funksiya. Haqiqiy san’at asarlari hamisha insoniyatga estetik zavq olib kelgan. Bunday holda, bu so'zdan, hikoya chizig'idan zavqlanishdir. Bundan tashqari, adabiy asar zavq keltiradi va bo'sh vaqtni oladi. Yaxshi kitob haqiqiy badiiy didni rivojlantiradi va insonning xulq-atvori va boshqa odamlar bilan muloqotiga ijobiy ta'sir qiladi. Kitob, shuningdek, insoniyatning asosiy qadriyatlaridan biri sifatida go'zallik haqidagi g'oyalarni rivojlantirishga qodir.

Hissiy sohani rivojlantirish. Badiiy adabiyot o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatadi, unda muayyan fikr va g‘oyalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi; o'quvchi ma'lum darajada tasvirlangan voqealarga sherik bo'ladi. Natijada u tajribaga ega. Ular uch turda keladi:

- asar qahramonlari uchun ichki irodaviy harakatlar va tajribalar. O‘quvchi qahramonning nuqtai nazarini, uning muammo va tashvishlarini oladi va shu pozitsiyalardan asarda tasvirlangan voqea va shaxslarga nazar tashlaydi. Bunday hamdardlik natijasida o‘quvchi qahramonning ichki dunyosini idrok etadi, ya’ni bu yerda hissiy-irodaviy jarayonlar bilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

- shaxsiy o‘quvchining emotsional-irodaviy reaksiyalari: o‘quvchi asarni o‘z nuqtai nazaridan, didi, qarashlari, dunyoqarashi pozitsiyasidan kelib chiqib qabul qiladi. O'quvchi ba'zi qahramonlarga hamdard bo'ladi, boshqalardan nafratlanadi va hokazo;

- asar orqali muallifning shaxsiyatini idrok etish natijasida yuzaga keladigan reaksiyalar: u yoqtiradi yoki yoqtirmaydi, o'quvchi uning axloqiy, g'oyaviy pozitsiyalaridan qoniqadi yoki qoniqmaydi va hokazo.

Ijodiy rivojlanish. Badiiy adabiyotni o'qish ijodiy tasavvurni uyg'otadi, tasavvurni ishlashga imkon beradi va bolalarni tasvirlarda o'ylashga, g'ayrioddiy narsalarni ko'rishga o'rgatadi. Adabiyotning tarbiyaviy vazifasi faqat san'atga xos bo'lgan o'ziga xos tarzda - badiiy obrazning ta'sir kuchi bilan amalga oshiriladi. O‘rnak bo‘ladigan adabiy qahramonlarning nafaqat ijobiy obrazlari tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchisining aqliy rivojlanishida badiiy adabiyotning o'rni shubhasizdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Badiiy adabiyot ko‘p qirrali rivojlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi: u aql-zakovatni, nutqni, ijodiy tasavvurni, axloqiy va axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. Yosh maktab o'quvchilari kitoblar odamlar hayotida alohida ma'noga ega ekanligini, kitob o'qishga qiziqish har bir inson madaniyatining zarur elementi ekanligini tushunishlari kerak. Bu o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Shu munosabat bilan, maxsus (tuzatish) maktab o'qituvchisi faoliyatidagi asosiy maqsad aqli zaif bolalarni kitob sohasi bilan tanishtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishni, adabiy asarlarni tinglash istagini rivojlantirish va ularning rivojlanishini kuzatishdan iborat bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alekseeva, M. M. Nutqni rivojlantirish va maktabgacha yoshdagi bolalarning ona tilini o'rgatish usullari: darslik. nafaqa talabalar uchun yuqoriroq va chorshanba ped. darslik muassasalar / M. M. Alekseeva, V. I. Yashina. - M .: Akademiya, 2000. - 400 b.

2. Kiseleva, E. A. Boshlang'ich maktabda adabiy o'qish darsida badiiy matnni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish / E. A. Kiseleva, T. V. Tsarkova // Молодой ученый. - 2015. - 22.1-son. - 58-60-betlar.

3. Koneva, N. D. Ma'naviy-axloqiy shakllanish jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolar va talabalarni badiiy madaniyat sohasiga kiritish / N. D. Koneva // Tr. xalqaro konf. “Jamiyat, madaniyat, shaxsiyat. Ijtimoiy va gumanitar bilimlarning dolzarb muammolari”. -Orenburg, 2013. - B.150-153.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JONDOR TUMAN TARIXINI O'RGANISHGA OID ASARLARNI GEOGRAFIK TAHLIL QILISH

D.J.Qo'chqorova,
Jondor tumanidagi 36-umumta'lim maktabining oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: **:** Ushbu maqolada Jondor tumaniga bag'ishlangan asarlarning hudud geografik o'rniga oid fikr mulohazalar yoritilgan,tahlil qilingan va asarlarda joy nomlarining geografik lug'atlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, ekologiya, ekologik savodxonlik

Ona Vatanimiz boy tarixga ega,uning har bir mintaqasi xilma-xil ,o'ziga xos va nihoyatda qiziqarli,o'rganish maroqli moziydan iborat.Qaysi bir g'o'shasini o'rganmang shu hudud to'g'risida juda ko'plab ,ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan bebaho ma'lumotlarga ega bo'lasiz

Jumladan, Jondor tumanning tabiati, tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga bag'ishlangan adabiyotlar anchagina. Ular turli darajada, ya'ni ba'zan umumiy holatda yoki qisqa tarzda metodik ko'rsatma, ma'lumotnoma shaklida tarixchi va adabiyotshunos olimlar, shoirlar va taniqli jurnalistlar tomonidan nashr qilingan, xolos. Holbuki, mazkur tuman hududining ko'lami, tabiati va resurslari, aholisi soni va intellektual salohiyati kabi ko'rsatkichlari bilan viloyatimizda hamda mamlakatimiz tumanlari orasida o'z maqeiga ega. Bir so'z bilan aytganda tuman geografiyasi va ekologiyasini o'zida mujassamlantirgan ilmiy asarlar haligacha yaratilmagan. Bugun bunday asarlarga ehtiyoj juda katta.

Birinchidan, tumanning voha qismida aholining 99 % i yashaydi. Bu zonada yer-suv resurslari cheklangan natijada geoekologik vaziyatlarga e'tibor berish ehtiyoji yuqori.

Ikkinchidan, aholining tuman tabiiy resurslariga munosabatini yaxshilashda geografik va ekologik savodxonlikni oshirish muhimdir. Chunki, tumanda yoshlar aholining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Ular maktab va boshqa ta'lim maskanlarida yurt tarixi, geografiyasi va ekologiyasini chuqur o'qitish zarur, natijada ularda ona Vatanga mehr uyg'onadi, milliy ong, milliy tuyg'u va vatanparvarlik ko'nikmalari mustahkamlanadi. Yuqoridagi muammolar Jondor tumani geografiyasi va ekologiyasini o'rganish keyingi yillarda ham o'lkashunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarning dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi. Ularning mavzulari va yo'nalishlarini to'g'ri tanlash aholining geografik va ekologik savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Albatta, 1991 yilgacha ko'plab ilmiy ishlar Buxoro viloyati, Quyi Zarafshon doirasida amalga oshirilgan. Ularda Jondor tumaniga oid umumiy ma'lumotlar bir necha satrlarda qayd etilgan, xolos [2,3,4].

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida va keyingi davrlarda Buxoro viloyati tumanlariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni nashr qilish sohasida ijobiy siljishlar kuzatildi. Shular qatorida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist M.Tursunovning "Jondor va jondorliklar. 1935-1995 yillar" nomli risolasi (1995), tarixchi olimlardan Q.Rajabov va F.Temirovlar tomonidan "Jondor tuman tarixi" (qisqa ma'lumotnoma, 2015) kitobi, Q.Jabborning "Qadriyat" (2022) nomli, tarixchi olim T.Rahmonovning "Lolo qishlog'i va lolоliklar" nomli (2021) asarlari o'quvchilarga taqdim qilingan. Ularda tuman tabiati, tarixi va ijtimoiy hayoti yoritilgan [1,5].

Taniqli shoir va jurnalist M.Tursunovning "Jondor va jondorliklar" nomli risolasini "qomusiy asar" deb qabul qilish o'rinli. Asar 1935-1995 yillar oralig'idagi tuman tarixini yoritishga bag'ishlangan.

Muallif kirish qismida "Tuman tarixini yozishni oldimizga maqsad qilib, bu ishga kirishar ekanmiz, zimmamizda juda katta mas'uliyat borligini, bugun yuz mingdan oshiq aholisi bo'lgan tumanimizning yuz yillik tarixi haqida o'quvchilarga imkon doirasida to'g'ri, aniq ma'lumot berishdek nihoyat katta majburiyatni puxta his etib, ishga kirishganimizni ta'kidlab o'tish lozim" – deb qayd etgan (3 b.).

"Jondor va jondorliklar" nomli risolaning "Jondor: kecha, bugun, erta" (8-16 betlar) bo'limida tumanning tashkil topishi, "Qishloqlar va aholi" bo'limida (17-29 betlar) Jondor so'zi

va ba’zi qishloqlarning toponimikasi, aholisi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.Jumladan,Jondor so’zining lug’aviy ma’nosi –“Tirik mavjudod” demakdir deya tuman to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Ayniqsa, tuman aholisi sonining 1940-1995 yillar davomida o‘sishi ko‘rsatilgan (28 b.). Asarning keyingi bo‘limlarida tumandagi tarixiy joylar tavsifi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yoritilgan (30-146 betlar). “Jondor va jondorliklar” nomli risolaning “Bu suvlarning yo‘llari uzun” nomli bo‘limida tumanning irrigatsiya va melioratsiya tizimi mahorat bilan yoritilgan (147-151 betlar). Asarning qolgan sahifalarida muallif katta hurmat bilan tuman xo‘jaliklari, tumanning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim iz qoldirgan fidoyi jondorlik yurtdoshlarini tilga olgan.

Tarixchi olim T.Rahmonovning “Lolo qishlog‘i va lololiklar” nomli asari (2021) tumandagi yirik aholi manzilgohlaridan biri Lolo qishlog‘iga bag‘ishlangan. Ushbu asarda geografik, toponimik va tarixiy sohalarga oid ma’lumotlar bayon qilingan.

Bu asarda ma’lumot keltirishicha qishloqning nomi Lola emas Lolodir.Nufuzli lug’atlarda “Lolo” so’zi ikki shaklda yoziladi. “Farhangi zaboni tojik”da Lolo so’zining ma’nosi borligi ko’rsatiladi.Ulardan biri “duraxshon” ,Porloq yoki yorqindir.Ikkinchisi esa “xizmatkor va mard qul: yana aslzodlarning o’g’il bolalarini tarbiyalovchi xizmatkor,mutasaddi” tarzidagi izoh hisoblanadi. “Lo”-arabcha so’z bo’lib,”yo’q”, “emas”,”ku”,”da” kabi ma’nolarni anglatadi.Mazkur kalimaning tub mohiyati “Lo illoha illolloh” ilohiy jumlasi tarkibida ravshanroq ochiladi.(22-23 b) Mazkur talqinlardan Lolo qishlog’ining asl ma’no mohiyatini anglab olish mumkin.

Shuningdek asarda XX asrning 40-60 yillarida Lolo qishlog’ining tarhi ya’ni ,aholi istiqomat qiladigan hovlilarning joylashuvini ,ularning yashash tarzi chiroyli va ravon tilda tasvirlangan. 70-yillarga kelib qishloqdagi yakka tartibda qurilgan hovli joylar genplan(general reja) asosida qayta qurila boshlandi. Bu asosan 1970-1972- yillarga to’g’ri keladi..Lolo qishlog’i XX asrning 40-60-yillarida G’’arbdan Sharqqa yo’nalishdagi yo’lning shimol va janub tomonlarida joylashgan edi.Yo’lning boshlanishi Lolo qishlog’idan sharqqa qarab yo’nalgan edi.Shu yo’l bilan yurilganda kolxozning janubidagi Yangi Artelgacha boradigan ariqni kesib o’tardi, avval Sherbayon,Arbobon ,Dalmun ,Qal’a qishlqlaridan o’tib Buxoro shahrigacha borish mumkin edi.Bu yo’l ham qadimiy bo’lib,ot-arava sig’adigan juda tor edi.Qishloq hududi 1-1,5 gektar yerdan iborat bo’lib,hovli va joylar Sharqdan G’arbga borishda yo’lning o’ng shimol tomnida joylashgan (25-27 b)deya qishloq xalqi,yashash tarzlari asarda mohirona tasvirlangan. Bunday asarlarning yaratilishi inson o’zi yashab turgan zamini ya’ni makonini chuqurroq bilishi to’laroq talqin qilishiga juda katta ko’mak beradi.

Bugungi kunda Jondor tumani yoshlarini yuksak ma’rifatli hamda ma’naviy – ma’rifiy ruhda tarbiyalashda ilmiy manbalarning imkoniyatlari beqiyosidir.

Adabiyotlar:

1. Ражабов Қ., Темиров Ф. Жондор туман тарихи (қисқа маълумотнома). Т.: “Tafakkur” 2015. – 52 б.

2. Тошов Х.Р., Холов Ё.Д., Қўчқорова Д.Ж, Муҳаммадова М.Н., Қодирова З.Ғ.Тюркоязычное страны. Республиканский научно-методическая и познавательныя журнал. **Казахстан. Алматы** № 1 (41) 2022 г.10-13 б.

3. Toshov X.R., D.J.Qo`qorova. Jondor tumani qishloqlari va ularni ko`kalamzorlashtirishning geografik xususiyatlari. Tafakkur va talqin. Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to`plami. Buxoro: 2022 y. I qism. 140-147 b.

4. Тошов Х.Р., Раҳимов О.Ҳ., Ҳикматова Г.И. Сув қадри. Бухоро, “SHAHZOD PRINT” босмахонаси. 2018.100 б.

5. Қаҳрамон Жаббор. Қадрият. Бухоро, “Дурдона” нашриёти. 2022. – 320 б

BOSHLANG'ICH SINFLARDA "LOYIHA ISHI "INTERFAOL USULI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

M.M.Rashidova

Bizga ma'lumki hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi g'oyalarni ilgari surish uchun,yangi axborotni o'zlashtiradigan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan mustaqil va erkin fikrlaydigan o'quvchilar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv –tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublari, innavatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Men ham o'z ish faoliyatimda o'quvchilarga ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitishimda turli xil innavatsion pedagogik texnologiyalardan, turli xil interfaol usullardan foydalandim. Bu yangicha interfaol usullar o'quvchilarni hamkor bo'lib ishlashga, mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobilyatlarini rivojlantirishga katta imkon berdi. Jumladan "Mening loyiham" metodikasini o'qish savodxonligi darslarida qo'llab ko'rganimda o'quvchilardagi iqtidor va nazariy bilimlarni amaliyotda tezkor qo'llab, o'zlarining g'oyalarini bayon etishga harakat qilishdi. Bu esa o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni orttirib, yaratuvchanlik tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

"Mening loyiham" metodini o'tkazish tartibi. Bu metod murakkab, hayotiy, ko'ptarmoqli bo'lib, bo'limni, bobni takrorlashga qaratilgan.

Metodnin mohiyati shundaki, bunda mavzularning turli tarmoqlari bo'yicha o'quvchi bilimining axboroti namoyon bo'ladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida elementlarda munhokama etiladi.

Metodning maqsadi: Tanlanga mavzu, g'oya asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish erkin bajarishga sharoit yaratish, og'zaki nutqni o'stirish, o'z fikrini bayon qilishga, tasavvurlarini so'z bilan ifodalashga o'rgatish.

Metodning qo'llanilishi. Ona tili va o'qish savodxon ligi mavzularining bo'lim va boblaring takrorlashlarida, sinfdan tashqari o'qish vaqtida va darsdan so'ng to'garak mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, metodik mashg'ulotni yakka va kichik guruh shaklida o'quv xonasida yoki boshqa alohida xonada o'tkazilishi mumkin.

Metodda foydalaniladigan vositalar: A3 format, rangli qalam va flamaster, tindirilgan xamir, xamir kesuvchi shaklli gullar va kakao, shaker kukuni, bezak uchun rangli shokoladlar. Rangli qog'oz, yelim, qaychi 3D shaklidagi konstruktor binolar, Matematik yog'och cho'plar, plastilin, yostiq, ko'rpacha, o'yinchoq buyumlari o'yinchoq beshik.

Metodni o'tkazish tartibi:

- O'qituvchi metodni boshlashdan oldin "Mening loyiham" da qo'yilgan talablar ,qoidalar bilan tanishtiradi. Qaysi bob mavzulari asosida bo'lishini o'quvchilarga tushuntiradi.

- O'qituvchi o'quvchilarni 2 guruhga ajratib, sinfda masalan 30ta o'quvchi bo'lsa 10 tasi metodni bajarishga ishtirok etadi. Qolganlari ularning ish jarayonini kuzatib turishadi. Birinchi guruh tugagandan keyin 2-guruh boshlaydi.

- O'quvchilar o'zlari uchun ijodiy topshiriqlarni erkin tanlashadi va ish jarayoni boshlanadi.

- O'qituvchi har bir o'quvchini maqsadiga yo'naltirib, ularni boshqarib, aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda o'quvchini rag'batlantirib yakunlaydi. "Mening loyiham" inovatsion metodi quyidagi ijodiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. Xamir bilan ishlash Unda o'quvchi o'tilgan mavzudagi qahramon va obrazlarni xamirdan yasab uni shirinlik tariqasida bolalarga bayon qilib beradi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni

namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni tanlab o’shani xamirdan shaklini yasab,uni sinfdoshlariga shirinlik tariqasida sovg’a qilib beradi va o’zinig tasavvuridagi tadbirkorlikni aytib beradi.

2. Konstruktorda ishlash

Unda o’quvchi o’tilgan mavzularni og’zaki bayon etayotib bir vaqtda turli xil shakllarni yasaydi va uni mavzuga bog’lab matn tuzib aytadi. Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni, sotish uchun katta Super marketni 3 D konstruktorda maket yasab,u yerda tadbirkorlikni qilishni og’zaki bayon qiladi.

3. Plastilinda ishlash

Unda o’quvchi mavzu yuzasidan o’zining yaxshi ko’rgan obrazlarini gavdalantirib, u haqida ta’rif beradi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni O’ziga yoqqan zamonaviy tadbirkorlarni obrazlarini yoki bo’lajak o’zini tadbirkor holida plastilindan gavdalantiradi

4. Mo’yqalamda ishlash

O’quvchilar o’tilgan mavzulardagi tabiat hodisalarini tasavvur qilib rasm chizib, uni izohlab berishadi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni,oq qog’ozda ularni chiroyli qilib rasmlarini,tasavvuridagi super market va tadbirkorlarni rasmini chizadi va tasavvurini bayon qiladi.Bu o’quvchiga zavq beradi.

5. Rangli qog’ozda ishlash

O’quvchi o’tilgan mavzu bo’yicha o’zining g’oysini rangli qog’oz bo’laklaridan qirqib, yopishtirib, so’ngra uni bayon qiladi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni va o’zining tasavvuridagi tadbirkorni rangli qog’ozlardan qirqib, yopishtirib o’ mahsulotini namoyish qiladi.

6. Matematik cho’pda ishlash

O’quvchilar o’tilgan mavzulardagi sonlar yoki yillar yoki joylarini mantiqiy cho’plar bilan ko’rsatib yoki geometrik figurani yasab, ko’rsatishi va uni izohlashi lozim bo’ladi. Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda o’quvchi o’zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni narxi va kilogramlaridagi sonlarni,cho’pda yasab o’zining biznesida qancha foyda va zarar ko’rishkabi tasavvurlarini aytib beradi.

7. “Mehmondorchilikda” ishlash

Bunda o’quvchi uy sharoitidagi oldindan tayyorlangan (yostiq, ko’rpacha to’shalgan) joyda juft bo’lib mehmon o’yini boshlanadi. Bir o’quvchi mezbon va bir o’quvchi mehmon bo’lib uyga o’ynash uchun o’tirishga kelishadi. Va ular o’tilgan mavzunining birini tanlab, bir piyola choy ustida bir-birovlariga aytib berishadi.She’r bo’lsa uni qo’shiq qilib ijro qilishadi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig’ini bajarishda 1o’quvchi xaridor 2 o’quvchi esa sotuvchi bo’lib o’zaro o’zlari xoxlagan meva yoki sabzavotlarni aytib,undan qancha foyda va zarar

ko’rishlari,ularning tasavvurlaridagi tadbirkor holatlarini,fikrlarini namoyish etishadi va suhbat qilishadi.O’zaro hurmat ko’rsatish malakasini namoyish etishadi.

Yuqorida keltirilgan”Mening Loyiham” tavsiyalariboshqa ko’plab mavzularda ham qo’llanilsa,yaxshi samara beradi.Jumladan 2-sinf Ona tili I qism (2023 yil) 84 betdagi 6 mavzu “ Mening mahallam” mavzusida Katta shahar loyihasini ishlab chiqish topshirig’ini o’quvchilarga xuddi shunday bajartirsak,kutilgan natijani albatta beradi. Yana 3- sinf Ona tili II qism (2023)darsligidagi 20 betda berilgan 6-mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O’z mahsulotingizni namoyish qiling” degan topshiriqni yuqorida aytib o’tilgan loyiha ishi orqali bajartirilsa juda yaxshi o’quvchilarga samara beradi.Xuddi shunday topshiriqli 4- sinf Onatili II qism (2023 yil) darsligidagi 51 betdagi 66-mashqda ko’rish mumkin.Sog’lom ovqatlanishingiz uchun qanday foydali taomlar iste’mol qilasiz? Topshirig’ini loyiha ishi asosida bajartirsak o’quvchilarni bilimi oshirishga mustaqil fikr yuritishga katta hissa qo’shadi.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING O'RNI

Raxmonova Dilfuza Maxmudovna,
BuxDU Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya – maqolada maktab o’quvchilarining intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga maktab o’quvchilarining intellektual rivojlanishida badiiy adabiyotning o’rni ham batafsil tushuntirilgan, bilim salohiyatini rivojlantirishda muhim omillar sanab o’tilgan.

Kalit so’zlar: maktab o’quvchilarini, intellektual rivojlanish, badiiy adabiyot, nutq, savodxonlik, axloqiy tarbiya.

Axborot va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli bugungi kunda badiiy adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Bolalar o'qishni xohlamaydilar. Binobarin, nutq, savodxonlik, axloqiy tarbiya, ta'sir doirasi, eng muhimi, intellekt zarar ko'radi. Kichik maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishidagi badiiy adabiyotning roli mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan juda ehtiyotkorlik bilan va mazmunli o'rganilganligi bejiz emas: N.N. Cherevichnaya, V.P. Yagunkova, A.V. Piontek, Z.N. Klopertanets, P.M. Jeykobson, G. Neal va boshqalar.

A. S. Makarenko ta'kidlagani bejiz emas: “Bu davr bola hayotida katta ahamiyatga ega. Bola kitob va bosma so'z maydoniga kiradi, ba'zida u istamay kiradi va xat va o'qish jarayoni unga tug'diradigan texnik qiyinchiliklarni yengishda qiynaladi". O'qishga bo'lgan ishtiyoq hayotning birinchi yillaridanoq bolalarga hamroh bo'ladi va adabiyot bilan tanishish natijasi maktabgacha yoshda olingan syujetlar va rollarning hissiy tajribasiga asoslanadi.

O'qishga bo'lgan ishtiyoq, o'qishga doimiy qiziqish oilada shakllanadi va uning asosini bolaning o'qish odati tashkil etadi. Ko'pgina o'qituvchilar kichik maktab o'quvchilarida she'riy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish muvaffaqiyati ota-onalarning ushbu muammoni hal qilishdagi ishtirokiga bog'liqligiga aminlar. Bolalar “o’qish” muhitini, kitob muhitini talab qiladi. Faqat shu asosda o'qish istagi paydo bo'ladi. Bolalar mutolaasi tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, adabiy ijod bolaga o'zining syujeti va she'riy shaklining yaxlitligida namoyon bo'ladi. Agar bola adabiy asarga moyil bo’lsa, uning idroki yuz foiz bo’ladi.

Buning uchun bolalar e’tiborini nafaqat syujetga, balki ertak, hikoya, elegiya va boshqa she’riy adabiyot asarlari tilining 250ntellec usullariga ham qaratish kerak. Vaqt o‘tishi bilan kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida adabiy asarlarga nisbatan ustuvor munosabat, shuningdek, she’riy did paydo bo‘ladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlarni o'qish doimo kognitiv, estetik va tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi va bolaning hissiy sohasini, axloqiy va estetik ideallarini, qarashlari va munosabatlarini shakllantiradi.

Ularning bugungi muvaffaqiyati va ertangi taqdiri, umuman olganda, mamlakatning taqdiri, uning kelajagi bolalarning o'qishi, nimani va qanday o'qishiga bog'liq. Bolalar kitobxonligi

mamlakatning 251ntellect251al resursi, xalqning insoniy salohiyatini rivojlantirishning asosiy zaxirasi deb ataladi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, 251ntell imkon qadar ertaroq kitob va o’qish bilan tanishtirish kerak – bilim, g’oyalar, donolik va tajribalar ombori. Boshlang‘ich maktab ta’limning umumiy asosiy maqsadi – o‘quvchi shaxsini shakllantirishni birinchi bo‘lib amalga oshira boshlaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, she’riy adabiyotlarni o’qish estetik saodatga ega bo’lishga yordam beradi va shuning uchun yosh o’quvchini hissiy jihatdan tarbiyalaydi.

Sensor taassurotlar tufayli 251ntell idrok ham olinadi. Shu munosabat bilan, O.V.Tkachenko, badiiy asarlarni o’qish quyidagi muammolarni hal qiladi, deb hisoblaydi: bolaning dunyoqarashi kengayadi va chuqurlashadi, uning bilimi va hissiyotlari boyib boradi; kitob orqali bolaga tarbiyaviy ta’sir kuchayadi; kitoblar tilni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallifning fikricha, boshlang’ich sinf o’quvchisi shaxsini shakllantirishga adabiyotning ta’siri idrok orqali amalga oshiriladi. Idrok tushunish bilan chambarchas bog’liq – o’quvchi idrok etgan narsalarni tahlil qilish va sintez qilish orqali erishiladigan badiiy obrazning mohiyatini tushunish.

Badiiy adabiyotni bilish bolaning ijodiy moyilligini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotni idrok etish chuqurligi badiiy obrazni badiiy adabiyot yordamida yaratilgan va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan inson hayotining umumlashtirilgan tasviri sifatida tushunishni aks ettiradi. Adabiy ma’lumotlar va o’z kuzatishlarimiz tahlili she’riy adabiyot ko’p qirrali rivojlanish vositasi bo’lib xizmat qilishini ta’kidlash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot o‘qish tufayli, deb ta’kidlaydi I.N.Chakova, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nutqini rivojlantiradi, so‘z boyligini boyitadi, bu esa o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ifodalashga, boshqalarning gaplarini tushunishga, gaplarni ma’noli qurishga yordam beradi. Badiiy adabiyot asarlarini o‘qish jarayonida, deb ta’kidlaydi tadqiqotchi, bolada mantiqiy fikrlash rivojlanadi, o‘ziga xos tushuncha va g‘oyalar shakllanadi; u mavhum tushunchalarni o‘rganadi va o‘z dunyosi ufqlarini kengaytiradi, hayotni tushuntirishga va bir hodisaning boshqa hodisa bilan bog‘liqligini ko‘rishga o‘rganadi, bu esa voqelikni bilishni ta’minlaydi.

Badiiy adabiyotni o’qish ijodiy tasavvurni uyg’otadi, tasavvurni ishlashga imkon beradi va bolalarni tasvirlarda fikrlashga o’rgatadi. Kitob o‘qish kognitiv qiziqishlarni rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bola o'zini qiziqtirgan hamma narsani kitoblardan o'rganadi. She'riy adabiyot obrazli xotiraning rivojlanishiga va ish xotirasining takomillashishiga va diqqatning barqarorligiga ta'sir qiladi, bu aqliy faoliyatga bog'liq. Badiiy adabiyot bilan tanishish orqali bolalarda faollik, qiziquvchanlik, umumiy madaniyat va bilimdonlik rivojlanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqliy rivojlanishida she’riy adabiyotning o‘rni inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, shu bilan birga, zamonaviy bolalar tomonidan kitob o’qish muammosi paydo bo’ladi. Pedagoglar, psixologlar, filologlar 251ntelle televidenie asrida kitoblar bilan muloqot video va kompyuter mahsulotlarini tomosha qilish bilan almashtirilayotganidan xavotirda. Boshlang’ich maktabda bu muammoni hal qilishga alohida e’tibor berilishi kerak, chunki adabiyotga barqaror qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. Bolani bosma so’z bilan tanishtirishda ko’p narsa kattalarga, shu jumladan o’qituvchiga bog’liq. O‘quvchining kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi, qobiliyati va barqaror odatini shakllantirishda o‘qituvchining yordami uning kelajakdagi hayoti uchun nihoyatda muhim bo‘lib, uning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi, bilimdonlik va umumiy madaniyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, kitob o‘quvchilarning o‘zlari haqida o‘ylash, kuchli va zaif tomonlarini, talab va intilishlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan haqiqiy vositaga aylanadi. Pedagogik psixologlar uzoq vaqtdan beri «yaxshi o'qigan» bolalarda og'zaki va yozma nutqda savodxonlik bilan bog'liq muammolar kamroq ekanligini isbotladilar. Ayni paytda, «tug'ma savodxonlik» deb ataladigan narsa ham insonning yaxshi o'qiganligining natijasi ekanligi isbotlangan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'qish jarayonida vizual xotira so'zlarning vizual tasvirlarini yozib oladi va yozish paytida bu tasvirlar avtomatik ravishda «boshida paydo bo'ladi» va odam hech ikkilanmasdan to'g'ri yozadi va qog'ozdagi imlo xatolarini darhol payqaydi.

Shu munosabat bilan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatidagi asosiy maqsad bolalarni kitob va she’riy adabiyot sohasi bilan tanishtirish, o‘qishga qiziqishni, ertak, she’r, hikoyalar

tinglashga ishtiyoqini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Boshlang'ich maktab yoshida bolalar ertak, hikoya, elegiya, bolalar qofiyalarini diqqat bilan tinglashni, shuningdek, ertakdagi syujetning rivojlanishini kuzatishni, qahramonlar haqida qayg'urishni o'rganishlari kerak. Boshlang’ich maktab yoshida hissiy 252ntellect deb ataladigan hissiy sohaning juda tez rivojlanishi mavjud. Boshlang’ich maktab yoshining ana shu xususiyatiga katta e’tibor berib, o’qituvchi o’qishga qiziqishni rivojlantirish borasidagi ishida yuqori samaradorlikka erisha oladi.

She’riy adabiyot ko’p qirrali rivojlanish vositasi bo’lib xizmat qiladi: u xotirani, nutqni, ijodiy tasavvurni rivojlantiradi, bolalarni tasvirlarda fikrlashga o’rgatadi, ularning so’z boyligi va dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, majoziy xotira operativ xotirani va diqqatning barqarorligini rivojlantiradi va yaxshilaydi, aqliy faoliyat bunga bog'liq. Badiiy adabiyot bilan tanishish orqali bolalarda faollik, qiziquvchanlik, umumiy madaniyat va bilimdonlik rivojlanadi. Yosh maktab o'quvchilari kitoblar odamlar hayotida alohida ma'noga ega ekanligini, kitob o'qishga qiziqish har bir inson madaniyatining zarur elementi ekanligini tushunishlari kerak. Bu o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Shular munosabati bilan o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarni badiiy adabiyot o‘qishga jalb etishlari va rag‘batlantirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Vasinskaya N.V., Shcherbinina N.A. Samarali o'qish texnologiyasi // Tr. xalqaro konf. "Pedagogika va psixologiya shaxsiyatni rivojlantirish muammolarini zamonaviy tadqiqotlar kontekstida". - Maxachqal'a, 2014. - 33–34-betlar.
2. Isaeva O.V., Slon O.V. Samarali o'qish kichik maktab o'quvchisining shaxsiy yutuqlarini rivojlantirish usuli sifatida // Fundamental tadqiqotlar. - 2014. - No 9–10. - 2308–2311-betlar.
3. Maksimova A.A., Savvinova R.V. Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirish // Tr. xalqaro konf. “Zamonaviy dunyoda ilmiy izlanish”. - Saratov, 2014. - 178–179-betlar.
4. https://moluch.ru/archive/102/23242/ (дата обращения: 31.01.2024).

BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Sayitnazarova G.
Jondor tuman 32-maktab o’qituvchisi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim omillaridan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat.Inson shaxsi haqida gap ketganda albatta ko’z o’ngimizda komillikka intilgan ma’naviy jihatdan yetuk jamiyatning taraqqiy etishiga munosib hissa qo’sha oladigan yurt ravnaqining buguni va ertasini o’ylaydigan shaxsni keltiramiz.Shu o’rinda pezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”**.** Pedagogik madaniyat –o’qituvchining o’quvchilar bilan munosabatlar jarayonida zarur bo’lgan umumiy axloqiy qoidalar majmuasi,pedagogning meyoriy-ma’naviy qarashlarga asoslangan odobidir.Ma’lumki o’qituvchilarda ma’naviy –axloqiy, xususan,pedagogik qiyofasini shakllantirish bo’yicha o’qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko’p qirralidir.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko‘p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o‘zini anglashni, o‘zini takomillashtirishni ta’minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo’yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko‘zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko‘rsatkichlari o‘rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o‘qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglaydilar.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o‘qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko‘rsatadi:

- umumiy bilimdonlik;
- o‘z fanini bilish;
- pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib boorish;
- pedagogik kasbini sevish;
- odamiylik, haqiqatgo‘ylik va talabchanlik;
- ko‘zatuvchanlik, e’tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko‘rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- mutaxassislik sharafi va g‘ururini his etish;
- jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: Ijodiy individuallik- sezgi, farosat, odob, intuistiya. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi.

Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko‘rsatadi:

- intelegentlilik;
- bilimlar doirasining kengligi;
- kasbi bo‘yicha bilimlarining chuqurligi;
- ilmiy va ijtimoiy ma’lumotlar oqimida yo‘l topa olish mahorati;
- pedagogik faoliyatda bilm va mahoratlardan foydalana bilishi.

Pedagogik madaniyat muamolarini o‘rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko‘rsatishga imkoniyat beradi.

O‘qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo‘nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g‘oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Pedagogik jarayoni tashkil etishda o‘qituvchining shaxsi kasbiy pedagogik yo‘nalganligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

G‘oyalarini (pedagogik vazifalarni keng ko‘ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o‘zini rivojlantirish bilan shug‘ullanishi, pedagogik o‘zaro aloqalarda professionalzmga erishish)

Qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o‘qituvchilarning ta’lim darajasini va umumiy ma’naviy madaniyatlarini oshirish)

Qadriyatli yo‘nalishlari (yuqori bilmga ega bo‘lish, tarbiyalash, o‘qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o‘quvchilarini faollashtirish)

Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, kasbiy pedagogik yo‘nalganlikning muhim omili bo‘lib, o‘qituvchining insonparvarligi, uning o‘quvchilarga oliy qadriyat sifatida munosabati, o‘quvchining shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini do‘stona talabchanligini, befarqlik kamsitish va shavqatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga iste’dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi. Sabablari pedagogning pedagogik faoliyatiga anglab etgan holda intilishi bilan ifodalanadi.

Maqsadlari - bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.

Shunday o‘qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo‘nalganligi o‘zida uning g‘oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo‘nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o‘quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi. Demak yoshlar va kasb tanlash kasbiy o’zlikni anglash va kasbiy shakllanishi sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog’liq bo’lgan muammolarning yechimini topishi lozim.Aks

holda kasbiy madaniyat bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi va mutaxasis talabga javob bermaydi.Bo'lajak o'qituvchilarda asosan yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi shu bilan o'lchanadiki u tinib-tinchimaydigan shaxs bo'lib doim izlanishda bo'ladi.Dars-mashg'ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.

2.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017

3. Sh.Qurbonov. Ta`limning yangi qadiriyatlari. "Ma`rifat" 25sentyabr 1999., 75-76 son.

4. M.Ochilov. O`qituvchi odobi. T., 1997 yil.

5. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., "O`qituvchi", 1995 yil.

6. A.Munavvarov. Pedagogika. T., "O`qituvchi", 1996 yil.

METHODS OF PSYCHOLOGICAL WORK WITH SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Sirojova Shokhida Niyozovna,
The English language teacher in primary and upper classes At specialized State Public school #29 Bukhara city

Keywords: *criteria for skill and influence, immortality, elements of art and literature, criteria for talent, personality of the writer, literary technique, figurativeness.*

San'at va adabiyotning badiiyligi inson tabiyatining ijodkorligi bilan bog'lanadi. "Badiiy" arabcha "Bad'un", "Bade'a" so'zlaridan olingan bo'lib , "O'ylab topish, biror narsani o'zgartirish, yangilik yaratish , ijod qilish" ma'nosini anglatadi. Badiiylik borlik hodisalarini jonlantirish, ularga insonga xos xususiyatlarni ko'chirshdir. Badiiylik ijodkorning o'z fikrini o'quvchiga xuddi o'zi his qilgan, idrok etgan darajada tushuntira olishidir. Badiiylikning yaksak ifodasi ijodkorning iqtidori va mahorati orqali u yaratgan badiiy obrazlarda aks etadi.

Badiiylik- iste'dod va xosiyat an'ana va yangilik, mahorat ham ta'sirdorlik me'zonlari to'g'risidagi ilmdir. Ta'kidlash joizki , badiiy asarning barcha unsurlari o'zaro birlashib, hayot hodisalarning muayyan jihatlarini idrok etishga , bilishga bevosita ko'maklashadi. Eng asosiysi, badiiy asarlar tuyg'ularimizni tiniqlashtirib, hayotni o'rganishga o'zimizni anglashga rag'batlantiradi.

Har qanday san'at asari markazda hamisha badiiyat turadi. Mazmun – shakl mohiyati san'at va adabiyotda badiyat ehtiyojidan kelib chiqadi… badiiy mushoxada asosini muallif nuqtai nazari va munosabat harakteri belgilaydi.

Ingliz adabiyotshunosi Iglton har qanday asar emas, hayot voqeyligi badiiy obraz asosida gavdalantirilgan asargina badiiy asar sanaladi, deb hisoblanadi. Badiiylik iborasi esa go'zallik, ohorlilik, nafislik demakdir. Shu sababli "Badiiylik" atamasi adabiyotning eng nozik jihati bilan aloqador, … asarda yangilik bo'lmasa uning o'rniga takror , qaytariq bo'lsa, bunday asar adabiyotga nokerakdir. Har bir asar taqdirini viktorika emas balki yangilik, nafosat hal qiladi, shuning uchun yaxshi badiiy asar millat va jahon adabiyoti tarixiga kiradi. Yangilik esa asarning mazmun tomoniga ham, shakl tomoniga ham tegishlidir.

"Badiiylik" tushunchasi Abdurahmon Jomiy, Davlatshox Samarqandiy va Navoiy asarlarida ham qo'llanilgan, Yevropada dastlab Gegen ijodi bilan bog'liq, Rossiyada XIX asrda

[1] Abba Alkali Goni1*, Alhaji Malah Galti 2, Hafsat Abba Sanusi2 & Ahmed Baba Mustapha CONTRIBUTIONS OF THE GRICEAN MAXIMS IN THE UNDERSTANDING OF MEANING: A REVIEW. Yamtara-Wala Journal of Arts, Management and Social Sciences (YaJAMSS) Volume 2, Issue 2. December 2022

paydo bo'ldi XX asrda 20-30-yillarida Abdurahmon Sa'diy, Fitrat asarlarida va o'quv qo'llanmalarida "badiiylik" o'rnida "nafis", "nasiflik" , "nafis adabiyot" atamalari ishlatilgan.

F.M Dastoevskiy fikricha "…badiylik , masalan , aqalliy romannavisni olsak, o'z fikrini romandaki shaxslar va obrazlarda anniq ifoda etish iste'dodidirki, kitobhon romanni o'qib yozuvchi o'z asarini yaratib, o'z fikrini qanday tushungan bo'lsa xuddi shunday tushunadi".

Rodniyanskaya etiroficha, "Badiiylik-San'at sohasiga oit bo'lgan ijdiy mehnat samarasini belgilovchi ichki hususiyatlarning murakkab yig'indisidir". Gegl adabiyotda mahorat va uning ta'sir qudratini Dastoevskiy esa istedot masalasiga alohida urg'u bergan. B.G.Belenski fikricha, poetik asarning qiymatini belgilovchi o'lchov uning voqealikga mosligidir, Cheleshevski naznida, "Faqat haqiqiy ideani mujassamlashtirgan asargina, agar shakli mazmuniga mutloqo mos kelsa, badiiy bo'ladi".

I.Sulton "Agar biz badiiy asarning ta'sirdorlil "sir" larini tushunmoqcha, ya'ni bu tasirdorlikni qanday omillar yoki shartlar maydoniga keltirishini aniqlamoqchi bo'lsak badiiy asarning yaralishi bilan bo'g'liq bo'lgan juda ko'p masalalarga duch kelamiz. Ammo bu juda ko'p va murakkab masalalaran eng muhimlarini ajratib olsak, badiiy asarning ta'sirdorligini tayin etgan asosiy omillar – badiiylik kriteriyalarini tushunib yetamiz" deb ta'kidlaydi.

Badiiylik va uning me'zonlari o'zbek adabiyotshunoslari: I.Sulton, U.To'ychiyev, E.Xudoyberdiyev, A.Rasulov, M.Qo'shchimov; rus adabiyotshunoslari: B.G.Belenski, N.K.Gey, F.M .Dastovski, I.V.Rodniyanskaya; g'arb adabiyotshunos olimlari: E.Grinlov, T.Iglton, R.Vellek, B.Dorotiy va A.Stauferlar tomonidan tadqiq qilingan. Badiiylik mezonlari va uning marumlari borasida olib borilgan ilmiy ma'lumot natijasida quydaki tasnif ishlab chiqildi [2].

Iste'dot – mezonlarning mehvari badiiy asar yaratilishining bosh sabablaridan biri - muallif iste'dodi.Har qanday iste'dod layoqat, qobillik, qodirlik asosida shakillanadi, layoqat o'ta sezgirlik va adabiy tajriba bilan bog'liq. Istedot me'zonining to'rt ta maromi bor, ular mehnat , saviya, yozuvchning shaxsiyati va sharoitdir.

1. Mehnat – Iste'dod yozuvchi faqatgina iste'doti bilan hech narsaga erisha olmaydi, agar o'z ustida tinimsiz ishlamas ekan, u haqiqiy san'at asarini yaratolmaydi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida vujudga kelgan afg"on – amerika diaspora adabiyoti namoyondalari aslida tibbiyot, fizika, huquqshunoslik, dinshunoslik, kimyo, biologiya kabi soha vaqkillari bo'lishiga qaramay, tinimsiz mehnat va izlanish natijasida yozuvchi sifatida shakillandilar.
2. Saviya – har qanday mehnat uchun profisional bilim, yuksak tajriba va yuqori malaka zarur. Yozuvchi qaysi mavzuda asar yozmasin, oldin uni sinchiklab o'rganishi va kitobda shu sohaga doir ma'lumotlarni bexato qo'llay olishi kerak.
3. Yozuvchining shaxsiyati – jamiyatning ajralmas bo'lagi hisoblangan ijodkorga ijtimoiy muammoga o'z tasirini o'tkazadi. Nafaqat, afg'on – amerika, balki Yevropadaki afg'on diaspora yozuvchilari ijodida ham Afg'onistondaki notinchlik sabab ona yurtini tark etganlari va shaxs erkinligi muammolari badiiy ifodasini topgan.
4. Sharoit – shaxsiyat sharoiti bilan bog'liq xolda rivojlanadi, uning o'tmishi, bugungi va kelajaki ham sharoiti bilan chanbarchas bog'liq. Sharoitning istedotga ta'siri ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Garchi o'zga yurtda insonparvarlik munosabatlari asosida boshqa millat vakillari bilan teng huquq va majburiyatlariga ega bo'lsalar-da, afg'on diaspora adabiyoti yozuvchlari yana vaqatanga qaytishi, urushdan oldingi Afg'onistonni qo'msab yashagan va asarlarda vatandan judolik, u yerdaki og'ir kuchli dramotizm asosida badiiy gavdalantirdilar.

Xosiyat – adabiyotning obrazlilik va til orqali ifodalanishidir. Adabiyotda narsa, hayvon, parana obrazlari orqali inson harakter hususiyati ko'chma ma'noda ifodalanadi. Badiiylikning hosiyat me'zoni til, adabiyot texnika va obrazlilik maromlarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Adabiy texnika – har bir ijodkor yozishdan oldin adabiyotdaki mavjud qonun qoidalarni bilishi shart. Adabiy texnikaga mazmun va uning tarkibi ham ifoda tuzilishi, shakl, adabiy tur, janr, qahramonlar tasnifi, badiiy arsenal kiradi. Husayniyning adabiy texnikasi ketma-ket yozilgan romanlari asosida rivojlandi. "Tog'lar ham sado beradi" romanidagi butun bir bobning epistolyar janrda yozilishi adibning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Nabining doktor Varvarisga bitgan

maktubidaki 1949-2002 yillar oralig'idagi voqealar bayonining qamrovi xronotop nuqtai nazaridan voqealikni siqiq ifodalashdaki o'ziga xos uslub sifatida baholash mumkin.

2. Til – adabiyotning asosiy quroli. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emotsiyonallik, obrazlilik, aforizm, kabi xususiyatlari bilan farq qiladi. Asardaki har bir poetik detal, badiiy kiritma, qahramon tasviri, anniq va ishonarli bo'lishi kerak. Xalq tili unsurlari, dialekiga oid ifodalar, diniy so'zlar, turli voqealarning sanalariga oid atamalar, izohlar, tarjimalar, neologizmlar, kinoyali yumor va so'z o'yilari, frazeologiyaning muallif tomonidan qo'llanishi asarning aniqlik prinsipini rivojlantiradi. Badiiy asarda nafaqat qahramonlar tili, balki rivoyachi va muallif tilining ravonligi ham o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatadi. Muallif bayon jilovini badiiy estetik niyatga ko'ra goh o'z qo'lida ushlab turadi, goh personajlar qo'liga "tutqazadi" goh o'zgacha hikoyachiga topshiradi. Natichada, kitobxonni zeriktirmaydigan, realizmning mundarjasini kegaytira oladigan ko'p qirrali tasvir – hikoya nutqi – polefonik nutq paydo bo'ladi.

Diaspora adabiyotida tillar va madaniyatlar aro to'qnashuv yetakchilik qilishi yozuvchilarni ingliz tilida yozilgan romanlarida arab, fors va turkiy so'zlar hamda sharqona motivlarning keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Muallifning badiiy niyati afg'on diasporasidaki yoshlar o'z yurtlarining mumtoz adabiyotida be bahra voyaga yetayotganligi haqidagi achchiq haqiqatni oshkora tasvirlashdir. "Zendagi migzara" he said. Life goes on. He turned his his eyes to me. "…bachem, …your father has the distiniction of belongin to the minority who truly deserves the label. "Shamol ortidan yugurib" da Iqbol Tohiriy va Bobomning nutqida fors hamda turkiy so'zlar nisbatan ko'proq qo'llanilgan [3].

3. Obrazlilik – san'atning asosiy hususiyati hayotni o'zlashtirishning o'zigan hos shakli va usuli, uning "tili" va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan "hukmi". …Obrazlilik – adabiy ijodning mohiyatini umumiy hususiyatlarini : adabiy qahramon, badiy til, tabiyat, buyumlar, jisimlar, narsalar, hayvonot dunyosi ta'siri va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Ba'zan obrazlilik va badiiylik bir-biriga qorishib tushunchalar sifatida ham qo'llaniladiki, adabiyot nazariyasiga doir manbalarga obrazlilik – badiylikdir qoidasi uchraydi, lekin aslida badiiylik obrazlikka qaraganda kengroq tushuncha ekanligi yuqoridaki ta'riflardan ma'lum.

Poetik mohiyat obrazning ma'no – mazmuni, shakily ifodasi yaxlitlikda anglashiladi. Shuni nazarda tutib A.A.Potebniya "Poetik mohiyatni tushuncha va obraz ibtidosi taqsimotiga yo'naltirish – badiiy olam hamda badiiy mantiq butunligiga rahna solidi. Binobarin, hissiy idrok jarayonida san'atda ma'lum kompanentlari integratsiyasi sodir bo'adi. Joriy holat mazmun alohidaligi va mantiq muqobilligini bir – biridan uzoqlashtiradi"[4].

Anana va yangilik – yozuvchi badiiyatning o'ziga hosligini individualligini ko'rsatuvchi kriteriya.

I.Sulton an'ana va yangilikga shunday ta'rif beradi: "Har bir milliy adabiyotda asirlar mobaynida yig'ilib kelgan estetik tajriba – hayotning qanday tomonlarini hamda qanday usullar va vositalar bilan tasvir etish sohasidaki ijobiy yutuqlar – adabiyshunoslikda adabiy traditsiya deb ataladi. Adabiyotda hayotni tasvirlash borasida yangi tarixiy sharoitda ochilgan yo'llar tasdiq topgan yangi usul va vositalar adabiy novatorlik deb nomlanadi".

An'ana faqat o'zlashtirishni emas balki rivojlantirishni ham talab etadiki, shu jarayon natijasida u yangilanadi, boyiydi, sayqallanadi, lekin uni siyqalamaslik kerak.

1. Yangilik – yozuvchi asar yozishdan oldin milliy adabiyot tarixini, uni atamalarini, unda nima boru, nima yoqligini bilish kerak. Adabiyotga yangi g'oya, yangi qahramonlar olib kirishi lozim. …An'anada uzulib qolgan yangilik faqat eksperement natijasidir va u kitobxon didiga muvofiq kelaydi, chunki did o'tmish va xozirgi kun tajribasidan tug'iladi, ayni holda, kelajakga tutashtir. An'ana egallanadi yangilik yaratiladi, yangilik an'anaga mos ravishda shakillansa, u ham o'z navbatida an'anaga aylanadi. Demak, an'ana va yangilik bir birini to'diruvchi va bir – birini taqoo etuvchi badiiy adabiyot taraqiyotining muhim ichki omillaridir.

2. An'ana – o'tmish adabiyoti yutuqlarining tanqidiy va ijodiy o'zlashtirilishi bu muvofaqiyatlarning mustahkamlanishi, aylanilishi; shu orqali g'oyaviy – badiiy jihatdan , yangi yetuk obrazlar orqali badiiy idrok etilishidir.

Har bir davr o’zida oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o’ziga singdiradi va o’zidan unga nimadir qo’ishga intiladi. Adabiyotdaki vorisliylik, an’analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotagi o’ziga xoslik, milliy qiyofaning yoqotilmasligini kafolatlaydi.

.**References**

1. Jalolov J. "Ingliz tilini o'qiish metodikasi" (darslik) T.- 2012

2. Hoshimov O'., Yoqubov I. "Ingliz tilini o’qitish metodikasi’’ (o'quv qo'llanma) T.- Sharq Nashriyoti. 2013

4. Penny Ur "A Course in Language Teaching”: Practice of Theory "Cambridge Teacher Training and Development” 2009.

5. Kozimova M. A., Samiyeva S. X. Oliy ta’lim o ‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish mexanizimlairi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 100-105.

5. https: // monster - evo. ru / uz / student / metody - priemy - raboty - na - uroke - angliiskogo - yazyka- metody-i-priemy/

BAYROG‘IM – FAXRU-G‘URURIM

Sharopov Dilshod Shirinboevich,
BuxDPI – Chaqiriqacha boshlang‘ich tayyorgarlik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Hozirgi kunda talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo‘nalishiga doir ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarning ijtimoiy hamda ma’naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish, yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishning qonuniy asosini yaratib berish, ta’lim va tarbiya integratsiyasi asosida shakllantirish, yoshlarda faxr va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

XXI asrning har kuni mustaqil davlatimizdagi sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarga fikrlash va halol mehnat qilish davri ekanligini sezdirib bormoqda. Ayniqsa, ajdodlarimizdan bizgacha meros bo‘lib kelgan yuksak insoniy sifat va fazilatlarning yoshlar tarbiyasiga singib, ularning ma’naviy yetuk, vatanparvar, salohiyatli, zukko va barkamol bo‘lib shakllanishidagi xizmati beqiyosligiga shubha yuk. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq shu kabi muxim va dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish bevosita talabalarimizni faxr va iftixor tuyg‘ulari ruhida tarbiyalash bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta’lim - tarbiyaning bosh maqsadi etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: «Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda» [1], deb alohida qayd etdi. Demak, talabalarning tarbiyasi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, avvalambor, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e’tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o‘z haq-huquqlari, burch va mas’uliyatini chuqur anglaydigan insonlarni tarbiyalash barobarida amalga oshiriladi va oliy o‘quv yurtlari, muhim ijtimoiy institut bo‘lib hisoblanadi.

Talabalarda milliy iftixor va g‘ururni tarbiyalashda ularning o‘z yurtiga sodiq farzand ekanligini aks ettirish va shu asosida ularda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyyatini shaklantirish, o‘z yurtining mustaqilligini mustahkamlash uchun fidoiy insonlar, bunyodkorlarni tabiyalashni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatni

rivojlantirish, yuksak aql-zakovat egasi bo‘lib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg‘ulari bilan yashash, axlokiy-huquqiy burchni, mas’uliyatni teran anglashi lozim.

Mustaqillik kabi oliy ne’matni mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun yoshlarning siyosiy-ma’naviy faolligini oshirish, vatanparvarlik hoyalarini shakllantirish mazmunidan o‘rin olgan Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan tuyg‘usi, Vatan faxri kabi tushunchalarni ular ongiga singdirish lozim. Buning ta’lim muassasalarida o‘qituvchi talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini tashki etishda mustaqillik g‘oyasining mazmun-mohiyati tug‘risida ma’lumot berar ekan, avvalo talabalarda vatanparvarlik,fuqarolik tuyg‘usi, burch, mas’uliyat, faxr, iftixor birligini tarbiyalashga harakat qilmog‘i zarur. Bunda talabalarda faxr va iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda davlat ramzlari, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an’analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg‘uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsoli. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. Qizil chiziqlar – vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

Talabalarni faxr va iftixor tuyg‘ulari g‘oyasi asosida tarbiyalashda o‘ziga xos metodlar, shakllar va vositalar majud bo‘lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular quyidagi tadbirlar asosida amalga oshiriladi:

Milliy iftixor va g‘urur mavzusidagi suhbatlar: “Milliy g‘ururim – Vatan”, “Milliy o‘zlikni anglash – iftixor belgisi”, “Shaxsda faxr va iftixor tuyg‘usini qanday shakllantirish mumkin?»; “Vatanparvar talaba-yoshlar qanday bo‘lishi kerak?”; “Bayrog‘im – faxru-g‘ururim”, “Ajdodlar merosi – yuksak ma’naviyatimiz sarchashmalari”; “Milliy qadriyatlar va ma’naviyat”; “Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari”; “Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan barpo etamiz”;

Ochiq tarbiyaviy suhbatlar: Talabalar tomonidan faxr va iftixor tuyg‘ulari mohiyatining anglanish holati, ularning bu to‘g‘risidagi shaxsiy mulohazalarini aniqlashdan iborat.

Suhbat mazmunining umumiy mohiyati: faxr va iftixor tuyg‘usiga egalik shaxsning muayyan millat vakili sifatida o‘z eli, millati taqdiriga befarq bo‘lmaslik, uning taraqqiyotini ta’minlash, shuningdek, uning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini mustahkamlash va obro‘sini oshirish yo‘lida xizmat qilish sharafli burch ekanligi to‘g‘risidagi tushunchalarni talabalarda hosil qilish; ularda vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lishdek ichki zaruriyatni yuzaga keltirish.

Suhbat jarayonida yoritilishi zarur bo‘lgan tayanch tushunchalar: millat, muayyan millatga mansublik, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy o‘zlikni anglash, millat sha’ni, qadr-qimmati va obro‘si, millat taqdiri, insoniy burch.

“O‘zingni ayama, Vatan desalar...” shiori ostida **ijodiy kechalar tashkil etish**. Ushbu ijodiy kechada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so‘zi» 2017 yil 1 iyul

2. Jo‘raev N. Ma’naviyat – inson qalbining sarchashmasi. – T., Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

3. Musurmanova O. Yuqori sinf talabalari ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning shakl va metodlari. – T., Fan. 1995. - 108 b

4. Olimov Sh.Sh. “Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari”- T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015 y. -228 b

TARBIYA FANINI O’QITISH JARAYONIDA O’QUVCHILARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA QO’LLANILADIGAN SAMARALI METOD VA TRENINGLAR

Xonzafarov O.O.,
BuxDU Pedagogika va psixologiya 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: B.T.Jurayev
BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti

Tarbiya fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning ko’plab pedagogik va psixologik metodlari mavjud. Ularni “Tarbiya” fanini o’qitish jarayonida qo’llash kata samara beradi. Eng asosiysi metodlar va ularning mazmuni o’quvchilarning yoshiga, psixologik xususiyatlariga va qiziqishlariga mos bo’lishi.

Quyidagi metodlardan boshlang’ich sinf o‘quvchilarida tolerantlikni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin:

“O’zaro yordam” metodi - oqituvchi bolalar faoliyatini shunday tashkil etishi kerak:birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatda bir-birlariga yordam berish orqali muvaffaqiyatga erishish ta’minlanishi lozim.

“Roli niqob” metodi - ushbu metoddan bolalarga boshqa kishining qiyofasiga kirish va uning nomidan gapirish taklif etiladi bunda turli xildagi millat vakillarini misol qilib bolalarga ko‘rsatish mumkin.

“Tasodifiy savollar” metodi - o‘quvchilar guruhlarga bo‘linishadi va ularga vaziyat bilan bogliqlik kutilmagan savollar beriladi. Tasodifiy savollar va ularga berilgan javoblar jamoaviy tarzda muhokama qilinadi. Ushbu vaziyat tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga mos bo‘lishi lozim.

“Do’stimningning sevimli kitobi” metodi - bolalarga sinfdagi o‘rtoqlari qanday kitoblarni sevib o‘qishni topish vazifasi taklif etiladi. Bunda ular kitobdagi turli millat vakillarining so‘zlarini aytgan holatda ularga misollar keltirishadi.

“Ezgu so‘z” metodi - ushbu metod yuqoridagi ‘Do’stimning sevimli kitobi” metodi bilan deyarli bir xil. Bunda ham bolalar o‘zlari o’qigan kitoblardagi boshqa millat vakillari tomonidan ishlatilgan ibratli so‘zlarni va gaplarni aytishadi.

“Kinostudiya” metodi - bolalarga mashhur filmlardagi voqealarni o‘zlarining hayoti bilan bog’lagan holda parodiya etish vazifasi beriladi. Keyin uni tasvirlab berishga bolalar harakat qiladilar.

“Dunyo piramidasi” metodi - ushbu metodningning maqsadi shundan iboratki yer sayyorasida yashayotgan aholining milliy irqiy mansubligi xilma-xil ekanligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

“Tolerantlik o‘lkasida” metodi - ushbu metodningning maqsadi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, bolalarga tolerant fikrlashni o‘rgatish va boshqalarning huquqlarni hurmat qilishini shakllantirishdan iborat. Ushbu metod matn, hikoya, sahna ko’rinishi misolida bo’lishi mumkin.

“Kuch do’stlikda” metodi - ushbu metod orqali bolalarda millatlararo tolerantlik va kommunikativ kompitentlik rivojlantiriladi.

“Biz va olam” metodi - ushbu metod bolalarda boshqalarning his-tuyg‘ularni tushunish va ularda empatiya qobiliyatini shakllantirishda xizmat qiladi.

Shular bilan bir qatorda yuqori sinf o‘quvchilarida tarbiya fanini o’qitish jarayonida tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Muammoli vaziyatdagi suhbat. Ushbu suhbat turi o’quvchilar bilan tahliliy izlanishli tarzda olib boriladi. Savol-javob ni tashkil etishda quyidagi qonun-qoidalarni hisobga olish zarur.

1. Savollar o‘quvchilarning yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim.
2. Savollarning mazmuni qaytarilmasligi lozim.
3. Savollar mazmuni o‘zaro bir-biri bilan bogliq bolishi kerak.

Tolerantlikning xilma-xil turlarini inobatga olgan holatda suhbatni quyidagi ko‘rinishda amalga oshirish mumkin.

Kommunikativ tolerantlikni shakllantirish uchun quyidagi muammoli savollardan foydalaniladi:

1.Nega odamlar muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar?

2.Boshqalarning fikr-mulohazalarini diqqat bilan eshita olish uchun insonda qanday sifatlar mavjud bo‘lishi kerak?

3.Sizga qanday holatda suhbatdoshingizning fikrini tinglash qiyinchilik tugdiradi?

4.Nima uchun ba’zi odamlar o‘zlarining fikrlariga qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?

5.Insonlar do'st bo‘lishi uchun albatta bir xil yoshda bo‘lishi kerakmi?

6.Ikki inson bir birini yoqtirmasa do‘st bo‘la oladimi?

7.Do'stlarlar bir-biriga yolg‘on gapira oladimi?

Madaniy tolerantlikni shakllantirish jarayonida quyidagi muammoli savollarni hal etishga e’tibor qaratilishi lozim.

1.Milliy madaniyatning umumbashariy ahamiyati qaysi jihatlarda namoyon bo‘ladi?

2.Madaniy jihatdan turli-tumanlik sizningcha ijobiymi yoki salbiymi?

3.Submadaniyatni qadriyat sifatida qabul qilish mumkinmi?

Gender tolerantlika oid suhbatlarda quyidagi savollar muhokama qilinadi:

1.Nega boshqa jins vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerak?

2.O‘g‘il bolalarning qizlarga nisbatan o‘zlarini ustun qo‘yishlari to’g’rimi?

3.Boshqa jins vakillari haqida ma’lumotga ega bo‘lishning zaruriyati nimada?

Diniy tolerantlikni shakllantirish jarayonida quyidagi savollarga javob olinadi:

1.Dinlarning umumiy jihatlari nimalardan iborat?

2.Boshqa dinga e’tiqod qiluvchi kishilarni o‘z diniga da’vat etish to’g’rimi?

3.O’zga din vakillariga nisbatan toqatli bo‘lish uchun inson o‘zida qanday sifatlarni shakllantirish kerak?

Munozara metodi - bahslashishni talab etuvchi metodlardan biri munozarani tashkil etishdan oldin o‘quvchilarga quyidagi ko‘rsatmalar eslatib o‘tiladi:

1.Muammoni muhokama qilish uchun shay va tayyor bo‘ling muammoning mazmunini va mohiyatini anglab oling.

2.Muammo yuzasidan o’z fikrlaringizni bildiring va boshqalarga ham o‘z fikrlarini bildirishlari uchun imkon bering.

3.Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarni diqqat bilan tinglang.

4.So‘zlayotgan o‘quvchini chalg‘itmang, ma’qul deb topmagan fikrlaringizni belgilab boring va so‘zga chiqish uchun ruxsat so‘rang.

5.Boshqalarning shaxsini va fikrlarini xurmat qiling, boshqalarning fikrlariga e’tiborli va tolerant bo‘ling.

6.G‘oyalarni tanqid qiling, ammo so‘zga chiqqan kishini emas. Shaxsiyat bilan bog’liq jumlalarni ishlatmang.

7.Munozara ishtirokchilari qabul qilgan qarorlarni hisobga oling, boshqalarning fikrlarini qadrlang.

8.Istalgan yo’l bilan bahsda g‘alaba qozonishga harakat qilmang.

9.Albatta yakuniy xulosaga va qarorga keeling.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi mavzulardagi munozaralar o‘tkazish maqsadga muvofiq:

1. “Tolerantlik ko‘rinishlari va namoyon bo‘lishi”.
2. “Dinlararo tolerantlik”.
3. “Muqaddas islom dini - bag‘rikenglik dinidir”.
4. “Bizning jamiyatimiz tabaqalariga bo‘linmasligi lozim”.
5.“Irqiy kamsitish - insonni xo'rlashning qo‘pol ko‘rinishi”.

O’quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi o‘yinli metodlardan foydalanish mumkin.

“Juftlik asosida tanishuv” o’yini - ushbu o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilar guruhini juftliklarga bo‘ladi va juftlar bir-biriga o‘zlari haqida gapirib berishadi. Keyinchalik esa ular o‘zlarining juftlarni tanishtirib berishadi.

Tushuntirish metodi - ta’limning og‘zaki shakliga xos bo‘lgan va barcha yoshdagi o‘quvchilarga mos bo‘lgan universal metod hisoblanadi. Ushbu metod orqali analiz (tahlil etish), sintez (umumiylashtirish), induksiya (umumiydan xususiyga qarab borish) va deduksiyasiya (xususiydan umumiyga qarab borish) usullari amalga oshiriladi. Ushbu metod orqali o‘quvchi-yoshlarga tolerantlik, tolerantlikning turlari, tolerantlikning tarixiy asoslari va bugungi kunda tolerantlikning ahamiyati haqida bilimlar beriladi.

Ta’limning faol metodlardan hisoblangan trening metodi tolerantlikni rivojlantirish uchun quyidagicha foydalaniladi:

Aloqa treninggi. Jamoaviy hikoya tuzish treninggi.

Treningning maqsadi:

1.O‘quvchilarni bir-biri bilan tanishtirish.

2.O‘quvchilar orasida do‘stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish.

3.O‘quvchilarga o‘rtadagi ruhiy to‘siqlarni yengishni o‘rgatish.

Treningni o‘tkazish tartibi: Mashg‘ulot boshlanishidan oldin o‘quvchilar raqamlangan qog’ozlardan birini tanlab olishadi. Raqamlar sinfdagi o‘quvchilar soni bilan bir xil tayyorlanadi. O’quvchilar doira ko‘rinishida tayyorlangan stollarga borib o‘tirishadi. O’quvchilar joylarini egallagach, o‘qituvchi hikoya mavzusini ular bilan kelishib oladi yoki biron bir mavzuni taklif etadi. Hikoya mavzusi o‘quvchilarning yoshiga qiziqishlariga mos bo‘lib, sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-axloqi, tolerantlik madaniyatiga mos bo‘lishi kerak.

O’qituvchi hikoya aytishni o‘zi boshlab beradi va ancha vaqtdan keyin hikoyani davom ettirishni birinchi o‘quvchidan so’raydi. Birinchi o’quvchi hikoyani ozgina so‘zlab bergach, hikoyani davom ettirish navbatdagi o‘quvchiga beriladi. O‘zlarining kartochkalaridagi raqamlarga ko‘ra o’quvchilar hikoyani davom ettirib ketishadi. O’qituvchi hikoyaning mazmun-mohiyati mavzu doirasida bo‘lishini kuzatib boradi va mavzudan chetlashishlar yuzaga kelganda buni to’g’rilab boradi. Ushbu treningda davradagi barcha o‘quvchilar hikoyani davom etishlari lozim.

Hikoya tuzilgach o‘qituvchi barchaga o‘z minnatdorchiligini bildiradi va o‘quvchilarga kerakli tavsiyalarni beradi.

Qadam-baqadam treninggi.

Treningning maqsadi: o’quvchilarning tolerant xulq-atvorni egallaganlik darajasini aniqlash.

Treningni o‘tkazishning tartibi: ushbu mashg‘ulot qadam-baqadam usuli asosida amalga oshiriladi, ya’ni trening 6 ta qadamdan iborat bo‘lib, har bir qadamda o’quvchilar qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanishadi. Masalan: bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni aytishadi. So‘zlar esa trening mavzusi yoki tolerantlika bag’ishlangan bo‘lishi kerak.

Birinchi qadam: o‘qituvchi tomonidan har bir o‘quvchiga kartochka tarqatiladi. Kartochkada yozilgan so’zlarning antonimini o’quvchilar topishlari lozim. Masalan: Hamdardlik , rahmdillik, ochiq ko‘ngillilik, insonparvarlik, ziyraklik, sahovat, adolat, erkinlik.

Ikkinchi qadam: O’qituvchi o'quvchilardan har bir so’zlarga tarif berishlarini so‘raydi.

Uchinchi qadam: o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va o‘quvchilar keltirilgan so‘zlar orqali ertak yoki hikoya tuzishadi.

To‘rtinchi qadam: o’quvchilar guruhlarning hikoyalari yoki ertaklari yuzasidan bir-birlari bilan savol-javoblar otkazishadi.

Beshinchi qadam: o‘qituvchi tomonidan guruhlarning ishlari baholanadi.

Oltinchi qadam: o‘qituvchi barchaga o’z tashakkurini bildirib, treningni yakunlaydi.

Panorama treninggi.

Treningning maqsadi: o‘quvchilarga aniq bir muammoga yakka holda yoki guruh bilan fikr yuritib, hal etish, yechim topish orgatiladi.

Treningni o‘tkazish tartibi: Trening boshlanishidan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga tolerantlik madaniyati haqida, unga ta’sir etuvchi salbiy omillar haqida ma’lumot beradi. Undan so‘ng guruhni kichik guruhlarga bo‘ladi. Guruhlar 4-5 tadan iborat bo‘lib har birining tarkibida uch yoki besh tadan o‘quvchi bo‘lishi zarur. Keyinchalik esa oldindan tayyorlangan maxsus kartochkalar guruhlarga tarqatiladi. Har bir kartochkada muammoli vaziyat bayon etilgan bo‘ladi. Shu tariqa o’quvchilar guruh bo‘lib ishlay oldimi yoqmi uni oldindan ko‘ra olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1059-son qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqichamaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qarori.

3.Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. Tuz.: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. – T.: TDPU, 2013.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: «Iste’dod» jamg‘armasi, 2008.

5.Sh.Sh.Olimov,I.A.Xajiyeva,B.T.Jurayev,M.A.Jumayeva Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitish metodikasi kitobi. – T.: “Kamolot” nashriyoti 2022.

MUNDARIJA

О.Х. Хамидов. ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ОЛИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 3

1-ШЎЪБА: СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ЙЎЛИДА РАҚОБАТБАРДОШ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ 5

А.С.Гаязов, А.А.Гаязов, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ПИТЧИНГ» В УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ 5

B.R.Adizov, PEDAGOGNING KASBIY PROFESSIONALLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 9

Sh.Sh.Olimov, OLIY TA”LIM TIZIMIDA YANGI TA”LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 11

Сафаралиев Б. С., Мазурова И. К. К РАССМОТРЕНИЮ ОСОБЕННОСТЕЙ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И КРИТЕРИИ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ 15

Рыбакова Е.В., Рыбаков Д.Г. УСЛОВИЯ ВЗРЫВНОЙ САМОАКТУАЛИЗАЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ВЫСШЕГО ЗВЕНА ОБРАЗОВАНИЯ 20

Olimov Shirinboy Sharofovich, Sadullayev Ibrat Shuxratovich. ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION FOR STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 24

Мусаева Нодира Низомовна. ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ 28

Рыбакова Е.В., Султанова Р.М., Гаязова Г.А. ДИАЛЕКТИКА СОЦИАЛЬНОГО ОТРАЖЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ЕВГЕНИКИ В СИСТЕМЕ АНАЛИТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ-ДЕФЕКТОЛОГОВ 30

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna. AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O’QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH 34

Nasirova Shaira Narmuradovna, Khalikov Muhriddin Mardikulovich, Isakov Abror Fakhriddinovich. CHARACTERISTICS OF TECHNOLOGICAL ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS 36

Ergashov Mansur Yarashovich. THE ROLE OF DISTANCE EDUCATION IN MODERN EDUCATION SYSTEM 38

Muslima Bozorova, TALABALARDA ETNOPEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH 40

Boltaeva Zulfiya Zarifovna, APPLICATION OF ELEMENTS OF RESEARCH ACTIVITY IN CLASSES WITH UNIVERSITY STUDENTS 43

Sadullayev Ibrat Shuxratovich. STRATEGIES FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN THE FORM OF CORRESPONDENCE EDUCATION 45

N.E.Azimova, TA`LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA ULARNING DIDAKTIKADA RIVOJLANISHI 48

Qurbonova O‘lmasoy Usmonovna, SIFATLI TA’LIM YO‘LIDA RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS KADRLARNI TAYYORLASHNING INNOVATSION YO‘LLARI 50

M.A.Jumayeva, BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASH 53

Gasanova Rushana, OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARNI TADBIRKORLIKKA YO'NALTIRIB O'QITISHDA KASBIY -PEDAGOGIK MAHORATI . 56

Sharapov Shukhrat Shokirovich. THE RIGHT TO EDUCATION AS A MEANS OF DEVELOPING A LIFELONG EDUCATION SYSTEM: INTERNATIONAL EXPERIENCE 58

Shaydullayeva Kamola Shapulatovna. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI 60

M.A.Jumayeva, BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI 62
Sharapov Shuxrat Shokirovich. TA'LIM OLISH HUQUQI O'ZBEKISTONDA UMRBOD TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA 65
Katayeva Saodat Abduraxim qizi, KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI VA UNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI 67
M.A.Jumayeva, Asatova Mohichehra, BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN PROFESSOR O'QITUVCHILARNING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATI 69
Nekiyeva Umida Nematovna, BO'LAJAK O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI 71
Ismailov Murodulla Kaxramonovich. BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARIDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI 75
Rasulova Zilola Durdimurotovna. INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI 77
Nematova Nigina Nabiyevna, BO'LAJAK ZAMOVIY O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 80
Zilola Tosheva, ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI 83
Boboyev Maqsud Mahmudovich. ASSESSMENT FOR STUDENTS 21 st CENTURY SKILLS 86
Sharipova Sitora Xaydarovna, OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 88
Samiyeva Shakhnoz Xikmatovna. IMPORTANT WAYS TO USE NEUROPEDAGOGICAL KNOWLEDGE IN TEACHING 94
Имамкулов Расул Рахманович, ПРОБЛЕМЫ ТЕХНОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА 96
N.B.Ismatova, Sh.Sh.Sharopov. BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYORLASHDA KOMPETENTLIK YONDOSHUVNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH 100
Лукмонова Саломат Гафуровна. ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ 104
Yu.Z.Saidova. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MA'NAVIYAT SOATLARI"NI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI 107
N.B.Ismatova, TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR 109
Норбаев Бахтиёр. CONDITIONS FOR EFFECTIVE SOCIO-EDUCATIONAL INTEGRATION OF STUDENTS INTO A FOREIGN LANGUAGE ENVIRONMENT 115
Shabon Muxamadovna Farmonova. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH 117
Русакова Н.Н. ОПЫТ ТРАНСПОЛЯЦИИ СИСТЕМЫ РАЗВИВАЮЩИХ СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗЛИЧНЫЕ УРОВНИ И ТИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ 120
Хусенова Фарангис, Султанова Р.М. ВЛАДЕНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКОЙ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ИНОЯЗЫЧНОМ ДИДАКТИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ 122
Юнусова Раъно Гайбуллаевна. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ 124

2-ШЎЪБА: ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИ: ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ 130
Степанова Т.П. К РАССМОТРЕНИЮ УСЛОВИЙ ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИВАЮЩЕГО ДОСУГОВОГО ОБЩЕНИЯ 130
Турсунова М. Г., Тайгуншоева Ч. С. К ИЗУЧЕНИИ СУЩНОСТИ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ: ПОНЯТИЯ, СУЩНОСТЬ, КРИТЕРИИ 134
Shabon Muxamadovna Farmonova, BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH 139
Пегушина Ю.А. ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ФЕСТИВАЛЯ, НАПРАВЛЕННАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИМИДЖА УЧРЕЖДЕНИЯ КУЛЬТУРЫ 142
Садовникова В. В., Сафаралиев Б.С. ПРАКТИКА ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ УЧРЕЖДЕНИЙ КУЛЬТУРЫ 147
Kenjaboyev Abdisalim Erkaboyevich. UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARDA MA’NAVIY-MARIFIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI 151
Самиев Асроридин Сайфидинович, ИМОМ АЛ-БУХОРИЙ МУҲАДДИСЛАР ПЕШВОСИ ВА МАЪРИФАТ АСОСЧИСИ 153
Mehribo Jumayeva Abduvohitovna, JADID MA’RIFATPARVARLARINING ILMIY MEROSINI O'RGANISH VA UNDAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI 155
Mirzayev M. J. TALABA-YOSHLAR MA’NAVIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY SHAKL VA USULLARI. 157
Nurulloyev Laziz Latipovich. HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 160
Ismatova Halovat Baxtiyorovna, O`SMIRLARDA TARBIYASI QIYINLIK TIPALOGIYASI VA ULARDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXALAGIK USULLARI 162
Ortiqov O.R. AJDODLARIMIZ MEROSI TALABALAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH OMILI 165
Saidnazarova Gulshan Bolta kizi. THE CONTENT OF STUDYING SPIRITUAL AND MORAL THOUGHTS IN IMAM ISMAIL AL-BUKHARI'S WORK "AL ADAB AL MUFRAD" 167
Qodirova Mohidil Namozovna, O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI 170
Umarova Sitora Muxlisovna, ABOUT PERSIAN-TAJIK POET AND SATIRIST UBAID ZAKANI 172
Shabon Muxamadovna Farmonova. TA’LIM MAZMUNI KONTEKSTIDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILARNING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH 174
Raximova Feruza Farxodovna, BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI 176
Г.Г.Хабибова, ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕНЫХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЕЖЫ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ. 178
Ш.У.Исматов, ЖАДИДЛАРИМИЗ ФАОЛИЯТИ - ЮРТГА ФИДОЙИЙЛИК ТИМСОЛИ СИФАТИДА 181

3-ШЎЪБА: ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ 185
Avezov Olmos Ravshanovich, Xoliqov Soib Orifovich, MUSTAQIL ISH TALABALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING ENG MUHIM ELEMENTI SIFATIDA 185
Juraev Bobomurod Tojievich, TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI 188

Berdiyeva Ro‘zixol Allayorovna, OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI 191
Beknazarova Dilafruz Amirovna, TALABALARNING MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI 193
M.N.Amonov, MUSTAQIL TA’LIM OLISH VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR 196

4-ШЎЪБА: УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ҲАМКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 199
Коппнова Н. В. К ВОПРОСУ МОДЕЛИ САМОУПРАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ УЧРЕЖДЕНИЙ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ 199
Исроилова Мукаддас Шониёр кизи, Рыбакова Елена Владимировна. АСПЕКТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧЕВОЙ ФУНКЦИИ 202
Alimov Alisher Yarashevich, UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI HAMKORLIGI MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILIDIR 209
Aslanova Nozima Khakimovna. THE TECHNOLOGY OF APPLYING THE "4 K" MODEL IN PRIMARY EDUCATION 211
Eliboyeva Lola Suleymanovna. BO’SH O’ZLASHTIRUVCHI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MAZMUNI 214
Коннова В.Д., Рыбакова Елена Владимировна. РИСОВАНИЕ ПОД ДИКТОВКУ КАК КОМПОНЕНТ САМОБЫТНОГО РАЗВИТИЯ РЕБЁНКА 217
Jabborova O’g’iloy G’ani qizi, M.Yo.Umurova. TARBIYA FANINI O’QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI 219
O.O.Xonzafarov, B.T.Jurayev. TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA 221
Azimova Umida Latipovna, BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUVCHILARNING OG’ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI 223
Ashurova Dildora G‘afurovna, TIL O'RGANISHDA SAMARALI STRATEGIYALAR VA HAMKORLIKDA O'RGANISHNING AHAMIYATI 226
Bozorova Nozigul Ramazonovna, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY EHTIYOJLARI VA KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI 229
Dilrabo Fayzulloyeva Rahmonovna, BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING O’QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI 234
Jumaeva Khanifa Gaforovna, WAYS TO DETERMINE TALENTED CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION 236
Murodova M.M. BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRASIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH 240
Mustafoyeva Dilnoza, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA O’RGATISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARINING O‘RNI 242
Ostonova Umida Usmonovna, AQLI ZAIF MAKTAB O‘QUVCHILARINING RIVOJLANISHIDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI 244
D.J.Qo‘chqorova, AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JONDOR TUMAN TARIXINI O’RGANISHGA OID ASARLARNI GEOGRAFIK TAHLIL QILISH 246
M.M.Rashidova. BOSHLANG’ICH SINFLARDA “LOYIHA ISHI “INTERFAOL USULI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI 248
Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING O'RNI 250
Sayitnazarova G. BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 252

Sirojova Shokhida Niyozovna, METHODS OF PSYCHOLOGICAL WORK WITH SECONDARY SCHOOL STUDENTS 254
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna, BOSHLANG'ICH SINF MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINI O'RGANISH METODIKASI 257
Yodgorov Bobirjon Turobovich, O.R.Avezov. UZLUKSIZ TALIM TIZIMIDA BO`LG`USI PEDAGOGLARNI O`SMIRLARDA O`QUV FAOLIYATI MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 260
Nasimova Z.I. SHAXS RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI 263
Sharopov Sh.Sh. GRICE MAKSIMALARINING QISQACHA SHARHI VA MAZMUNI 265
Mekhmonova Nigina Fakhritdinovna. CRITERIA OF ARTISTRY IN LITERATURE 266
Sharopov Dilshod Shirinboevich, BAYROG'IM – FAXRU-G'URURIM 269
Xonzafarov O.O., B.T.Jurayev. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN SAMARALI METOD VA TRENINGLAR 271